

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

# **ILM SARCHASHMALARI**

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.*

**11.2023**

**Ilmiy-nazariy, metodik jurnal**  
*2001-yildan nashr qilina boshlagan*

**Urganch – 2023**

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent **YO'LDOSHEV Ro'zimboy**

**TAHRIR HAY'ATI:**

**ABDULLAYEV Bahrom**, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),  
**ABDULLAYEV Ravshanbek**, tibbiyot fanlari doktori, professor (TATU UF),  
**ABDULLAYEV O'tkir**, tarix fanlari doktori (UrDU),  
**ATADJANOV Ilxam**, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),  
**ATAYEV Shokir**, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),  
**BERDIMUROTOVA Alima**, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),  
**DAVLETOV Sanjarbek**, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),  
**DO'SCHONOV Tangribergan**, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),  
**ERMETOVA Jamila**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),  
**HAJIYEVA Maqsuda**, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),  
**IBRAGIMOV Zafar**, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (PhD, UrDU),  
**IMOMQULOV Sevdiyor**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),  
**JUMANAZAROV Doniyor**, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),  
**JUMANIYAZOV Maqsud**, texnika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**JUMANIYOZOV Otaboy**, filologiya fanlari nomzodi, professor (UrDU),  
**KALANDAROV Aybek**, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, mas'ul kotib, UrDU),  
**KAVALYAUSKAS Vidas**, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),  
**NAVRUZOV Qurolboy**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**OTAMURODOV Sa'dulla**, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),  
**PRIMOV Azamat**, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (UrDU),  
**QUTLIYEV Uchqun**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**RUZMETOV Surojbek**, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),  
**RO'ZIYEV Erkinboy**, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**SADULLAYEV Azimboy**, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O'zMU),  
**SADULLAYEVA Nilufar Azimovna**, filologiya fanlari doktori (O'zMU),  
**SALAYEV San'atbek**, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),  
**SALAYEVA Muxabbat Soburovna**, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**SATIPOV G'oiptazar**, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor (UrDU),  
**XODJANIYOZOV Sardor**, pedagogika fanlari doktori, dotsent (bosh muharrir o'rinbosari, UrDU),  
**YAKUBOV Jamoliddin**, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),  
**O'ROZBOYEV Abdulla**, filologiya fanlari doktori (UrDU),  
**O'ROZBOYEV G'ayrat**, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),  
**G'AYIPOV Dilshod**, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL  
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI• 2023 11 (198)**

**MUASSIS:** Urganch davlat universiteti•Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro'yxatdan o'tgan•**GUVOHNOMA № 1131.**

Iskandarov Sarvar Baltabayevich (Urganch davlat universiteti “Matematik tahlil” kafedrası o‘qituvchisi; e-mail: [sarvar.i@urdu.uz](mailto:sarvar.i@urdu.uz))

**KATTA SONLAR FUNKSIYASI USULINING ASIMPTOTIK ANALIZDAGI TATBIQLARI.  
LAPLAS USULI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada asimptotik formula shuni tasdiqlaydiki, funksiyaning katta sondagi darajasi integralining qiymati ko‘paytuvchilar soni ortib borishi bilan funksiya maksimumining shu sondagi darajasiga proporsional ravishda o‘zgarib boradi.

**Аннотация.** В данной статье асимптотическая формула подтверждает, что значение интеграла от степени большого числа функций изменяется пропорционально степени максимума функции по мере увеличения числа множителей.

**Annotation.** In this article, the Asymptotic formula confirms that the value of the integral of the degree of a large number of functions changes proportionally to the degree of the maximum of the function as the number of multipliers increases.

**Kalit so‘zlar:** katta sonlar funksiyasi, Laplas usuli, katta sonlar funksiya uzuksizligi, asimptotik analiz, Stirling-Lejandr formulasi, Vallis formulasi.

**Ключевые слова:** функция больших чисел, метод Лапласа, колецевые функции больших чисел, асимптотический анализ, формула Стирлинга-Лежандра, формула Валлиса.

**Key words:** function of large numbers, Laplace’s method, continuity of function of large numbers, asymptotic analysis, Stirling-Legendre formula, Vallis formula.

Ushbu ish Laplasning katta sonlar funksiyasi usuliga bag‘ishlangan. Mazkur holatda

$$\int_a^b \varphi(x)[f(x)]^n dx$$

ko‘rinishdagi integralning asimptotik qiymatini o‘rganamiz. Bunda ushbu lemma muhim ahamiyat kasb etadi.

**Lemma.** Biror haqiqiy  $a$  va  $b$  sonlar va musbat  $k$  o‘zgarmas sonlar berilgan bo‘lsin. U holda ixtiyoriy  $c \in (a, b)$  soni uchun  $n \rightarrow \infty$  da ushbu

$$\int_a^b e^{-kn(x-c)^2} dx \sim \sqrt{\frac{\pi}{kn}} \quad (1)$$

asimptotik formula o‘rinli.

Ishimizning asosiy natijasini quyidagi teoremda keltiramiz:

**Teorema 1.** Biror chekli  $[a; b]$  oraliqda aniqlangan  $\varphi(x)$ ,  $h(x)$ ,  $f(x) = e^{h(x)}$  funksiyalar berilgan bo‘lib, bu funksiyalarga nisbatan quyidagi shartlar bajarilsin:

- 1)  $\varphi(x)$  – chegaralangan,  $h(x)$  – uzluksiz;
- 2) biror  $c \in (a; b)$  nuqtada  $h(x)$  funksiya maksimumga erishsin;
- 3)  $c$  nuqtaning biror atrofida  $h''(x)$  uzluksiz va  $h''(c) < 0$ ;
- 4)  $\lim_{x \rightarrow c} \varphi(x) = \varphi(c) \neq 0$ .

U holda  $n \rightarrow \infty$  da ushbu

$$\int_a^b \varphi(x)[f(x)]^n dx \sim \varphi(c)[f(c)]^{n+\frac{1}{2}} \sqrt{-\frac{2\pi}{nf''(c)}}$$

$$\sim \varphi(c)e^{nh(c)} \sqrt{-\frac{2\pi}{nh''(c)}}$$

asimptotik formula o'rinli.

**Isbot.** Ixtiyoriy istalgancha kichik  $\varepsilon > 0$  sonni olaylik. Bu tanlangan songa ko'ra,  $\delta > 0$  sonni shunday kichik tanlash mumkinki,  $a < c - \delta < c + \delta < b$  tengsizliklar bajarilishi bilan birga  $|x - c| < \delta$  shartga bo'ysunuvchi barcha  $x$  qiymatlar uchun ushbu

$$\begin{aligned} |\varphi(x) - \varphi(c)| &< \varepsilon \\ |h''(x) - h''(c)| &< \varepsilon \end{aligned}$$

tengsizliklar o'rinli bo'lsin. Yuqoridagi tengsizliklar  $c$  nuqtada  $\varphi(x)$  va  $h''(x)$  funksiyalarning uzluksiz bo'lish shartiga ko'ra o'rinli bo'ladi.

Yuqorida tanlangan  $\delta > 0$  soni bo'yicha  $[a; b]$  oraliqni quyidagicha ikki qismga bo'lamiz:

$$[a; b] = \{x : |x - c| < \delta\} \cup \{x : |x - c| \geq \delta\}.$$

Endi esa ushbu

$$\varphi(x) \exp\{n[h(x) - h(c)]\}$$

funksiyaning  $[a; b]$  oraliq bo'yicha olingan aniq integralini quyidagicha ikki qo'shiluvchiga ajratib olamiz:

$$\begin{aligned} \int_a^b \varphi(x) e^{n[h(x) - h(c)]} dx &= \int_{|x-c| < \delta} \varphi(x) e^{n[h(x) - h(c)]} dx + \\ &+ \int_{|x-c| \geq \delta} \varphi(x) e^{n[h(x) - h(c)]} dx =: I_n^{(1)} + I_n^{(2)}. \end{aligned} \quad (2)$$

Dastlab,  $I_n^{(2)}$  integralni baholaymiz. Buning uchun ushbu

$$W(x) := h(x) - h(c)$$

funksiyani qaraylik. Teorema shartiga ko'ra,  $h(x) \in C[a; b]$ . Shu sababli  $W(x)$  funksiya  $\{x : |x - c| \geq \delta\} \cap [a; b]$  yopiq to'plamda ham uzluksiz. Yana teorema shartiga ko'ra,  $h(c) = \max\{h(x)\}$ . Bundan esa  $W(x)$  funksiyaning nomanfiy ekanligi kelib chiqadi, ya'ni

$$W(x) = h(x) - h(c) \leq 0.$$

U holda deyarli ravshanki,

$$\sup\{W(x) : |x - c| \geq \delta\} = W < 0.$$

Oxirgi baho  $W(x)$  funksiyaning  $\{x : |x - c| \geq \delta\} \cap [a; b]$  to'plamdagi eng yuqori chegarasi manfiy ekanligini bildiradi. Ikkinchi tomondan,  $W(x)$  funksiya uzluksiz ekanligidan, Veyershtstrasning ikkinchi teoremasiga ko'ra,  $\{x : |x - c| \geq \delta\} \cap [a; b]$  to'plamda o'zining eng katta qiymatiga erishadi. Bu qiymat

$$W = \max\{W(x) : x \in \{x : |x - c| \geq \delta\} \cap [a; b]\}.$$

Shunday qilib, har doim  $h(x) - h(c) < W$  va eksponensial funksiyaning xususiyatiga ko'ra,

$$0 < e^{n[h(x) - h(c)]} < e^{nW}. \quad (3)$$

Agar  $\alpha := e^W$  belgilash kiritsak,  $W < 0$  ekanligidan  $0 < \alpha < 1$  va

$$e^{nW} = \alpha^n \rightarrow 0, \quad n \rightarrow \infty.$$

U holda (3) tengsizliklarga ko'ra,  $x \in \{x : |x - c| \geq \delta\} \cap [a; b]$  uchun ushbu

$$\sup_x \left\{ e^{n[h(x) - h(c)]} \right\} = O(\alpha^n), \quad n \rightarrow \infty \quad (4)$$

asimptotik bahoni olamiz.

Teorema shartiga ko'ra,  $\varphi(x)$  funksiya yopiq  $\{x : |x - c| \geq \delta\} \cap [a; b]$  to'plamda uzluksiz. U holda o'rta qiymat haqidagi teorema ko'ra, quyidagi tengliklar zanjirini hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} I_n^{(2)} &= \int_{|x-c| \geq \delta} \varphi(x) e^{n[h(x) - h(c)]} dx \\ &= \int_a^{c-\delta} \varphi(x) e^{n[h(x) - h(c)]} dx + \int_{c+\delta}^b \varphi(x) e^{n[h(x) - h(c)]} dx \\ &= \varphi(\tau_1) \int_a^{c-\delta} e^{nW(x)} dx + \varphi(\tau_2) \int_{c+\delta}^b e^{nW(x)} dx, \end{aligned}$$

bu yerda  $\tau_1$  va  $\tau_2$  oraliq qiymatlar bo'lib,  $a < \tau_1 < c - \delta$  va  $c - \delta < \tau_2 < b$ . Bu qiy-matlarda  $\varphi(x)$  funksiya, umuman olganda, turli qiymatlarga erishadi. Shuning uchun ushbu

$$\varphi(\tau) := \max \{ \varphi(\tau_1), \varphi(\tau_2) \}$$

belgilashni kiritib olamiz (agar  $\varphi(\tau_1) = \varphi(\tau_2)$  bo'lsa,  $\varphi(\tau) := \varphi(\tau_1)$  deb olamiz). U holda  $I_n^{(2)}$  integralning oxirgi ifodasidan dan quyidagi tengsizlikka kelamiz:

$$\begin{aligned} I_n^{(2)} &\leq \varphi(\tau) \int_a^{c-\delta} e^{nW(x)} dx + \varphi(\tau) \int_{c+\delta}^b e^{nW(x)} dx \\ &\leq \varphi(\tau) \int_{|x-c| \geq \delta} e^{nW(x)} dx. \end{aligned} \quad (5)$$

Endi (3)–(5) munosabatlarni birgalikda qarasaq, ushbu

$$\begin{aligned} I_n^{(2)} &\leq \varphi(\tau) \int_{|x-c| \geq \delta} e^{nW(x)} dx < \varphi(\tau) \int_{|x-c| \geq \delta} e^{nW} dx \\ &< \varphi(\tau) e^{nW} \int_{|x-c| \geq \delta} dx < \varphi(\tau) e^{nW} \int_a^b dx \\ &< \varphi(\tau) (b - a) e^{nW} = O(\alpha^n), \quad n \rightarrow \infty \end{aligned}$$

munosabatlarni hosil qilamiz, bu yerda, ma'lumki,  $0 < \alpha < 1$ . Shunday qilib,

$$I_n^{(2)} = O(\alpha^n) \rightarrow 0, \quad n \rightarrow \infty. \quad (6)$$

Endi  $I_n^{(1)}$  integralni baholash bilan shug'ullanamiz. Yana o'rta qiymat haqidagi teoremdan foydalanamiz. Bu teorema ko'ra,  $(c - \delta; c + \delta)$  oraliqda shunday  $\gamma$  miqdor topiladiki,

$$I_n^{(1)} = \int_{|x-c|<\delta} \varphi(x) e^{n[h(x)-h(c)]} dx = \varphi(\gamma) \int_{|x-c|<\delta} e^{n[h(x)-h(c)]} dx. \quad (7)$$

Teorema shartiga ko'ra,  $h(x)$  funksiya  $[a; b]$  sigmentda ikkinchi tartibli uzluksiz differensiallanuvchi. Shuning uchun uni  $c \in [a; b]$  nuqtaning  $|x - c| < \delta$  atrofida Teylor formulasi yordamida ushbu

$$h(x) = h(c) + h'(c)(x - c) + \frac{1}{2} h''(\xi)(x - c)^2$$

ko'rinishda yozib olamiz, bu yerda  $c - \delta < c < \xi < x < c + \delta$ . Ikkinchi tomondan shartga ko'ra,  $h(c) = \max \{h(x) : x \in [a; b]\}$ , ya'ni Ferma teoremasiga ko'ra,  $h'(c) = 0$ . U holda

$$h(x) - h(c) = \frac{1}{2} (x - c)^2 h''(\xi).$$

Oxirgi tenglikni (7) formulaga olib borib qo'ysak, ushbu

$$I_n^{(1)} = \varphi(\gamma) \int_{|x-c|<\delta} e^{n(x-c)^2 h''(\xi)/2} dx \quad (8)$$

munosabatni olamiz. Topilgan (8) tenglikning o'ng tomonidagi integral,  $\int_a^b e^{-kn(x-c)^2} dx \sim \sqrt{\frac{\pi}{kn}}$  assimptotaga ko'ra,  $n \rightarrow \infty$  da yaqinlashuvchidir.

Dastlabki mulohazalarimizga ko'ra,  $|x - c| < \delta$  to'plamda ixtiyoriy  $\gamma \in (c - \delta; c + \delta)$  qiymatlar uchun ushbu

$$\begin{aligned} \varphi(c) - \varepsilon &< \varphi(\gamma) < \varphi(c) + \varepsilon \\ h''(c) - \varepsilon &< h''(\xi) < h''(c) + \varepsilon \end{aligned}$$

tensizliklarning bajarilishi ravshan. U holda (8) tenglikka ko'ra,  $I_n^{(1)}$  integral quyidan va yuqoridan mos ravishda

$$[\varphi(c) - \varepsilon] \int_{|x-c|<\delta} e^{n(x-c)^2 [h''(c)-\varepsilon]/2} dx \quad (9)$$

va

$$[\varphi(c) + \varepsilon] \int_{|x-c|<\delta} e^{n(x-c)^2 [h''(c)+\varepsilon]/2} dx \quad (10)$$

integrallar bilan chegaralangan. Oxirgi mulohazalarimizda eksponensial funksiyaning monoton o'suvchi ekanligi e'tiborga olinadi. Shunday qilib,  $I_n^{(1)}$  integral uchun biz

$$I_n^{(1)} > [\varphi(c) - \varepsilon] \int_{|x-c|<\delta} e^{n(x-c)^2[h''(c)-\varepsilon]/2} dx \quad (10a)$$

va

$$I_n^{(1)} < [\varphi(c) + \varepsilon] \int_{|x-c|<\delta} e^{n(x-c)^2[h''(c)+\varepsilon]/2} dx \quad (10b)$$

baholarga ega bo'lamiz.

Shartga ko'ra,  $\varepsilon > 0$  soni ixtiyoriy. Shunga ko'ra, bu sonni yetarlicha kichik tanlash hisobiga (9) va (10) integrallarni bir-biriga istalgancha aniqlikda yaqinlashtirishimiz mumkin. Ikkinchi tomondan,

$k = -[h''(c) - \varepsilon]/2$  uchun  $\int_a^b e^{-kn(x-c)^2} dx \sim \sqrt{\frac{\pi}{kn}}$  asimptotik formuladan

foydalansak, (10a) tengsizlikdan quyidagi asimptotik baho kelib chiqadi:

$$I_n^{(1)} - [\varphi(c) - \varepsilon] \sqrt{\frac{2\pi}{n[h''(c) - \varepsilon]}} > K_n^{(-\varepsilon)},$$

bunda  $\lim_{n \rightarrow \infty} K_n^{(-\varepsilon)} = 0$ . Xuddi shu kabi  $\int_a^b e^{-kn(x-c)^2} dx \sim \sqrt{\frac{\pi}{kn}}$  va (10a)

munosabatlardan quyidagi bahoni hosil qilamiz:

$$I_n^{(1)} - [\varphi(c) + \varepsilon] \sqrt{-\frac{2\pi}{n[h''(c) + \varepsilon]}} < K_n^{(+\varepsilon)},$$

bunda  $\lim_{n \rightarrow \infty} K_n^{(+\varepsilon)} = 0$ . Bu munosabatlardan,  $\varepsilon > 0$  sonini nolga istalgancha yaqin tanlash hisobiga quyidagi baholarni olamiz:

$$\varphi(c) \sqrt{-\frac{2\pi}{nh''(c)}} + K_n^{(-\varepsilon)} \leq I_n^{(1)} \leq K_n^{(+\varepsilon)} + \varphi(c) \sqrt{-\frac{2\pi}{nh''(c)}}$$

yoki

$$K_n^{(-\varepsilon)} \leq I_n^{(1)} - \varphi(c) \sqrt{-\frac{2\pi}{nh''(c)}} \leq K_n^{(+\varepsilon)}.$$

Oxirgi munosabatlarni hosil qilishda tengsizliklarda limitga o'tish qoidalaridan foydalandik. Shunday qilib,  $\lim_{n \rightarrow \infty} K_n^{(\pm\varepsilon)} = 0$  ekanligidan, ushbu

$$\left| I_n^{(1)} - \varphi(c) \sqrt{-\frac{2\pi}{nh''(c)}} \right| \longrightarrow 0, \quad n \rightarrow \infty \quad (11)$$

asimptotik formulani hosil qilamiz.

Endi (2), (6) va (11) munosabatlarni birgalikda qarajak, ushbu

$$\int_a^b \varphi(x) e^{n[h(x)-h(c)]} dx \sim \varphi(c) \sqrt{-\frac{2\pi}{nh''(c)}}, \quad n \rightarrow \infty$$

asimptotik formulaga ega bo'lamiz. Oxirgi formuladan

$$\int_a^b \varphi(x)e^{nh(x)} dx \sim \varphi(c)e^{nh(c)} \sqrt{-\frac{2\pi}{nh''(c)}}, \quad n \rightarrow \infty$$

munosabat kelib chiqadi. Bu esa teorema tasdig'iga teng kuchli.

Tasdiqning  $f(x)$  funksiyaga bog'liq qismini hosil qilish uchun esa

$$f''(c) = f(c)h''(c)$$

tenglikning to'g'riligiga ishonch hosil qilish etarli. Teorema to'liq isbot bo'ldi.

**1-izoh.** 2-teoremaning tasdig'i  $[a; b]$  oraliq cheksiz bo'lgan holda ham o'rinli bo'lishiga ishonch hosil qilishimiz mumkin.

**2-izoh.** Xususiy holda, agar  $f(x)$  funksiya teorema 2 shartlarini bajarib,  $f(0) = 0$  bo'ls hamda  $\varphi(x) = (n+1)f'(x)$  funksiya  $f(x)$  ning  $(n+1)$  ta yg'indisidan iborat bo'lsa, ya'ni  $\varphi(x) = (n+1)f'(x)$  bo'lsa,

$$\int_0^c \varphi(x)[f(x)]^n dx = F'(c) \cdot [f(c)]^n \quad (12)$$

tenglikni hosil qilamiz, bu yerda

$$F(x) = \int_0^x f(t)dt.$$

Demak, 2-teoremada isbotlangan formula esa yuqoridagi (12) tenglikning asimptotik umumlashmasi qaralishi mumkin.

**3-izoh.** 2-teoremada isbotlangan asimptotik formula shuni tasdiqlaydiki, funksiyaning katta sondagi darajasi integralining qiymati ko'paytuvchilar soni ortib borishi bilan funksiya maksimumining shu sondagi darajasiga proporsional ravishda o'zgarib boradi. Shunday qilib,  $\varphi(x)[f(x)]^n$  tipdagi funksiyalar integrallarining asimptotik holatini o'rganish masalasi bu funksiya maksimumini o'rganish masalasi bilan bevosita bog'liq.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Г.Полиа, Г.Сеге, Задачи и теоремы из анализа. Ч. I, "Наука", Москва, 1978, с. 103.
2. Лаплас П. Опыт философии теории вероятностей. Перевод с фр., Москва, "ЛИБРОКОМ", 2011.
3. Фихтенгольц Г.М. Курс дифференциального и интегрального исчисления. Т. I, II, III, «Наука», М., 1970.
4. R.Engelking, General topology. Moscow, "Mir", 1986, 752 p.
5. I.Juhasz. Cardinal functions in topology—ten years later. Mathematisch Centrum Amsterdam, 1980, 213 p.
6. Боровков А.А. Теория вероятностей. «Наука», Москва, 1982.
7. Abdushukurov A., Zuparov T. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika. T., "Bo'ston". 2015, 416-bet.
8. Кельберт М.Я., Сухов Ю.М. Вероятность и статистика в примерах и задачах. Том 2, Москва, изд-во МЦНМО, 2007, 554 с.

#### Majidova Gulnoza Nurmuxamedovna (Namangan Muhandislik-qurilish instituti katta o'qituvchisi, PhD) QUYOSH FOTOELEMENTINING XARAKTERISTIKALARINING TASHQI TA'SIRLARGA SEZGIRLIGI

**Annotasiya.** Ushbu ishda quyosh fotoelementining quvvati va effektivligini elektron, kovak va fonning turli temperaturalardagi o'zgarishi, sirqish va baza qarshiliklarga bog'liqligi tahlil qilingan. Nazariya asosida bajarilgan hisob-kitoblar eksperiment asosida olingan quvvati va foydali ish koeffitsiyenti bilan solishtirilgan. Nazariy xulosalar tajriba natijalarini fizik jihatdan asoslab beradi.



**Аннотация.** В работе анализируется мощность солнечного фотоэлемента и КПД-фотоэлемента при различных температурах, её зависимость от электронного сопротивления утечек и сопротивления базы. Теоретические расчеты сравниваются мощностью и коэффициентом полезного действия гетероструктур, полученными экспериментально.

**Annotation.** The paper analyzes the power of a solar photocell and an efficiency photocell at various temperatures, from electrons to leakage resistance and base resistance. Theoretical calculations are compared with the power and efficiency of heterostructures obtained experimentally.

**Kalit so'zlar:** EYK–elektr yurituvchi kuch, baza qarshilik, sirqish qarshiligi, geteroo'tish, qizigan elektron va kovak, fotoEYK–fotoelektr yurituvchi kuch, termoEYK–termoelektr yurituvchi.

**Ключевые слова:** ЭДС–электродвижущая сила, сопротивление базы, сопротивление, утечка, горячие электроны и дырки, фотоЭДС–фотоэлектродвижущая сила, термоЭДС–термо электродвижущая сила.

**Key words:** EMF–electromotive force, base resistance, leakage resistance, hot electrons and holes, photoEMF–photoelectromotive force, thermoEMF–thermoelectromotive force.

Hozirgi kunda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya olish eng keng foydalanilayotgan talablardan biri bo'lib kelmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari orasida ko'p ishlatiladigani bu quyosh elementidir. Ya'ni, quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantirish ham arzon, ham qulay hisoblanadi.

Bugugi kunga kelib juda ko'p turdagi quyosh elementlari ixtiro qilinmoqda. Quyosh fotoelementini FIKni oshirish uchun fotoelementning quvvatini to'ldirish faktoriga bog'liqligini va VAXni o'rganish muhim rol o'ynaydi. Aynan hozirda geterostrukturali, perovskidli va organik birikmalar asosida olinayotgan fotoelementlarning effektivligini o'rganib solishtirilmoqda.

Biz ushbu ishimizda olinayotgan fotoelementlarning foydali ish koeffitsiyenti va maksimal quvvatini oshirish uchun qizigan elektron, kovak va fononlarning ta'sirini o'rganib chiqdik.

Maksimal quvvatni formulasidan [1,2,3]

$$P = JU \quad (1)$$


(1) ifodadagi  $J$ ni quyidagi ko'rinishda ifodalaymiz:  $T \neq T_e = Th$  ga teng deb olsak,

$J = J_s \left( e^{\frac{e\varphi_0}{kT} - \frac{e(\varphi_0 - U - U_1 + JRb)}{kT_e}} - 1 \right) + \frac{U}{R_u}$  ega bo'lamiz. (1) ifodani o'rniga olib borib qo'ysak,


$$P = JU = \left[ J_s \left( e^{\frac{e\varphi_0}{kT} - \frac{e(\varphi_0 - U - U_1 + JRb)}{kT_e}} - 1 \right) + \frac{U}{R_u} \right] \cdot U \quad (2)$$

ko'rinishda formula kelib chiqadi. Bu yerda  $R_b$  – baza qarshilik,  $R_u$  – sirqish qarshiligi,  $T_e$  – qizigan elektronning temperaturasi,  $T$  – fononning temperaturasi.

Tegishli qiymatlarni qo'yib, quvvatni qizishini grafiklarini olsak, quyidagicha tus olar ekan:



1-rasm. Quvvatni elektron va fononlarni qizishi tasvirlangan.



2-rasm. Quvvatni elektron va fononning qizishini tekislikdagi ko'rinishi.

p-n o'tishli quyosh fotoelementining maksimal quvvatini o'zgarishiga sabab bo'luvchi omillardan biri [4], 1–2-rasmlardan ko'rinadiki, elektron, kovak va fononlarning qizishidir [5.6]. Tok tashuvchilarni qizishi esa maksimal quvvatni kamayishiga olib kelar ekan. p-n o'tishli quyosh fotoelementining maksimal quvvatini oshirish jarayonida bularni qizib ketishini ham e'tibor olinishi kerakligini ko'rishimiz mumkin.


p-n o'tishli quyosh fotoelementining foydali ish ko'effitsiyentining elektronlar, kovaklar va fononlar haroratiga bog'liqligini ko'rib chiqaylik.

p-n o'tishli quyosh fotoelementining foydali ish ko'effitsiyenti (3) ifoda orqali hisoblaymiz.

$$\eta = \frac{J \cdot U}{P} = \frac{J_m U_m}{P}, \quad (3)$$


Bu yerda:  $P$  – fotoelementda yutilayotgan quyosh energiyasining quvvati,  $J_m$  – maksimal quvvatga to'g'ri keluvchi tok kuchi

(3) ifodaga ham mavjud qiymatlarni qo'yib, grafiklarni ko'raylik. FIKni qizigan elektronning temperaturasi bog'liqligi turli holatda ko'rinishi 3-rasmda tasvirlangan. 3 va 4-rasmlarda foydali ish ko'effitsiyenti foizlarda ifoda etilgan. FIKni qizigan elektron va panjarani qizishiga ta'siri ko'rilgan.



$T_0=300K$   $T=310K$   $T_e=310...500K$

3-rasm. FIK va qizigan elektronlar orasidagi bog'lanish grafigi.



**4-rasm. p-n o'tishli quyosh fotoelementi FIKni uch o'lchovli fazoda to'ldirish faktori, kuchlanish, elektron gazi harorati  $T_e$  ga bog'liqligi.**

Panjara haroratini oshirish yo'li bilan foydali ish koeffitsiyentini kamaytirish aksincha haroratni kamaytirish esa FIK oshirish mumkin ekan [7.9].

Harorat ortishi bilan 3–4-rasmlarda foydali ish koeffitsiyenti kamayishini ko'rishimiz mumkin. Harorat ko'tarilganda rekombinatsiya toki ortadi, to'yinish toki ortadi. To'yinish tokining ortishi dioddagi to'g'ri tokni ortishiga va oqibatda volt-amper xarakteristikani musbat kuchlanishlar uchun yuqoriga ko'tarilishiga sabab bo'ladi.

Elektron kovak gazining qizishi ham kristall panjara haroratini ko'tarilishi rekombinatsiya toklari ortishiga va buning oqibatida to'ldirish koeffitsiyentini kamayishiga olib keladi. Bu, o'z navbatida, quyosh fotoelementining foydali ish koeffitsiyenti kamayishiga sabab bo'la oladi [10–11]. p-n o'tishli dioddagi rekombinatsiya toklarining ortishiga olib keluvchi har qanday jarayon fotoelementning to'ldirish koeffitsiyenti va foydali ish koeffitsiyentini kamayishiga sabab bo'la oladi [12].

**Xulosa.** Quyosh elementi effektivligining kamayishini fizik mohiyati qo'yidagicha: elektron va kovaklar qiziganda rekombinatsiya toklari ortadi, rekombinatsiya tokining ishorasi fototokning ishorasiga teskari. Fototok yorug'lik yordamida generatsiya tokini ortiradi. Generatsiya toki bilan rekombinatsiya toklari qarama-qarshi bo'lganligi sababli elektron va kovaklarning qizishlari natijaviy tokni kamaytiradi. Oqibatda quyosh fotoelementining foydali ish koeffitsiyenti kamayadi. Hozirda tajribalarda olinayotgan fotoelementlarning maksimal quvvatini va effektivligini yanada oshishi uchun fotoelementda elektron, kovak va fononlarni qizib ketishini oldini olish choralarini ko'rish kerakligini taklif etmoqchimiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Arjvadhara P.Ali., S.M.Chitralekha J. Analysis of solar PV cell performance with changing irradiance and temperature. *Int. J. Eng. Comput. Sci* 2, 214–220, 2013.
2. Fesharaki V.J., Dehghani. M., Fesharaki J.J. The effect of temperature on photovoltaic cell efficiency. In: *Proceedings of the 1<sup>st</sup> International conference on Emerging Trends in Energy Conservation. ETEC*”, Tehran, Iran, November, p. 20–22, 2011.
3. Sabry M., Ghitas A.E. Influence of temperature on methods for determining Silicon solar cell series resistance. *J. Sol. Energy Eng.* 129, p. 331–335, 2008.
4. Arjvadhara P.Ali., S.M.Chitralekha. Analysis of solar PV cell performance with changing irradiance and temperature. *Int. J. Eng. Comput. Sci* 2, p. 214–220, 2013.
5. Fesharaki V.J., Dehghani M., Fesharaki J.J. The effect of temperature on photovoltaic cell efficiency. In: *Proceedings of the 1<sup>st</sup> International conference on Emerging Trends in Energy Conservation. ETEC* Tehran, Iran, November, p. 20–22, 2011.
6. Sabry M., Ghitas A.E. Influence of temperature on methods for determining Silicon solar cell series resistance. *J. Sol. Energy Eng.* 129, 331–335, 2008.
7. Singh P., Ravindra N.M. Temperature dependence of solar cell performance-an analysis. *Sol. Energy Mater. Sol. Cells* 101, p. 36 – 45, 2012.
8. Mengjin Yang, Yuanyuan Zhou, Yining Zeng and other. Square-Centimeter Solution-Planar Perovskite Solar Cells with Efficiency Eceeding 15. *Adv Mater*, 2015, 28 september.
9. В.Л.Бонч-Бруевич, С.Г.Калашников. *Физика полупроводников*. “Наука”, М., 1977.
10. G.Gulyamov, A.G.Gulyamov. On the tensoensitivity of p-n junction under illumination. *Semiconductors*, 2015, vol 49, p. 819 – 822.

11. Г. Гулямов, А.Г. Гулямов, Г.Н. Мажидова. Влияние деформации на фототоки в р-п-переходах. Альтернативная энергетика и экология, 2016, т. 15, с. 24 –30.

12. Г. Гулямов Г.Н., Маджидова О.Р. Мухитдинова А.Х. Суванов. Влияние магнитного поля на фотоэлектрические характеристики PN-переходного диода. Журнал оптоэлектроники лазера, 2022, т.9, № 41, с. 451 – 459.

**Abdikarimov Nabijon Ibadullaevich (UrDU tayanch doktoranti: e-mail: [nabijon.88@mail.ru](mailto:nabijon.88@mail.ru)),  
Aqmonova Laylo Qurbonboy qizi (UrDU assistent o'qituvchisi; [aqmonova@gmail.com](mailto:aqmonova@gmail.com)),  
Begjanov Amirbek Shixnazarovich (UrDU o'qituvchisi, PhD; [amirbek\\_beg@mail.ru](mailto:amirbek_beg@mail.ru))  
YASSI KANALDA REOLOGIK MURAKKAB SUYUQLIKLARNING TEBRANMA  
OQIMIDAGI GIDRODINAMIK QARSHILIKNI MATEMATIK MODELLASHTIRISH**

***Annotatsiya.** Maqolada bosim gradientining garmonik tebranishi ta'siridagi reologik murakkab suyuqlikning yassi kanalidagi tebranma harakati masalasi qaralgan bo'lib, bunda qo'yilgan masalani yechish natijasida tezlik profillari taqsimlanishini aniqlovchi formulalar keltirib chiqarilgan. Hisob natijalari asosida tebranish chastotasi parametrining kichik qiymatlarida, reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimida gidrodinamik qarshilik Nyuton suyuqligi tebranma oqimidagi gidrodinamik hususiyatlari o'rganilgan.*

***Аннотация.** В статье рассматривается проблема колебательного движения реологически сложной жидкости в плоском канале под действием гармонических колебаний градиента давления, в результате решения поставленной задачи получены формулы, определяющие распределение профилей скоростей. По результатам расчетов исследовано гидродинамическое сопротивление в колебательном потоке реологически сложных жидкостей при малых значениях параметра частоты колебаний, гидродинамические свойства ньютоновской жидкости в колебательном потоке.*

***Annotation.** The article deals with the problem of oscillatory motion of a rheologically complex fluid in a flat channel under the influence of harmonic oscillations of the pressure gradient, as a result of solving the problem, formulas determining the distribution of velocity profiles are obtained. Based on the calculation results, the hydrodynamic resistance in the oscillatory flow of rheologically complex fluids at low values of the oscillation frequency parameter and the hydrodynamic properties of a Newtonian fluid in an oscillatory flow were studied.*

***Kalit so'zlar:** elastik, yopishqoq, Nyuton modeli, aksioma, gipoteza, yassi kanal, silindrik quvur.*

***Ключевые слова:** упругий, вязкий, модель Ньютона, аксиома, гипотеза, плоский канал, цилиндрическая труба.*

***Key words:** elastic, viscous, Newton's model, axiom, hypothesis, flat channel, cylindrical pipe.*

**Kirish.** Yurtimiz va xorij olimlari tomonidan Nyuton suyuqligining yassi kanal va quvurlardagi tebranma oqimlariga ko'plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar bag'ishlangan. Jumladan, [1.3] tadqiqot ishlari-da tebranuvchi qovushoq suyuqliklarning kanal va quvurlardagi statsionar tebranma oqimlari yetarli darajada tadqiq qilingan. Keyingi yillarda qovushoq suyuqligi sifatida qaralgan qonning laminar pulslanuvchi oqimiga bag'ishlangan biomexanik tadqiqotlar inson organizmining ishlash mexanizmini tashhislashda va davolashda dori-darmonlarni tomirlarga maqsadli yetkazib berishda muhim omil bo'lib kelmoqda [3.5]. Ayniqsa, bu tadqiqotlar tibbiyot sohasida ishlatiladigan mikrochip va pnevmatik mikronasos qurilmalarini samarali ishlatishda ahamiyatlidir [4].

Kanal va quvurlardagi tebranma oqimlar Nyuton suyuqligi sifatida qaralgan holatlari yetarlicha tadqiq qilinishiga qaramasdan, reologik murakkab suyuqliklarning bu sohadagi oqimlariga juda kam tadqiqot ishlari bag'ishlangan.

Bu sohada reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimiga Maksvellning umumlashgan modellari-ni qo'llash orqali olib borilgan tadqiqot ishlari yetarli darajada emas. Ma'lumki, Maksvellning umumlashgan modellari suvda eritilgan polimer eritmalari, loyqa suv aralashmalari, neft mahsulotlari va boshqa shunga o'x-shash suyuqliklarning tebranma harakatini xarakterlashda muhim rol o'ynaydi.

**1. Masalaning qo'yilishi va yechish metodikasi.** Masalani shakllantirishda yassi kanal devorlar orasi-dagi masofa  $2h$ , kanal uzunligi  $L$  deb belgilanadi. Kanal o'qlari esa quyidagicha aniqlanadi,  $X$  o'qi kanal o'rtasi bo'ylab, gorizontal yo'nalish bo'yicha yo'naltiriladi va bo'ylama o'q deb ataladi,  $y$  o'qi esa  $X$  o'qiga perpendikular qilib vertikal yo'nalishda olinadi va vertikal o'q deb yuritiladi.

Bunda bosim gradientining vaqt bo'yicha sinusoidal ko'rinishda o'zgarishi orqali aniqlanadi:

$$\left(-\frac{\partial p(t)}{\partial x}\right) = \left(-\frac{\partial p_0}{\partial x}\right) + \left(-\frac{\partial p_1}{\partial x}\right) \cos \omega t. \quad (1)$$

Reologik murakkab suyuqlikning tebranma harakat differensial tenglamalari sistemasi, soddalashtirilgan harakat differensial tenglamalar sistemasi ko‘rinishda quyidagicha ifodalanadi [4.7]:

$$\begin{cases} \frac{\partial u}{\partial t} = -\frac{1}{\rho} \frac{\partial p}{\partial x} + \frac{1}{\rho} \frac{\partial \tau}{\partial y}, & \frac{\partial p}{\partial y} = 0, \\ \tau = \tau_s + \tau_p, \tau_s = \eta_s \frac{\partial u}{\partial y}, \lambda \frac{\partial \tau_p}{\partial t} + \tau_p = \eta_p \frac{\partial u}{\partial y} \\ \eta_0 = \eta_s + \eta_p \end{cases} \quad (2)$$

Oqim yassi kanal bo‘ylama o‘qi bo‘yicha simmetrik bo‘lganligi uchun chegaraviy shartlar quyidagicha shakllantiriladi:

$$y = h \text{ da } u = 0, \quad y = 0 \text{ da } \frac{\partial u}{\partial y} = 0. \quad (3)$$

Ushbu masalada suyuqlikning stabillashgan tebranma oqimi qaralayotganligi uchun boshlang‘ich shartlar talab qilinmaydi.

Tenglamalarning birinchi hadlari statsionar oqimdagi tezliklarni, urunma kuchlanish va bosim o‘zgari-shini, ikkinchisi esa tebranma oqimdagi tezliklarni va urunma kuchlanish va bosim gradienti o‘zgarishini ifoda qiladi

$$u = u_0(y) + u_1(y)e^{i\omega t}, \quad \tau = \tau_0(y) + \tau_1(y)e^{i\omega t}, \quad \frac{\partial p(t)}{\partial x} = \frac{\partial p_0}{\partial x} + \frac{\partial p_1}{\partial x} e^{i\omega t}. \quad (4)$$

Reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimlari, (4) almashtirishlardagi noma‘lumlarining ikkin-chi hadlariga mos keluvchi (2) differensial tenglamalar sistemasi quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$\begin{cases} i\omega u_1 = -\frac{1}{\rho} \frac{\partial p_1}{\partial x} + \frac{1}{\rho} \frac{\partial \tau_1}{\partial y}, \quad \tau_1 = \tau_s + \tau_p, \quad \tau_s = 2\eta_s D_{21}, \\ i\lambda \omega \tau_p + \tau_p = 2\eta_p D_{21}, \quad D_{21} = \frac{1}{2} \frac{\partial u_1}{\partial y}, \quad \eta = \eta_s + \eta_p \end{cases} \quad (5)$$

Chegaraviy shartlar esa quyidagicha aniqlanadi:

$$y = h \text{ da } u_1 = 0, \quad y = 0 \text{ da } \frac{\partial u_1}{\partial y} = 0. \quad (6)$$

Hosil qilingan (5) tenglamalar sistemasidagi ikkinchi tenglamadan beshinchi tenglamagacha bo‘lgan tengmalardan foydalanib urunma kuchlanishni aniqlash uchun ushbu ko‘rinishdagi tenglamani hosil qilamiz:

$$\tau_1(y) = \eta \left( \frac{\eta_s}{\eta} + \frac{\eta_p}{\eta} \frac{1}{1 + i\omega\lambda} \right) \frac{\partial u_1}{\partial y}. \quad (7)$$

Urunma kuchlanishning topilgan (7) qiymatini (5) tenglamalar sistemasining birinchi tenglamasiga qo‘yish natijasida ushbu tenglama hosil qilinadi:

$$\frac{\partial^2 u_1}{\partial y^2} - \frac{\rho i\omega}{\eta \eta^*(i\omega)} u_1 = \frac{1}{\eta \eta^*(i\omega)} \frac{\partial p_1}{\partial x}. \quad (8)$$

Bu yerda

$$\eta^*(i\omega) = \left( \frac{\eta_s}{\eta} + \frac{\eta_p}{\eta} \frac{1}{1 + i\omega\lambda} \right) = \left( X_1 + Z_1 \frac{1}{1 + i\omega\lambda} \right)$$

Aniqlangan (8) tenglamaning bir jinsli qismining umumiy yechimi quyidagi ko‘rinishda topiladi:

$$u_1(y) = C_1(x) \cos(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \frac{y}{h}}) + C_2(x) \sin(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \frac{y}{h}}). \quad (9)$$

Tenglamaning bir jinsli bo‘lmagan qismi o‘zgaras bo‘lganligi sababli, uning yechimi ushbu ko‘rinishda axtariladi:

$$u_1(y) = C_1(x) \cos(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \frac{y}{h}}) + C_2(x) \sin(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \frac{y}{h}}) + \frac{1}{\rho i \omega} \left(-\frac{\partial p_1}{\partial x}\right) \quad (10)$$

Topilgan (10) yechimdagi noma‘lum integral koeffitsiyentlar (6) chegaraviy shartdan topiladi. (10) yechimning xar ikkala tomonidan  $y$  bo‘yicha hosila olib uni nolga tenglasak  $C_2 = 0$  ekanligi kelib chiqadi.  $y = h$  bo‘lganda esa  $u_1(x, h) = 0$  bo‘lib, bu shartdan  $C_1$  koeffitsiyent topiladi.

$$C_1 = -\frac{1}{\rho i \omega} \left(-\frac{\partial p_1}{\partial x}\right) \frac{1}{\cos(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \frac{y}{h}})} \quad (11)$$

$C_1$  va  $C_2$ -koeffitsiyentlarning qiymatlarini (10) yechimga qo‘yish natijasida, ushbu yechim hosil qilinadi:

$$u_1(y) = \frac{1}{\rho i \omega} \left(-\frac{\partial p_1}{\partial x}\right) \left( 1 - \frac{\cos(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \frac{y}{h}})}{\cos(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \frac{y}{h}})} \right) \quad (12)$$

Topilgan (12) yechim uchun (4) dan foydalanib, quyidagicha yakuniy yechim aniqlanadi:

$$u_1(y, t) = \frac{h^2}{\eta} \left(-\frac{\partial p_1}{\partial x}\right) \left[ \text{real} \left[ \frac{1}{i \alpha_0^2} \left( 1 - \frac{\cos\left(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left(\frac{1}{\eta^*(i\omega)}\right)^{\frac{1}{2}} \frac{y}{h}\right)}{\cos\left(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left(\frac{1}{\eta^*(i\omega)}\right)^{\frac{1}{2}}\right)} \right) \right] e^{i\omega t} \right] \quad (13)$$

Tezlik uchun hosil qilingan (13) yechimni, uning statsionar holatdagi maksimum tezligiga bo‘lish natijasida, ushbu ko‘rinishdagi o‘lchamsiz holdagi yechim topiladi:

$$\frac{u_1(y, t)}{u_{1 \max}^0} = 2 \left(-\frac{\partial p_1(x)}{\partial x}\right) \text{real} \left[ \frac{1}{i \alpha_0^2} \left( 1 - \frac{\cos\left(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left(\frac{1}{\eta^*(i\omega)}\right)^{\frac{1}{2}} \frac{y}{h}\right)}{\cos\left(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left(\frac{1}{\eta^*(i\omega)}\right)^{\frac{1}{2}}\right)} \right) \right] e^{i\omega t} \quad (14)$$

**2. Sonli hisob natijalari va tahlili.** Hidrodinamik qarshilik (impedans) Nyuton suyuqligi oqimida hamda reologik murakkab suyuqlik oqimida tadqiq etishning xarakterli xususiyati shundan iboratki, bunda oqimdagi gidrodinamik qarshilikning o‘zgarishi aniqlanib, uning ortishi yoki kamayishi orqali oqimdagi suyuqlik sarfi-ning oshishi yoki kamayishi aniqlanadi. Odatda, gidrodinamik qarshilik bosim gradientining suyuqlik sarfiga nisbati bilan aniqlanadi:

$$Z = \frac{\left(-\frac{\partial p}{\partial x}\right)}{Q} = \frac{1}{\frac{1}{i \alpha_0^2} \left( 1 - \frac{\sin(M_1 - i\bar{M}_1)}{(M_1 - i\bar{M}_1) \cos(M_1 - i\bar{M}_1)} \right)} = \bar{R} + i\bar{L}. \quad (15)$$

Aniqlangan (15) formulaning arifmetik belgilashlar orqali haqiqiy va mavhum qismlarini ajratib, gidravlik qarshilikni uning haqiqiy qismiga mos keluvchi  $\bar{R}$  kattalik orqali va mavhum qismiga mos keluvchi induktivlikni  $\bar{L}$  kattalik orqali aniqlaymiz. Ya’ni:

$$\frac{\bar{R}}{3} = \frac{\alpha_0^2 (A_1^2 + B_1^2)}{3(A_2^2 + B_2^2)} B_2, \quad \frac{\bar{L}}{\alpha_0^2} = \frac{(A_1^2 + B_1^2)}{A_2^2 + B_2^2} A_2,$$

bu yerda

$$A_1 = \bar{A}\bar{M}_1 + \bar{B}M_1, \quad B_1 = \bar{A}M_1 - \bar{B}\bar{M}_1, \quad A_2 = (A_1^2 + B_1^2) - A_1C - B_1D, \quad B_2 = (B_1C - A_1D),$$

$$C = \sin M_1 ch \bar{M}_1, \quad D = -\cos M_1 sh \bar{M}_1, \quad \bar{A} = \sin M_1 sh \bar{M}_1, \quad \bar{B} = \cos M_1 ch \bar{M}_1, \quad M_1 = \frac{\alpha_0}{\sqrt{2}} \bar{G}_1,$$

$$\bar{M}_1 = \frac{\alpha_0}{\sqrt{2}} \bar{G}_2, \quad \bar{G}_1 = \bar{G}_1 + \bar{G}_2, \quad \bar{G}_2 = \bar{G}_1 - \bar{G}_2, \quad \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)}} = \sqrt{G_1 + G_2 i} = \bar{G}_1 + \bar{G}_2 i,$$

$$\bar{G}_1 = \sqrt{\sqrt{G_1^2 + G_2^2}} \cos \frac{\varphi + 2n\pi}{2}, \quad \bar{G}_2 = \sqrt{\sqrt{G_1^2 + G_2^2}} \sin \frac{\varphi + 2n\pi}{2}, \quad n = 0, 1; \quad \varphi = \arctg \frac{G_2}{G_1},$$


$$\frac{1}{\eta^*(i\omega)} = \frac{1 + De^2 X_1 \alpha_0^4 + iDe \alpha_0^2 (1 - X_1)}{1 + De^2 X_1^2 \alpha_0^4} = G_1 + G_2 i, \quad G_1 = \frac{1 + De^2 X_1 \alpha_0^4}{1 + De^2 X_1^2 \alpha_0^4}, \quad G_2 = \frac{De \alpha_0^2 (1 - X_1)}{1 + De^2 X_1^2 \alpha_0^4},$$

$$\eta^*(i\omega) = \left( \frac{\eta_s}{\eta} + \frac{\eta_p}{\eta} \frac{1}{1 + iDe \alpha_0^2} \right) = (X_1 + Z_1 \frac{1}{1 + iDe \alpha_0^2}) = \frac{1 + iDe X_1 \alpha_0^2}{1 + iDe \alpha_0^2},$$


$$\frac{\eta_s}{\eta} + \frac{\eta_p}{\eta} = 1, \quad X_1 = \frac{\eta_s}{\eta}, \quad Z_1 = \frac{\eta_p}{\eta}, \quad X_1 + Z_1 = 1, \quad De = \frac{\lambda \eta}{\rho h^2}, \quad \alpha_0^2 = \frac{\omega}{\nu} h^2.$$

Nyuton suyuqligi uchun gidrodinamik qarshilik (impedans)ni tadqiq etish natijalari [6.7] ishlarda keltirilgan. Reologik murakkab suyuqlik uchun u birinchi marta ushbu ishida tadqiq etilmoqda. Yuqorida impedans uchun topilgan (15) formula yordamida sonli hisob amallarini bajarib, Nyuton va reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimlari uchun gidravlik qarshilikning tebranish chastotasi parametriga bog'liq ravishda o'zgarishini tadqiq qilamiz.

Elastiklik koeffitsiyentining kichik qiymatlarida reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimlaridagi gidrodinamik qarshilikning o'zgarishi Nyuton suyuqligidagi kabi o'zgaradi (1-rasm):




1-rasm. Reologik murakkab suyuqlik aralashmasi tebranma oqimida gidrodinamik qarshilik  $\bar{R}$  ning elastiklik koeffitsiyenti  $De = 0,05$  bo'lgandagi qiymatida tebranishlar chastotasi parametri  $\alpha_0$  ga bog'liq ravishda o'zgarishi.



**2-rasm. Reologik murakkab suyuqlik aralashmasi tebranma oqimida gidrodinamik qarshilik  $\bar{R}$  ning elastiklik koeffitsiyenti  $De = 0,1$  bo'lgandagi qiymatida tebranishlar chastotasi parametri  $\alpha_0$  ga bog'liq ravishda o'zgarishi.**

2-rasmda Debor soni  $De = 0.1$  ga teng bo'lganda gidrodinamik qarshilikning sezilarli o'zgarishlari Nyuton suyuqligining  $X=0.5$ ;  $0.1$  va  $0$  konsentratsiya qiymatlarida aks eta boshlaydi. Debor sonining  $De = 0.5$  ga teng bo'lgan qiymatida aralashma oqimidagi  $X=0.5$ ;  $0.1$  va  $0$  konsentratsiya qiymatlarida gidrodinamik qarshilikning keskin kamayishini kuzatish mumkin (3-rasm). Reologik murakkab suyuqlikning ng'yuton suyuqligi aralashma hosil qilmagandagi holatida maksimal kamayishi tebranish chastotasi parametrining ikki va uch sonlari orasida bo'lib, bu qiymat Nyuton suyuqligining statsionar holatdagi qiymatidan bir yarim barobariga kam bo'lishligini kuzatish mumkin.



**3-rasm. Reologik murakkab suyuqlik aralashmasi tebranma oqimida gidrodinamik qarshilik  $\bar{R}$  ning elastiklik koeffitsiyenti  $De = 0,5$  bo'lgandagi qiymatida tebranishlar chastotasi parametri  $\alpha_0$  ga bog'liq ravishda o'zgarishi.**

Bunday holatning ro'y berishi Debor sonining kattalashgan qiymatlarida yanada oshadi. Xususan, bu kamayishning sodir bo'lishi bir va ikki sonlari oralig'ida bo'lib, u bir yarim barobardan ham kamayishi kuzatiladi.

**3. Xulosa.** Tebranish chastotasi parametrining kichik qiymatlarida, reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimida gidrodinamik qarshilik Nyuton suyuqligi tebranma oqimidagi gidrodinamik qarshilikdan, deyarli farq qilmasligi aniqlandi.

Tebranish chastotasi parametrining birga yaqin va undan katta qiymatlarida reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimida gidrodinamik qarshilik o'zgarishida kamayish holati sodir bo'lishi kuza-



tildi. Hidrodinamik qarshilikning maksimal kamayishi, tebranish chastotasi parametrining  $1 \leq \alpha_0 \leq 3$  oralig'idagi qiymatlarida ro'y berishi aniqlandi. Bu kamayish holati Nyuton suyuqligining statsionar oqimidagi gidravlik qarshilik kamayishidan bir yarim-ikki baravar kam sodir bo'lishligi ko'rsatildi. Nyuton suyuqligining aralashmada qatnashishi gidrodinamik qarshilik o'zgarishlaridagi tebranishlarni hosil bo'lmasligini ta'minlashi aniqlandi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lambossy P. Oscillations foresees dun liquids incompressible et visquulux dans un tube rigide et horizontal calculi de IA force de frottement. Helv. Physiol. Acta. 25 (1952), p. 371 – 386).
2. Womersly I.R. Oscillatory flow in arteries. The reflection of the pulse wave at junctions and rigid inserts in the arterial system. Phys. Biol., 1958, p. 313 – 323.
3. Inman W., Domanskiy K., Serdy J., Ovens B., Trimper D., Griffith L.G. Dishing modeling and fabrication of a constant flow pneumatic micropump. J.Micromech. Microeng. 2007, vol. 17, p. 891 – 899.
4. Валуева Е.П., Пурдин М.С. Гидродинамика и теплообмен пульсирующего ламинарного потока в каналах. Теплоэнергетика, 2015, № 9, с. 24 – 33.
5. Колесниченко В.И., Шарифулин А.Н. Введение в механику несжимаемой жидкости. Перм, изд. Пермского нац. иссл. полит. университета, 2019, 127 с.
6. Наврузов К. Биомеханика крупных кровеносных сосудов. Т., "Fan va texnologiya", 2011, 144 с.
7. Наврузов К., Хакбердиев Ж.Б. Динамика неньютоновских жидкостей. Т., "Фан", 2000, 246 с.

Абдуллаев Рустамбай Зайирович (д.ф.-м.н., профессор, Ташкентский университет информационных технологий; e-mail: [arustambay@vandex.ru](mailto:arustambay@vandex.ru))  
**СВЯЗЬ МЕЖДУ ИЗОМОРФИЗМАМИ КОММУТАТИВНЫХ И НЕКОММУТАТИВНЫХ LOG-АЛГЕБР**

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada aniq normal yarim chekli izdan tuzilgan kommutativ va nokommutativ log-algebralarning izomorfizmlarini o'rganilgan. Bu izomorfizmlar o'rtasida boglanish o'rnatiladi.

*Аннотация.* В работе изучаются изоморфизмы коммутативных и некоммутативных log-алгебр, построенных по точному нормальному полуконечному следу. Устанавливается связь между этими изоморфизмами.

*Annotation.* In this paper, we study isomorphisms of commutative and noncommutative log-algebras constructed from an faithful normal semifinite trace. A connection between these isomorphisms is established.

*Kalit so'zlar:* izomorfizmlar, log-algebralar,  $\sigma$ -cheklangan o'lchovlar, fon Neyman algebralari, aniq normal yarim chekli iz, Radon-Nikodim hosilasi, Boole algebra, bir jinsli Boole algebralari, Boole algebra og'irligi, Boole algebra pasporti.

*Ключевые слова:* изоморфизмы, log-алгебры,  $\sigma$ -конечные меры, алгебры фон Неймана, точный нормальный полуконечный след, производная Радона-Никодема, булева алгебра, однородные булевы алгебры, вес булевой алгебры, паспорт булевой алгебры.

*Key words:* isomorphisms, log-algebras,  $\sigma$ -finite measures, von Neumann algebras, faithful normal semifinite trace, Radon-Nikodim derivative, boolean algebra, homogeneous boolean algebras, boolean algebra weight, boolean algebra passport.

**Введение.** В работе [1] были введены коммутативные и некоммутативные log-интегрируемые алгебры и изучены их алгебраические и топологические свойства. В частности было показано, что такая алгебра является полным метрическим пространством, при этом алгебраические операции непрерывны по совокупности переменных. В работах [2], [3] рассматриваются коммутативные log-алгебры, построенные по конечной и  $\sigma$ -конечной мерам соответственно, изучаются их алгебраические и топологические свойства. Устанавливаются необходимые и достаточные условия изоморфности коммутативных log-алгебр. Для этих алгебр изоморфность сводится к ограниченности числовых последовательностей, составленных с помощью паспортов соответствующих булевых алгебр.

В настоящей работе устанавливается критерий изоморфности log-алгебр, построенных на некоммутативных алгебрах Фон Неймана по различным точным нормальным полуконечным

следам. В частности, для алгебр фон Неймана типа  $I_n$  изоморфизм  $\log$ -алгебр сводится к ограниченности соответствующих последовательностей.

Рассмотрим некоммутативные  $\log$ -алгебры, построенные на алгебрах фон Неймана. Все необходимые определения, обозначения и результаты теории алгебры фон Неймана взяты из [4], теории некоммутативного интегрирования из [5]. Пусть  $M$  алгебра фон Неймана с точным нормальным полуконечным следом  $\tau$ . Через  $L_0(M, \tau)$  обозначим измеримые операторы, присоединенные к  $M$ . Рассмотрим прос-транство

$$L_{\log}(M, \tau) = \left\{ T \in L_0(M, \tau) : \tau(\log(1 + |T|)) < \infty \right\}$$

в смысле [1].  $L_{\log}(M, \tau)$  является  $F$ -пространством относительно  $F$ -нормы

$$\|T\|_{\log} = \int_0^1 \log(1 + \mu_x(T)) dx$$

в случае конечного  $\tau$  и

$$\|T\|_{\log} = \int_0^{\infty} \log(1 + \mu_x(T)) dx$$

в случае полуконечного  $\tau$ , где  $\mu_x(T)$  перестановка оператора  $T$  [5].

Следующая лемма доказана в работе [1]

**Лемма 1.** Пусть  $S, T \in S(M, \mu)$ . Тогда

- а) Из  $\|T\|_{\log} > 0$ , следует  $T \neq 0$ ;
- б)  $\|\alpha T\|_{\log} \leq \|T\|_{\log}$  для всех чисел  $\alpha$ ,  $|\alpha| \leq 1$ ;
- в) Если  $T \in L_{\log}(M, \mu)$ , то  $\lim_{\alpha \rightarrow 0} \|\alpha T\|_{\log} = 0$ ;
- г)  $\|S + T\|_{\log} \leq \|S\|_{\log} + \|T\|_{\log}$ ;
- д)  $\|S \cdot T\|_{\log} \leq \|S\|_{\log} \cdot \|T\|_{\log}$ .

Из свойств а), б), в), г) следует, что функция  $\|\bullet\|_{\log}$  является  $F$ -нормой на  $F$ -пространстве  $L_{\log}(M, \mu)$ , а из свойства д) получаем, что  $F$ -пространство  $L_{\log}(M, \mu)$  является топологической алгеброй относительно топологии, порожденной метрикой  $\rho(S, T) = \|S - T\|_{\log}$ .

## 2. Критерий изоморфности некоммутативных $\log$ -алгебр.

**Определение 1.** Следы  $\mu$  и  $\nu$  назовем  $\alpha$ -эквивалентными, если существует \*-изоморфизм  $\alpha : M \rightarrow N$  такой, что выполнено одно из следующих эквивалентных условий:

- (i)  $L_{\log}(N, \nu) = L_{\log}(N, \mu \circ \alpha^{-1})$ ;
- (ii)  $\frac{d\nu}{d\mu \circ \alpha^{-1}}, \frac{d\mu \circ \alpha^{-1}}{d\nu} \in N$ .

Очевидно, что функционал  $\mu \circ \alpha^{-1}$  является точным нормальным полуконечным следом на алгебре фон Неймана  $N$ . Из следствия 1 следует, что (i) и (ii) эквивалентны.

**Теорема 1.** Алгебры  $L_{\log}(M, \mu)$  и  $L_{\log}(N, \nu)$  изоморфны тогда и только тогда, когда  $\mu$  и  $\nu$   $\alpha$ -эквивалентны.

### 3. Изоморфизмы некоммутативных log-алгебр, сводящиеся к изоморфизмам соответствующих коммутативных log-алгебр

**Утверждение 1.** Если log-алгебры  $L_{\log}(M; \mu)$  и  $L_{\log}(M; \nu)$  \*-изоморфны, то log-алгебры  $L_{\log}(Z_M; \mu')$  и  $L_{\log}(Z_M; \nu')$  также \*-изоморфны. Обратное утверждение не всегда верно.

**Теорема 2.** \*-Изоморфность log-алгебр  $L_{\log}(Z_M; \mu')$  и  $L_{\log}(Z_M; \nu')$  влечет \*-изоморфность log-алгебр  $L_{\log}(M; \mu)$  и  $L_{\log}(M; \nu)$  тогда и только тогда, когда хотя бы один \*-автоморфизм из  $Aut Z_M(\mu'; \nu')$  продолжается до \*-автоморфизма на  $M$ .

Пусть  $X$  – произвольная полная булева алгебра,  $e \in X$ ,  $X_e = \{g \in X : g \leq e\}$ . Через  $\tau(X_e)$ , обозначим минимальную мощность множества, плотного в  $X_e$ . Бесконечная полная булева алгебра  $X$  называется однородной, если  $\tau(X_e) = \tau(X_g)$  для любых ненулевых  $e, g \in X$ . Мощность  $\tau(X)$  называется весом однородной булевой алгебры  $X$ .

Пусть  $\nabla$  полная неатомическая булева алгебра и  $\mu$  – строго положительная счетно аддитивная  $\sigma$ -конечная мера на  $\nabla$ . Тогда разложение  $\nabla$  на однородные компоненты не более чем счетно.

**Определение 2.** Обозначим через  $\{\nabla_{s_i}\}$  однородные компоненты булевой алгебры  $\nabla$ , для которых

$$\tau_{s_i} = \tau(\nabla_{s_i}) < \tau_{s_{i+1}}, \mu(s_i) = \infty,$$

а через  $\{\nabla_{u_i}\}$  обозначим однородные компоненты булевой алгебры  $\nabla$ , для которых

So‘nggi o‘n yillikda olimlar tomonidan olam manzarasining frazeologik shakliga katta e‘tibor qaratilishi, asosan, ko‘plab masalalarni, ya‘ni, yangi paradigmalardagi yangi muammolarni (birinchi navbatda, lingvistik konseptualizm va lingvokulturologiyada) uslubiy jihatdan yechish zarurati bilan bog‘liqdir.

Frazeologik birikmalar leksemik nominatsiyalarga nisbatan ancha murakkab belgi tuzilishiga ega, ularning ko‘pchiligi, xususan, maqol va matal, iboralar, ko‘pincha, tilshunoslikda mustaqil (mikro) matnlarning bir turi sifatida qaraladi. Ular matnning eng muhim rasmiy va mazmunli xususiyatlari bilan tavsiflanadi.<sup>2</sup> Ushbu turdagi frazeologik birikmalarda juda katta miqdordagi ma‘lumotlar o‘rin olgan. Bundan tashqari, ushbu ma‘lumotlar madaniy jihatdan ajralib turadi. Chunki ko‘rib chiqilayotgan nominatsiya turi, qoida tariqasida, etnos rivojlanishining muayyan bosqichida eng muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan hodisalarni aktuallashtiradi. Ma‘lumki, inson uchun chinakam ahamiyatga ega bo‘lgan insoniyat sivilizatsiyasi va madaniyati hodisalari so‘z bilan ifodalanadi.<sup>3</sup>

Frazeologik birikmaning lingvistik jihatdan muhim ahamiyatga ega emasligi haqidagi ba‘zida tilshunoslikda aytilgan fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi. Shu o‘rinda, Sinyukning – “Tilning asosiy birligi so‘zdir, frazeologik birliklar esa tilning ortiqcha vositalaridir”,<sup>4</sup> degan fikrini keltirish mumkin. Ekspressiv frazeologik birliklarga yana ma‘lum darajada, boshqa ko‘p sonli umumiy til funksiyalari (kommunikativ, kognitiv, kumulativ va boshqalar) ham xarakterlidir.

Fikrimizcha, ba‘zi olimlarning nuqtayi nazarlari e‘tiborga molik. Ularning ta’kidlashicha, bizning miyamizda ma‘lumotlar faqat “kommunikativ fragmentlar”– “tilning mnemonik bilimlari asosidagi birliklari” sifatida saqlanadi.<sup>5</sup> Ular, biz anglaganimizdek, so‘zlovchi tomonidan belgilanadi va tinglovchi tomonidan esa ma‘lum bir vaziyat tasvirining yaxlitligi sifatida tan olinadi. Bularga, jumladan, verbal ifoda vositalari (iboralar, nutq klisheolari, klisheolar, idiomalar va boshqalar, ya‘ni murakkab, tayyor iboralar va boshqalar) kiradi. B.M.Gasparov insonning lingvistik xotirasi xususiyatlarini, xususan, axborotni saqlash usullarini ko‘rib chiqadi. Uning ta’kidlashicha, “Aynan kommunikativ bo‘laklar lingvistik materiyaning birlamchi, yaxlit, to‘g‘ridan to‘g‘ri tanib bo‘ladigan zarralari bo‘lib, til bilan ishlash jarayonida bu kabi iboralar tarkibidagi alohida so‘zlar emas, balki lingvistik borliq asosini tashkil qiladi”.<sup>6</sup> U o‘zining keyingi mulohazalarida alohida so‘zlarning mnemonik imkoniyatlarini to‘liq inkor etmaydi va o‘z bayonotlarini ko‘pchilik hollarda kengaytirishga harakat qiladi.<sup>7</sup> Ma‘nolarni saqlab qolish va ulardan odam tomonidan muloqot jarayonida foydalanishning kognitiv jarayoni ko‘plab tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, turli xil belgilar bilan shakllangan ham murakkab tuzilishga ega jummlalar hamda bir so‘z orqali amalga oshiriladi.

Frazeologik kompleks belgilanishlar, odatda, obrazlarga va ularni tashkil etuvchi komponentlarni obrazli baholovchi sifatida qayta ko‘rib chiqishga asoslanganligi sababli, konseptlarning turi turli madani-

<sup>1</sup> Virovka M. Badiiy nutqda frazeologik sinonimlardan foydalanish. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 2003, 2-son, 88-bet; Yo‘ldashev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. Samarqand, SamDU nashri, 1999, 200-bet; Mamatov A. Hozirgi zamon o‘zbek tilida leksik va frazeologik norma muammolari. Toshkent, “Fan”, 1991, 276-bet; Nasrullayeva N. Ingliz va o‘zbek tillarida olamning frazeologik manzarasida gender konseptlarining shakllanishi haqida avtoreferat, T., 2018, 71-bet.

<sup>2</sup> Рождественский Ю.В. Образ предмета науки. Общая филология. М., “Новое тысячелетие”, 1996, с. 27 – 59.

<sup>3</sup> Вебер М. «Объективность» социально-научного и социально-политического познания. Он же. Избр. произв. М., “Прогресс”, 1990, с. 374 – 375;

<sup>4</sup> Синюк В.Б. Фраzeологизмы как выразитель эмоций в языке. Разноуровневые характеристики лексических единиц. Сб. науч. ст. Ч. 2, Смоленск, изд-во СГПУ, 1999, с. 164.

<sup>5</sup> Гаспаров Б.М. Язык, память, образ. Лингвистика языкового существования. М., Нов. лит. обозрение, 1996, с. 118

<sup>6</sup> Гаспаров Б.М. Язык, память, образ. Лингвистика языкового существования. М., Нов. лит. обозрение, 1996, с. 123 – 124.

<sup>7</sup> Shu manba. С. 133 – 134.

yatlarida emotsional frazeologik-semantik birikmalariga katta qiziqish uyg'otadi.<sup>1</sup> Belgi makonini tashkil etishning murakkab shakli sifatida, frazeologik birikma insonning ham aqliy faoliyati yo'llarini va uning natijalarini o'zini ham belgilaydi.

Frazeologik shakllangan emotsional konseptning lingvomadaniy xususiyati leksik tushuncha arxitektonikasiga o'xshaydi: u uchta komponentni, ya'ni tushuncha, baho va tasvirni o'z ichiga oladi. Emotsiyalarning leksik va frazeologik verbalizatsiyasida dominant maqomini ushbu komponentlarning har biriga berish mumkin. Ta'kidlanganidek, kontekstdan tashqari lingvistik belgi tarkibida majoziy baholovchi komponent – so'z yetakchi bo'lib chiqsa, unda biz emotiv nutq bilan shug'ullanamiz. Agar so'z tarkibida mantiqiy komponent dominant bo'lsa, u holda biz neytral verbal belgi haqida so'z boradi.

Tadqiqotchilar<sup>2</sup> neytral so'z qo'llanilgan emotsional kontekst uning semantikasiga emotsional semalar “induksiya qilishi” mumkinligini aniqladi. Bunda neytral so'z ma'nosining mantiqiy komponenti uning sirtida aks etadi, uning markazida esa baholovchi-obrazli semantik komponentlar turadi. Leksik vositalardan farqli o'laroq, mos tushunchalarni tashkil etuvchi frazeologik birikmalar o'zining uch o'lchovli tuzilishi va semantikasiga ko'ra, kommunikativ jihatdan ko'proq mustaqil, ba'zan esa o'zini-o'zi ta'minlaydi (frazeologizm o'ta ixcham matndir). Bu esa filologlarning muvaffaqiyatli lingvokulturologik tadqiqotlariga binoan, kontekstdan tashqari faolligiga sabab bo'ladi.<sup>3</sup> Frazeologik birliklarning, ayniqsa, maqol maqol va matallarning, ularga yaqin turg'un gaplarning katta kommunikativ ahamiyati va nisbiy mustaqilligi ularning kontekstdan tashqari sterilligini kafolatlamaydi.

Shu bilan birga, frazeologik birlik–eksplikantlar emotiv bo'lib, ularning semantik tarkibida baholovchi-majoziy komponentlar mutlaq ustunlik qiladi. Eksplikant frazeologik birliklarning paydo bo'lishi, ishlatilishi va idrok etilishi so'zlovchilarning kommunikativ niyatlari bilan belgilanadi, ular bir-biri bilan muloqot qilishda “so'z haqidagi diasistematik ma'lumotlarni – stilistik belgilarni, konnotatsiyalarni hisobga oladi” (“kesatish”, “avaylamaslik”, “haqorat”, “qo'pollik”, “vulgar”).<sup>4</sup> Stilistik jihatdan belgilangan belgilangan so'zlarning eksplikant frazeologik birliklar tarkibiga zaruriy komponentlar sifatida kirishi ikkinchisining emotivligining eng muhim sabablaridan biridir.

Frazeologik nominatsiyalar o'zining uch o'lchovli tuzilishiga ko'ra, odatda, leksemik nominatsiyalarga qaraganda ko'proq ma'lumot yukini ko'targanligi sababli, ularda batafsilroq, tafsilotli obrazli baholovchi yuklamaga ega bo'lish imkoniyati bo'lishi mumkin. Maqollar va matallar, xususan, ma'lum bir rivoyatga ega bo'lib, unda lingvistik jihatdan obyektivlashtirilgan olamning u yoki bu bo'lagining aniq ifodalangan bahosi taklif etiladi. Frazeologik emotsional tushunchaning tarkibiy qismi sifatida baholash, shu jumladan, frazeologik jihatdan rasmiylashtirilgan, uning aniq axloqiy va didaktik yo'nalishi bilan bog'liq bo'ladi. Kozpgina verbal vositalarda bevosita yoki aniq mavjud bo'lgan baholash kategoriyasi tasvir orqali yaratiladi. Baholash oqilona va emotsional bo'lishi mumkin.<sup>5</sup> Muloqotda u yoki bu turdagi tasvirlardan foydalanish – ratsional (tasavvur bilan idrok etilgan), emotsional (hissiyot orqali qabul qiligan) yoki hissiz (ong tomonidan idrok etilgan) bo'lishi mumkin va qabul qiluvchining verbal bayonotga munosabatini oldindan belgilaydi.<sup>6</sup>

Frazeologik birikmalar (turlu aforizmlar, maqollar, xikmatli so'zlar va boshqalar) o'ziga xos matn sifatida majoziy semantik-pragmatik xususiyatlarga ega bo'lgan holda, bir tomondan, til soxibi tomondan ma'lum bir chuqur ma'noga ega bo'lgan konsept sifatida tilda refleksiyalashadi, ikkinchi tomondan, muloqot maydonida psixolingvistik xarakterni o'zida shakllantiradi.

Misol tariqasida voqelikni ifodalovchi frazeologik shakllangan emotsional konseptning baholovchi va qiyoslovchi xususiyatlariga g'azab ma'nosini anglatuvchi ingliz tilidagi frazeologik birikmalarni keltirib o'tamiz: *hot under the collar*, *hot and bothered*, *burst a blood vessel*, *blind with rage*, *filled with anger*, *blood boil*, *steamed up*, *burst with anger* va hokazo.

Bu yerda keltirilgan mikromatnlarda g'azab, *jahl* emotsiyalari o'ziga xos metaforalashtirilgan. Har qanday emotsional-frazeologik birikma o'xshatishga xos ifoda bo'lib, ingliz madaniyatining asl, xilma-xil xususiyatlarini o'zaro qiyoslashga asoslanganligi sababli, ingliz tili madaniyatida ko'rib chiqilayotgan tu-

<sup>1</sup> Кожин А.Н. Образные сравнения и фразеологизмы. “Рус. яз. в школе”, 1980, № 3, с. 73 – 76.

<sup>2</sup> Шаховский В.И. Категоризация эмоций в лексико-семантической системе (на материале английского языка). Дис. д-ра филол. наук, М., 1988.

<sup>3</sup> Бабаева Е.В. Культурно-языковые характеристики отношения к собственности (на материале немецкого и русского языков). Автореф. дис. ... канд. фил. наук, Волгоград, 1997.

<sup>4</sup> Schaefer V. Germanistische Lexikographie. Tuebingen: Max Niemeyer Verlag, 1987, p. 104.

<sup>5</sup> Вольф Е.М. Функциональная семантика оценки. М., “Наука”, 1985, 226 с.

<sup>6</sup> Балли Ш. Французская стилистика. М., “Иностранная литература”, 1961, с. 104 – 105.

shunchaning asotsiativ xususiyatlarini ko'rsatish uchun ahamiyatlidir. Ingliz etnosida g'azab qon ko'tarishi, olovga qiyoslanishi, issiqlik oshishi bilan bog'liq bo'lib, majoziy ma'noga ega bo'lgan qondagi ishqilikning oshishi va oxir-oqibat portlash bilan qiyoslanadi. Masalan: *to breath fire; burn up; explode with anger*. Binobarin, odamni chulg'ab olgan g'azab undagi o'zini-o'zi boshqarishdan mahrub qiladi: *When he gave her a ticket, she got all hot and bothered. When I found out, I almost burst a blood vessel.*

Bizni qiziqtirgan tushuncha uni majoziy ma'noda anglagan boshqa frazeologik birikmalarda rang bilan (qizil) bog'liq: *Scarlett with rage; rat with anger; flushed with anger*. Ushbu frazeologik birliklardagi *Scarlet, red, flush* bilan bir sintagmatik qatorda *rage, anger* qo'llanishi uning baholovchi xususiyatlarini obrazli tarzda yorqin tasvirlaydi. Ingliz tilining ona tilida so'zlashuvchilar g'azab tushunchasini obyektiv voqelik sifatida emotsiyani insonni ruhiy va jismoniy holatiga psixosomatik ta'srini yorqin va ifodalay tasvirlaydi. Ular bir vaqtning o'zida tanlagan tasvirlar ko'pgina hollarda *qaltirash*, "titrash"ni anglatuvchi *shake with anger; quiver with rage* kabi birikmalar bilan chegaralanadi. Ingliz lingvistik ongi g'azabni yumshoqlik fenomeni bilan bog'laydi.<sup>1</sup>

Bunda, g'azab issiq suyuqlik singari qaynashni boshlaydi va suyuqlik inson tanasida teriga ko'tarila boshlaydi hamda portlash (g'azabni verbal ifodaga ko'chishi, ya'ni baqirish, o'zini tutib turolmaslik) yuzaga keladi.

E'tibor bersak, ko'p jihatdan shunga o'xshash (har doim ham bir xil bo'lmas-da) assotsiativ-majoziy g'azab belgilari ingliz tilining frazeologik boshqa ko'rinishlarida ham uchraydi, masalan, *he blew up a basket; she erupted; I blew a fuse; She's on a short fuse*.

Inson hayotida emotsional holatni aks ettiruvchi leksik vositalar, frazeologik birikmalarning lingvistik xotirasida turli xil konseptual sohalar bo'laklarining yonma-yon qo'shilishi natijasida ko'plab assotsiativ-majoziy konnotatsiyalar osongina paydo bo'ladi. Bir qator tilshunos olimlarning<sup>2</sup> dunyoning moddiy obyektlarida (mavhum bo'lmagan) obrazlar borligi haqidagi xulosasi frazeologik birikmalarning emotsionalligiga aloqador xususiyatlari modal munosabatlarini aks ettiradi. Buni quyidagi misollar tasdiqlaydi: *Although they had always been filled with rage and wonder by their daughter's performances in school plays, they were bewildered and outraged at the agent's proposal.*

Ushbu misolda ko'rib chiqilayotgan *filled with rage* emotsional frazeologizmi subyektning "g'azablanish" darajasini ochib berish uchun qo'llanilgan. Ingliz tilidagi "g'azab"lanishni namoyish etuvchi frazeologik birikmalar quyidagi tarkibiy qismlarni qamrab olishi kuzatiladi:

a) inglizlar lisoniy tafakkurida emotsional konseptni ta'minlovchi obrazni ifoda vositalari yorda-mida shakllangan;

b) emotsional tarkibli frazeologik birikmalar izohli, tasvirllovchi xususiyatga ega;

d) emotsional konseptni faollashtiruvchi frazeologik birikmalar etimologik, assotsitiv xarakterga ega;

e) emotsional tarkibli frazeologik birikmalar leksik-grammatik muvofiqlikka ega.

Ingliz lingvomadaniyatlarining frazeologik fondida somatizmlarning ramziy verbalizatsiyaning ham mahsuldorligi aniqlandi.

Bundagi frazeologik birikmalar inson tana a'zolari yordamida "g'azab"lanish darajasini faollashtiradi. Masalan: *to bare one's teeth, don't snap at me! Don't bite my head off! To jump down one's throat*. Zoltan Kovses bu kabi frazeologik birikmalarni hayvon xulq-atvorini namoyish etuvchi emotsional vositalar sifatida qayd etadi,<sup>3</sup> xullas, g'azablanganda, qaysi millatdan qat'iy nazar, ularning tana a'zolarida o'zgarishlar yuz beradi, ko'zlar torayadi, qoshlar pir-piraydi, qo'llar musht bo'lib tuguladi, yuz tuzilishi o'zgaradi va hokazo. Ushbu "fiziologik" voqelikda turli tillardan muayyan ma'no kasb etadigan, ko'pincha, tizimli ekvivalent ko'rinishdagi barqaror nutq iboralari mavjudligi bilan ham izohlanadi.

**Shadiyeva Shahnoza Sulaymanovna (Toshkent davlat Transport universiteti assistenti;**

**e-mail:shadiyevashahnoza@gmail.com)**

## **MODALLIKNING TABIATI VA MODAL MA'NOLARNING TIPOLOGIYASI TAHLILI**

*Annotatsiya. Maqolamizda modallik ma'nolarining tipologik jihatlari ko'rib chiqiladi hamda tahlil qilinadi. Modallik – bu turli darajadagi imkoniyat, zarurat yoki aniqlikni ifodalash uchun ishlatiladigan*

<sup>1</sup> Kovses Z. Emotion concepts. Springer. New York, 1990, p. 96.

<sup>2</sup> Копыленко М.М., Попова З.Д. Очерки по общей фразеологии. Воронеж, изд-во Воронеж. ун-та, 1989, 50 с.

<sup>3</sup> Kovses Z. Emotion concepts. Springer. New York, 1990, p. 61 – 62.

lingvistik tushuncha. Bu tilda muhim rol o'ynaydi, chunki u ma'ruzachilarga muhokama qilinayotgan taklifga bo'lgan munosabatlarini yetkazishga imkon beradi. Modallikni o'rganish asrlar davomida tilshunoslar va faylasuflarni hayratda qoldirdi, ko'plab nazariyalar uning tabiati va qadriyatlar tipologiyasini tushuntirishga harakat qildi.

**Аннотация.** В нашей статье рассматриваются и анализируются типологические аспекты значений модальности. Модальность – это лингвистическое понятие, используемое для выражения различной степени возможности, необходимости или точности. Это играет важную роль в языке, поскольку позволяет говорящим выразить свое отношение к обсуждаемому предложению. Изучение модальности на протяжении веков привлекало лингвистов и философов, и многие теории пытаются объяснить ее природу и типологию значений.

**Annotation.** Our article examines and analyzes typological aspects of modal meanings. Modality is a linguistic concept used to express varying degrees of possibility, necessity, or precision. It plays an important role in language as it allows speakers to express their attitude towards the proposal being discussed. The study of modality has fascinated linguists and philosophers for centuries, and many theories attempt to explain its nature and typology of values.

**Kalit so'zlar:** modallik, pragmatik kategoriya, terminologiya, dixotomiya, propozitiv, obyektiv parametrlar, funksional, pragmatik, leksik-grammatik kategoriya, lingvistik atamalar.

**Ключевые слова:** модальность, прагматическая категория, терминология, дихотомия, пропозициональные, объективные параметры, функциональная, прагматическая, лексико-грамматическая категория, лингвистические термины.

**Key words:** modality, pragmatic category, terminology, dichotomy, propositional, objective parameters, functional, pragmatic, lexical-grammatical category, linguistic terms.

**Kirish.** Modallik kategoriya sifatida fanning turli sohalarida – mantiq, falsafa, semantika, sintaksis, diskurs tahlilida ko'plab tushunchalarni qamrab oladi. Tadqiqotning umumiy mavzusiga qaramay, ma'lum bir fan doirasiga qarab, ushbu toifa turli tomonlardan tahlil qilinadi, bu uning turli modulli talqinlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu muammoning dolzarbligi bugungi ilm-fanda ham yo'qolmaydi va modallikni tavsiflash hamda tahlil qilishning turli jihatlariga bag'ishlangan ko'plab ishlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab savollar hali ham ehtiyotkorlik bilan oshkor qilishni talab qiladi. Xususan, bu modallikning semantik holati va hajmi, uni ifodalash shakllari va tildagi funksiyalar kabi keng tarqalgan muammolardir. Leksik-grammatik va pragmatik kategoriya sifatida modallikning xususiyatlarini tushuntirish zamonaviy tilshunoslikning eng murakkab vazifalariga tegishli.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** F.R.Palmerning ta'kidlashicha, modallik tushunchasi juda noaniq va turli xil talqinlar uchun imkoniyatlar qoldiradi [1]. Lingvistik adabiyotlarda modallikning turli xil ta'riflari taklif qilingan. Oksford lingvistik lug'atida [2] modallik tushunchasining quyidagi ta'rifi keltirilgan: modallik – bu nutq aktining turini yoki biror narsa aytilayotgan aniqlik darajasini qamrab oladigan toifadir. «Lingvistik atamalar lug'atida O.S.Axmanova modalligi «Ma'ruzachining bayon mazmuniga munosabati va bayon mazmunining voqelikka munosabati ma'nosiga ega bo'lgan konseptual kategoriya ...[u] kayfiyat shakli, modal fe'llar va boshqalar kabi turli grammatik va leksik vositalar bilan ifodalanadi» deb ta'riflanadi.

Shuningdek, I.I.Meshchaninovning pozitsiyasi bilan kelishish mumkin, u modallikni tilning o'zida, «uning so'z boyligi va grammatik tuzilishida» aniqlangan va «til yordamida tavsiflanmagan» konseptual toifalarga ajratadi [3].

Modallik turli nazariy istiqbollardan o'rganilgan. Modallikda mantiqiy va lingvistik parametrlar ajralib turadi. Modallikni talqin qilishda modallikning mantiqiy jihatlari fikrlash shakllari sifatida hukmlar bilan bog'liqligi asosiy hisoblanadi [4]. Ushbu an'ana Kantdan kelib chiqadi, u uchta toifali turni o'rnatdi: imkoniyat-mumkin emas, mavjudlik-mavjud emaslik, zarurat-tasodifiylik va shunga mos ravishda hukmlarni muammoli (modallik imkoniyatlari)ga taqsimladi; assertorik (haqiqat usullari) va apodiktik (zarurat usullari) [5]. Mantiqiy tadqiqotlarda modallik deganda tabiiy tilde «maxsus til konstruksiyalari yordamida ifodalangan» bayonotning kontekstual tavsifi tushuniladi. Sh.Ballingning yozishicha, «modallikning mantiqiy vazifasi fikrlovchi subyektning uning vakilligiga munosabatini ifoda etishdir» [6]. Falsafada modallik mantiq va mantiqiy fikrlash toifalarini anglatadi hamda terminologiyaning bir qismi boshqa fanlar tomonidan olingan bo'lsa-da, boshqa sohalaridagi atama bir xil maqom, hajm va foydalanishga ega emas.

P.Sulkunen va Y.Torronena [7], tilshunoslar uchun modallikni mantiqiy ko'rib chiqish tor, chunki u propozitsiyaning haqiqiy qiymatiga qaratilgan. Shunga qaramay, modallikni mantiqiy tushuncha sifatida tushunish bilan cheklangan, hukm bilan cheklangan, ma'ruzachining haqiqiy dunyoga munosabatini

«aloqalar, gapda ko'rsatilgan va ifodalangan faktlar»ning ishonchliligi yoki ishonchsizligi doirasida qayd etadigan tadqiqotlar mavjud [8]. Xususan, G.V.Kolshanskiy imkoniyat, voqelik va ehtiyojning modal ma'nolarini qayd etadi va modallikni leksik, grammatik va intonatsion ifoda vositalari bilan obyektivlash-tirilgan bayonotning voqelikka munosabati (ya'ni, bayon mazmuni va haqiqat faktlari o'rtasidagi munosabatni belgilaydi) sifatida tushunadi [9].

Shu bilan birga, tilshunoslar modallikning mantiqiy-semantik jihatlarini imkoniyat, voqelik, zarurat nuqtai nazaridan hisobga olgan holda, lingvistik va nutq kontekstlarida modallikning lingvistik toifasi kengroq amalga oshiriladi va mantiqdan tashqariga chiqadigan ma'no va semantik soylarning muhim registrini qamrab oladi, degan fikrga qo'shiladilar [10]. Masalan, V.V.Vinogradov modal ma'no har bir jumlagacha xos ekanligini ta'kidlaydi; u voqelikka munosabatni ko'rsatadi. U shunday deb yozgan edi: «fikr, his-tuyg'u, istakning har qanday yaxlit ifodasi, voqelikni bayonotning u yoki bu shaklida aks ettirgan holda, tilning ushbu tizimida mavjud bo'lgan intonatsion jumlar sxemalaridan biriga o'ralgan bo'lib, ular sintaktik ma'nolardan birini ifodalaydi birgalikda modallik toifasini tashkil qiladi» [10]. Bundan tashqari, V.V.Vinogradov nafaqat mantiqiy toifalarni, masalan, imkoniyat va ehtiyojni, balki optik («istak»), qasddan («niyat»), irodani ifoda etish («irodani ifoda etish») kabi kognitiv holatlarni ifodalovchi toifalarni ham modallikka bog'ladi [10]. U «modallik toifasi bilan hissiy ifodaning har xil turlari bilan aloqa qiladi, hatto qisman o'zaro bog'liqdir» deb ishongan [10].

Modallik va baholash nisbati alohida qiziqish uyg'otadi. Baholash—bu gapiruvchi shaxsning voqelikka bo'lgan munosabatini aks ettirishning o'ziga xos subyektiv hissiy-ekspressiv shaklidir [11]. Keng kategorik ma'noda baholashni modal maydonga kiritish mumkin, chunki u nutq ishlab chiqaruvchisining ifoda etilgan tarkibga hissiy-ekspressiv munosabatini belgilaydi [12]. Bundan tashqari, baholash ham hissiy bo'lmagan bo'lishi mumkin. «Modallik, munosabat ifodasi sifatida, tabiatan baholovchi va subyektivdir, chunki u faqat shaxsiyatdan kelib chiqadi... «Modallik – baholash» dixotomiyasi olib tashlanadi. Modallikning mohiyati baholash munosabatlari deb tan olinishi mumkin» [13].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Modallik va baholash bayonotning umumiy pozitsiyasi bilan birlashtirilgan – modus, ya'ni, funksional va pragmatik jihatdan ular propositiv tarkib – diktum uchun malaka rollarini bajaradilar. Bir tomondan, baholash, modallik kabi, ma'ruzachining propositiv bayonotga munosabatini ifodalaydi va subyektiv qatlamga ishora qiladi. Shu bilan birga, shuni ta'kidlashni istardimki, modallik ham, baholash ham bayonotning diktant qismida bo'lishi mumkin va shu bilan tarkibning obyektiv parametrlarini qayd etadi.

I.R.Galperin modallikning eng muhim belgilariga ma'ruzachi tomonidan tavsiflangan faktlarni baholashni kiritdi [14], ya'ni modallikni keng ma'noga ega kategoriya sifatida tushundi, chunki taxminlar har xil bo'lishi mumkin, shu jumladan, propositiv haqiqatini baholash. Bundan tashqari, I.R.Galperin tilshunoslikda birinchi bo'lib modallik maqomini matn toifasi sifatida ochib berdi. U modallik obyektiv ekanligini, bayonotda aktualashtirilganligini, baholovchi xususiyatga ega ekanligini va funksional-semantik vositalar bilan ifodalanganligini ko'rsatdi. Muqobil nuqtayi nazarga ko'ra, subyektiv modallikning lingvistik mohiyati va funksiyalari va ma'ruzachining propositiviyaga bo'lgan munosabatini hissiy-ekspressiv ifodalash jumla tuzilishini qurishda shunchalik farq qiladiki, ularni modallikning bitta grammatik yoki leksik-grammatik kategoriyasi doirasida birlashtirish mumkin emas.

Mazmunli hajm va modallikni til kategoriyasi sifatida tasniflash muammosi uzoq vaqtdan beri mahalliy tadqiqotlarda ko'tarilgan. E.I.Belyaevaning fikriga ko'ra, modallik toifasi semantik jihatdan uch turdagi munosabatlar bilan cheklangan: 1) bayon mazmunining voqelik nuqtayi nazaridan haqiqatga munosabati; 2) ma'ruzachining bayonotga uning ishonchliligi baholash nuqtayi nazaridan munosabati; 3) voqelik objekti va uning belgisi o'rtasidagi munosabat (imkoniyat, ehtiyoj, maqsadga muvofiqlik) [15]. Mahalliy tilshunoslar tomonidan ishlab chiqilgan tushunchalar keng ma'lum. G.A.Zolotova modallikning uchta aspektli rejasini ajratib ko'rsatadi: a) gap mazmunining voqelikka ma'ruzachi nuqtayi nazaridan munosabati; b) ma'ruzachining gap mazmuniga munosabati; d) harakat subyektivining harakatga munosabati. Oxirgi jihat alohida ahamiyatga ega, chunki u modal fe'llar bilan ifodalanadi.

**Tahlil va natijalar** (Analysis and results). Shuni ta'kidlash kerakki, modallikning eng kam cheklangan lingvistik tadqiqotlarida ham ichki qarama-qarshiliklar mavjud. Masalan, F.R.Palmerning keng tarqalgan nazariyasida [1] modallik semantik-grammatik kategoriya sifatida tushuniladi, ammo modal yordamchi fe'llarning cheklangan sinfiga tegishli, hatto ushbu to'plam ichida semantik va grammatik mezonlar bir-birini to'ldiruvchi emas, balki ziddiyatli bo'lgan holatlar mavjud, bu esa ushbu toifani tushinishda yanada katta qiyinchiliklarga olib keladi. Zamonaviy tadqiqotlarda til birliklarining modalligini nafaqat tor lingvistik kontekstlarda, balki ularning faoliyatining madaniy va ijtimoiy omillarini hisobga

olgan holda, ekstralingvistik keng kontekstlarda ifodalash kabi muammolarga qiziqishning chuqurlashishi va kengayishi kuzatilmoqda. Antropologik paradigmaga burilish tilda modallikning obyektivligi va subyektivligini amalga oshirishda ma'ruzachi hamda tinglovchining rolini ochib beradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, modallik ma'ruzachilarga imkoniyatlar, aniqliklar yoki majburiyatlarni ifoda etishga imkon berish orqali tilda muhim rol o'ynaydi. Modal qiymatlarning tipologiyasini keng tasniflash mumkin epistemik va deontik aniqlik yoki ehtimollik nuanslariga asoslangan keyingi farqlar bilan toifalar. Modallikning tabiati va tipologiyasini o'rganish va tushunish til va inson muloqotining nozik jihatlari to'g'risida qimmatli tushunchalarni berishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, modal qiymatlar kontekstga bog'liq bo'lishi va tillarda farq qilishi mumkin. Turli xil tillarda modallikni ifodalash uchun turli xil grammatik manbalar yoki strategiyalar bo'lishi mumkin, bu esa ma'ruzachilarning munosabat va imkoniyatlarni qanday yetkazishida o'zgarishlarga olib keladi. Ushbu tipologik farqlarni tushunish lingvistik tadqiqotlar va tarjima maqsadlari uchun juda muhimdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Palmer F.R. Mood and modality. Cambridge, Cambridge University Press, 1986, 243 p.
2. [CODL] The Concise Oxford Dictionary of Linguistics. 3 edition. P.H.Matthews (ed.). Oxford: Oxford University Press, 2014, 464 p.
3. Мещанинов И.И. Члены предложения и части речи. Л., "Наука", 1978, 387 с.
4. Панфилов В.З. Категория модальности и ее роль в конституировании структуры предложения и суждения. "Вопросы языкознания", 1977, № 4, с. 37 – 48.
5. Кант И. Критика чистого разума. Сочинения в 6 т. Т. 3, М., "Мысль", 1964, 799 с.
6. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. Пер. с фр. Ш.Балли. М., изд-во иностранной литературы, 1955, 416 с.
7. Sulkunen P., Törrönen J. The production of values. The concept of modality in textual discourse analysis. *Semiotica*, 1997, p. 43 – 69.
8. Галкина-Федорук Е.М. Безличные предложения в современном русском языке. М., изд-во МГУ, 1958, 332 с.
9. Колшанский Г.В. Соотношение объективных и субъективных факторов в языке. М., "Наука", 1975, 229 с.
10. Виноградов В.В. О категории модальности и модальных словах в русском языке. Избранные труды. Исследования по русской грамматике. М., "Наука", 1975, с. 53 – 87.
11. Романова Т.В. Модальность. Оценка. Эмоциональность. Нижний Новгород, изд. НГЛУ им. Н.А. Добролюбова, 2008, 309 с.
12. Миронова Н.Н. Средства выражения субъективной модальности в научном тексте (на материале немецких лингвистических текстов). Автореф. дис... канд. филол. наук, М., 1991, 25 с.
13. Попова Е.А. Авторская модальность как средство выражения антропоцентричности текста. Дис... канд. филол. наук, Липецк, 1996, 204 с.
14. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. Изд-е 3-е. М., Едиториал УРСС, 2005, 144 с.
15. Беляева Е.И. Функционально-семантические поля модальности в английском и русском языках. Воронеж, ВГУ, 1985, 180 с.

**Jurayev Nurbek Djumanazarovich (Qarshi davlat universiteti)**

#### **O'ZBEK TILIDAGI "TIL" KOMPONENTLI IBORALAR HAMDA ULARNING MAQOLLAR BILAN SINONIMIYASI**

***Annotatsiya.** Maqolada o'zbek tilidagi "til" komponentli iboralar hamda ularning maqollar bilan sinonimiyasi yoritilgan. Maqollar yillar, asrlar davomida insonlarning aqli, kuzatuvchanligi, atrof-muhitga bo'lgan e'tibori, aql-farosati, ko'p asrlik hayotiy tajribasi va ma'ishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayot, tabiat, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari, qisqasi, o'zi va o'zligi namoyon bo'lgan. Yillararo, davrlararo ularning yangilari yaratilib turgan, tilda mavjudlarining esa semantik doirasi kengayib yoki torayib borgan.*

***Аннотация.** В статье рассматриваются выражения с компонентом "язык" в узбекском языке и их синонимия с пословицами. Пословицы были ярким отражением умов, наблюдений и внимания людей к окружающей среде, интеллекта, многовекового жизненного опыта и образа жизни на протяжении многих лет и столетий. В этом художественном зеркале отразилось отно-*

шение человека к жизни, природе, семье и обществу, его социально-политические, духовные, мораль-ноэстетические и философские взгляды, короче говоря, он сам и его личность. С годами создавались новые, а семантический диапазон существующих расширялся или сужался.

**Annotation.** *The following article deals with the expressions on “language” in the Uzbek language and their synonymy with proverbs. Proverbs have been a vivid reflection of people’s minds, observations, and attention to the environment, intellect, centuries of life experience, and way of life over the years and centuries. This artistic mirror reflected his attitude to life, nature, man, family and society, his socio-political, spiritual, moral-aesthetic and philosophical views, in short, himself and his identity. Over the years, new ones have been created, and the semantic range of the existing ones has been expanded or narrowed.*

**Kalit so‘zlar:** *maqol, nutq, milliy, xalq, ma’no, metafora, ta’rif, so‘z, mavzu, til.*

**Ключевые слова:** *поговорка, речь, национальный, народ, смысл, метафора, описание, слово, тема, язык.*

**Key words:** *proverb, speech, national, nation, meaning, metaphor, definition, word, theme, language.*

Maqollar so‘z san’ati mahsuli sifatida o‘z ma’nosida, ko‘chma ma’noda va har ikkala ma’noda qo‘llanishi mumkin. Shuning uchun ularda badiiy-tasviriy vositalarning xilma-xil shakllariga duch kelamiz. Maqollarda o‘xshatishning kam ishlatilishini, uning bu janr uchun xarakterli emasligini ham ko‘ramiz. Maqol o‘xshatish bilan o‘zgartirib qo‘llanilsa, odatda, ular o‘z maqollik xususiyatini yo‘qotadi. Masalan, “Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni” maqolini *bulbul chamanni sevganday, odam vatanni sevar* yoki “Dehqon bo‘lsang, shudgor qil, Mulla bo‘lsang, takror qil” maqolini *dehqon shudgor qilganday, mulla bo‘lsang, takror qil* tarzida ifodalansa, mazmun butunlay o‘zgaradi.

Keyingi paytlarda matbuot sahifalarida maqolning ana shu xususiyatini hisobga olmay, o‘zgartirib qo‘llash hollariga duch kelmoqdamiz. Masalan, “Ustoz otangdan ulug‘” maqoli *Ustoz otangday ulug‘* tarzida buzib qo‘llanmoqda. Bunda otani kamsitish holati yo‘q, shunday bo‘lganda “Ota rozi – xudo rozi” degan maqoli yaratilmagan bo‘lardir. Bu yerda ustoz hurmatini bo‘rttirish bor, xolos. Qolaversa, xalqda odamzodning birinchi, yakka-yagona ustozlari Olohdirdir, degan tushuncha qat’iy. Ikkinchidan, ustoz bilan ota tenglashtirib qo‘yilsa, maqol mazmuni butunlay o‘zgarib, xalq qarashlariga zid bo‘lib qoladi. To‘g‘ri, ko‘p variantlilik maqollarga xos, ammo bu maqollarni istagancha o‘zgartirish mumkin degan xulosaga kelishga yo‘l qo‘ymaydi. Variantlilikning ham o‘ziga xos tabiiy qonuniyatlari mavjud. Maqollar ketma-ket kelganda, biri ikkinchisini inkor etgandek, bir-biriga ziddek tuyuladi. Aslida, qo‘llanish vaziyatiga qarab, turli-tuman ma’no-mazmun ifodalinishini unutmashimiz kerak. Maqolning jonli, vaziyatga qarab qo‘llanilishi asosida yana bir xususiyat kelib chiqadi: qatorlar almashuvi, hatto so‘z, iboralarning o‘rin almashuvida ham o‘zgacha ma’no yuzaga keladi. Masalan, so‘z *isrofgar xotin* haqida ketayotgan bo‘lsa, maqolni “Limcha mulla – dinning sho‘ri, Yomon xotin – unning sho‘ri” shaklida, so‘z *challasavod din vakili* haqida ketayotgan bo‘lsa, uni “Yomon xotin – unning sho‘ri, Limcha mulla – dinning sho‘ri” shaklida qo‘llaniladi. Bunday holatda ma’no urg‘usi, odatda, ikkinchi misraga tushadi.

Xalq maqollari va iboralarda sinonimiya va variantlilik masalasi qator maqola va monografik tadqiqotlarning obyekti bo‘lgan. L.I.Selyaninaning ingliz tili maqollarining variantlari,<sup>1</sup> I.L.Fedosovning frazeologik birliklarda funksional-stilistik sinonimiya va variantlilik,<sup>2</sup> V.Zangligerning maqollarda sinonimiya va variantlilik,<sup>3</sup> T.N.Fedulenkovaning maqollar sinonimiyasi,<sup>4</sup> Y.Ugarova, M.Grexova, Y.Ignatovichlarning ingliz tili “Give” komponentli frazemalar sinonimiyasi,<sup>5</sup> Y.M.Maklakova, S.O.Magrufova-

<sup>1</sup> Селянина Л.И. Варианты пословиц английского языка. Автореф. канд. дисс., Москва, 1970.

<sup>2</sup> Федосов И.Л. Вариантность и функционально-стилистическая синонимия фразеологических единиц. “Вопросы языкознания”, 1974, № 6.

<sup>3</sup> Занглигер В. Вариантность и синонимия пословиц. Болгарская русистика. 2010, № 3 – 4, с. 12 – 33.

<sup>4</sup> Федуленикова Т.Н. Синонимия в пословицах. Романо-германские лингвистические исследования и методика преподавания иностранных языков. Материалы междунар. конф., г. Томск, 1 января – 31 декабря 1997 года, Томск, Томск. гос. пед. ун-т, 1997, ч. 2, с. 44 – 46.

<sup>5</sup> Ugarova Y., Grekhova M., Ignatovich Ya. On Synonymous Relations in the Set of English Verbal Phraseological Units with the Component ‘Give’. URL: <https://www.scienceforum.ru/2015/pdf/18136.pdf> (мурожаат санаси: 20.08.2022).



larning ingliz, fransuz, rus tillarida zoonim komponentli maqollarning sinonimiyasi<sup>1</sup> masalalariga bag'ishlangan maqola hamda qator monografiya, risola va lug'atlarda<sup>2</sup> ingliz va rus tillaridagi maqol va iboralarning sinonimiyasiga oid masalalar o'z yechimini topgan.

Biz tadqiqotning ushbu bo'limida o'zbek tili leksikasidagi til, so'z, nutq kopponentli iboralar hamda ularning shu mavzuviy guruhga mansub maqollar bilan sinonimiyasi xususida fikr yuritimiz. Aslida, qiyoslanayotgan birliklar umumiy xususiyatlarga ega bo'lishi lozim. Maqol tugal fikr, hukm va xulosani bildiradi. Ular mustaqil gapdir. Ibora esa tugallanmagan fikr ifodalab, ma'lum bir gapni shakllantirishga xizmat qiladi, gapning bir bo'lagi bo'lib keladi. Iboralar ot, sifat, fe'lning so'roqlariga javob bo'lib, gapda ma'lum bir morfologik-sintaktik butunlik sifatida ishtirok etadi. Shunday bo'lsa ham, "jamiyat a'zolari uchun oldin tayyorlik", "nutq vaziyatida yangidan hosil bo'lmaslik" kabi xususiyatlar maqol va iboralar uchun umumiylik hosil qiladi. Quyida til, so'z, nutq kopponentli iboralar, ularning tashkil etuvchi, mazmuni to'g'ridan to'g'ri ifodalash yoki ko'chma ma'no haqida fikr yuritimiz. Buning uchun Sh.Rahmatullayevning o'zbek tilining izohli frazeologik lug'atida<sup>3</sup> mavjud iboralarni kuzatamiz.

*Aravani quruq olib qochmoq.* Uddasidan chiqa olmaydigan ish yoki narsa haqida ortiq darajada maqtanmoq. Varianti: *aravani olib qochmoq; olib qochmoq, aravani olib qochmoq, quruq aravani olib qochmoq.*

*Aravani quruq olib qochding, og'ayni. Gapga ham amirkon moyi surtib, g'irchillatvoradigan bo'psan-da* (Said Ahmad. Oriyat). *Aravani quruq olib qochish evi bilan-da, avval burningni artsang-chi...* (S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi). *Nima deyishardi?.. "Bo'lmag'ur ish" deb, toza aravani olib qochishdi* (S.Nazar. Yashil boylik). *"O'zing ham rosa olib qochasan-da, – gapga qo'shildi chust do'ppisini qo'lida ushlab o'tirgan yigit, – olinmagan buzoqqa qoziq qoqishingni-chi"* (R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi).<sup>4</sup>

Ushbu iborada "so'z", "gap", "til", "nutq" kabi komponentlar mavjud bo'lmasa-da, u nuqt vaziyati, nutqiy harakatni ifodalab keladi. Barcha iboralarda bo'lganidek, so'zlar umumiy holda, ko'chma ma'noda *uddasidan chiqa olmaydigan ish yoki narsa haqida ortiq darajada maqtanmoq* mazmunini ifoda etadi. Ko'rinyaptiki, nutqning bu shakli so'zlovchining maqsadini hamda tinglovchi tomonidan qabul qilinadigan ma'lumot mazmuni shu usulda yuzaga chiqyapti.

**Gap bermaslik.** So'z bermaslik.

**Gapga kirmoq.** Gap(i)ga kirmoq.

**Gapdan qaytmoq.** So'z(i)dan qaytmoq.

**Gap(i)ga gap qaytarmoq.** Gap qaytarmoq.

**Gap(i)ga kirmoq** *kim kimning* varianti: **gapga kirmoq** kim; **so'z(i)ga kirmoq; so'zga kirmoq** kim. Sinonimi: **quloq solmoq.** O'xshashi: **tilga kirmoq.**

*Roziq hech kimning gapiga kirmasa ham, uning gapiga kiradi* (S.Anorboyev. Oqsoy). *Hali kelin ham sizning gapingizga kirib, uydan chiqmay o'tiribdimi?* (A.Qahhor. To'y). *Aqlli, farosatli, gapga kiradigan qiz bo'lganda, dadasiga g'amxo'r bo'lardi* (Sh.Rashidov. Bo'rondan kuchli). *Onangning so'ziga kir, aqlli-hushlisan, ko'nglini og'ritma* (H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil...) *so'zga kirmagan bolani nima qilish kerak?* (H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar).<sup>5</sup>

<sup>1</sup> Маклакова Е.М., Магфурова С.О. Синонимы и структурные варианты паремий с компонентом-зоонимом в английском, французском и русском языках. Вестн. Сев. (Арктич.) федер. ун-та, сер.: гуманитар. и соц. науки, 2018, № 3, с. 99 – 105.

<sup>2</sup> Адрианова-Перетц В.П. Пословицы и поговорки. Избранные пословицы и поговорки русского народа. М., 1957; Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. Л., 1963; Аникин В.П. О «логико-семиотической» классификации пословиц и поговорок. Русский фольклор. XVI. Л., 1976; Вяльцева С.И. Оказиональное использование английских пословиц. Исследование лексической сочетаемости и фразеологии. Сб. трудов МГПИ, М., 1975; Вяльцева С.И. Оказиональное использование английских пословиц. Исследование лексической сочетаемости и фразеологии. Сб. трудов МГПИ. М., 1975; Norrick N.R. How Proverbs Mean: Semantic Studies in English Proverbs. Berlin, "Mouton", 1985, p. 213; Martinez F.M. Occasional Phraseological Synonymy IJES, 2006, Vol. 6, № 1, p. 131 – 158; Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. Л., изд-во Ленингр. ун-та, 1963, с. 208; Кюрегян А.Л. Дескриптивные модели английских провербиальных единиц. Филол. науки. Вопр. теории и практики. 2015, № 2(44), в 2 ч, ч. 1, с. 125 – 129.

<sup>3</sup> Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Toshkent, "O'qituvchi", 1978, 407-bet.

<sup>4</sup> Shu manba. 27-bet.

<sup>5</sup> Ko'rsatilgan manba. 64-bet.

Yuqorida keltirilgan iboralar tarkibida “gap” komponenti mavjud bo‘lib, har biri turli ma’noni anglatadi. “Gap” komponentining *bermoq, kirmoq, qaytmoq, qaytarmoq, kirmoq* fe’llari bilan birikishi bir-biridan tamoman uzoq leksemalar ma’nosini beradi. *Birovga so‘z bermay, faqat o‘zi gapirmoq, birovning maslahatiga, nasihatiga quloq solmoq, aytgan so‘zidan qaytmoq* kabi ma’nolarni bildiradi. Bu iboralar-ning kontekstda kelishi shu mazmundagi ayrim maqollar bilan sinonim bo‘lishini ko‘rish mumkin. Masalan, *gap bermaslik, so‘z bermaslik* iboralari kam gapirib, ko‘p eshitish haqidagi mavollar bilan hamohang: *Oz so‘zla, ko‘p o‘yla. Avval o‘yla, keyin so‘yla. O‘n qatim o‘yla, bir qatim so‘yla. Tez so‘zlagan tez pushaymon bo‘lar. Og‘izga kelgan so‘z arzon, ovulga kelgan bo‘z arzon.*

Yuqorida aytilganidek, maqollarda hukm, xulosa mavjud bo‘lsa, iboralarda nutq vaziyatini yanada aniqroq ifodalash xususiyati kuchli.

**Gap(i)da turmoq I** *kim* [o‘zining]. Ahdini saqlamoq. Varianti: **so‘z(i)da turmoq I; lafz(i)da turmoq.** Antonimi: **so‘z(i)dan qaytmoq.**

*“Ishonmang, Marhamat opa!” – dedi Qudrat, go‘yo vojatiy darrov ishona qoladiganday. – Gapida turmaydi u (H.Nazir. Qo‘qorol chiroqlari). “Ixtiyor o‘zingda, jigaram! – dedi u yig‘lamsiragan bir tovush bilan. – Lekin o‘z so‘zingda turmaganing uchun xafaman” (Oybek. Oltin vodiyan shabadalar). Kecha borganimda yana pishitdim, Xolmat Yunusoviya lafzida turadigan odam (A.Muxtor. Tug‘ilish).<sup>1</sup>*

**Gap(i)da turmoq II.** so‘z(i)da qattiq turmoq.

Bu iboralar ham “gap” komponenti ishtirokida tuzilgan. Rim raqami bilan farqlanuvchi **gapida turmoq** iboralari omonimik xususiyat kasb etadi: birinchisi *ahdini saqlamoq*, ikkinchisi so‘zida *qattiq turmoq* ma’nosini bildirib, “yigit so‘zidan qaytmas, arslon izidan” maqoli mazmuniga hamohang.

**Gap(i)ni ikki(ta) qilmaslik.** Bir so‘z(i) ikki(ta) bo‘lmadi.

**Gap(i)ni o‘tkazmoq.** So‘z(i) o‘tdi.

**Gap(i)ni qaytarmoq.** So‘z(i)ni qaytarmoq.

**Gap(i) o‘tdi.** So‘z(i) o‘tdi.

**Gap(lari) bir joydan chiqdi kimlarning.** Fikr-o‘ylari mos keldi. Varianti: **so‘z(lari) bir joydan chiqdi; so‘z(lari) bir yerdan chiqdi; fikr(lari) bir yerdan chiqdi.**

*“Demak, gapimiz bir joydan chiqibdi-da”, – Zamonning gapini bo‘lib so‘zida davom etdi u (N. Nazarov. Zamon. Ola-g‘ovur boshlandi. Teshaboy akadan boshqa hammaning so‘zi bir joydan chiqdi (S.Abdugahhor. Hayotning boshlanishi). Ularning dilida bir tilak, bir orzu hukmron bo‘lgani uchun, so‘zlari ham bir yerdan chiqd (Sh.Rashidov. Bo‘rondan kuchli). “Fikrimiz bir yerdan chiqyapti”, – deya ko‘nglidan o‘tkazgach, keskin javob berdi (Sh.Rashidov. Bo‘rondan kuchli).<sup>2</sup>*

Mazkur maqollarning izohidan ko‘rinib turibdiki, nutqimizda shunday paremiologik birliklar mavjudki, ular ham maqol, ham ibora sifatida qo‘llana oladi.

**Radjabov Nasir Nasimovich (O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Tillarni o‘rganish” kafedrası dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**

## **O‘ZBEK TILIDA UNDOHLARNING FONETIK VA GRAFEMIK XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya.** *Maqola o‘zbek tilidagi undoshlarning fonetik va grafemik xususiyatlariga bag‘ishlangan. Unda undoshlarning artikulyatsiyasi, akustikasi, distributsiyasidagi o‘ziga xosliklari o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada undosh fonemalarning grafemik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari aniq misollar bilan izohlangan. Grafemik xususiyatiga ko‘ra, o‘zbek tilida undoshlar “Bir fonema – bir harf” tamoyili asosida voqelanishi ta’kidlangan. Maqolada p, t, f, s, j, tf, ts, k, q, x, h jarangsiz hamda j, g‘ jarangli undoshlari, shuningdek, l, m, n, r sonorlarining so‘zdagi o‘rni cheklanmagan, b, d, v, z, ʒ, dʒ, g jarangli undoshlarining so‘zdagi o‘rni esa cheklangan bo‘lishi ishonarli misollar bilan asoslangan.*

**Аннотация.** *Статья посвящена фонетическим и графемическим свойствам согласных в узбекском языке. Изучаются особенности согласных в их артикуляции, акустике и дистрибуции. Также в статье на конкретных примерах поясняются графемические особенности согласных фонем. Отмечается, что по графемическому признаку согласные в узбекском языке образуются по принципу «Одна фонема – одна буква». В статье представлены конкретные примеры неограниченной дистрибуции глухих согласных /p, t, f, s, j, tf, ts, k, q, x, h, и звонких согласных j, g‘, а также сонорных звуков l, m, n, r и ограниченной дистрибуции звонких согласных b, d, v, z, ʒ, dʒ, g.*

<sup>1</sup> Ko‘rsatilgan manba. 63 – 64-betlar.

<sup>2</sup> Ko‘rsatilgan manba. 64-bet.

**Annotation.** The article is dedicated to the phonetic and graphemic properties of Uzbek consonants. It studies the peculiarities of consonants in their articulation, acoustics, and distribution. Also, the graphemically specific features of consonant phonemes are explained with specific examples in the article. According to the graphemic feature, it is noted that consonants in Uzbek are formed based on the principle of “One phoneme – several letters”. In the article, the unlimited distribution of the unvoiced consonants /p, t, f, s, ʃ, tʃ, ts, k, q, x, h/ and voiced consonants j, gʻ, as well as the sonorants /l, m, n, r/ and the limited distribution of the voiced consonants b, d, v, z, ʒ, dʒ, g have been proved with convincing examples.

**Kalit soʻzlar:** undosh, fonema, artikulyatsiya, akustika, harf, fonetik xususiyat, grafemik xususiyat.

**Ключевые слова:** согласный звук, фонема, артикуляция, акустика, буква, фонетический признак, графемный признак.

**Key words:** consonant, phoneme, articulation, acoustics, letter, phonetic feature, graphemic feature.

Har bir tilning oʻziga xos xususiyatlari uning turli tizimlarida, xususan, tovush tizimida aks etadi. Shu nuqtayi nazardan, oʻzbek tili tovush tizimi ham qator oʻziga xosliklarga ega boʻlib, bu oʻziga xosliklar uning segment va supersegment birliklarida namoyon boʻladi. Jumladan, segment birlik boʻlgan undosh tovushlar ham tizim sifatida oʻzbek tiliga xos tuzilishi bilan boshqa tillardan ajralib turadi. Oʻzbek tilida undoshlarning oʻziga xos jihatlaridan biri ularning fonetik, shuningdek, grafemik xususiyatlarida namoyon boʻladi. Mazkur tilda undoshlarning fonetik xususiyatlari A.F.Syoberg [14], Y.D.Polivanov [9], V.V.Reshetov [10], Sh.Shoabdurahmonov [11], X.Doniyorov [3], A.Mamatov [5], S.Otamirzayeva [8], T.Qudratov [12], A.A.Abduazizov [2], A.Mahmudov [6], Sh.Rahmatullayev [13], M.M.Mirtojiyev [7] kabi tilshunoslar tomonidan oʻrganilgan. Jumladan, oʻzbek tili tovush tizimini alohida obyekt sifatida X.Doniyorov, A.Mamatov, S.Otamirzayeva, T.Qudratov singari tilshunoslar turli shevalar misolida; A.A.Abduazizov, A.Mahmudov kabi tilshunoslar adabiy til misolida; M.M.Mirtojiyev esa oʻzbek tili tovush tizimini ham adabiy til, ham shevalar misolida fonetik eksperiment asosida tadqiq qilishgan.

Oʻzbek tilida undoshlarning fonetik jihatdan oʻziga xosligi ularning artikulyatsion-akustik tasnifi, persektiv (eshitilish) jihati, undoshlarning soʻzdagi distributsiyasida namoyon boʻladi. Oʻzbek tili doirasida undosh tovushlarning fonetik tasnifi V.Reshetov [10.20–22], A.N.Kononov [4.23], Sh.Rahmatullayev [13.9–19], A.Mahmudov [6], M.M.Mirtojiyev [7.87–97], A.Abduazizov [1.40] kabi tilshunoslar tomonidan amalga oshirilgan. V.Reshetov oʻzbek tili undoshlarini: a) tovush paychalarining ishtirokiga koʻra jarangli, jarangsiz; b) nutq organlarining ishtirokiga koʻra *lab, til oldi, til oʻrta, til orqa, chuqur til orqa va boʻgʻiz*; d) hosil boʻlish usuliga koʻra *portlovchi, sirgʻaluvchi, titroq va qorishiq* tovushlarga ajratib tasnif qiladi. A.N.Kononov undoshlarni, dastlab, ovoz va shovqinni ishtirokiga koʻra: 1) shovqinli; 2) sonor tovushlarga ajratib, soʻng ularni: a) hosil boʻlish oʻrniga koʻra, *lab, til oldi, til oʻrta, til orqa, chuqur til orqa va boʻgʻiz*; b) hosil boʻlish usuliga koʻra, *portlovchi, sirgʻaluvchi, titroq va qorishiq*; d) tovush paychalarining holatiga koʻra *jarangli, jarangsiz* kabi kichik guruhlarini farqlaydi. Oʻzbek tili undoshlarining Sh.Rahmatullayev tomonidan berilgan tasnifi mazmun jihatidan V.Reshetov hamda A.N.Kononovlarning tasnifi bilan hamohang boʻlsa-da, nutq tovushlari nomlarining atalishi nuqtayi nazaridan oʻziga xoslik kasb etadi. U “unli, jarangli undosh, jarangsiz undosh, sonor” kabi tovush atamalariga yangicha yondashib, “unli” oʻrnida “ovoz tovushi”, “jarangli undosh” oʻrnida “ovozli tovush”, “jarangsiz undosh” oʻrnida “shovqin tovush”, “sonor” oʻrnida “ovozdor tovush” atamalarini qoʻllaydi va oʻzbek tilida nutq tovushlarini shunday nomlash maqsadga muvofiq boʻladi, degan fikrni ilgari suradi [13.9–13]. Atama nuqtayi nazaridan M.M.Mirtojiyev tasnifi ham oʻziga xos boʻlib, unga koʻra, “undosh”lar “konsonant” atamasi bilan ifodalanadi. Mazkur tasnifning yana bir oʻziga xosligi uning oʻzbek adabiy tili bilan birga, undagi shevalarni ham qamrab olganligi bilan izohlanadi. M.M.Mirtojiyev undoshlarni, dastlab, akustik xususiyatiga koʻra tasnif qilib, ularni: 1) *sonant* hamda; 2) *konsonantlarga*, oʻz navbatida, konsonantlarni *jarangli, jarangsiz* tovushlarga ajratadi. Shuningdek, u undoshlarni artikulyatsiya jihatidan ham tasnif qilib, ularni artikulyatsiya oʻrniga koʻra, *lab-lab, lab-tish, til oldi, til oʻrta, til orqa, chuqur til orqa, boʻgʻiz*, artikulyatsiya usuliga koʻra, *portlovchi, sirgʻaluvchi, qorishiq* kabi guruhlarga ajratadi [7.87–124]. A.Mahmudov undoshlarning akustik xususiyatiga koʻra, *shovqinli va sonor*, artikulyatsiyasi jihatidan hosil boʻlish oʻrni va hosil boʻlish usuliga koʻra tasnif qilgan. U undoshlarning hosil boʻlish oʻrniga koʻra *lab, alveolar, tanglay, til orqa (veliyar, uvular), boʻgʻiz* tovushlariga; hosil boʻlish usuliga koʻra *portlovchi, sirgʻaluvchi, qorishiq, titroq* kabi tovush guruhlariga ajratadi [6.29–41]. A.Mahmudov undoshlar tasnifida til oldi atamasi oʻrnida alveolar atamasini qoʻllaydi. A.Abduazizov bu fikrga qoʻshilmagan holda, alveolar atamasi oʻzbek tilidagi barcha til oldi unlilariga xos emasligini taʼkidlaydi va undoshlarni hosil

bo'lish o'rniga ko'ra lab va til tovushlariga bo'linishi, lab tovushlari o'z o'rnida lab-lab, lab-tish undoshlariga, til tovushlari esa til oldi (tish, tish oralig'i, alveolar-apikal), til o'rta, til orqa, chuqur til orqa, bo'g'iz tovushlariga ajratib tasnif qilish ma'qul bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi [1.40].

Keltirilgan fikrlardan ko'rinadiki, o'zbek tilida undoshlar tasnifi "atama" nuqtayi nazaridan o'zaro u yoki bu darajada farq qiladi. Ba'zi tilshunoslar nutq tovushlari tasnifida "odatiy" atamalardan foydalansha, ba'zilari bu borada "yangicha" yondashuvni afzal ko'rishadi. Bizningcha, undoshlar tasnifida asosiy masala nutq tovushlarining "nomlanishida" emas, balki tasnifning nutq tovushlari xususiyatlarini mukammal darajada aks ettirishidir. Shunday ekan, undoshlar tasnifidagi "atamalar" borasida bir xillikka erishish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz va undoshlarni quyidagicha tasnif qilinishini qo'llab-quvvatlaymiz:

Undoshlar tasnifi						
Undoshlarning akustik tasnifi			Undoshlarning artikulyasion tasnifi			
Undoshlarning akustik tasnifi						
Shovqinli undoshlar			Sonorlar			
Jarangli		Jarangsiz		burun	yon	titroq
/b, d, v, z, ʒ, dʒ, j, g, g' /		/p, t, f, s, ʃ, tʃ, ʂ, k, q, x, h /		/m, n, ŋ /	/l /	/r /
Undoshlarning artikulyasion tasnifi						
1) hosil bo'lish o'rniga ko'ra						
Lab undoshi		Til undoshi			Bo'g'iz undoshi	
lab-lab	lab-tish	til oldi	til o'rta	til orqa	chuqur til orqa	
/r, b, m /	/f, v /	/t, d, s, z, ʃ, ʒ, n, l, r, tʃ, ʂ, dʒ /	/j /	/k, g, ŋ /	/q, x, g' /	
/h /						
2) hosil bo'lish usuliga ko'ra						
Portlovchi		Sirg'aluvchi		Qorishiq	Titroq	
/p, b, t, d, k, g, q, m, n, ŋ, /		/f, v, s, z, ʃ, ʒ, j, x, g', h, l /		/tʃ, dʒ, ʂ /	/r /	
3) kichik tilning holatiga ko'ra						
Og'iz undoshlari				Burun undoshlari		
/b, d, v, z, ʒ, dʒ, g, j, g', p, t, f, s, ʃ, tʃ, ʂ, k, q, x, h, l, r /				/m, n, ŋ /		

/b/ – lab-lab, portlovchi, jarangli, og'iz undoshi bo'lib, distributsiyasiga ko'ra u asosan, so'z boshida: bor /bɒr/ va so'z o'rtasida: obid /ɒ'bit/ uchraydi. O'zbek tilida undoshlarning jarangli – jarangsiz belgisi so'z oxirida neytralizatsiya qilinishi tufayli /b/ fonemasi so'z oxirida deyarli uchramaydi: bob /bɒp/. Grafemik xususiyatiga ko'ra /b/ fonemasi yozuvda "b" harfi bilan ifodalanadi: ber /ber/.

/v/ – lab-tish, sirg'aluvchi, jarangli, og'iz undoshi bo'lib, u so'zdagi o'rniga ko'ra so'z boshida: vaqt /vɑqt/ va so'z o'rtasida: davlat /dɑv'lat/ kelishi mumkin. Undoshlarining jarangli belgisi o'zbek tili tovush tizimining o'ziga xosligi sabab so'z oxirida jarangsizlanishi tufayli /v/ fonemasi so'z oxirida deyarli uchramaydi: suv /sɒv/. Yozma nutqda /v/ fonemasi "v" harfi bilan ifodalanadi: zavq /zɑvq/.

/g/ – til orqa, portlovchi, jarangli, og'iz undoshi bo'lib, u nutqda so'z boshida: gap /gɑp/ va so'z o'rtasida: agar /ɑgɑr/ uchrashi mumkin. O'zbek tili undoshlarining jarangli belgisi so'z oxirida neytralizatsiya natijasida jarangsizlanishi tufayli /g/ fonemasi so'z oxirida deyarli uchramaydi: barg /bɑrg/. Yozuvda /g/ fonemasini "g" harfi ifodalab keladi: borgan /bɒrgɑn/.

/d/ – til oldi, portlovchi, jarangli, og'iz undoshi bo'lib, distributsiyasiga ko'ra, u, asosan, so'z boshida: daraxt /dɑ'rɑxt/ va so'z o'rtasida: odil /ɒ'dil/ uchraydi. O'zbek tilida undoshlarning jarangli – jarangsiz belgisi so'z oxirida neytralizatsiya qilinishi tufayli /d/ fonemasi so'z oxirida deyarli uchramaydi: dard /dɑrd/. Grafemik xususiyatiga ko'ra, /d/ fonemasi yozuvda "d" harfi bilan ifodalanadi: dada /dɑ'dɑ/.

/dʒ/ – til oldi, qorishiq, jarangli, og'iz undoshi bo'lib, u so'zdagi o'rniga ko'ra, so'z boshida: joy /dʒɔj/ va so'z o'rtasida: bajar /bɑ'dʒɑr/ kelishi mumkin. Undoshlarining jarangli belgisi o'zbek tili tovush tizimining o'ziga xosligi sabab so'z oxirida jarangsizlanishi tufayli /dʒ/ fonemasi so'z oxirida deyarli uchramaydi: toj /tɒtʃ/dʒ/. Yozma nutqda /dʒ/ fonemasi "j" harfi bilan ifodalanadi: jo'ja /dʒɔ'dʒɑ/.

/ʒ/ – til oldi, sirg'aluvchi, jarangli, og'iz undoshi bo'lib, u, asosan, ruscha baynalminal va tojik tildan o'zlashgan so'zlarda qo'llanadi. Nutqda u so'z boshida: jurnal /gɑp/ va so'z o'rtasida: gijda /gɑr/ uchrashi mumkin. O'zbek tili undoshlarining jarangli belgisi so'z oxirida neytralizatsiya natijasida jarangsizlanishi tufayli /ʒ/ fonemasi so'z oxirida deyarli uchramaydi: massaj /mɑ'sɑʒ/. Yozuvda /ʒ/ fonemasini "j" harfi ifodalab keladi: goraj /gɑ'rɑʒ/.

/z/ – til oldi, sirg'aluvchi, jarangli, og'iz undoshi bo'lib, distributsiyasiga ko'ra, u, asosan, so'z boshida: zor /zɒr/ va so'z o'rtasida: qoziq /qɒ'zɪq/ uchraydi. O'zbek tilida undoshlarning jarangli-jarangsiz belgisi so'z oxirida neytralizatsiya qilinishi tufayli /z/ fonemasi so'z oxirida deyarli uchramaydi: biroz /bɪ'rɒz/s/. Grafemik xususiyatiga ko'ra, /z/ fonemasi yozuvda “z” harfi bilan ifodalanadi: qirol /qɪ'rɒl/.

/j/ – til o'rta, sirg'aluvchi, jarangli, og'iz undoshi bo'lib, u so'zdagi o'rniga ko'ra, so'z boshida: yemoq /je'mɒq/, so'z o'rtasida: qaysi /qɑjsɪ/ va so'z oxirida: qarag'ay /qɑrɑ'g'ɑj/ uchraydi. Yozma nutqda /j/ fonemasini “e,” “y,” “ya,” “yo,” “yu” kabi harflar ifodalab keladi: elka /jel'kɑ/, yo'q /jo'q/, yarim /jɑrɪm/, yomg'ir /jɒmg'ɪr/, yulduz /jɒl'dɒz/.

/k/ – til orqa, portlovchi, jarangsiz, og'iz undoshi bo'lib, u so'zning turli o'rinlarida, masalan, so'z boshida: karam /kɑ'rɑm/, so'z o'rtasida: aka /ɑ'kɑ/, so'z oxirida: terak /te'rɑk/ kelishi mumkin. Yozuvda /k/ fonemasi “k” harfi bilan talqin qilinadi: kim /kɪm/.

/l/ – til oldi, sirg'aluvchi, yon sonor, og'iz undoshi bo'lib, nutqda u so'z boshida: lola /lɒ'lɑ/, so'z o'rtasida: baliq /bɑ'lɪq/, so'z oxirida: dil /dɪl/ uchrashi mumkin. Grafemik xususiyatiga ko'ra, /l/ fonemasini yozuvda “l” harfi ifodalab keladi: gul /gɒl/.

/m/ – lab-lab, portlovchi, sonor, burun undoshi bo'lib, distributsiyasiga ko'ra, u so'z boshida: mana /mɑnɑ/, so'z o'rtasida: imo /ɪ'mɒ/, so'z oxirida: tom /tɒm/ kelishi mumkin. Yozma nutqda /m/ fonemasi “m” harfi bilan ifodalanadi: mehr /mehr/.

/n/ – til oldi, portlovchi, sonor, burun undoshi bo'lib, u nutqda so'z boshida: non /nɒn/, so'z o'rtasida: ona /ɒ'nɑ/, so'z oxirida: sen /sen/ uchraydi. /n/ fonemasi yozuvda “n” harfi bilan beriladi: nima /nɪmɑ/.

/ŋ/ – til orqa, portlovchi, sonor, burun undoshi bo'lib, u mustaqil fonema sifatida, odatda, so'z oxirida: tong /tɒŋ/ qo'llanadi. O'zbek tilida /ŋ/ fonemasining so'z o'rtasi va boshida kelishi kuzatilmaydi. Singlim, ko'nglim kabi so'zlarning birinchi bo'g'inida uchraydigan /ng/ tovushi bo'g'in chegarasida ikkiga ajralishi mumkinligi tufayli mustaqil fonema hisoblanmaydi. Yozma nutqda /ŋ/ fonemasi “ng” harf birikmasi bilan talqin qilinadi: qarang /qɑ'rɑŋ/.

/p/ – lab-lab, portlovchi, jarangsiz, og'iz undoshi bo'lib, u so'zning turli o'rinlarida, masalan, so'z boshida paxta /pɑx'tɑ/, so'z o'rtasida: upa /ɒ'pɑ/, so'z oxirida qop /qɒp/ kelishi mumkin. Grafemik xususiyatiga ko'ra /p/ fonemasini yozuvda “p” harfi ifodalab keladi: pilla /pɪ'lɑ/.

/r/ – til oldi, titroq, sonor, og'iz undoshi bo'lib, distributsiyasiga ko'ra, u so'z boshida: raqs /rɑqs/, so'z o'rtasida: taroq /tɑ'rɒq/, so'z oxirida: bajar /bɑ'dʒɑr/ qo'llanadi. Yozma nutqda /r/ fonemasi “r” harfi bilan ifodalanadi: ruxsat /rɒx'sɑt/.

/s/ – til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz, og'iz undoshi bo'lib, u nutqda so'z boshida: sariq /sɑ'rɪq/, so'z o'rtasida: qisiq /qɪ'sɪq/, so'z oxirida: asos /ɑ'sɒs/ uchraydi. /s/ fonemasi yozuvda “s” harfi bilan beriladi: sabzi /sɑb'zɪ/.

/t/ – til oldi, portlovchi, jarangsiz, og'iz undoshi bo'lib, u so'z boshida: tarvuz /tɑr'vɒz/, so'z o'rtasida: ota /ɒ'tɑ/ va so'z oxirida: soat /sɒ'ɑt/ uchrashi mumkin. Yozuvda /t/ fonemasi “t” harfi bilan talqin qilinadi: taroq /tɑ'rɒq/.

/f/ – lab-tish, sirg'aluvchi, jarangsiz, og'iz undoshi bo'lib, u so'zning turli o'rinlarida masalan, so'z boshida: fan /fɑn/, so'z o'rtasida: zafar /zɑ'fɑr/, so'z oxirida: sharaf /ʃɑ'rɑf/ qo'llanadi. Grafemik xususiyatiga ko'ra /f/ fonemasini yozuvda “f” harfi ifodalab keladi: farq /fɑrɒq/.

/x/ – chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz, og'iz undoshi bo'lib, distributsiyasiga ko'ra u so'z boshida: xafa /xɑfɑ/, so'z o'rtasida: taxir /tɑ'xɪr/, so'z oxirida: mix /mɪx/ qo'llanadi. Yozma nutqda /x/ fonemasi “x” harfi bilan ifodalanadi: xalq /xɑlɒq/.

/ts/ – til oldi, qorishiq, jarangsiz, og'iz undoshi bo'lib, u rus tili va u orqali o'zlashgan so'zlarda so'z boshida: sirk /tsɪrk/, so'z o'rtasida: evolutsiya /evɒ'ljutsɪjɑ/ va so'z oxirida: abzats /ɑb'zɑts/ uchraydi. /ts/ fonemasi yozuvda “ts” harfi bilan beriladi: sement /tse'ment/.

/tʃ/ – til oldi, qorishiq, jarangsiz, og'iz undoshi bo'lib, nutqda u so'z boshida: chertmoq /tʃert'mɒq/, so'z o'rtasida: sachiq /sɑ'tʃɒq/ va so'z oxirida: zich /zɪtʃ/ uchrashi mumkin. Yozuvda /tʃ/ fonemasi “ch” harfi bilan talqin qilinadi: charchoq /tʃɑr'tʃɒq/.

/ʃ/ – til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz, og'iz undoshi bo'lib, u so'zning turli o'rinlarida, masalan, so'z boshida: sharq /ʃɑrɒq/, so'z o'rtasida: toshqin /tɒʃ'qɪn/, so'z oxirida: kalish /kɑ'lɪʃ/ qo'llanadi. Grafemik xususiyatiga ko'ra /ʃ/ fonemasini yozuvda “f” harfi ifodalab keladi: shifo /ʃɪ'fɒ/.

/q/ – chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz, og'iz undoshi bo'lib, distributsiyasiga ko'ra u so'z boshida: qor /qɒr/, so'z o'rtasida: chaqir /tʃɑ'qɪr/, so'z oxirida: toq /tɒq/ kelishi mumkin. Yozma nutqda /q/ fonemasi “q” harfi bilan ifodalanadi: quchoq /qu'tʃɒq/.

/g'/ – chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangli, og'iz undoshi bo'lib, u nutqda so'z boshida: g'or /g'or/, so'z o'rtasida: og'iz /o'g'iz/, so'z oxirida (biroz jarangsizlashib): bog' /bog'/uchraydi. /g'/ fonemasi yozuvda "g'" harfi bilan beriladi: g'arb /g'arb/.

/h/ –bo'g'iz, sirg'aluvchi, jarangsiz, og'iz undoshi bo'lib, u so'zning turli o'rinlarida, masalan, so'z boshida: hamma /hamma/, so'z o'rtasida: mohir /mo'hir/, so'z oxirida: shoh /shoh/ qo'llanadi. Grafemik xususiyatiga ko'ra /h/ fonemasini yozuvda "h" harfi ifodalab keladi: guvoh /gu'voh/.

Undoshlarning fonetik xususiyatlaridan ko'rinadiki, o'zbek tilida jarangsiz undoshlar (/p, t, f, s, j, tʃ, ts, k, q, x, h/) hamda /l, m, n, r/ sonorlari distributsiyasiga ko'ra so'zning istalgan o'rinlarida kelishi mumkin. Biroq, /b/, /d/, /v/, /z/, /ʒ/, /dʒ/, /g/ kabi jarangli undoshlar bu borada cheklanishga ega bo'lib, ular, asosan, so'z boshi va o'rtasida qo'llanadi. Jarangli undoshlarning so'z oxirida neytralizatsiyaga uchrab, jarangsizlashishi ularning so'z oxirida kelishiga to'sqinlik qiladi. Bu borada jarangli /j/ va /g'/ fonemalarining o'ziga xos xususiyatlarini alohida ta'kidlash lozim. Qolgan jarangli undoshlardan farqli o'laroq, /j/ va /g'/ fonemalarining jarangli belgisi so'z oxirida jarangsizlanishi sezilarli darajada bo'lmaganli sababli ular distributsiyasiga ko'ra so'z oxirida uchraydi. O'zbek tilida /ŋ/ sonorining distributsiyasi ham o'ziga xos bo'lib, u fonema sifatida odatda so'z oxirida uchraydi.

Yuqorida ta'kidlangan fikrlarni xulosa qilib, shuni aytish joizki, o'zbek tilida undoshlar fonetik va grafemik jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Undoshlar fonetik jihati ularning artikulyasion-akustik tasnifida namoyon bo'ladi. Akusik tasnifiga ko'ra, o'zbek tilida undoshlar shovqinli hamda sonor tovushlarga; artikulyasion tasnifiga ko'ra, hosil bo'lish o'rni, hosil bo'lish usuli va kichik til holatiga ko'ra kichik guruhlar ajratiladi. Grafemik jihatdan o'zbek tili undoshlari "bir fonema – bir harf" tamoyili asosida voqelanadi. O'zbek tilida undoshlar distributsiyasi ham o'ziga xos bo'lib, unga ko'ra, /p, t, f, s, j, tʃ, ts, k, q, x, h/ jarangsiz hamda /j/, /g'/ jarangli undoshlari, shuningdek, /l, m, n, r/ sonorlarining so'zdagi o'rni cheklanmagan, /b/, /d/, /v/, /z/, /ʒ/, /dʒ/, /g/ jarangli undoshlarining so'zdagi o'rni esa cheklangan bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. 2-нашр., Т., "Ўқитувчи", 2010, 172-бет.
2. Абдуазизов А.А. К типологии фонологических систем (на материале английского и узбекского языков). Автореф. дисс. ... д-ра. филол. наук, М., 1974, с. 37; Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. 2-нашр, Т., "Ўқитувчи", 2010, 172-бет.
3. Данияров Х. Опыт изучения джекающих (кыпчакских) диалектов в сравнении с узбекским литературным языком. Т., "Фан", 1975, 238 с.
4. Кононов А.Н. Грамматика современного литературного узбекского языка. М., изд-во Академии наук, 1960, 446 с.
5. Кудратов Т. Переходные говоры узбекского языка (На материале говоров Шахрисабзского, Яккабагского, Чиракчинского и Камашинского районов Кашкадарьинского области). Автореф. дисс. ... канд. Филол. наук, Т., 1968, 33 с.
6. Маматов А. Андижанский городской говор узбекского языка (фонетико-морфологические особенности говора). Автореф. дисс. ... канд. фил. наук, Т., 1967, 26 с.
7. Махмудов А. Фонетическая система узбекского литературного языка. Автореф. дисс. ... канд. фил. наук, Т., 1980, 59 с.
8. Миртожиев М.М. Ўзбек тили фонетикаси. Т., "Фан", 2013, 424-бет.
9. Отамирзаева С. Экспериментально-фонетическое исследование наманганского говора узбекского языка. Т., "Фан", 1974, 193 с.
10. Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. Т., Узгосиздат, 1933, 45 с.
11. Решетов В.В. Основы фонетики и грамматики узбекского языка. Т., 1965, 243 с.
12. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. Т., "Фан", 1962, 371-бет.
13. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Т., "Universitet", 2006, 476-бет.
14. Sjoberg A.F. Uzbek Structural Grammar. Indiana University. Vol.18, The Hague, 1963, 158 p.

**Qalandarova Dilafruz (Urganch davlat Pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi)  
KIROMIY MUNIS VASFIDA**

***Annotatsiya.** Maqolada o'zbek adabiyotida kam o'rganilgan adabiy shaxsiyatlar biri Muzaffarxoja Kiromiy haqida mavjud manbalarning eng ko'lamlisi bo'lmish Munis va Ogahiyning "Firdavs ul-iqbol" asari asosida fikr yuritiladi. Muallif bu boradaga ma'lumotlarni pedagog nigohida tahlil qiladi.*

***Аннотация.** В статье на основе источника «Фирдавс ул-Икбала» Муниса и Огахи, наиболее полного из доступных источников, рассматривается творчество одного из малоизученных деятелей узбекской литературы Музаффарходжа Кирами. Автор анализирует информацию по этому поводу с точки зрения педагога.*

***Annotation.** The article reflects on Muzaffarkhoja Kirami, one of the lesser-studied literary figures in Uzbek literature, on the basis of Munis and Agahi's work "Firdavs ul-Iqbal", the most comprehensive of the available sources. The author analyzes the information in this regard from the point of view of a pedagogue.*

***Kalit so'zlar:** Kiromiy, XVIII asr Xorazm adabiy muhiti, adabiy manbada ta'lim-tarbiya masalalari, mumtoz pedagogika.*

***Ключевые слова:** Киromий, литературная среда Хорезма XVIII века, проблемы образования в литературном источнике, классическая педагогика.*

***Key words:** Kiromiy, literary environment of Khorezm in the 18<sup>th</sup> century, problems of education and literary sources, classical pedagogy.*

O'zbek adabiyoti tarixida eng kam o'rganilgan adabiy shaxsiyatlardan biri Muzaffarxoja Kiromiy haqida juda oz ma'lumotga egamiz. Bugungi ijtimoiy tarmoqlarda ham Sayyid Muzaffarxoja Kiromiyning biografiyasi va ijodi hali to'la o'rganilgani e'tirof etiladi va asosiy ma'lumotlar Nishotiy o'zining "Husn-u dil" dostonining 10-bobida bu asarni yozishda Kiromiydan ilhomlangani, Xorazmda 1791-yilda tuzilgan bir bayozga Kiromiyning ikkita muxammasi kiritilgani, Munis o'zining mashhur she'rlaridan birida Nizomiy, Jomiy, Navoiy kabi ustodlari qatorida Kiromiyning ham hurmat bilan eslashi, uning Nishotiy, Ravnaq, Roqim, Munis kabi talantli shoirlar ijodiga yo'l ochib bergani kabilardan iborat. Muhimi, O'zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti fondidagi 7054-raqamli qo'lyozma bayozda uning Navoiy g'azallariga bog'langan bir necha muxammasi borligi aytilib, namuna sifatida ikkita muxammas keltirilgan [1].

Muzaffarxoja Kiromiyning asarlari mutolaasidan ham oldin uning shaxsiyati va merosiga alohida qiziqish uyg'otadigan narsa bu Shermuhammad Munisning o'z ustoziga bo'lgan alohida e'tibor va e'tirofidir. Munisning mumtoz adabiyotimiz, umuman, o'zbek ma'naviyati taraqqiyotidagi o'rnini his qilgan kishi bunday iste'dod egasini tarbiyalashda muhim o'rin tutgan Muzaffarxoja Kiromiyning o'zi qay darajada yuksak bilim va salohiyat sohibi bo'lganini tasavvur qiladi.

Munis Xorazmiy tiyatidagi ustozlarga alohida e'tibor "ilm ahliga ehtromi vojib"ligini targ'ib qilish fazilatiga G'.Sapayev alohida e'tibor qaratadi [5.45]. Jumladan, olim "Munis Xorazmiy o'z asarlarida ustozlarining bergan ta'lim-tarbiya va o'g'itlari, yaxshi olimlar huzurida bo'lganligi uning dunyoqarashining shakllanishida rol o'ynaganligini qayd etgan. Masalan, "Firdavs ul-iqbol" asarida ustoz, madrasa mudarrisi Saideshonxo'janing ilg'or shoir va dunyoviy fanlar bilimdoni bo'lganligini, u kishi bilan bo'lgan ko'plab fozil insonlar suhbatlari va she'riyat kechalarida shaxsan o'zi guvohi bo'lganligini ta'kidlagan. Madrasada o'qib yurgan paytlarida dunyoviy va diniy ilmlardan saboq bergan ustoz Kiromiyning chuqur hurmat bilan tilga olgan". Haqiqatan, Shermuhammad Munisning

*Tong emas, Munis agar bo'lsam kiromiy qadrim,*

*Ustodi zohiru botin Kiromiydur manga. [8.11]*

deya e'tirof etishi, xususan, uning "zohir-u botin" bobida ustodi kiromligini ta'kidlashi Kiromiyning o'ta noyob fazilatlar sohibi bo'lgani haqida tasavvur bera oladi.

Tadqiqotchi Munis Xorazmiy dunyoqarashining g'oyaviy manbalari sifatida Sharq mutafakkirlari ijodi, oilaviy muhit va fozillar bilan muloqot kabilar qatori Kiromiy va madrasa ta'limi (ustozlari)ni alohida ko'rsatadi [6.13]. Munis Xorazmiyning "Savodi ta'lim"dagi o'z ustoz haqida

*Farmonbari hukmi hazrati haq,*

*Ogohi ramuzi hikmati haq.*

*Har ilmida jomiul-fazoyil,*

*Har hukmda voqifil-masoyil.*  
*Majmui ulum ichida ma'lum,*  
*Qoziyi baland rutba maxzum.*  
*Muhri sharaf ichra mehri raxshon,*  
*Onsiz xat o'lub savodi butlon.*  
*Ham mahkamasi sipehr timsol,*  
*Ham masnad anga bisoti iqbol.*  
*Hukmi aro rasmi adl vozih,*  
*Adli aro hukmi shar' loyih.*  
*Ilm ichra adili Ibn Hojib,*  
*Ilm ahliga ehtiromi vojib, [8.332]*

ya'ni, "Haq hukmini to'la ado qiluvchi, ilohiy hikmat ramzlaridan xabardor, har ilmda fazilatlar majmuyi, har hukmda masalalar voqifi, jami ilmlar ma'lum, usiz xatlar o'z o'rnini yo'qotadigan muhri shariflik bobida porlab turgan quyoshdek baland rutbali maxzum qozi, mahkamasi falakmonand baland,.. ilmda Ibn Hojibga teng, uning hurmatini bajo keltirish ilm ahli uchun vojib"dir so'zlaridan ko'plab sifatlar Kiromiyga mos kelsa ham, ustozning qozi deb tilga olinishidan gap Sayyid Eshonxoja haqida ketayotganini taxmin qilishimiz mumkin. Munis yana bir ustozni Sayyid Eshonxoja haqida "Sayyid Aloiddin xo'ja qaddasa sirrahul-azizning avlodidin,.. faqirg'a ham ustod va hamsoyadur", deb yozadi [4.211].

"Firdavs ul-iqbol"da Munis o'rni bilan ustoziga ehtirom sifatida uning ijod namunalari murojaat qiladiki, bular bir jihatdan shogirdning ustoziga hurmati timsoli bo'lsa, ikkinchi tomondan, ustozning qay darajada mohir ekanini o'quvchi nigohi oldida namoyish etish, salohiyatli satrlarni bee'tibor qoldirmaslikka undash ham edi. Masalan, 1219-yil 23-sha'bon oyi, milodiy 1804-yil 26-noyabrda Eltuzarxon Xiva taxtiga o'tiradi. Eltuzarxon qo'ng'irotlar sulolasidan bo'lgan birinchi Xiva xoni (1804.06) edi. Avaz inoqning o'g'li bo'lib, otasi vafotidan so'ng xon Abulg'ozni V (homis)ni taxtdan tushirib, o'zini xon deb e'lon qilgan. Bu haqda Munis "Abulg'ozixonni Chingiziyning qomati qobiliyatini xil'ati saltanatdin uryon (yalang'och) va farqi (boshi) davlatin afsari xilofatdin (hukmronlik tojidan) sohibi hirmon (mahrumlik egasi) qilib, qaroqalpoq orasida aqrabosi qoshig'a yibordi", deb yozadi. Shu tarzda Xorazmda qo'ng'irotdan bo'lgan xonlar sulolasi boshlanadi. "Bu voqe' ai behjatasar tahniyatida Xorazm fuzalosi qasoyid va tavorix bitib, arzg'a yetkurdilar", ya'ni, bu voqea munosabati bilan tabriknoma sifatida Xorazm fozillari qasidalar va ta'rixlar bitib, xonga huzuriga yetkazdilar. Munis ana "qasoyid" (qasidadalar) bittasining – o'z qalamiga mansub qasidaning matlasini hamda "tavorix" (ta'rixlar)dan ikkitasini–ustozni Muzaffarxoja Kiromiy va o'z qadamiga mansub ta'rixni keltiradi. Kiromiyning Eltuzarxon julusi – taxtga o'tirishi munosabati bilan yozgan ta'rixining moddasi "amir Eltuzar podshoh" ekani bilan kishi e'tiborini tortadi. Bu kabi ta'rix moddasini topish, ya'ni, mamduh (madh qilinayotgan kishi) yoki ta'rix qahramonining nomi bilan bog'liq asarlar kamyob sanaladi. Buning ustiga ta'rixlarni, asosan, fors tilida ijod qilish urf bo'lgan. Keyingi davrda ham ta'rixlar fors tilida bitish ana'anasi saqlanib qolgan. Lekin A.O'rozboyev qayd etishicha, "Komil (Xorazmiy) ta'rixlarining o'ziga xosligi shundaki, ta'rixlar, asosan, nimagadir (Shermhammad Munis va Muhammad Rizo Ogahiy ijodida ham) fors tilida bitilgan davrda uning qalamiga mansub ta'rixlarning aksarini o'zbek tilida yozilgan" [9.35]. Demak, ta'rixlarni o'zbekcha yozishni rasm qilishda ham Muzaffarxoja Kiromiyning muayyan o'rni bor, desak bo'ladi.

"Firdavs ul-iqbol"dan: "...hazrat ustodi fazoyilmaob, siyodatintisob, umdat ul-islom, shams ul-milat va-d-din Muzaffarxo'ja Kiromiy sallamallohu bu ta'rixni topibdur.

Ta'rixni julus:  
*Bihamdilloh, ul shohi kishvarpanoh,*  
*Ota masnadin aylab oromgoh.*  
*Biroz fursat anda bo'lub hukmron,*  
*So'nguncha etib fazlu lutfi iloh.*  
*Boshig'a qo'yub toji Kayxusrav,*  
*Muborak qudumin qilib zibgoh.*  
*Janobida arkoni davlat hama,*  
*Tunu kun erurlar anga xayrxoh.*  
*Ziyod erkaniga bori shohdin*  
*Tavakkul, tahavvur, karam bor guvoh.*  
*Adolat tariqin shior aylagach,*  
*Qalamzanlar ahvoli bo'ldi taboh.*



*Saloh ahlini sarafroz aylabon,  
Risalat topib davrida izzu joh.  
Qayon borsa tug‘i livoyi zafar,  
Muzaffar bo‘lub anga xaylu sipoh.  
Chu xorazmshah taxtida o‘lturub,  
Mamolik elin tuzdi beishtiboh.  
Kiromiy savol etti ta‘rixini,  
Dedimkim: “amir Eltuzar podshoh”. [4.431]*

Haqiqatan, ta‘rixda *muzaffar* so‘zi orqali muallif o‘z ismiga, “mamolik elin tuzdi” (mamlakat xalqi ahvolini tartibga keltirdi) birikmasi orqali mamduh – Eltuzarxon ismiga ishora qilinayotgani shoarning favqulodda iste‘dodidan darak beradi. Muhimi, امير ايلتوزر پادشاه – amir Eltuzar podshoh nomidan julus sanasi hijriy 1219 hosil bo‘ladi.

Shundan so‘ng Munis o‘z qalamiga mansub ta‘rixni keltiradi: “Faqir ham ul hazratning tahniyati julusida tamadduh yuzidin bir ta‘rix va bir qasida aytib erdim. Ul ta‘rix budur.

Ta‘rix:  
*Chun nishast on shoh bar avrangi joh,  
Yoft az vay zeb toji makrumat.  
Peshi o‘raftam ba odobi niyoz,  
To julusashro bigo‘yam tahniyat.  
Bar saram andoxta az ro‘yi mehr.  
Oftoboso shuo‘i otifat.  
Guft: ta‘rix julusro biguy!  
Guftamash: “Bodat muborak saltanat”*

Yuqoridagi aytilgandek, Munisning ta‘rix bu janrdagi she‘rni fors tilida bitish an‘anasiga asoslangan. Uning ta‘rix moddasi “Bodat muborak saltanat” birikmasi ham 1219-sanani hosil qilib, “Senga saltanat muborak bo‘lsin!” ma‘nosini anglatadi. Munis tarixnavislikda Kiromiydan olgan ta‘limini o‘z mahorati bilan omixta tarzda ishgasolib she‘r mazmunini shunga moslaydi. Ta‘rixning tarjimasi: “O‘shal shoh joh (mulku mo‘llik) taxtiga o‘tirgach, karam toji uning boshi bilan bezandi. Uning dargohiga tabriklash uchun odob-u ehtiyojmandlik bilan bosh urdim. Boshimga mehribonlik bilan quyosh misol himmat nurlarini sochdi. Shunda “Julus (taxtga o‘tirish) ta‘rixini ayt-chi!” – dedi. Men “Bodat muborak saltanat!” – dedim.

Demak, Kiromiy ta‘rixlarining “Firdavs ul-iqbol”ga kiritishili yana bir muhimi masala – shoarning Eltuzarxon va undan keyingi xonlar nazarida hurmatli shaxs bo‘lganidan darak beradi. Aks holda, Munis Kiromiy shaxs va ijodiga hurmatini bu qadar chuqur izhor qila olmas edi. Bu fikrimizning asosini ham “Firdavs ul-iqbol”dan topish mumkin. To‘ramurod so‘fi qatli munosabati bilan Munis uchasi fors tilida, bittasi o‘zbek tilida jami to‘rtta ta‘rix yozadi. Shuningdek, qo‘zg‘alonining bostirilishi munosabati bilan “Fath shud aqsoyi Orol” (Orolning eng chekkasi ham bo‘ysundirildi) va “Fotih shahri Orol” moddalarini bilan bir forsiy va bir o‘zbekcha ta‘rix bitadi. Shunda ustoz ham bu munosabat bilan ta‘rix bitganini bilgach, ularni xonga yetkazib, undan er-xotin bo‘lgan ikki nafar qul (Xiva xonligida qullik masalasi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar bor [7]) ehson oldi [3.373]. Munis buni quyidagicha bayon qiladi: “Ammo bu ta‘rix zuhurining oftobi Qo‘ngrot fath bo‘lg‘an kuni faqirning ufqi xayolidin tole‘ bo‘lub erdi, navodiri ittifoqotdin fathnoma dorussaltanayi Xivaqg‘a yetgan kuni ashraf ul-anomiy, ustodi kiromiy nusrat ud-din sayyid Muzaffar xo‘ja mutavallining xayolig‘a dag‘i bu ta‘rix partavi zuhur solmish.

Uchunji ta‘rix:  
*Oshiri shahri siyom ichra shahim,  
Chun Orol fathidin o‘ldi shodkom.  
Fath ta‘rixini arbobi xirad,  
Dedilar de: “oshiri shahri siyom”. [2.834]*

Ko‘rinadiki, Kiromiy tomonidan berilgan ta‘rix moddasi juda kam uchraydigan, ajoyib topilmadir, ya‘ni, ta‘rinavislikda voqea ro‘y bergan sanani ta‘rix moddasida aynan berish juda kam uchraydi. Voqea 1226-yili 10-ramazoni (1811-yilning 28-sentabriga to‘g‘ri keladi) yuz bergan bo‘lib, عاشر شهر صيام “oshiri shahri siyom” – “Ro‘za oyining o‘ninchisi” degan ta‘rix topilishi Kiromiyning favqulodda iste‘dodini yana bir karra namoyon qiladi. Ta‘kidlash lozimki, Munis ta‘rixnavislikda Kiromiydan alohida ta‘lim olgan va unga ergashgan ko‘rinadi. Kiromiyning ushbu ta‘rixiga monand juda noyob ta‘rix turini Munisning o‘zi “Firdavs ul-iqbol”da keltiradi.

Munisning o‘z muhtasham asarida Kiromiy zikr etilgan o‘rinlarda berib o‘tgan tavsiflari ham g‘oyat samimiy va haqqoniyligi ko‘rinib turadi. Masalan, 1226-hijriy (milodiy 1802-yil) To‘ramurod so‘fi tarafdorlarining o‘ldirilishi munosabati bilan ta‘rix yozganini aytib, bu voqeaga Muzaffarxoja Kiromiy topgan ta‘rixni ham quyidagicha eslatadi: “Hazrat ustod(i) kiromii volo maqomi, zubdai avlodi Ali Sayyid Muzaffar xo‘ja mutavalli ul jamoa ta‘rixin “sagon dar soli sag murda ast” topibdur” [3.171]. Ustozi ta‘rifida Munis “ustodi kiromiy” birikmasi orqali ham ittifoq, ham iyhom san‘atlarini qo‘llaydi, ya‘ni birikmani qadrli ustod deb ham, ustod Kiromiy deb tushunish mumkin. Bunday hollarda har ikkala ma‘no barobar nazarda tutiladi. Kiromiy, Munis, ma‘lumotiga ko‘ra, alaviylardan, ya‘ni Hazrati Ali avlodlaridan bo‘lgani uchun uni “Ali avlodlarining asllaridan” (“zubdai avlodi Ali”) deyish bilan birga uni Kiromiy egallab turgan lavozim mutavalliga ohang jihatidan moslab, muarrix o‘zi sevgan saj’ san‘atini hosil qildi. Boshqa bir o‘rinda ustozini “fazoyilmaob, siyodatintisob, umdat ul-islom, shams ul-millat va-d-din” [3.212] – “fazilatlar koni, sayyidlar naslidan bo‘lgan aslzoda, islom tirtgagi, millat va din quyoshi” deb ta‘riflaydiki, bularning barchasi Kiromiy shaxsiyatida shoir, adib, tasavvuf ilmining yirik namoyanadasi, davlat va jamiyat arbobi mujassam bo‘lganini ko‘rsatib turibdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-mumtoz-sheriyati/kiromiy/>
2. Shir Muhammad Mirab Munis and Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm. Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. Leiden–New York–Kobenhavn–Koln, 1988.
3. Мунис ва Огахий. Фирдавс ул-икбол. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2010.
4. Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Асарлар. 2-жилд, 1-китоб, Шермухаммад Авазбий ўғли Мунис, Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Фирдавс ул-икбол (Бахт-саодат жаннати). Тошкент, “Sharq”, 2019.
5. Сапаев Ф. Мунис Хоразмийнинг ижтимоий-фалсафий ва маънавий-маърифий қарашлари. Филол... фанлари фал...доктори (PhD) дис..., Бухоро, 2022.
6. Сапаев Ф. Мунис Хоразмийнинг маънавий мероси. Тошкент, “Фан зиёси”, 2023.
7. Сафаров Бобожон. Хоразмда бўлиб ўтган қулчилик аҳволларининг воқеалари. ЎзРФА Шарқшунослик фонди.
8. Шермухаммад Мунис Хоразмий. Сайланма. Тошкент, Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.
9. Ўрозбоев А. Комил девони қўлёзмасининг мухтасар мундарижаси. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2020, 6-сон.

#### Jumayeva Nilufar (Qarshi DU)

### UILYAM FOLKNER IJODINING TARAQQIYOT TADRIJI

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada amerikalik mashhur yozuvchi Uilyam Folkner ijodining taraqqiyot tadriji haqida yoritiladi. Folkner o‘z ijodi davrida turli xil janrlarda ijod qilib, Nobel hamda Pulitser mukofotlari sovrindori bo‘lgan. Uning ijodini o‘rganish XX asr madaniyati, umuman, Amerika adabiyoti tarixi va nazariyasi muammolarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.*

**Аннотация.** *В данной статье описывается развитие творчества известного американского писателя Уильяма Фолкнера. За свою карьеру Фолкнер писал в разных жанрах и был лауреатом Нобелевской и Пулитцеровской премий. Изучение его произведений помогает углубить понимание проблем истории и теории культуры XX века, американской литературы в целом.*

**Annotation.** *This article describes the development of the work of the famous American writer William Faulkner. During his career, Faulkner wrote in a variety of genres and won the Nobel and Pulitzer Prizes. Studying his works helps to deepen our understanding of the problems of history and theory of culture of the 20th century American literature.*

**Kalit so‘zlar:** *ijod, tadrij, janr, modernizm, roman, uslub, yo‘nalish, oqim.*

**Ключевые слова:** *творчество, развитие, жанр, модернизм, роман, стиль, направление, течение.*

**Key words:** *creativity, development, genre, modernism, novel, style, direction, current.*

XX asr Amerika adabiyoti namoyandasi Uilyam Folkner jahon adabiyotiga bebaho hissasini qo‘shdi. AQSH adabiyoti bo‘yicha yirik rus adabiyotshunos professori Y.Zasurskiy amerikaliklar o‘z adabiyotini xalqqa, tarixga, fanga, dinga, siyosiy tashviqotga xizmat qildirish borasida ulug‘vor faoliyatga ega ekanligini, hayotni mo‘tadil qilish, chinakam xalqchil demokratiyani rivojlantirishda Amerika ijodkorlari-

ning zahmati, yuksak badiiy yaratmalari beqiyos ahamiyatga molikligini ta'kidlaydi.<sup>1</sup> Folkner yashagan davr dolg'ali, notinch, urushlarga boy, ijtimoiy tengsizlik yangicha bir tus–madaniy ko'rinish olgan, shuning barobarida, ilm-fan rivojlanishni boshlagan payt edi. Yozuvchining hayoti ham xuddi uning o'zi yashagan davr kabi voqea-hodisalarga boy, topish va yo'qotishlarga to'la, tartibsiz, negaki Uilyam Folkner ham yozuvchi, ham jangchidir.

XX asr – mafkuralar qarama-qarshiligi asri. Kapitalizm, kommunizm, fashizm, demokratiya, eku-menizmning tug'ilishi, feminizm, globalistik g'oyalar – hamma narsa unda to'plangan. Yozuvchi o'z davrining farzandi sifatida voqelikka real, xolis baho berishga intildi. Adabiyotning siyosatga qarshi ekanligini amaliy harakatlari bilan isbotlay oldi. Shu sababli ham Uilyam Folkner yaratgan asarlar hali hanuz dunyo kitobxonlarini o'ziga jalb etib kelmoqda.

Uilyam Folkner ijodini o'rganish XX asr madaniyati, umuman, Amerika adabiyoti tarixi va nazariyasi muammolarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Uilyam Folkner ijodining ilk bosqichida deyarli badiiy adabiyotning barcha janrlarda ijod qilgan. Biz quyidagi jadvalda adib ijodining umumiy salmog'ini aks ettirishga harakat qildik.<sup>2</sup>

	<b>She'riy to'plamlari</b>	<b>Hikoyalar to'plamlari</b>	<b>Qissa</b>	<b>Romanlari</b>			<b>Drama</b>
1	Vision in Spring (1921, jami 14 ta she'r)	These 13 (1931, jami 13 ta)	“The Bear” (1942)	Soldiers' Pay (1926)	Mosquitoes (1927)	Sartoris (1929)	“Marionettes” (1920)
2	The Marble Faun (1924, jami 17 ta she'r)	Dr. Martino and Other Stories (1934, jami 14 ta hikoya)		The Sound and the Fury(1929)	As I Lay Dying (1930)	Sanctuary (1931)	
3	A Green Bough (1933, jami 44 ta she'r)	The Portable Faulkner (1946, jami 18 ta hikoya)		Light in August (1932)	Pylon (1935)	Absalom Absalom ! (1936)	
4	Mississippi Poems (1979, jami 12 ta she'r va 1 ta esse)	Knight's Gambit (1949, jami 6 ta hikoya)		The Unvanquished (1938)	The Wild Palms (1939)	The Hamlet (1940)	
5		Collected Stories of William Faulkner (1950, jami 42 ta hikoya)		Go Down, Moses (1942)	Intruder in the Dust (1948)	Requiem for a Nun (1951)	
6		Big Woods (1955, jami 4 ta hikoya)		A Fable (1954). The Town (1957)	The Mansion (1959)	The Reivers (1962)	

Uilyam Folkner ijodini she'r yozishdan boshlagan. Folkner ijodining ilk davrida ingliz shoirlari ta'sirida romantik she'rlar yozdi. Ammo yoshi ulg'aygani sari Folkner she'riyatni ortga surib, prozaga e'tibor qaratdi. Tanqidchilardan biri Folkner hech qachon shoir sifatida tanilmaganligini, aksincha, “uning buyuk yozuvchi ekanligidan uning she'rlariga ahamiyat berishadi” deb ta'kidlagan.<sup>3</sup> Folknerning dastlabki chop qilingan she'ri “L' Apres-Midi d'un Faune” 1919-yil 6-avgustda “Yangi respublika”(“New Republic”) jurnalida chiqdi. Folkner she'rlarini Eliot va boshqa fransuz shoirlari uslubida yozdi. Uning to'rtta she'riy to'plami mavjud bo'lib, “Marmar favn” (1924) va “Yashil novda” (1933) to'plamlari ancha mashhurdir. Folknerning “Marmar favn” to'plamiga anchagina jiddiy she'rlari jamlangan. Bunda shoir mifologik she'r yozishga harakat qilganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur she'rlar orasidagi aloqadorlik shundaki, ularda ifodalangan badiiy-estetik g'oyalar yilning to'rt fasli; bahor, yoz, kuz va qish; kun qismlari: tong, tush, oqshom, kecha kabi tushunchalardan foydalangan holda ochib berilgan. “Marmar favn” va “Yashil novda” nashri oralig'idagi yillarda Folknerning o'n to'rtta she'ri davriy matbuotda chiqdi. Bundan tashqari, u o'zining ilk ikkita romanida ham she'rlaridan foydalangan. “Askar mukofoti” epigra-

<sup>1</sup> Засурский Я. Американская литература XX века. М., издательство Московского университета, 1984, с. 283.

<sup>2</sup> Jumaeva N.G. The analysis of symbolic subjects in “Absalom, Absalom!” Innovative Technological Methodical Research Journal. Indonesia, 2022, Volume 3, Issue 12, p. 66 – 71.

<sup>3</sup> Faulkner, William. The Art of Fiction. The Paris Review, issue 12, 1956.

fida “Yashil novda”dan, “Moskitlar”ning 246–247, 249 va 252-betlarida keltirilgan baytlar ham shu she’riy to’plamdan olingan. Umuman olganda, bu misralar xilma-xillik, istehzo va ba’zi hollarda satira bilan takomillashtirilgan. Folkner prozasining shakli butun faoliyati davomida tizimli eksperimentning xilma-xilligi va nozikligi bilan ajralib turadi.

Janubda yashab ijod qilgan Folkner, o’z roman va hikoyalari, asosan, zodagon va oddiy xalq madaniyati, ma’rifatli va ilmsiz insonlar haqida qalam tebratadi. Folkner asarlari kuchli badiiy mahorat bilan yozilganki, kitobxon adib asarlarini mutolaa qilarkan, beixtiyor qahramonlar hayotiga sho’ng’ib ketadi va o’quvchini muhokamaga undaydi. Amerika fuqarolar urushi davrida sezilarli tarzda shtatlar ikkiga shimol va janubga bo’linib qolgandi. Shimol bu urushda g’alaba qozonadi, janubda esa hali-hanuz qora tanli insonlarning qul sifatida xizmat qilishi davom etardi. Janubdagi adiblar o’z asarlarida shu mavzuga ko’p yondashdilar.

Adibning asarlarida, asosan, odatdagidek, janub mavzusi haqida gap boradi. Folkner hududiy romannavis emas, balki, u butun insoniyatga daxldor umumiy mavzularni tadqiq etadi. O’zining keyingi asarlarida, asosan, inson kuchining yovuzlik va yemirilishlardan ustun kelishiga, an’analar mag’lub bo’lganda yangi qadriyatlarni kashf qilishga urg’u beradi. “Sartoris” romanida Folkner o’zining Lafayett grafligiga juda o’xshash Missisipi shtatidagi Yoknapatofa grafligi (Yoknapatawpha County) deb ataluvchi xayoliy joyni tanishtiradi. Bu afsonaviy hudud adibning keyingi badiiy asarlari uchun ham maqbul makon vazifasini bajardi, u, hatto o’zini o’sha hududning egasi va mulkdori sifatida ta’riflagan kitoblarni qamrab olgan xaritani ham yaratdi. Graflikning aholisi bir vaqtlar kuchli bo’lgan zodagonlikning timoli bo’lgan Sartoris oilasidan tortib, Janubning past tabaqali ekspluatatorlarigacha (birovni mehnatidan foydalanuvchi) bo’lgan Janubning turli qatlamlarini tasvirlaydi. Bu oilalar va boshqa obrazlar Folknerning boshqa badiiy asarlarida ham qayta-qayta qalamga olingan. Taxminan, 1925-yilda Uilyam Folkner Missisipidagi Jefferson shahriga ko’chib kelgan, kambag’al, shu bilan birga, ochko’z Snoupslar oilasining hayotini xronik usulda tasvirlovchi roman uchun rejalar tuzishni boshladi. Snoupslar oilasi Uilyam Folknerning keyingi Yoknapatofa haqida yozilgan romanlari va hikoyalari, ayniqsa, “Qishloq” (Hamlet, 1940), “Shahar” (The Town, 1957) va “Qo’rg’on” (The Mansion, 1959) kabi asarlarda qayta akrorlanuvchi obrazlardir. Snoupslar oila a’zolari “Sartoris”(1929), “Men o’layotganimda” (1930) va “Mag’lublar”(1938) kabi asarlarida ham uchraydi.

Folknerning qisqa hikoyalari orasida eng ajoyibi “Emili uchun atirgul” hikoyasi bo’lib, u o’z ichiga qadimiy janubning zaiflashishi bilan bog’liq muallifning qarashlarini qamrab oladi. “Pastga tush, Muso” (1940) kitobi yettita o’zaro bog’langan hikoyalardan tashkil topgan, ularning hammasi Folknerning xayoliy Yoknapatofa grafligida sodir bo’ladi. Shu o’rinda, Yoknapatofa–yozuvchi xayoliy olamida yaratgan makon nomi hisoblanishini alohida ta’kidlash lozim. Bu ham uning o’ziga xos usullaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, Folkner qisqa hikoyalar ham yozgan. Shu o’rinda adibning muvaffaqiyatlarini aytib o’tish joiz. Folkner eng yaxshi qisqa hikoyalar uch ming yoki undan kam so’zdan iborat bo’lishi haqida qarashlarini bayon qildi, shuning uchun o’zining ko’pgina asarlarini qisqa hikoyalar deb tasniflamadi. Ammo Folkner butun faoliyati davomida qisqa hikoyaning shakli va uzunligi bilan o’zining mosla-shuvchanligini doimiy ravishda namoyish etadi. Masalan, Folkner “Ibrohim ota” nomi bilan mashhur bo’lgan va taxminan o’n besh ming so’zdan iborat tugallanmagan roman qo’lyozmasini “Dog’li otlar” qissasi sifatida chop etishi uchun sakkiz ming so’zgacha qisqartirgan. Keyin u bu hikoyani Snopes trilogiyasi deb nomlanuvchi uch jildlik asarga kiritish uchun yana kengaytirgan. Bundan tashqari, Folkner qissa janrida ham ijod qilganligi ma’lum. Folkner qisqa hikoyaga nisbatan ko’rsatadigan har qanday e’tiborsizlikni, uning qisqa hikoyalar yozish tajribasi, ko’pincha, moliyaviy kurash bilan bo’yalganligi bilan izohlash mumkin.

Folkner Janubda paydo bo’lgan og’zaki ijod namunalarini, o’tmish haqidagi afsona va xotiralarning boy xazinasini, yoritish va avlodlarga yetkazishda xizmat qilgan ko’plab hikoyanavislar qatoriga qo’shildi. Modernist sifatida modernizmga xos bo’lgan reallikning yo’qolishini aks ettiruvchi yangi adabiyotni yaratish uchun shakl va uslublarda tajriba o’tkazdi. Stefan M.Ros (Stephen M.Ross. 1940) Folknerning uslubida “Janub notiqligining jo’shqin retorikasida gavdalangan zamonaviy hissiyot”ni ko’radi.<sup>1</sup> O’zining o’tmishga qiziqishida ham chuqur hurmat, ham qayta ko’rib chiqish tarafdori bo’lgan Folkner butunlikka bo’lgan romantik istagini modernizmning bo’linishini qamrab olishi bilan birlashtiradi.

<sup>1</sup> Ross Stephen M. Fiction’s Inexhaustible Voice. Speech and Writing in Faulkner. Athens: U of Georgia P, 1989, p. 79.

Folkner ijodning takomiliga yetishiga bolaligida kattalardan urush va quldorlik haqidagi hikoyalarni tinglaganligi turtki bo'lgan deyishimiz mumkin. U badiiy asarlarni xush ko'rgan va Yyel hamda Mississippi universitetida ta'lim olgan. Mississippi universitetida o'qiyotgan davrlarida, uning yozuvchilikka bo'lgan ishtiyoqi paydo bo'ladi. Adib 1925-yilgacha hech qanday roman yozmagan. Folkner o'zining katta oilasi haqidagi hikoyalardan ta'sirlanadi. Bundan tashqari, u yashab turgan hudud unga katta ta'sir ko'rsatadi, Mississippidagi hayoti uning yozuvchilik uslubini, yozuvchilik masalalarini, mavzularini hamda ko'plab janub haqida yozgan obrazlarini shakllantirdi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Uilyam Folkner o'zidan salmoqli adabiy meros qoldirgan. Uning mazmundor asarlari jahon adabiyoti durdonalari darajasiga ko'tarilgan va o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

**Jepbarova Sayat Kurbanmiratovna (Qoraqalpoq davlat universiteti dosenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD))**

### **SHOIR AHMAD MAMMEDOV SHE'RLARINING O'ZBEKCHA TARJIMASI HAQIDA**

***Annotatsiya.** Maqolada zamonaviy turkman she'riyatining zabardast vakili shoir A.Mammedov to'rtliklari tabiati, janriy tadriji va o'zbekcha tarjimada qayta tiklash muammosi nazariy umumlashtiriladi. Unda ilmiy talqinda shoir lirikasi maqomi, turkman-o'zbek tarjimashunosligi taraqqiyoti, qayta tiklangan she'riy matnda milliy ruhiyat ifodasi xususida so'z boradi. Muallif to'rtlik janrining ichki mohiyati, adabiy an'analar davomiyligini so'z san'atkorining badiiy izlanishlari misolida kuzatishga intiladi. Aynan ilmiy maqolada tadqiqotchi joriy ijod solnomasi yutuq-kamchiliklariga pozitiv munosabat bildirish, badiiy tahlillash va xolis baholashni asosiy maqsad qilib qo'yadi.*

***Аннотация.** В статье теоретически обобщен опыт родовой прогрессии, проблема рекреации в узбекском языке на примере четверостишия А.Мамедова, одного из современных представителей туркменской литературы. Речь идет о научной интерпретации поэтического лирического статуса, развитии туркмено-узбекского перевода, возрождении поэзии и выражении национального духа. Автор пытается уловить сущность четвертого жанра, преемственность литературных традиций на примере ключевого художника. Исследователь акцентирует внимание на новаторстве поэта. В статье автор попытался дать объективную оценку творчеству поэта, осуществить позитивный подход к анализу его достижений и недостатков.*

***Annotation.** One of the modern representatives of turkmen literature A.Mammedov's quatrain character, generic progression and problem of recreation in Uzbek language is theoretically generalized in the article. It deals with scientific interpretation of poetical lyrical status, the development of the Turkmen-Uzbek translator, the revival of the poetry, the expression of the national spirit. The author tries to observe the essence of the genre of the fourth genre, the continuity of literary traditions in the case of key artist. The researcher focuses on the pioneering, artistic and objective assessment of the achievements of the present invention in the article.*

***Kalit so'zlar:** she'riyat, to'rtlik, milliy ruhiyat, tarjima, badiiy ifoda, poetik talqin, adabiy mahorat, zamonaviy turkman she'riyati, tahlil malakasi, ma'naviy olam, ijodiy g'oya, tasvir uslubi, adabiyotshunoslik, madaniy hamkorlik, baholash mezonlari, g'oyaviy mazmun, adabiy ta'sir, estetik idrok.*

***Ключевые слова:** поэзия, четверостишие, национальный дух, перевод, художественное выражение, поэтическая интерпретация, литературное мастерство, современная туркменская поэзия, аналитические способности, духовный мир, творческая идея, стиль изображения, литературоведение, культурное сотрудничество, критерии оценки, идеологическое содержание, художественное воздействие, эстетическое восприятие.*

***Key words:** quatrain, national spirit, translation, artistic expression, poetical interpretation, literary workmanship, modern turkmen poetry, analytical skills, spiritual world, creative idea, image style, literary criticism, cultural cooperation, evaluation criterion, ideological content, literary influence, aesthetic perception, emotional thinking, incomprehensible ratio, internal harmony, emotional density.*

She'riy matni ona tilidan qardosh tilga o'girish hamisha murakkab hamda mashaqqatli mehnatni taqozo etadi. Binobarin, unda milliy ma'naviyat o'lchami ham tipologik mushtaraklik, ham ifoda o'ziga xosligini hosil qiladi. Ayni paytda, milliy uslub husni xati muallif hamda tarjimon tasvir yo'siniga to'qnashadi. Aslida, mutarjim qardosh til adabiy qonuniyatlarini yaxshi bilishi tabiiy hodisa, albatta. Biroq har bir xalq ruhiyati va ijod falsafasi nozik ichki uyg'unlik kasb etadi. To'g'rirog'i, idrok sezgisi milliy mansublik tuyg'usidan oziqlanib, adabiy til mezonlarini tamomila o'zgartirib yuboradi, Uning rivojida

o'zaro ta'sir va madaniy hamkorlik asosiy o'rin tutadi. Izchil jarayonda tarjima malakasi ichki omillar barobarida, tashqi ta'sir bog'lamiga ham payvandlanadi.

Badiiy tarjima malakasi estetika, ma'naviyat, ruhiyat, falsafa va mantiq tajribasini omixtalashtiradi. Unda tillararo genetik munosabat asosiy yo'nalishlar yaxlitligi, ijod qonuniyatlari umumiy mohiyati hamda yetakchi tamoyillar zichligi jilvalanadi. Eng muhimi, yaqin tillar oilasidan tarjimada ikki milliy arsenal: dunyoqarash, did, saviya va layoqat o'zaro to'qnashadi. Bir qarashda, qardosh tillararo tarjima qulay va oson tuyuladi. Negaki, bir oilaga mansub lug'aviy qatlam muammo hajmini kamaytiradigandek taassurot uyg'otadi. Biroq har bir til o'ziga xos ruhiyat, jo'g'rofiy shart-sharoit tabiati va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari xoslanganlik darajasini taqdim etishi masala mohiyatining ancha murakkabligini ko'rsatadi.

“Yaqin tillardan yoki qardosh tillardan tarjima der ekanmiz, odatda, leksik umumiyliги ko'p bo'lgan oiladosh tillarning biridan ikkinchisiga o'g'irish masalasi ko'zda tutiladi”.<sup>1</sup> Tarjimashunos olim Z. Isomiddinov nazariy qarashida bir nechta xususiyat qabarib ko'rinadi: birinchidan, bir oilaga mansub tillarda lug'at zaxirasi umumiy asosga tayanadi, ikkinchidan, har bir til ichki imkoniyatlari o'ziga xos mohiyat kasb etadi, uchinchidan, har bir milliy til leksik, grammatik va sintaktik strukturasi qardosh til tarjima malakasida ham universal mazmunga intiladi. Aynan tipologik mushtaraklik yaqin jo'g'rofiy hudud, o'xshash shart-sharoit va ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik mustahkamligi bilan xarakterlanadi. Joriy holat har bir milliy til o'ziga xosligini ham inkor etmaydi. Asosiy muammo qardosh xalqlar did hamda saviyasi orasidagi tafovutda namoyon bo'ladi. Aslida, badiiy asarni qardosh tilga tarjima qilish dunyoqarash o'zgachaligini bir-biriga payvandlash darajasiga borib taqaladi. Unda milliy tasvir miqyosi universal mohiyatga intiladi, unda ifoda yo'sini o'ziga xosligi tasvir ruhiyati mushtarakligini hosil qiladi, unda adabiy qonun-qoidalar o'xshashligi tipologik chambarchaslikni vujudga keltiradi, unda shaxsiy uslub va milliy tasavvur o'lchami yaxlitlashadi. Tarjimon ijodiy iqtidori hamda kasbiy mahorati asliyat va tarjima munosabatlari jiplashuviga zamin hozirlaydi. Unda ilmiy qobiliyat va ijodiy layoqat qirralari bir-birini to'ldirishga xizmat qiladi. Ayni paytda, ijodkor tasvir malakasi va mutarjim ifoda uslubi o'zaro munosabatga kirishadi. Tarjimon ham til ruhiyati, ham millat falsafasini yaxshi bilishi lozim. Tarjima sifati, nazariy mezonlar va amaliyot tajribasi shu jihatga bog'liq.

Har bir asar matni tarjimasi g'oyaviy mazmun, emotsional-estetik yaxlitlik va tasviriy vositalar ting'izligini uyushtiradi. An'ana hamda tajriba omixtalashuvi uning asosini tayin etadi. Ijtimoiy voqelik hajmi, davr ruhiyati ziddiyati, avvalo, ma'naviy olamda bo'y ko'rsatadi. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy o'zgarishlar tarjimada milliy o'lchamdan umuminsoniy qadriyatga yuzlanadi. Badiiy matn shaxsiy-ijtimoiy-milliy qadriyat bo'lishi barobarda, o'zga tilga o'girilganda o'z mohiyatini saqlaydi. Zamon o'zgarishlari, tafakkur yangilanishi tillararo munosabat hosil qiladi. Unda g'oya badiiy takomili, inson dunyoqarashi o'sish tarixi, ong va tuyg'uda jiddiy islohotlar hosil qilish jarayoni ko'zga tashlanadi.

Badiiy matn tarjimasi inson, tabiat va jamiyat sarhadlariga tarqalib ketgan uyg'unlikni kashf etadi. Ichki mohiyat va tashqi shamoyil orasidagi aloqa badiiy yaxlitlik kafolati, unda subyekt va obyekt ohangdoshligi, shakl va mazmun vobastaligi, tasavvur va g'oya mushtarakligi, talqin va tahlil ziddiyati o'z ifodasini topadi. Aslida, «har bir san'at asari dunyoning yaxlitligini tasdiqlovchi manifest» hisoblanadi.<sup>2</sup> Adabiy hamjihatlik real voqelik hamda ijodiy g'oya o'rtasida shakllanadigan munosabat tizimi tajribasini markazlashtiradi. Adabiyot falsafasi hissiy idrok vositasida o'zaro bog'liqlikni asoslashdan iborat.

Shu o'rinda ta'kidlash joiz, mohiyat hamisha mavhumlik qadar harakatlanadi. Tasvirdan ifodaga, ifodadan g'oyaga muttasil o'tib turish aloqalantirilgan mushohadani tahlilga yuzlantiradi. Binobarin, tahlil va talqin insoniyat fikrlash madaniyati ikki bosqichi, imkoniyat hamda mantiq mushtarakligi poetik butunlikni tayin etadi. Shu ma'noda, qardosh tillardan tarjima malakasi mustaqil, aniqlovchi va to'ldiruvchi ijodiy a'zolar badiiy intizomidan iborat. Zotan, asarda tasvir ruhiyati intensivligi ifoda mustaqilligi tarqoqligiga olib keladi. Uni texnik barqarorlashgan, ijtimoiy-ruhiy-falsafiy mohiyat tugalligidan tashkil topgan voqea-hodisot izchil ifodasi sifatida baholash mumkin. Muallif adabiy tafakkurda tafsilot, taassurot va muhokamaga keng o'rin ajratadi. Asliyatda goh oshkor, goh yashirin tarzda namoyon badiiy maqsad muntazam turtki hamda natija aloqadorligini tiklash vazifasini bajaradi. Ichki uyg'unlik, nisbiy shartlilik hamda badiiy struktura aniqligini belgilab beradi. Ijtimoiy-falsafiy dunyoqarash bilan matn badiiy voqeligini tutashtiradigan poetik ong taqlid, tahlil, tasvir va ifoda munosabatini muayyan estetik markazga yig'adi.

<sup>1</sup> Isomiddinov Z. Aldoqchi so'zlar bilan bahs. Tarjima san'ati. 5-kitob, Toshkent, 1980, 154-bet.

<sup>2</sup> Jahon adiblari adabiyot haqida. T., “Ma'naviyat”, 2010, 127-bet.

Zamonaviy turkman she'riyati yirik vakillaridan biri A.Mammedov ijodi yuksak g'oyaviy mazmuni, emotsional-estetik salmog'i va ifoda mustaqilligi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. An'ana hamda tajriba g'alati tarzda omixtalashgan badiiy izlanishlarda tabiiy bir harorat mujassam. Ayniqsa, "shoir lirikasida g'azal, muxammas, ruboiy va boshqa aruz vaznidagi she'riy shakllarning ko'p qo'llanilishi Sharq adabiyoti an'analarini, poetikasini mukammal o'zlashtirganini bildirib turadi".<sup>3</sup> Unda ruhiy sarzanishlar ijtimoiy-falsafiy teranlik hosil qiladi, unda tahlil malakasi tasvir tig'izlashuvini belgilaydi, unda mustaqil ifoda adabiy talqin mohiyatini ochib beradi, unda hissiy idrok maromi poetik g'oya yoyiqligini boshqaradi, unda she'riy dunyoqarash poetik tanlovni rasmiylashtiradi, unda ijodiy shaxsiyat rivoya texnikasi o'ziga xosligini dalolatlaydi, unda badiiy taqvim ma'naviy mezonga intiladi, unda kuzatish tezkorligi jonli mu-shohadani tavsiflaydi:

*Hala, dymma, dilewar ýa, alçak bol,  
Ata-babalañdan sapak aljak bol.  
Ili kiçeltmegin özüñe çenli,  
Özüñ il deñine göteriljek bol.*<sup>4</sup>

Ruboiy mumtoz janr sifatida vazn, ohang, tasvir va ifodani yaxlitlashtiradi. Unda badiiy mushohada izchil takomili, g'oyaviy mazmun tugalligi hamda estetik idrok yig'ikligi jipslashadi. Poetik shakl tabiati unga o'ziga xos yondashuvni taqozolaydi. Shu ma'noda, badiiy tizimda "to'la huquqli janr bo'lgan ruboiy va uning tarjimasini masalalarini tekshirish dolzarbligi jihatidan kompleks tadqiqotlarni talab etadi".<sup>5</sup> Aynan vazn o'lchami, mushohada mantiqiy taraqqiyoti hamda ifoda uslubi o'ziga xosligini tasvirda qayta tiklash adabiy mahoratga payvandlanadi. Unda so'z va ekvivalent birlashadi, shakl va mazmun uyg'unlashadi, unda falsafa va mantiq markazlashadi, tahlil va talqin o'zaro o'rin almashadi:

*Istasang kamgap bo'l, sho'x, dilovar bo'l,  
Ota-bobolardan saboq olar bo'l.  
Elni kichraytirma o'zing qadar to,  
O'zing el bo'yiga do'st, barobar bo'l.*<sup>6</sup>

Y.Nasim tarjimasida qayta tiklangan mohiyat lug'aviy ma'no ko'chishi, ifoda mustaqilligi saqlanishi hamda milliy tasvir ruhiyati o'lchami aynanligi jiddiy qusurlar keltirib chiqargan. Xususan, ifoda tabiiyligini saqlash mayli sun'iy tashbeh qo'llanmasiga yo'l ochadi, uslubiy saktalik, ayniqsa, uchinchi va to'rtinchi satrlarda qabarib ko'rinadi: elning kichraytirilishi, el bo'yiga do'st bo'lish iboralari o'quvchi shuuriga yopishmaydi, so'zma-so'z tarjima ishonchni suiiste'mol qiladi. Joriy holatda mutarjim erkin ijodiy yondashganda maqsadga muvofiq bo'lardi. Vaholanki, haqiqiy tarjima san'atida "sun'iy jumla va g'aliz iboralar qo'llashdan asranish, yetakchi fikrni, mumkin qadar, to'laroq aks ettirish, to'g'ri, chiroyli, yengil va erkin uslubdagi bayonga erishish lozim". Iqtibosda bir nechta xususiyat e'tiborni tortadi: birinchidan, matn tarjimasida tabiiy ifoda ekvivalentligi qayta tiklanishi joiz, ikkinchidan, asosiy niyat ma'no tarmog'idan uzoqlashmasligi shart, uchinchidan, erkin uslubdagi bayon adabiy mahoratga bog'liq jarayon sanaladi. Aynan har bir mutarjim tarjima malakasi asarga ijodiy yondashuvni taqozo etadi:

*Kimse nadyl, kimse aydar "Rahmet, dost!"  
Yakar seni kä gybat, kä töhmet, dost.  
Her yetene özüñ oynadyr ýörsüñ,  
Gijem bolsa, akyla gel, Ahmet dost!*<sup>7</sup>

Mazkur holatda mutarjim asl nusxa matniga, aslo, zug'um o'tkazmaydi, muallif g'oyaviy to'xtami-hijjalab o'zbekchallashtiradi. Unda turkman tiliga xos leksik-frazeologik uslub qayta tiklanadi, ijodkor shaxsiyati va poetik mahorati to'liq saqlanadi, matn estetik qiymati va hayotiy mantig'i omuxtalashadi. Tarjimon badiiy nusxani yaratishda ijodkor fitratini nazardan soqit qilmaydi, balki asliyat ma'no salmog'i hamda ifoda nafasatini tasvirda markazlashtirishga intiladi. Shoir satrlarida hukmron harorat tafti o'zbek tili imkoniyatlarida qayta bo'y ko'rsatadi:

*Kimdir norozidir, kim der "Rahmat, do'st!"  
Bag'ring yoqar g'iybat, goho tuhmat, do'st.  
Har kasga misoli o'yinchoqdirsan,*

<sup>3</sup> Quramboyev K. Do'stlik kuychisi. Mammedov A. Ishq – qismatim. Toshkent, "O'zbekiston", 2014, 5-bet.

<sup>4</sup> Mammedov A. Rubagylar we bentler. Ashgabat, "YIym", 2012, 6-njy saxypa.

<sup>5</sup> Jumhuriyat yosh adabiyotshunoslarning an'anaviy ilmiy konferensiyasi materiallari. Toshkent, 1992, 47-bet.

<sup>6</sup> Mammedov A. Ishq – qismatim. Toshkent, "O'zbekiston", 2014, 66-bet.

<sup>7</sup> Ko'rsatilgan adabiyot. 7-bet.

*Aqling yig‘, kech emas hali, Ahmad do‘st!*<sup>8</sup>

Ifoda tabiiy maromi kitobxonni ishonitirishga xizmat qiladi. Yangi hayot bag‘ishlangan ruboiy tarjimasida asliyatga xos ma‘naviy-ruhiy mushtaraklik ko‘zga tashlanadi. Tasvir tamoyillarini qayta tiklash amaliyotida mutarjim zakovati namoyon bo‘ladi. Mavjud jihat, ayniqsa, milliy koloritlarni payvandlash, so‘z tanlash va tashbeh qo‘llash iqtidorida bo‘rtib turadi. “Har kasga misoli o‘yinchoqdirsan” kuzatishi hamda “aqlingni yig‘” murojaati o‘zbek tili ruhiyatiga daxldor tushuncha hosil qiladi. Turkman shoiri ko‘ngil sarzanishlarini teran idroklagan tarjimon badiiy matn ritmiga rioya qiladi hamda estetik tamoyillar yaxlitligini asosiy o‘ringa ko‘taradi. To‘g‘ri, ruboiy tarjimalarida ba‘zi nuqsonlar kuzatiladi, biroq aksar o‘girmalarda ijodkor kamoloti bo‘y-basti namoyon bo‘ladi.

Y.Nasim mashhur turkman adibi A.Mammedov qalamiga mansub o‘nga yaqin to‘rtlikni mohirona o‘zbekchallashtirgan. Hayotiy ikir-chikirlarni hijjalab tarjima qilish, ayrim holatlarda tasavvur oqimini keskin o‘zgartirish, o‘z iqtidoriga muvofiq tashbehlar qo‘llash, shoir g‘oyaviy to‘xtamini milliy ifodaga moslashtirishga intilish poetik nutq yorqinligiga zamin hozirlaydi. Mutarjim mahorati asliyat va tarjima ruhiyatini maksimal darajada bir-biriga uyg‘unlashtira olganligida qabarib ko‘rinadi. Tarjimon muallif dil harorati taftini o‘zbek tilida qayta tiklay olgan. Joriy holat turkman shoiri ma‘naviy olami o‘zbek o‘quvchisi qalbiga ko‘chishi hamda mustahkam o‘rin egallashiga keng yo‘l ochadi.

Umuman, qardosh tillardan tarjima masalasi hali-hanuzgacha yaxlit tadqiqot obyekti bo‘lgan emas. Hijjalab tarjima qilish usuli aksar hollarda ishonchni oqlaydi. Vaholanki, bir oilaga mansub tillararo munosabatni leksik maydon, grammatik intizom va sintaktik tanlov birlashtirib turadi. Ba‘zan tushuncha qamrovini jiddiy isloh qilish, so‘z tanlash – tashbeh qo‘llash mahorati, g‘oyaviy tayanch markazni tasvir ruhiyatiga muvofiqlashtirish mayli tarjima muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Badiiy tarjima mukammalligini mohiyatan asliyat va tarjima ruhiyatini bir-biriga mantiqiy payvandlashda to‘la namoyon bo‘ladi.

**Чернова Татьяна Алексеевна (Самарқанд Иқтисодиёт ва сервис институти “Ўзбек тили ва адабиёти”  
кафедраси ўқитувчиси; [chernovatatiyana@sies.uz](mailto:chernovatatiyana@sies.uz))**

### **НАЦИОНАЛЬНЫЙ ОБРАЗ ВОСТОЧНОГО МИРА В СОВРЕМЕННОЙ РУССКОЯЗЫЧНОЙ ПРОЗЕ**

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada zamonaviy yozuvchilarning sharqona hayot modeli haqidagi qarashlari o‘rganilgan hamda sharq xalqlari xarakteri va hayot asoslari tahlil qilingan. Sharqning insoniyat beshigi sifatidagi g‘oyasi qadimiy adabiyot shakllari: mifologiya, folklor bilan bog‘liq bo‘lgan uzoq vaqtdan beri shakllangan. Maqolada taniqli yozuvchi A.Volosning “Suriya atirgullari” hikoyasi tahlil qilinadi. O‘rta Osiyoda tug‘ilgan adib, kelib chiqishi yevropalik bo‘lib, Sharq xalqlari psixologiyasi va madaniyatini o‘ziga singdirgan, dunyoqarashi, munosabati jihatidan sharq mentalitetiga yaqin yozuvchidir. Ijtimoiy-siyosiy sharoitlar tufayli ommaviy muhojirlik ortidan Andrey Volos O‘rta Osiyoni tark etdi, ammo bolaligidan o‘zida sharqona qiyofani abadiy saqlab qoladi.*

**Аннотация.** *В данной статье рассматривается взгляд и точка зрения современных писателей на восточную модель жизни, анализ характеров и устоев жизни народов Востока. Издавна сложилось представление о Востоке как о колыбели человечества, что сопряжено с древними формами словесности: мифологией, фольклором. В статье анализируется повесть известного писателя А.Волоса «Сирийские розы». Писатель, родившийся в Средней Азии, будучи европейцем по происхождению, впитал психологию, культуру восточных народов, по особенностям мировосприятия и мироощущения близок восточному менталитету. В силу объективных социально-политических обстоятельств на волне массовой эмиграции Андрей Волос покинул Среднюю Азию, навсегда сохранив образ Востока как реальное пространство своего детства.*

**Annotation.** *This article examines point of view of modern writers on the Eastern model of life, analysis of the characters and foundations of life of the peoples of the East. The idea of the East as the cradle of humanity has long been formed, which is associated with ancient forms of literature: mythology, folklore. The article analyzes the story of the famous writer A.Volos “Syrian Roses”. The writer, born in Central Asia, being European by origin, absorbed the psychology and culture of Eastern peoples, and is close to the Eastern mentality in terms of his worldview and attitude. Due to objective sociopolitical circumstances, in the wake of mass emigration, Andrei Volos left Central Asia, forever preserving the image of the East as the real space of his childhood.*

<sup>8</sup> Ko‘rsatilgan adabiyot. 67-bet.



*Kalit so‘zlar: hayotning sharqiy modeli, dunyoqarash, Sharq qiyofasi, mifologik an’analar, ijtimoiy borliq ko‘zgusi, Osiyo varianti.*

**Ключевые слова:** *восточная модель жизни, мировосприятие, образ Востока, мифологические традиции, зеркало общественного бытия, Азиатский вариант.*

**Key words:** *eastern model of life, worldview, image of the East, mythological traditions, mirror of social existence, Asian version.*

В настоящее время активизируется пробуждение национального самосознания как выражение народного духа, особенно сильно выразившееся в глубоком интересе к национальной культуре этнических народов постсоветского пространства, в частности – народов Средней Азии. Распад Союза, нарушение традиций, жизненных ценностей актуализируют поиски стабильных, стержневых истоков, противостоящих энергии распада. Такой ценностью становится народное сознание, в которое входят понятия, составляющие субстанцию жизни каждого человека – семья, традиции, преемственность поколений, отношение к природе, ко всему живому, дом, очаг и т.д. Это составляющие национального характера, на этом зиждется бытие человека, которое было подвергнуто крутой ломке, особенно остро и болезненно ощущаемой в жизни народов Востока.

Издавна сложилось представление о Востоке как о колыбели человечества, что сопряжено с древними формами словесности: мифологией, фольклором. Говоря о писателях азиатского ареала, Е.В.Мелетинский отмечает, что для них мифологические традиции еще являются живой подпочвой национального сознания, и даже многократное повторение одних и тех же мифологических мотивов символизирует в первую очередь стойкость национальных традиций, национальной жизненной модели.<sup>1</sup>

Среди современных писателей, запечатлевших восточную модель жизни, следует отметить Андрея Волоса и его повесть «Сирийские розы». Писатель, родившийся в Средней Азии, будучи европейцем по происхождению, впитал психологию, культуру восточных народов, по особенностям мировосприятия и мироощущения близок восточному менталитету. В силу объективных социально-политических обстоятельств на волне массовой эмиграции Андрей Волос покинул Среднюю Азию, навсегда сохранив образ Востока как реальное пространство своего детства.

Унаследовав дух и менталитет восточных народов, создавая национальные образы восточного мира, А.Волос явился своеобразным транслятором двух культур: западной и восточной.<sup>2</sup>

Повесть А.Волоса актуализировала основные тенденции современной прозы, которая устремлена к постижению всей полноты бытия, к осознанию связей между человеком и миром. XX век спрессовал такое количество исторических катастроф, так изменил характер взаимоотношений человека и мира, трансформировал духовное и психологическое содержание личности, что социально-исторические координаты традиционного реализма оказались недостаточными для отражения изменившейся реальности и человека.

В современной русской прозе благодаря жанровой синестезии происходит расширение возможностей реалистической литературы. «В парадигму психологического романа или повести вписывается экзистенциальный принцип восприятия действительности, изменяя структуру психогизма».<sup>3</sup>

В русле формирующихся тенденций в современной русской реалистической прозе повесть А.Волоса представляет совершенно новый мир, явившийся продолжением традиционной американской прозаистики. Тип повести, созданный А.Волосом, можно назвать «субъективной эпопеей», распространенной в американской литературе (Фолкнер, Вульф), где «основным конструктивным элементом является изображение работы человеческого сознания». «Сосуд сознания» (выражение Генри Джеймса), форму которого имеет повесть «Сирийские розы», становится средоточием глобальных проблем эпохи крушения постсоветского пространства. События социального плана не определяют природы сюжета, они являются лишь фоном для изображения динамики внутреннего мира героев, составляющей основной конструктивный принцип произведения, повествовательная техника которого соответствует образцам «субъективной эпопеи». Этот принцип заключается в том, что сознание героев должно стать зеркалом общественного бытия. Основной кон-

<sup>1</sup> Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. М., «Наука», 1976, с. 310.

<sup>2</sup> Волос А. Сирийские розы. «Новый мир», 1999, № 9 (в дальнейшем цитируем это издание с указанием страницы в скобках).

<sup>3</sup> Анастасьев Н. «Субъективная эпопея» и семейная хроника. М., 1983, с. 411.

фликт повести переведен в морально-этический план, что также характерно для «субъективной эпопеи».

В повести А.Волоса представлены две формы национального сознания, составляющие основу конфликта. В контексте повести конфликт не имеет формы открытого противостояния. Скорее, эти две формы сознания, как национальные образы, находятся в отношениях сосуществования, маркируя истинное и ложное.<sup>1</sup>

Повесть «Сирийские розы» актуализирует философско-этическое содержание, раскрывающееся во внутренних монологах, потоке сознания героев, в очень редких в структуре произведения диалогах. Она имеет дуплановую композицию, составленную из пересечения временных пластов: непосредственного возвращения из настоящего в прошлое и снова в настоящее. Монологические конструкции составляют соответственно две сюжетные линии, прослеживающие две различные судьбы: Карима Бухоро и Рахматулло-садовника. Личности героев настолько несоизмеримы в социальном отношении, что о конфликте как открытом противостоянии не может быть и речи. Эти сюжетные линии-судьбы, плавно переплетенные в художественном пространстве произведения, сосуществуют, являя различные формы национального характера.

Знаки настоящего времени, к которому относится повествование, пропущены через сознание обоих героев, высвечивая разные приоритеты в соответствии с их жизненными идеалами. Так, в повести А.Волоса рассматривается характерологический тип «нового русского» в азиатском варианте, который выступает как закономерное порождение эпохи рубежа веков.<sup>2</sup>

Азиатский вариант типа «нового русского» представлен в повести А.Волоса в образе Карима Бухоро, для которого наступило его время, когда в полной неразберихе можно сделать мощный рывок вперед...». В сознании Карима Бухоро время в контексте повести имеет свои реалии, отражающие ментальные приоритеты «нового русского». Это телефон, в котором кнопка talk символизирует конец, завершение разговора, действия; доллар, власть (как самодостаточная, абсолютная субстанция). К этой немой кнопке не раз обращает свой взор Карим, ожидая звонка, который в контексте развития характера является кульминационным, потому что с этим звонком сопряжен выбор героя: любовь – ненависть.

Повествование охватывает всего полдня. Эти полдня для Карима Бухоро равносильны всей его жизни, потому что именно сейчас герой стоит перед выбором: любовью и ненавистью: «Все равно еще не поздно отменить приказание. ... Зазвонил телефон» .

У Карима настоящее время отмеривают минуты (для героя время – категория преходящего), тем самым, передавая все напряжение ожидаемого звонка: «Семь минут двенадцатого... девять минут... и вот за две минуты солнце ушло, и теперь пиала касалась его самым краешком...» . Образ героя в художественном пространстве повести выстраивается в определенном семантическом поле, составляющие которого моделируют его жизненную судьбу.

Так, мотив пчелы, сопровождающий Карима Бухоро, дан в динамике изображения и передает как бы изменения психологического состояния героя. Первое появление пчелы рядом с Каримом Бухоро («сладковатое ж-ж-ж-ж...») вызывает философское рефлексирование героя: «Летит, что-то влечет ее к цветам. Собственная воля...? Или, наоборот, сила, с которой она не может сладить. Есть у нее воля? Или течение жизни и есть воля?» И в конце повести: «Ж-ж-ж! Угрожающе гудя, она села на край пиалы и быстро поползла, пульсируя брюшком и жадно хватая... невидимые капли влаги... нет, это была не пчела. ...зеркальное чудовище, раздробленное лучами света».

Другой мотив – паука – тянется от предшественника Карима Бухоро – Ислома-паука, которого так звали в народе. Карим перенял не только дело Ислома, его деньги и заветную тетрадку с именами, к которым протянуты нити знакомств, ведущих к власти, к богатству, не только еду шефа (манты из перепелиных языков), не только дискурс («не будем говорить обиняками по-таджикски, станем говорить хотя и на родном языке, но по-русски») и жестокость – но, самое главное, еще и метафорическую сущность паука («уж если в кого вопьется, живым не отпустит»).

Для Рахматулло-садовника настоящее время ассоциируется с ростом цен, с обесцениванием денег: «Вот он имеет в месяц одну зеленую бумажку – и живет так, что ему завидует вся махалля. ... Доллар, он и есть доллар. Хотя как посмотреть. В шестьдесят первом, когда он вернулся из ар-

<sup>1</sup> Нефагина Г. Русская проза конца XX века. М., 2001, с. 43.

<sup>2</sup> Шафранская Э.Ф. Мифопоэтика прозы Тимура Пулатова. М., 2004, с. 11.

мии, дедушка Назри подарил ему новую сторублевку. Тоже была вещь! Не слабей теперешней зеленой».

Рахматулло-садовник в концепции повести представляет национальный тип народного характера, художественное воплощение восточного человека. Он близок к природе, органически чувствует землю, знает жизнь деревьев, переживает за них. Для него цветущие яблони, виноградник подобны живым существам, которых он любит и знает. Для Рахматулло понятия дом и семья – это начало начал: его скособоченный дом всегда полон людей (дети, внуки, брат, старый отец). Он беден, в семье едят простую «атолу». Но люди к нему тянутся. Его зывают в дом или просто просят постоять рядом, потому что у него «легкая рука», и он приносит удачу (74). Именно в семантическое пространство образа Рахматулло включены народные пословицы и поговорки как выражение народного духа и народного сознания. Рахматулло – истинный мусульманин, для которого пятница, когда в мечети большая молитва – «хутба – святой день» (92). Таков образ Рахматулло, семантический контекст которого тесно связан с основной идеей произведения, вынесенной в название повести. Роза – поэтический мифообраз, довольно распространенный в мировом словесном дискурсе. Современный исследователь В.Н.Топоров, составляя систему символических значений розы, включает «красоту, совершенство, изящество, радость, любовь, удовольствие, хвалу, славу, пышность, блаженство, аромат, пламенность, гордость, мудрость, молитву, медитацию, тайну, таинство, тишину».<sup>1</sup>

В контексте повести выход Рахматулло на философский уровень сознания осуществляется в семантическом пространстве мотива роз. Семантизация розы в контексте художественной модели образа Рахматулло вносит динамизм в восприятие героя. Размышления о природе розы возвышают героя, раскрывая истинную сущность и силу его духа: «Зачем она такая красивая? Непонятно. Ну, допустим, пахнет – это ясно: чтобы пчела могла найти цветок. А зачем красота? ... Дедушка Назри говорил, что Бог создал часть вещей, чтобы они печалили человека, а часть, чтобы радовали. ... Но разве роза радуется? Да, она радуется, конечно, но одновременно и печалит. Потому что она прекрасна. Да так прекрасна, что, наверное, бессмертна. ... Вот иногда думаешь: разве это – жизнь? Нет же, это просто сон... Все пройдет – и страх, и смерть, и радость, и беда, и голод, и сытость, и нищета, и деньги, и сила, и немощь – а роза будет цвести. Разве может коснуться ее страх или смерть? Нет, роза будет так же прекрасна. И печаль на. А красота ее – так же недостижима... Вот и сжимается, плачет сердце от этого велико-лепия: никогда, никогда не достичь красоты!» (93)

Этот простой садовник, исполнивший гимн красоте, возвысился в наших глазах силой своего духа и величия, постигнув вечность бытия через красоту. Таким образом, социокультурная ситуация на рубеже веков внесла весьма значительные изменения в определение этических и эстетических ценностей современной реальности.

---

<sup>1</sup> Мифы народов мира. Энциклопедия. Т. 2, М., 1991, с. 386.

**Narbaeva Raziya Davletbaevna (QDU “Matematik analiz” kafedrası assistenti)  
KREDIT TEXNOLOGIYASI SHAROITIDA “GOLOMORF FUNKSIYASINING  
AKSLANTIRISHLAR” MAVZUSINI O‘QITISHGA INNOVATSION YONDASHUVLAR  
SAMARADORLIGI**

**Annotatsiya.** Bu maqolada “Golomorf funksiyasining akslantirishlar” mavzusini o‘qitishda innovatsion yondashuvlardan foydalanishning samaradorligi ko‘rsatilgan. Golomorf funksiyalar kompleks analizning asosiy konseptlaridan biridir va matematika fani uchun muhimdir. Bu mavzuni o‘qitish orqali talabalar bu konseptni tushunishlari va uning nazariy asoslarini o‘rganishlari mumkin. Innovatsion yondashuvlar, masalan, interaktiv darslar, ma’lumotlar texnologiyalari va dasturlardan foydalanish orqali talabalar golomorf funksiyalari haqida chuqur bilimga ega bo‘lishi mumkin. Bu usullar talabalarning qiziqishini tortishi va ularga motivatsiya berishi mumkin. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar talabalarining nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llashga yordam beradi va ularning o‘zlashtirish va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi. Golomorf funksiyalar mavzusini o‘qitishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish talabalarining ushbu mavzuni qiziqish bilan o‘rganishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu usullar talabalarining nazariy bilimlarini mustahkamlash, savollar yaratish va muhokamalar olib borish imkoniyatini yaratib beradi. Tadqiqot natijasiga ko‘ra, Golomorf funksiyasining akslantirishlar mavzusini innovatsion usullar yordamida o‘qitish orqali talabalarining matematika faniga qiziqishini oshirish va ularga motivatsiya berish mumkin.

**Аннотация.** В данной статье показана эффективность использования инновационных подходов в преподавании темы «Отражение голоморфной функции». Голоморфные функции являются одним из основных понятий комплексного анализа и важны для математики. Изучая эту тему, студенты могут понять эту концепцию и ее теоретическую основу. Используя инновационные подходы, такие как интерактивные уроки, информационные технологии и программное обеспечение, студенты могут получить глубокие знания о голоморфных функциях. Эти методы могут вызвать интерес у студентов и мотивировать их. Также инновационные подходы помогают применять теоретические знания студентов на практике и позволяют развивать их навыки усвоения и анализа. Использование инновационных подходов в преподавании темы голоморфных функций играет важную роль в обеспечении интереса учащихся к изучению этой темы. Эти методы дают возможность закрепить теоретические знания учащихся, создавать вопросы и проводить дискуссии. Согласно результатам исследования, повысить интерес учащихся к математике и мотивировать их можно путем обучения предмету «Отражения голоморфной функции» с использованием инновационных методов.

**Annotation.** This article shows the effectiveness of using innovative approaches in teaching the topic “Reflection of a holomorphic function”. Holomorphic functions are one of the basic concepts of complex analysis and are important for mathematics. By teaching this topic, students can understand the concept and explore its theoretical basis. Using innovative approaches such as interactive lessons, information technology and software, students can gain in-depth knowledge of holomorphic functions. These methods can attract students’ interest and motivate them. Innovative approaches also help to apply students’ theoretical knowledge in practice and allow them to develop their learning and analysis skills. The use of innovative approaches in teaching the topic of holomorphic functions plays an important role in ensuring students’ interest in studying this topic. These methods provide an opportunity to consolidate students’ theoretical knowledge, create questions and conduct discussions. According to the results of the study, it is possible to increase students’ interest in mathematics and motivate them by teaching the subject “Reflections of a Holomorphic Function” using innovative methods.

**Kalit so‘zlar:** kredit modul tizimi, innovatsiya, yondashuvlar, samaradorlik, matematika, Golomorf funksiyasining akslantirishlar mavzusi, texnologiya, interaktiv usullar, dasturlar.

**Ключевые слова:** система кредитных модулей, инновации, подходы, эффективность, математика, тема отражения голоморфной функции, технология, интерактивные методы, программы.

**Key words:** system of credit modules, innovations, approaches, efficiency, mathematics, the topic of reflecting a holomorphic function, technology, interactive methods, programs.

Golomorf funksiyadagi akslantirish mavzusi hisob va kompleks tahlilda muhim tushunchadir. Golomorf funksiya bu murakkab tekislikning ma'lum bir mintaqasida analitik bo'lgan funksiya hisoblanadi.

Golomorf funksiyada akslantirish funksiyaning ma'lum bir o'q yoki nuqta atrofida aks ettirilganda o'z xususiyatlarini saqlab qolishini anglatadi. Masalan,  $f(z)$  funksiya kompleks tekislikning ba'zi  $D$  sohasida golomorf bo'lsa, uning aks etishi  $f(1/z)$  ham  $1/D$  sohada golomorf funksiya bo'ladi [9.12–46].

Golomorf funksiyadagi akslantirish matematika va fizikaning turli sohalarida ko'plab qo'llanilishiga ega. Ular, masalan, potensial nazariya, maydon nazariyasi va differensial tenglamalarda qo'llaniladi. Golomorf funksiyada akslantirish mavzusini o'rganish analitiklik, uyg'unlik va izchillik kabi kompleks tahlilning asosiy tushunchalarini yaxshi tushunishni talab qiladi. Bundan tashqari, burchaklar va uzunliklarni saqlash kabi aks ettirishning asosiy xususiyatlarini bilish kerak. Golomorf funksiyadagi aks ettirish matematikada muhim va qiziqarli mavzudir. Ularni o'rganish murakkab tahlilni chuqur tushunishni talab qiladi va fanning turli sohalarida ko'plab ilovalarga ega bo'ladi.

Golomorf funksiyada aks ettirishni o'rganishga innovatsion yondashuvlar matematik tahlil va kompleks tahlilning zamonaviy usullari va vositalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuvlarning ba'zilari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Kompleks o'zgaruvchining funksiyalari nazariyasidan foydalanish. Bu golomorf funksiyalarning analitiklik, garmoniklik va bog'liqlik kabi asosiy xossalarni o'rganishni, aks ettirilayotgan funksiyaning harakati haqida ma'lumot olish uchun Koshi va Riman teoremlarini qo'llashni o'z ichiga oladi.

2. Simmetriya usullarini qo'llash. Bu golomorf funksiyalarning simmetrik xususiyatlarini o'rganish va aks ettirishni tahlil qilish uchun guruh nazariyasidan foydalanishni o'z ichiga oladi. Masalan, Mobius guruhlari golomorf funksiyalardagi aks ettirishni o'rganish uchun ishlatiladi.

3. Raqamli usullardan foydalanish. Bu golomorf funksiyalarda aks ettirishni o'rganish uchun raqamli usullarni qo'llashni o'z ichiga oladi. Masalan, chekli elementlar usuli aks ettirishni modellashtirish va sonli natijalarni olish uchun ishlatiladi [4].

4. Kompyuter dasturlari va algoritmlarini qo'llash. Bu golomorf funksiyalarda aks ettirishni o'rganish uchun kompyuter dasturlari va algoritmlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Masalan, murakkab funksiyalarni vizualizatsiya qilish va tahlil qilish dasturlari aks ettirishni o'rganish uchun ishlatilishi mumkin.

5. Potensial nazariyani qo'llash. Bu potensial nazariya yordamida golomorf funksiyalardagi aks ettirishni o'rganishni o'z ichiga oladi. Potensial nazariya golomorf funksiyalardagi aks ettirish bilan bog'lanishi mumkin bo'lgan potensial maydonlarni tahlil qilish uchun ishlatilishi mumkin.

6. Loyiha ishi. Talabalardan golomorf funksiyadagi aks ettirish bilan bog'liq loyihani bajarish so'raladi. Masalan, ular turli funksiyalarda aks ettirish xususiyatlarini o'rganishlari yoki o'ziga xos aks ettirishlar bilan o'zlarining funksiyalarini yaratadi. Bu talabalarga olgan bilimlarini amalda qo'llash va tahliлий ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

7. Hamkorlikda o'rganish. Talabalar golomorf funksiyadagi aks ettirish bilan bog'liq muammolarni muhokama qilish va yechish uchun guruhlarda ishlashlari mumkin. Bu talabalarning faol ishtirokini rag'batlantiradi va ularga fikr va yechimlar almashish imkonini beradi.

8. Onlayn resurslardan foydalanish. Talabalarni mavzuni chuqur o'rganish uchun videodarsliklar, maqolalar va darsliklar kabi onlayn resurslardan foydalanishga undash mumkin. Ular materialni mustaqil o'rganishlari va kerak bo'lganda o'qituvchiga savollar berishlari mumkin [3].

Ushbu innovatsion yondashuvlar golomorf funksiyadagi aks ettirish haqidagi tushunchamizni kengaytirishga yordam beradi va ularni matematika va fizikaning turli sohalarida qo'llash mumkin.

Kredit modullari tizimida "Golomorf funksiyadagi akslantirish" mavzusini o'qitishda innovatsion yondashuvlar katta ahamiyatga ega. Kredit modul tizimi talabalarga fanlarni yanada moslashuvchan tanlash va o'quv rejasini shakllantirish imkonini beradi.

"Golomorf funksiyadagi aks ettirish" mavzusini innovatsion yondashuvlardan foydalangan holda o'rgatish materialni chuqurroq o'zlashtirishga, analitik fikrlashni rivojlantirishga va olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyatiga yordam beradi [2].

Mumkin bo'lgan innovatsion yondashuvlardan biri interfaol o'qitish usullaridan foydalanishdir, masalan, amaliy muammolarni hal qilish, loyihaga asoslangan ish yoki golomorf funksiyalarni modelashtirish va tahlil qilish uchun kompyuter dasturlaridan foydalanish kiradi. Shuningdek, ushbu mavzuni o'qitishda innovatsion yondashuvlar samaradorligini baholash usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Buni talabalar so'rovi o'tkazish, ta'lim natijalarini an'anaviy o'qitish usullari bilan solishtirish yoki berilgan mavzuni o'rgangandan so'ng talabalar faoliyatini tahlil qilish orqali amalga oshirish mumkin.

Umuman olganda, “Golomorf funksiyadagi aks ettirish” mavzusini kredit-modul tizimi yordamida o‘qitishning innovatsion yondashuvlari samaradorligini o‘rganish ta’lim jarayonini optimallashtirish va ta’lim sifatini oshirishda qo‘l keladi.

Kredit modul tizimida “Golomorf funksiyadagi akslantirish” mavzusini o‘qitishda innovatsion yondashuvlarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Moslashuvchanlik va fanlarni tanlash. Talabalar o‘zlarining qiziqishlari va ehtiyojlariga mos keladigan fanlarni tanlash imkoniyatiga ega. Bu ularga materialni yanada samarali o‘zlashtirish va malakasini oshirish imkonini beradi.

2. Chuqurroq tushunish. Innovatsion o‘qitish usullaridan foydalanish materialni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Talabalar amaliy masalalarni hal qilishda, loyiha ishlarida yoki kompyuter dasturlaridan foydalanishda faol ishtirok etishlari mumkin, bu ularga bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirish va qo‘llashga yordam beradi.

3. Analitik fikrlashni rivojlantirish. O‘qitishning innovatsion yondashuvlari o‘quvchilarda analitik fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Ular golomorf funksiyalarning turli tomonlarini o‘rganishlari, ularning xossalari tahlil qilishlari va o‘z bilimlarini murakkab masalalarni yechishda qo‘llashlari mumkin [6.160–166].

4. Amalda qo‘llash. O‘qitishning innovatsion usullaridan foydalanish talabalarga olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkonini beradi. Masalan, ular golomorf funksiyalarni modellashtirish va tahlil qilish uchun kompyuter dasturlaridan foydalanishlari mumkin, bu esa ularning xususiyatlarini va real hayotdagi ilovalarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

3. Mavjudligi cheklangan. Innovatsion o‘qitish usullari talabalar uchun cheklangan bo‘lishi mumkin. Misol uchun, barcha ta’lim muassasalarida amaliy mashg‘ulotlar yoki loyiha ishlarini o‘tkazish uchun zarur jihozlar yoki dasturiy ta’minot mavjud emas.

4. Baholashning qiyinligi. O‘qitishning innovatsion yondashuvlari samaradorligini baholash qiyin bo‘lishi mumkin. Mavzuni o‘rgangandan so‘ng o‘quvchilarning bilimlarni tushunish va qo‘llash darajasini o‘lchash har doim ham oson emas. Bu ta’lim natijalarini baholash va tahlil qilishning maxsus usullarini ishlab chiqishni talab qilishi mumkin.

**Xulosa.** Innovatsion yondashuvlar, “Golomorf funksiyasida akslantirishlar” mavzusini o‘qitishda talabalarga qiziqishini oshirish va ularga motivatsiya berishda samaralidir. Bu usullar, interaktiv darslar, ma’lumotlar texnologiyalari va dasturlardan foydalanish orqali talabalarning mavzuni tushunishiga imkon beradi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotga aylantirishga yordam beradi va ularning o‘zlashtirish va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi. Bu usullar talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, savollar yaratish va muhokamalar olib borish imkoniyatiga ega bo‘ladi. “Golomorf funksiyasida akslantirishlar” mavzusini o‘qitish orqali talabalarning matematika faniga qiziqishini oshirish va ularga motivatsiya berish mumkin. Xulosa qilib aytish mumkin, kredit modul tizimida “Golomorf funksiyasida akslantirishlar” mavzusini o‘qitishga innovatsion yondashuvlar samaradorligi yuqori darajada bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Байденко В.И. Компетенции: к освоению компетентностного подхода. Труды методологического семинара «Россия в Болонском процессе: проблемы, задачи, перспективы». М., Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004, с. 25 – 30.

2. Дремова Н.Б., Конопля А.И. Активные методы обучения в учебном процессе вуза. Учебно-метод. пос., Курск, ГБОУ ВПО КГМУ, 2012, 100 с.

3. Колокольникова З.У. Технология активных методов обучения в профессиональном образовании. Учеб. пособие, Красноярск, Сибирский федеральный ун-т, Институт естественных и гуманитарных наук, 2007, 176 с.

4. Мельникова Н.П. Альтернативные подходы к организации учебного процесса в магистратуре. На логи и налогообложение, 2008, № 6, с. 34.

5. М.С.Красс, Б.П.Чупрынов. Основы математики и её приложения в экономическом образовании. М., “Дело”, 2000; Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. М., 2008.

6. Раздорская О.В. Генезис основных категорий рефлексивно-креативного подхода. Российский научный журнал, 2014, № 1 (39), с. 160 – 166.

7. Сейдаметова З.С. Облачные технологии и образование. Симферополь, «ДИАЙПИ», 2012, 204 с.

8. Тураева З.С. Институциональный подход к внедрению и оптимизации зарубежного опыта подготовки кадров в процесс непрерывного образования. Материалы научно-практической конференции «Теоре-

тические и методологические проблемы повышения качества и эффективности непрерывного образования» (Узбекистан, г. Самарканд, 19 ноября 2013 г.), с. 20 – 21.

9. Юрьев В.М. (2007). Активизация инновационной деятельности ТГУ им. Г.Р.Державина как механизм повышения качества подготовки специалистов. Гаудеамус, 2 (12), с. 12 – 46.

**Jumaniyozova Muhabbat Xusinovna (UrDU, f.f.n, dotsent; [khiva1970@mail.ru](mailto:khiva1970@mail.ru))**  
**ZAMONAVIY TA'LIM: "4 K" MODELI VA UNING BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI**  
**DARSLARIDA SHAKLLANTIRILISHI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada ta'limga zamonaviy yondashuv va undagi 4K modeli haqida so'z yuritiladi. Bu modelning boshlang'ich sinf ona tili darslarida shakllantirilishi masalasi 2-sinf ona tili darslari misolida o'rganiladi.*

***Аннотация.** В статье рассказывается о современном подходе к образованию и модели "4К" в нем. Вопрос формирования данной модели на уроках родного языка в начальных классах рассматривается на примере уроков родного языка во втором классе.*

***Annotation.** This article talks about the modern approach to education and the 4K model in it. The issue of the formation of this model in primary class mother tongue lessons is studied on the example of second grade mother tongue lessons.*

***Kalit so'zlar:** zamonaviy ta'lim, "4K" modeli, tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya, kooperatsiya, boshlang'ich ta'lim, ona tili darslari, dars samaradorligi, maqol, munozara.*

***Ключевые слова:** современное образование, модель «4К», критическое мышление, творчество (творческий подход), общение, сотрудничество, начальное образование, уроки родного языка, эффективность урока, пословица, дискуссия.*

***Key words:** modern education, "4K" model, critical thinking, creativity (creative approach), communication, cooperation, primary education, mother tongue lessons, lesson efficiency, proverb, discussion.*

Ta'lim mazmunining yil sayin o'zgarib, takomillashib borishi boshlang'ich ta'lim oldiga ham yangi-yangi talablar qo'yimoqda. Ta'lim-tarbiya tizimi jamiyatimizda kechayotgan islohotlar, yangilanish jarayonlari bilan uyg'un holda rivojlanmoqda.

Hukumatimiz tomonidan kelajak avlod tarbiyasiga berilayotgan katta e'tibor ta'lim tizimi va pedagoglar zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi. Bu vazifalarni amalga oshirish chuqur bilim va katta mahoratni talab etadi. Ta'lim tizimiga yangiliklarni olib kirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kun ta'limi olgiga qo'yilgan muhim vazifalardir. Xususan, zamonaviy ta'lim bugungi kun o'quvchilariga quyidagilarni o'rgatishi kerakligi qayd etilgan:

–kompleks vazifalarni hal qilish;

–bilimlar, mantiq, tahlil, mushohadaga tayangan holda, tanqidiy fikrlash, fikr-mulohazalarni shakllantirib, qaror qabul qilish.

–ijodiy fikrlash;

–insonlar bilan hamkorlik qilish;

–jamoadi ishlash;

–o'zining va boshqalarning emotsiyalari (his-tuyg'ulari)ni to'g'ri baholash, ularni boshqarish, emosional intellektga ega bo'lish;

–diqqatni bir vazifadan boshqasiga tez qarata olish, moslashuvchan bo'lish.

Yuqoridagilarni amalga oshirish ta'lim jarayoniga "4K" modelini qo'llash zaruratini yuzaga keltiradi.

**4 "K" modeli** – 1) kritik (tanqidiy) fikrlash (Critical Thinking); 2) kreativlik (ijodiy yondashuv) (Creativity); 3) kommunikatsiya (Communication); 4) kooperatsiya (Coordinating With Others).<sup>1</sup> Quyida **4K** ko'nikmalar xususida to'xtalib o'tamiz:

**Tanqidiy fikrlash.**

– tahlil – topshiriqni alohida kichik vazifalarga bo'lish, masalalarni yechishning yakuniy algoritmlarini yaratish qobiliyati;

– baholash – kirish va chiqish ma'lumotlarining sifati va muvofiqligini baholash qobiliyati;

– tushuntirish – o'z nuqtayi nazarini dalillash, mantiqiy-bog'liq izchil matnlar qurish;

<sup>1</sup> "Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy metodikasi" dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo'llanmasi. Toshkent, 2023, 40-bet.

– maqsadlarni belgilash – erishish mumkin bo‘lgan maqsadlarni to‘g‘ri shakllantirish, zarur ma‘lumotlarni va uning yetarililigini aniqlash, shu asosda mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyati;

– o‘zini boshqara bilish – o‘z-o‘zini tekshirish, xulosalarni tuzatish va mulohaza yuritish (refleksiya);

– modellashtirish – amaliy vaziyatni sifatli tahlil qilish va vazifalarni hal qilish uchun vaziyatni mavhum modeli bilan almashtirish qobiliyati;

– o‘rganilayotgan predmetga turli nuqtayi nazardan qarash amaliyoti;

– kuzatish va o‘lchovlarni rejalashtirish va amalga oshirish amaliyoti;

– muammolarni hal qilish malakalarini rivojlantirish;

– dalillarni ajrata olish, ularni shakllantirish va baholash qobiliyati;

– strategik fikrlash.

### **Kreativlik (ijodkorlik) ko‘nikmasi.**

– qiziquvchanlik – tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko‘proq bilishga intilish, dunyo obyektlari o‘rtasidagi sabab-natija munosabatlarini aniqlash, axborotni mustaqil izlash va o‘z savollariga javob topish qobiliyati;

– tasavvur – ko‘plab original va nostandart g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;

– optimallashtirish – maqsadga tez va samarali erishish uchun bir nechta usullarni solishtirish qobiliyati;

– g‘oyalarni rivojlantirish – g‘oyalarni turli nuqtayi nazardan baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini izlash, o‘zgaruvchan sharoitlarda va yangi ma‘lumotlarning paydo bo‘lishida o‘z faoliyatini tezda qayta qurish qobiliyati.

### **Muloqot qilish ko‘nikmasi.**

– muloqotdan cho‘chimaslik va muloqotni uyushtira bilish qobiliyati, savollar berish va ularga javob berishga tayyorlik.

– muloqot maqsadi va mazmuniga, shuningdek, suhbatdoshga moslashish qobiliyati;

– muloqotchanlik maqsadlariga erishishda verbal va noverbal vositalardan foydalanish qobiliyati;

– muloqot qoidalari ma‘nosini tushunish va ishonch darajasini oshirish;

– boshqa odamlarning fikrini tinglashni o‘rganish;

– o‘zining ijobiy obrazi shakllanishini ta‘minlash;

– o‘z fikr va his-tuyg‘ularini ifodalash amaliyoti;

– taqdim etish, qabul qilish va qayta aloqani aks ettirish amaliyoti;

– o‘z fikrlari va mulohazalarini aniq dalillash amaliyoti;

– katta va kichik jamoada boshqalar bilan ishlash amaliyoti.

### **Jamoaviy ishlash ko‘nikmasi.**

– umumiy maqsadlarni o‘z maqsadidek qabul qilish qobiliyati, ularga erishish uchun birgalikda harakat yo‘nalishini qurish qobiliyati;

– ijtimoiy o‘zaro ta‘sir, ya‘ni, umumiy maqsadlarni muvofiq qilib, muzokaralar olib borish, o‘z harakatlarini boshqa odamlarning harakatlari bilan muvofiq lashtirish;

– o‘z rejalari va g‘oyalarni amalga oshirish uchun yetakchilik ko‘nikmalarini va o‘z jamoasini shakllantirish qobiliyatini rivojlantirish;

– o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish;

– mustaqillik va avtonomiya va tashabbuskorlik.

Bu o‘quv yilidan boshlang‘ich ta‘lim uchun joriy qilingan yangi avlod darsliklarida o‘quvchilarga 4 K modeli asosida ta‘lim berishga alohida e‘tibor qaratilganligi e‘tiborga loyiqdir. Xususan, S.D.Kuranov muallifligida 2-sinf uchun nashr qilingan “Ona tili” darsligining birinchi qismi (Toshkent, “Novda Edutainment”, 2023)da oltita mavzu berilgan bo‘lib, ularda fonetik-grafik bilimlar berish ko‘zda tutilgan.<sup>1</sup>

Tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlar va harflar, jarangli va jarangsiz undosh tovushlar: j, x va h tovushlarining talaffuzi va imlosi, harf birikmasi bilan ifodalanadigan undoshlar kabi mavzularni o‘rganish uchun “O‘zbekiston – mustaqil davlat”, “Mehmondo‘st o‘zbek xalqi”, “Samarqand – go‘zal shahar”, “Ulug‘ allomalar yurti”, “Bola odobi bilan aziz”, “Mening mahallam” kabi bir qator mavzular berilganki, bu mavzular orqali o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqotchanlik, jamoaviylik

<sup>1</sup> Kuranov S.D. Ona tili. 2-sinf. I qism (umumiy o‘rta ta‘lim maktablari uchun darslik). Toshkent, “Novda Edutainment”, 2023, 88-bet.



kabi ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari katta ekanligini ta'kidlash joiz. Darslikda o'quv materiali sifatida ko'pgina maqollar tanlangan bo'lib, ular vositasida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

“Samarqand – go‘zal shahar” mavzusi ostidagi 12-mashqda maqollarda keltirilgan aytilishi va yozilishida farq qiladigan so‘zlarni topib yozish sharti bajarilgach, maqollarni qanday tushunganliklari xususida suhbat o‘tkaziladi. Xususan,

*Baliq suvsiz yasholmas,*

*Inson – do‘stsiz.*

*Aybsiz do‘st izlagan do‘stsiz qolar.*

*Daraxt yaprog‘i bilan ko‘rkam,*

*Odam – mehnati bilan.*

*Qobil farzand – jonga payvand.*

kabi maqollarning mazmuni yuzasidan o'quvchilar bilan o'tkazilgan suhbat ularni tanqidiy fikrlashga yonaltiradi.

“Bola odobi bilan aziz” mavzusi ostida x va h harflari imlosini o‘rganishga qaratilgan 7-mashqda berilgan maqollar o‘quvchilarning ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilar maqollar mazmunini qanday tushunganliklarini ijodiy fikrlash orqali ifodalab beradilar. Ayniqsa, mashqda berilgan maqollar mohiyatidan kelib chiqib “Odamning haqiqiy chiroyi uning qaysi xislatlarida ko‘rinadi deb o‘ylaysiz?” savoli tanqidiy va ijodiy fikrlashga o‘rgatishga yordam beradi. Shuningdek, axborotni mustaqil izlash ko‘nikmasini shakllantirish uchun esa unda odob va odobsizlik haqidagi maqollar topib yozish topshirig‘i berilgan. Xuddi shunday mazmundagi topshiriq 12-mashqdan so‘ng ham mavjud: Al-Beruniny, Al-Buxoriy, Al-Farg‘oniy yoki Ibn Sino haqida imkon qadar ko‘proq ma‘lumot yig‘ib kelish vazifasini bajarish orqali o‘quvchilarda axborotni mustaqil izlash va o‘z savollariga javob topish qobiliyatni rivojlantiriladi.

Muloqotchanlik ko‘nikmasini shakllantirish hamda jamoaviy ishlash ko‘nikmasini shakllantirish uchun kichik guruhlar bilan ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, “Mening mahallam” mavzusi ostida 3-mashqda bir qancha maqollar berilgan bo‘lib, ularda tushirib qoldirilgan kerakli so‘zlar o‘z o‘rniga qo‘yib ko‘chirladi: “Yon qo‘shni – jon ...”, “yaxshi qo‘shni uzoq qarindoshdan...”, “Qo‘shning tinch – sen ...”, “Bir bolaga ...qo‘shni ota-ona” kabi.

Berilgan maqollarning ma‘nosini izohlash, shu mavzuda kichik hikoya tuzish topshirig‘i bilan sinf jamoasi kichik guruhlarga ajratilib mustaqil ish tashkil qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday mustaqil ishlar o‘quvchilarning umumiy maqsadlarni o‘z maqsadidek qabul qilish qobiliyati hamda ularga erishish uchun birgalikda harakat qilish qobiliyatini rivojlantirib boradi, jamoaviy ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishiga ko‘maklashadi. Shuningdek, muloqotdan cho‘chimaslik va muloqotni uyushtira bilish qobiliyati, savollar berish va ularga javob berishga tayyorlik kabi ko‘nikmalar hosil qilib borishda yordamchi bo‘ladi. Bu borada esa munozara metodi qo‘l keladi. Chunki munozara – bu bahsli masalalarni muhokama qilish va munozara qilish usuli. Bugungi kunda munozara ta‘lim faoliyatining eng muhim shakllaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarning tashabbuskorligini oshirishga, refleksiv fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

“O‘quv munozarasi” tushunchasining ma‘nosi shuki, bunda darsni shunday tashkil qilish kerakki, o‘quvchilar yangi dars materiali bilan tanishgach, uni muhokama qilishi, o‘z fikrini aytishi mumkin. Muhokama paytida har bir o‘quvchi o‘qituvchi bergan savol yoki o‘rtaga tashlagan muammo bo‘yicha o‘zining shaxsiy fikrini aytishi mumkin bo‘ladi. Munozara mavzulari o‘quv maqsadlari bilan bog‘liq holda turli-tuman bo‘ladi. Masalan, o‘quvchilarga odob-axloq me‘yorlarini o‘rgatish, ta‘lim oluvchilarda muloqot kompetensiyalarini shakllantirish, o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy jihatdan yuksaltirish, ta‘lim oluvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatlarini rivojlantirish, tanqidiy tafakkurni qaror toptirish, o‘quvchilarni ijodiy faollikka undash va shu kabi ko‘plab maqsadlarga erishish nazarda tutiladi.<sup>1</sup>

Ko‘rinadiki, “4 K” modeli asosida o‘quvchilarga ta‘lim-tarbiya berishda 2-sinf “Ona tili” darsligi muhim didaktik manba bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy pedagog esa bu manbaning imkoniyatlarini samarali amalga oshirish uchun ta‘limni tashkil qilish shakllaridan to‘g‘ri foydalanishi, ilg‘or pedagogik hamda axborot texnologiyalarni oqilona qo‘llay olishi darkor. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar davrida ta‘limga zamonaviy yondashuv orqali o‘quvchilarni nafaqat amaliy ko‘nikmalar bilan, balki

<sup>1</sup> Allazarova Sh.A. Bahs-munozaraning o‘quvchi kamolotida tutgan o‘rni. “Ilim hám jámiyet”, 2018, 2-son, 45–47-betlar.

ularni hozirgi davr uchun zarur bo'lgan zamonaviy kompetensiyalar bilan qurollantirishni o'zining muhim burchi deb hisoblashi lozim.

**Abdurasulova Shoira Kushakovna (Guliston davlat universiteti “Boshlang'ich ta'llim uslubiyoti”  
kafedrası o'qituvchisi; [shoiraabdurasulova1972@gmail.com](mailto:shoiraabdurasulova1972@gmail.com))  
KREDIT-MODUL TIZIMIDA BO'LG'USI O'QITUVCHILARNING MULOQOT  
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik jihatdan imkoniyatlari ochilgan. Kredit-modul tizimi, uning imkoniyatlari va ushbu tizimining talabalardagi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyati atroflicha yoritilgan. Muloqot kompetensiyasi mazmuniga ham ta'riflar keltirib o'tilgan.

**Аннотация.** В статье раскрываются педагогические возможности развития коммуникативных компетенций будущих учителей в условиях кредитно-модульной системы. Подробно освещена система кредитных модулей, ее возможности и значение этой системы в развитии коммуникативной компетентности студентов. Также даны определения содержания коммуникативной компетентности.

**Annotation.** Pedagogical possibilities of developing communication skills of future teachers in the conditions of the credit module system are revealed in this article. The credit module system, its possibilities and the importance of this system in the development of students' communicative competence are covered in detail. Definitions of the content of communication competence are also given.

**Kalit so'zlar:** kredit, modul, tizim, jarayon, tarbiya, kompetensiya, kommunikativ, metod, interfaol, mustaqil, sistema, islohot, imkoniyat, ta'lim sifati, mustaqil ta'lim, kreativ, innovatsion, texnologiya.

**Ключевые слова:** кредит, модуль, система, процесс, образование, компетентность, коммуникативный, метод, интерактивный, самостоятельный, система, реформа, возможность, качество образования, самостоятельное образование, творческий, инновационный, технология.

**Key words:** credit, module, system, process, education, competence, communicative, method, interactive, independent, system, reform, opportunity, quality of education, independent education, creative, innovative, technology.

Ta'lim tizimi samaradorligini o'qituvchi saviyasi, talaba ehtiyoji, o'quv adabiyotlari mazmuni hamda mustaqil ta'limni shakllantirishga qaratilgan infratuzilma bevosita ta'minlab beradi. Demak, ilg'or kadrlarni tayyorlash, ularni mehnat bozori talablariga muvofiq raqobatdoshligini oshirish, ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarni yetishtirish o'quv dargohlarida yo'lga qo'yilgan ta'lim berish jarayoni bilan chambarchas bog'liq. Bilim va ilmning shakllanishi bevosita ta'lim tizimiga borib taqaladi. Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yilning 8-oktabrida “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmoni imzolandi. Ushbu muhim dasturilamal hujjatda “Respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish va oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish” belgilab berildi. Shuningdek, 2030-yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasasi (OTM)ning 85 foizi, jumladan, 2020–2021-o'quv yilining o'zida 33 ta oliy ta'lim dargohini kredit-modul tizimiga o'tkazish ko'rsatib o'tildi.<sup>1</sup>

Kredit-modul tizimi, – bu ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayon.

Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash, talabalar bilimini reyting asosida baholash. Dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovasion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yilning 8-oktabrida “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmoni.

<sup>2</sup> <https://xs.uz/uz/post/kredit-modul-tizimiga-otish-nima-uchun-kerakmaqsd-mohiyatva-afzallik>

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o’zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o’zaro munosabatlarda yangi yo’l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to’la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo’lishda o’z ustida ishlash, o’z-o’zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O’z-o’zini rivojlantirish vazifalari o’zini-o’zi tahlil qilish va o’zini-o’zi baholash orqali aniqlanadi. O’z ustida ishlash – pedagogning izchil ravishda o’zining kasbiy BKM va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo’lida amaliy harakatlarni tashkil etishi.<sup>1</sup>

**Pedagogning mutaxassis sifatida:**

- aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish;
- pedagogik jarayon samaradorligini, o’zining ishchanlik faolligini oshirish;
- izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o’zlashtirish;
- ilg’or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo’lish;
- faoliyatiga fan-texnikaning so’nggi yangiliklarini samarali tatbiq etish;
- kasbiy va malakalarini takomillashtirish;
- ko’nikma salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yo’lida olib boradigan amaliy harakati uning o’z ustida ishlashini ifodalaydi.<sup>2</sup>

**Pedagogdagi shaxsiy kompetensiya:**

- muloqotchanlik;
- bag’rikenglik;
- yetakchilik;
- faollik va tashabbuskorlik;
- moslashuvchanlik;
- sog’lom turmush tarziga amal qilish;
- mas’uliyatlilik;
- ishchanlik;
- insonparvarlik;
- samimiylik;
- nazokatlilik.

Yuqoridagi ma’lumotlardan anglash mumkinki, pedagogda eng birinchi muloqot kompetensiyasi yetuk rivojlangan bo’lmog’i lozim. Chunki pedagog ko’p insonlar bilan muloqot qilishiga to’g’ri keladi, har bir tinglovchining ruhiyatiga kirib boorish, ularning nima xohlayotganini so’zlar orqali ham angalay bilish bu pedagogdagi yuksak muloqot kompetensiyasining rivojlanganligidan dalolat beradi.

Til asosiy aloqa vositasidir, siz inson jamiyatining borligi va rivojlanishini tasavvur qilish qiyin. Bugungi kunda bizning dunyomizda ijtimoiy munosabatlarda katta o’zgarishlar bo’layotgan bir pallada aloqa axborot vositalari (axborot texnologiyalari) o’quvchilarning kommunikativ malakasini oshirishni talab qiladi, ular muloqotning boshqa ishtirokchilari bilan o’zaro muloqot qilish jarayonida turli vaziyatlarda fikrlarni almashishi, til va so’zlashuv normalarini to’g’ri ishlatishi taqozo etadi.<sup>3</sup>

Muloqot kompetensiyani quyidagicha ta’rifladik. Muloqot kompetensiyasi – muloqot olib boruvchi shaxsning ikkinchi shaxs ijtimoiy va nutqiy xulq-atvorining xususiyatlari, uning muomala qoidalari va madaniyatidan xabardor bo’lishi hamda muloqot jarayonida ana shu bilimlardan foydalangan holda ikkinchi shaxs bilan muvaffaqiyatli ravishda muloqotlashish qobiliyatini namoyon qila olish layoqatidir.

Muloqot kompetensiyasiga xos bo’lgan umumiy muammolar ta’lim, turizm, biznes va diplomatiya kabi ko’plab insoniy faoliyatlarda mavjud. Muloqot kompetensiyasi muammolarini hal qilish fanlararo xarakterga ega va ular ishtirok etadigan madaniy omillarni yahshi tushunishni talab qiladi.

Muloqot qobiliyatini o’quvchining turli madaniyatlarni idrok etish, tahlil qilish va ularni o’z ona tili va millatiga bog’lash qobiliyati deb ta’riflash mumkin. Zamonaviy odam qanchalik globallashtirgan dunyo-

<sup>1</sup> A.A.Ashurov. Kommunikativ kompetensiya tushunchasi va uning mazmun mohiyati. Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2020, 1-son (30), 76 – 83-betlar.

<sup>2</sup> Таджибаева Ж.Р. (2020). Психолого-педагогическая компетентность учителя начальных классов. Science and World, 1(77), с. 32 – 33.

<sup>3</sup> Fayzullayeva N. Pedagogik bilimlar – o’qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi. “Uzluksiz ta’lim”, T., 2006, 6-son, 109-bet.

da yashashidan qat'iy nazar, baribir, hozir odamlar, birinchi navbatda, o'z oilasini, mintaqasini, millatini, mamlakatini yoki madaniyatga aloqadorlik axborot xabarlarini bilishi darkor deb hisoblaymiz. O'zining madaniy ildizlari to'g'risida doimiy xabardor bo'lmasdan, odam boshqa millatning madaniyatini tushuna olmaydi.<sup>1</sup>

Muloqot kompetensiyasini rivojlantirish ijtimoiy-psixologik me'yorni, xulq ssenariylari va model-larini qo'llash adaptiv ko'nikmalarini rivojlantirish va jamiyatda ma'lum ijtimoiy yoki shaxslararo rolga xos bo'lgan mazkur me'yorlarni stereotiplashtirishga imkon beruvchi shaxsiy-rolli o'zaro aloqalarning muayyan sharoitlarini tashkil etishni nazarda tutadi. Muloqot vaziyatining barcha asosiy komponentlarini hisobga olishga katta e'tibor qaratish lozim bo'lib, ularga quyidagilar taalluqli: muloqotchilar va ularning ijtimoiy rollari, ular orasidagi munosabatlar, muloqot maqsadi, mazmuni, vositalari, joyi, vaqti va kanallari. Ammo muloqot kompetensiyasining rivojlanishi nazarda tutilganida mazkur komponentlarni hisobga olishgina yetarli emas. Bu holatda o'quv faoliyatini tashkil etishning asosiy birligi sifatida ta'lim oluvchilarga taklif etiladigan vaziyat didaktik vazifani hal etishi kerak, ya'ni, vaziyatga mos nafaqat leksik-grammatik vositalarni, balki xulqning ma'lum stereotiplari va ssenariylarini ham kirituvchi me'yoriy nutqiy va nonutqiy xulqni ta'minlashi kerak.

Shuningdek, verbal vaziyatlarda nutq va xulq shakllarini tanlash ham muhim bo'lib, ular nutq shakli mazmun bilan yaqin bog'lanmagan bo'ladi. Bunday vaziyatda suhbatdoshlarning ijtimoiy-shaxsiy o'zaro munosabatlari, ularning umumta'limiy darajalari, muloqotchilar tomonidan qo'llaniladigan suhbatning ohangi, nonverbal vositalar muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Mazkur tavsiflar, ko'pincha, o'zgarishi mumkinligi sababli, nutq shakli ham o'zgarishi mumkin, ammo mazmun o'zgarmas bo'lib qoladi.

Guruhli o'zaro aloqaning batafsil tahliliga berilmay, muloqot kompetensiyasining rivojlanishi nuqtayi nazaridan ahamiyatli bo'lgan ayrim jihatlarga to'xtalib o'tamiz:

- a) o'quvchilar bir-birlari bilan faol muloqot qiladilar;
- b) ular o'rtasida yaxshi o'zaro munosabatlar yuzaga keladi;
- d) har kimning muvaffaqiyatining sharti boshqalarning muvaffaqiyati hisoblanadi.

Talabalarga xos bo'lgan nutqiy va nonutqiy xulq me'yorlari bilan tabiiyga yaqin vaziyatlarda muloqot qilib, o'zaro aloqaga kirishadilar. Bunda ular nafaqat o'zlarining bevosita suhbatdoshlariga, balki boshqa insonlarga ta'sir ko'rsatuvchi fikrlarni inobatga olishlari zarur. Bu muloqotni o'rgatishda muloqot xulqining refleksivligi jihatini kuchaytirishga olib keladi.

O'qish davomida talabalarning faol o'zaro aloqalar ularning har birida o'zini, o'zining yangi nutqiy va nonutqiy xulqini yanada aniq idrok etish hamda muloqot bo'yicha o'z sheriklarini baholash ehtiyojini tug'diradi. Shu tariqa, muloqot jarayonida insonning o'z-o'ziga, muloqotda o'z xulqiga ekstrapolyasiyasi sodir bo'ladi.

G.A.Kitaygorodskaya ta'kidlaganidek, intensiv o'qitishda axborot almashish va o'zaro boyitish jarayonida o'quvchilarning doimiy faol jalb etilganliklarini ta'minlashi kerak bo'lgan, o'quv o'zaro aloqalari turlari to'g'risidagi masala alohida ahamiyatga egadir.

Buning uchun quyidagilar qo'llaniladi:

- 1) juftlikda ishlash;
- 2) uchlikda ishlash;
- 3) kichik guruhda;
- 4) ikki jamoada;
- 5) o'quvchi – guruh;
- 6) o'qituvchi – guruh;
- 7) o'qituvchi – kichik guruh tartibida ishlash va h.k.

Muloqot kompetensiyasining rivojlanishi o'qituvchi tomonidan tashkil etiladigan, ta'lim oluvchilarning haqiqiy muloqot faoliyatlarini modellashtiruvchi vaziyatlar orqali mumkin bo'lganligi sababli, autentik materiallar (matnlar yoki videofonogrammalar), muammoli topshiriqlardan foydalanish, mazkur jarayonda samarali va mahsuldor hisoblanadi.

**Xulosa va tavsiyalar.** Bugungi kundagi ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar talabalarni mustaqil fikrlashini rivojlantirish, individual ta'lim traektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga oid muammolarni bartaraf etishga qaratilganidir. Oliy ta'lim muassasalarida bu vazifalarni amalga oshirishga bosqichma-bosqich o'tish rejalashtirilgan. Bugungi kun-

---

<sup>1</sup> Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent, 2015, 120-bet.

da oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim soatlari ulushini kamligi, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllanmaganligi, o'quv jarayonida talabalarda tashkilotchilik qobiliyati, kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish zamon talabiga mos kelmasligi asosiy muammolar qatoriga kiradi. Shu sababdan biz o'zimizning izlanishlarimiz davomida quyidagi xulosalarga keldik, agar:

1. Kredit-modul tizimida talabalar uchun ajratilgan mustaqil ta'lim soatlaridan unumli va foydali o'rinda foydalanilsa, ya'ni, o'qituvchi tomonidan mustaqil ish topshiriqlari shunday taqdim etilishi kerakki, natijada mustaqil ta'lim vazifasini bajarish mobaynida talabada muloqot kompetensiyasi rivojlansin. Bunga "keys stadi" metodi namunalaridan foydalanish, tezkor savol-javobli topshiriqlar tizimi, mavzu bo'yicha insho yozish ko'nikmasini namuna sifatida keltirishimiz mumkin.

2. Dars jarayonida talabalarni subyekt emas, ularni ham ushbu jarayondagi obyekt roli o'tkazish, ya'ni, mashg'ulot davomida o'zini qanday tutishi lozim, qaysi o'rinda savol berish mumkin yoki mumkin emas kabi ko'nikmalarni shakllantirib borish lozim.

3. Mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish uchun boshqa ta'lim tashkilotlariga o'qituvchi rahbarligida tashriflarni uyushtirish ham, bo'lajak pedagoglarda muloqot kompetensiyasini, o'zini notanish muhitdan qanday tutish kabi ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

**Abdullayev Alibek Qodiraliyevich (QDPI, t.f.n., "Informatika" kafedrası dotsenti; quqon\_alibek@mail.ru)**  
**INFORMATIKA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN**  
**TA'LIMNI JORIY ETISH SAMARADORLIGI**

***Annotatsiya.** Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi ta'lim jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni, o'qitishning yangi metodlari, shakllari va vositalari bo'yicha pedagogik tadqiqotlarni joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Maqolada informatika o'qituvchilarini tayyorlashda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, o'qitishni differentsiallash va individuallashtirish masalalari yoritilgan.*

***Аннотация.** Бурное развитие информационно-коммуникационных технологий показывает необходимость внедрения в образовательный процесс современных технологий, педагогических исследований новых методов, форм и инструментов обучения. В статье освещены вопросы лично-ориентированного образования, дифференциации и индивидуализации обучения при подготовке учителей информатики.*

***Annotation.** The rapid development of information and communication technologies shows the need to introduce modern technologies, pedagogical research on new methods, forms and tools of teaching into educational processes. The article covers the issues of person-oriented education, differentiation and individualization of teaching in the training of informatics teachers.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim, dastur, qiziqish, moyillik, ehtiyoj, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, salohiyat, o'quvchi, bilim, qobiliyat.*

***Ключевые слова:** образование, программа, интерес, склонность, потребность, лично-ориентированное образование, потенциал, учащийся, знания, способности.*

***Key words:** education, program, interest, inclination, need, person-centered education, potential, learner, knowledge, ability.*

**Kirish.** Inson hayoti va faoliyatidagi axborot jarayonlariga, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarning baynalmilallashuviga, mutaxassislarining harakatchanligi oshishiga o'z ta'sirini ko'rsatayotgan globalashuv sharoitida turli mamlakatlarning ta'lim tizimlarida Boloniya kelishuvini tezkorlik bilan amaliyotga tatbiq etishning obyektiv zarurati vujudga keldi. Ta'lim siyosatini xalqaro miqyosda unifikatsiya qilish va standartlashtirish milliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning yagona strategiyasini ishlab chiqishga xizmat qilmoqda. Bunday strategiyani ishlab chiqish hozirda milliy elita tomonidan keng ma'noda siyosiy masala, nafaqat pedagogik, balki iqtisodiy maqsadlarga erishish vositasi sifatida qaralmoqda. Bu holatlar dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi pedagogik jarayon va hodisalarni qiyosiy tahlil qilish va baholashning dolzarbligini belgilab beradi, bu esa o'zaro ilg'or pedagogik tajriba almashish imkonini beradi.

Jamiyatni axborotlashtirish, ta'lim jarayoniga informatikani joriy etish munosabati bilan rivojlangan mamlakatlarda o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturlari ishlab chiqildi, turli malaka oshirish kurslari tashkil etildi va informatika o'qituvchilarini uzluksiz tayyorlash dasturlari yaratildi.

Informatika o'qituvchilarini tayyorlash pedagogik ta'lim tizimida amalga oshiriladi, bu esa, o'z navbatida, maktab va oliy ta'lim tizimi bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun chet elda informatika o'qituvchilarini tayyorlash tahlili ushbu mamlakatlarning ta'lim tizimini tashkil etish va ularning pedagogik ta'limining umumiy masalalarini o'z ichiga olishi kerak, bu esa informatika o'qituvchilarini tayyorlashni tashkil etishni yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

Mamlakat taraqqiyoti aholi ta'lim darajasining o'sishiga tobora ko'proq bog'liqligini anglash [6] ko'plab xorijiy mamlakatlarni xususiy ta'limga katta e'tibor qaratuvchi "Ta'lim barcha uchun" global dasturini qabul qilishga majbur qildi [7]. Bu mamlakatlarning xususiy ta'lim dasturlarini rivojlantirishga qaratilgan [5], ular talabalarning rivojlanishiga, ularning qiziqishlari va moyilliklarini hisobga olish uchun shart-sharoit yaratishga, ta'lim ehtiyojlarini qondirishga katta e'tibor beradilar. Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimidagi o'zgarishlar shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodikasining rivojlanishi tufayli pedagog kadrlarni, jumladan, informatika o'qituvchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimlarini takomillashtirishga olib keldi.

Xorijda zamonaviy o'qituvchini tayyorlashdan maqsad katta ijodiy salohiyatga ega bo'lgan, uni o'quvchi shaxsi, uning bilim va ijodiy qobiliyatlarini o'rganish va rivojlantirish jarayonida o'quvchi – shaxs va fuqaroning manfaatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshira oladigan insonparvar o'qituvchini shakllantirishdan iborat. Pedagog kadrlar tayyorlash maqsadlarining o'zgarishi o'quv rejaları va dasturlarida, o'qitish tuzilmasida, shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishga yordam beruvchi va bu pedagogik texnologiyalar va metodikalarda o'z ifodasini topadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Ma'lumki, fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu, bir tomondan, fan va texnikaning yangi soha hamda bo'limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differensiallashuvini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda.

Bunday sharoitda, yuqori malakali pedagoglarga bo'lgan talablar ortib bormoqda va barkamol avlodni asrlar davomida shakllanib kelgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega, fanning fundamental asoslarini, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuksak darajada bo'lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakasiga ega ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etilmoqda.

Hozirgi vaqtda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish hamda keng ko'lamda qo'llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Yangi texnologiyalar kun sayin rivojlanib, mamlakatda axborotlashtirish jarayoni tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda, ta'lim sohasida axborot resurslarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ammo axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur'atlar bilan rivojlanishiga qaramay, ta'lim jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni, o'qitishning yangi metodlari, shakllari va vositalari bo'yicha pedagogik tadqiqotlarni joriy etish darajasi etarli emas.

Ta'lim tizimiga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha ilmiy izlanishlar qator tadqiqotlarda amalga oshirilgan. Ta'limni axborotlashtirish vositalarini yaratish va ulardan foydalanishning nazariy asoslari, respublikamiz ta'lim tizimida pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish bo'yicha tadqiqotlar A.A.Abduqodirov [1], A.X.Abdullayev [2], M.Aripov [3] va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Nazariy manbalar mazmuni bilan tanishish, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini o'rganish va tajribalarni analitik tahlil etish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirish va takomillashtirish muammosining dolzarbligi, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini pedagogik ta'lim jarayoniga joriy etishning respublikamiz sharoitida yetarlicha ilmiy asoslanmaganligi va pedagogik jihatdan to'liq tadqiq qilinmaganligi bir qator yechimini kutayotgan muammolarning manbai bo'lib qolayotganligini ko'rsatadi.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari qo'yilgan ta'limiy maqsadlarga erishishga imkon beradigan, nazariy asoslangan ta'lim jarayonini amalga oshirishning shakllari, metodlari, usullari hamda vositalarining majmui hisoblanadi. U har qanday pedagogik tizimda ilmiy muammolar bilan o'zaro munosabatda bo'lgan tushunchadir [4]. Biroq, agar ilmiy masala, ta'lim-tarbiya maqsadlarini ifodalaydigan bo'lsa, u holda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim-tarbiya yo'llari, ularga erishish vositalarini ifodalaydi. Bu jarayonda ilmiy masala tuzilmasi talabalarning pedagogik tayyorgarligini shakllantirish va rivojlantirish o'qitish maqsadlari sifatida ishtirok etadi, umumiy holda esa u ta'lim mazmunining o'ziga xos xususiyatini belgilaydi.

Shu sababdan mamlakatimizda va jahonning rivojlangan davlatlarida ta'lim sohasini isloh qilish jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarining rivojlanishi zarur axborotlarni mustaqil izlab topish, muammoni qo'ya bilish va uning yechimini hal eta olish, olingan bilimlarni tanqidiy tahlil qilish va yangi masalalarni yechishda qo'llashga qodir mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirilgan. Shu sababdan shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zaruriyligi barchaga ayon bo'lmoqda.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim bu talabning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyati hamda imkoniyatini inobatga oluvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalaridan talaba shaxsini rivojlantirishda samarali foydalanishga qaratilgan jarayondir. Shu bois o'qitishni differensiallash va individuallashtirish shaxsga yo'naltirilgan ta'limni joriy etishning asosiy tamoyillari sifatida xizmat qiladi.

**Natijalar.** Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonlariga joriy etilishi:

- talabaga kasbiy bilimlarni egallashiga;
- o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o'zlashtirishiga;
- o'quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga talabning mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga;
- interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o'qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirishga;
- sun'iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabning o'quv materiallarini o'zlashtirish strategiyasini egallashiga;
- axborot jamiyati a'zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga;
- o'rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, talabalarda fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abduqodirov A.A. Masofali o'qitish modellari va ularning sinflari. "Fizika, matematika va informatika", Toshkent, 2004, 5-son, 50 – 56-betlar.
2. Абдуллаев А.Х. Виртуальные лабораторные стенды и рекомендации по их использованию в непрерывном образовании. Образование через всю жизнь: становление и развитие непрерывного образования в рамках единого образовательного пространства Евразийского экономического сообщества. Материалы международной конференции, Санкт-Петербург (Российская Федерация), 2004, с. 3 – 7.
3. Arifov M. Internet va elektron aloqa asoslari. Toshkent, "Universitet", 2000, 132-bet.
4. Андреев А.А. Дидактические возможности средств информационных телекоммуникационных технологий в системе дистанционного обучения//<http://www.ito.su/1998-99/h/andreev-t.html>.
5. Лурье А. Реформа как источник процветания и испытания. Айма матер. "Вестник высшей школы", 2005, № 2, с. 16 – 19; Deer C. Reforms of the Financing of Higher Education in Europe: Powerful Universities, paying Universities? C.Deer, J.L.de Meulemeester. IAU Horizons (World Higher Education News). 2005, March, Vol. 11, № 1, p. 4.
6. Jandhyala V. Global Trends in the Funding of Higher Education. B.Jand-hyala, G.Tilak. IAU Horizons (World Higher Education News). 2005, March, Vol. 11, № 1, p. 1 – 3.
7. Rokhataliyeva A.N. (2022). Teaching of mathematics on the basis of advanced international experiences. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(7), p. 50 – 55.
8. Rokhataliyeva A.N.,& Kadiraliyevich A.A. (2022). Didactic foundations of improving the creative activity of future mathematics teachers by means of information and communication technologies. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning, 3(7), p. 1 – 5.
9. Roxataliyevna A.N.,& Gulomovna Y.S. (2021). Teaching Children Problem-Solving in Preschool. Middle European Scientific Bulletin, 9.
10. Abdullayev A.K., Abdullayeva N.R.,& Madraximova M.A. (2022). The basis is a mobile industrial robot core characteristics and shape of the spatial structure. International Journal of Early Childhood Special Education, 14 (7).
11. Abdullaeva N.R. Matematikani o'qitishda o'quvchilarning kreativ faoliyatini rivojlantirishning didaktik tamoyillari. Journal of innovations in scientific and educational research, volume 1, issue 6, 119.
12. Shoqosim o'g'li A.U., Rahimovna T.O., Mamasiddiqovna A.N., Mamasoliyevich T.R.,& Roxataliyevna A.N. (2022). Technologies For Improving The Quality Of Educational Results Of Schoolchildren By Developing A Personalized Model Of Teaching Mathematics Through Interactive Stories. Journal of Positive School Psychology, 6(11), p. 1354 – 1365.

**Egamberganova Dilnoza Davronbekovna (UrDU tadqiqotchisi)**  
**ABULHASAN MOVARDIYNING “DUNYO VA DIN ODOBI” ASARINING PEDAGOGIK**  
**TAHLILI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Abulhasan Movardiyning besh qismdan iborat “Dunyo va din odobi” asarining mazmun-mohiyati, qoidalari, aql va nafs to‘qnashuvi haqida muhim qarashlari haqida fikr yuritiladi. Shu bilan birga, odamlarning ilm va olimlarga qarashi, ta’lim va tarbiya usullari, qoidalari, shogird-ustoz munosabatlari, burch va farz muammolari, insonning ijtimoiy mavjudot ekanligi haqidagi g‘oyaga asoslangan axloqiy tushunchalar ilgari surilgan.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается пятичастный труд Абулхасана Моварди «Мир и религиозный этикет», его содержание, правила и важные взгляды на конфликт разума и души. При этом выдвигались взгляды людей на науку и ученых, методы и правила воспитания и обучения, отношения ученик-учитель, проблемы долга и долга, моральные концепции, основанные на идее, что человек – существо социальное.

**Annotation.** In this article, Abulhasan Movardi’s five-part work “The World and Religion’s Etiquette” is discussed. At the same time, people’s view of science and scientists, methods and rules of education and training, student-teacher relations, problems of duty and obligation, ethical concepts based on the idea that a person is a social being were put forward.

**Kalit so‘zlar:** din odobi, dunyo odobi, nafs odobi, aql fazilati, tug‘ma aql, muktasab aql, kazuistik usul, ijtimoiy munosabatlar, payg‘ambarimiz sunnatlari, ijtimoiy birdamlik.

**Ключевые слова:** религиозные манеры, мирские манеры, самодовольство, интеллектуальная добродетель, врожденный интеллект, казуистический метод, социальные отношения, Сунна нашего Пророка, социальная солидарность.

**Key words:** religious manners, worldly manners, self-righteousness, intellectual virtue, innate intelligence, innate intelligence, casuistic method, social relations, Sunnah of our Prophet, social solidarity.

Abulhasan Movardiyning “Dunyo va din odobi” kitobi bugungi kungacha yetib kelgan eng mashhur asarlaridan biridir. Asar, dastlab, shu nom bilan yozilgan bo‘lsa kerak, keyinchalik, ulamolar tomonidan qisqartirilib, shu nom bilan mashhur bo‘lgan. Movardiy o‘zining qisqa muqaddimasida insonning barcha faoliyati ichida eng muhimi diniy va dunyo ishlarini obod yetuvchi asarlar ekanini ta’kidlab, bu asarida hayotning o‘lchov va qoidalarini (odob) diniy ta’limotdan tadqiq etishini ta’kidlaydi. U kitobini tayyorlashda Qur‘on va Sunnatdan, donishmandlarning ixcham so‘zlaridan, yozuvchilarning adabiy iboralari va shoirlar she‘rlaridan manba sifatida foydalanganligini ta’kidlaydi. Besh qismdan (bob) iborat Movardiyning “Dunyo va din odobi” asarining birinchi qismi “Aqlning fazilati va “havo”ning yomonligi” deb nomlanib, unda an’anaviy islom axloqining asosiy mavzularidan biri bo‘lgan aql va nafs to‘qnashuvi haqida muhim qarashlari ilgari surilgan. Shu munosabat bilan, muallif tomonidan ongning ta’rifi va tabiati, aql-tajriba munosabatlari kabi mavzularga urg‘u berildi.

“Ilm odobi” deb nomlangan ikkinchi bobda ilmning qadri, ilm va din o‘rtasidagi munosabat, odamlarning ilm va olimlarga qarashi, ta’lim va tarbiya usullari, qoidalari, shogird-ustoz munosabatlari, fan-amal munosabatlari, olimlarning ma’naviy burch va majburiyatlari ko‘rib chiqiladi. Bu tushuntirishlar orasida diqqatga sazovor jihatlardan biri shundaki, Al-Movardiy ilm-fandagi erkinlikni qat’iy himoya qilib, aqliy va ilmiy asoslardan xoli bo‘lgan da’volarga asoslangan ilmiy masalalarni qabul qilish yoki rad etish noto‘g‘ri ekanligini ta’kidlaydi. Movardiy har bir mavzuda taqlid va taqlidni rad etar ekan, ayniqsa, biror fikrning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini oshkor qilish uchun ma’lum bir hokimiyatga panoh topganlarni tanqid qiladi. Unga ko‘ra, yetarlicha ma’rifatga ega bo‘lmagan mavzu haqida savol berishni takabburlik deb hisoblamaslik kerak. Aql bilan tasdiqlangan bilimga ham taqlid sifatida qaramaslik kerak. Tug‘ma aqlga ko‘ra, bir narsani vujud va adamdan, mavjudlik hudud va qidamdan xoli bo‘lmasligini, yana u ikki zid narsa hech qachon bir-biriga birikmasligi va bir raqami ikkidan kamligini ham bilishga o‘xshaydi. Insondagi ana shu boshlang‘ich bilimni idrok etishni tug‘ma aql deyiladi.<sup>1</sup>

Muktasab aql aslida g‘ariziy (tug‘ma) aqlning hosilasi, bilishning nihoyasi, tug‘ma tadbir va fitrat yutug‘idir. Muktasab aqlga had-chegara yo‘q, chunki uni qancha ko‘p ishlatasa, kamayish o‘rniga ko‘payib boradi. Mabodo, uni o‘z holiga qo‘yib qo‘yilsa, oldingi holatidan kamayadi. Muktasab aqlning ko‘payi-

<sup>1</sup> Абулхасан Мовардий. Дунё ва дин одоби. Т., “Ҳилол-Нашр”, 2021, 14-бет.



shiga ikki narsa sabab bo'ladi. Birinchisi, ko'p foydalanish tufayli bo'lib, agar unga "havo" va shahvoniy to'siq bo'lmasa. Bu huddi keksa kishilarda ko'p tajriba, sog'lom fikr bo'lishiga o'xshaydi.<sup>1</sup>

Endi ikkinchi yo'l–muktasab aql o'tkir farosat va zakiylik bilan bo'ladi. Bu narsa to'satdan paydo bo'luvchi o'ta ziyraklik, deb ataladi. Agar u tug'ma aql bilan birlashsa, xuddi o'smirlardagi ziyraklik va aqli rasolik o'zaro birikishida kuzatilgandek, muktasab aqlning ko'payib borishini keltirib chiqaradi.<sup>2</sup>

Asarning "Din odobi" deb nomlangan uchinchi qismida burch va farz muammolari umumiy tarzda ko'rib chiqiladi. Bu yerda "din" faqat Alloh va banda o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi institut bo'lishdan tashqari, odamlarning Alloh va boshqa mavjudotlarga nisbatan barcha majburiyatlari va munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlar tizimi sifatida qaraladi. Bu majburiyatlarning asosi Qur'ondir. Payg'ambarimiz sunnatlari Qur'on belgilagan tamoyillarga zarur tafsirlarni keltirgan, ulamolar esa ijthod orqali farzlarni aniqlab berganlar. Bu bo'limda asosiy ibodatlarning hikmatlariga alohida to'xtalib, o'z-o'zini tarbiyalash mavzusiga to'xtalib o'tadi, inson o'zining dunyoga haddan tashqari bog'liqligini yengish uchun qanday yo'l tutishi kerakligi haqida ma'lumotlar va boshqa adabiy adabiyotlardan misollar keltiriladi.

"Dunyo odobi" deb nomlangan to'rtinchi bob asarning eng muhim va o'ziga xos jihatini tashkil etadi. Insonning ijtimoiy mavjudot ekanligi haqidagi g'oyaga asoslangan ushbu bo'limda tajribalarga asoslangan izchil va yashashga yaroqli axloqiy tushuncha ilgari surilgan. Movardiy ijtimoiy birdamlik va hamjihatlikni odamlar o'rtasidagi imkoniyatlar farqiga bog'laydi va uning fikricha, mutlaq tenglik ehtiyoj-yordam munosabatlarini, shuning uchun jamiyatning yo'q qilinishiga olib keladi. Dunyo tartibining to'liq o'rnatilishi oltita asosiy shartning mavjudligiga bog'liq: hurmatga sazovor din, kuchli siyosiy hokimiyat, har tomonlama adolat, umumiy xavfsizlik, keng tarqalgan farovonlik, katta umid va ezgu axloqdir. Din insonda ichki hokimiyat vazifasini bajaradi va o'zini axloqiy ong holatida ushlab turishga imkon beradi. Biroq hamma ham aql va din me'yorlariga ko'ra harakat qila olmaydi. Siyosiy hokimiyat bu kamchilikni to'ldiradi. Adolat tashqi dunyoda ham, insonning axloqiy tuzilishida ham tartibni saqlash uchun kerak. Qanday bo'lmasin, adolat – bo'rttirib ko'rsatish va kamsitish ko'rinishidagi ekstremal munosabatlardan uzoq bo'lgan xatti-harakatlar shaklidir. Chunki me'yordan chetga chiqqan kishi adolatdan og'adi. Shu munosabat bilan Al-Movardiy Arastudan beri davom etib kelayotgan va islom faylasuflari tomonidan qabul qilingan "o'rta" va "hayo"ga asoslangan fazilatlar tasnifini yangidan shakllantiradi. Odamlarning tinch-osoyishta hayoti, sa'y-harakatlari samaradorligi, begunohlarning xavfsizligi, zaiflarning qulayligi umumiy xavfsizlikka bog'liq. Farovonlikning tarqalishi tirikchilikni osonlashtiradi, hasadni kamaytiradi, munosabatlarni mustahkamlaydi. Nihoyat, odamlarning ertangi kunga bo'lgan umid va intilishlari tufayli dunyo obod bo'lib, dunyo qurilishi ishlari avloddan-avlodga o'tib bormoqda. Kimning hayosi bo'lmasa uni yomonlikdan to'suvchi va ta'qiq ishlardan qaytaruvchi bo'lmaydi. Hayo uch turli bo'ladi. Birinchisi, Alloh Taolodan hayo qilish, ikkinchisi, odamlardan hayo qilish va uchinchisi, o'zidan o'zi hayo qilish.<sup>3</sup>

Al-Movardiyning realistik axloqiy tushunchasining yorqin ifodalaridan biri bu intilishlarni ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida boshqa ko'plab axloqshunoslar qoralagan bahosidir. Xuddi shu bobda dunyo hayotini tartibli va osoyishta qilishning shartlaridan biri bo'lgan ijtimoiy birdamlik mavzusi muhokama qilinar ekan, o'sha davrga qadar yozilgan axloqiy kitoblarda ko'rilmaydigan mukammal ijtimoiy va iqtisodiy axloq tushunchasi muallif tomonidan yangidan kashf etiladi.

"Nafs odobi" deb nomlangan so'nggi bo'limda axloqiy tarbiyada ikki asosiy yo'l borligi, ya'ni, boshqalarning bilim va tajribasidan foydalanish va shaxsiy harakat (riyoz) hamda fazilat sanalgan his-tuyg'ular va xatti-harakatlar qabul qilingan an'anaviy islom axloqidagi sharmandalik ana shu ikki sarlavha ostida keng tasniflanadi.

"Dunyo va din odobi" asari muallifning huquqshunos, qozi, mutafakkir va adabiy shaxsining boy mahsuli bo'lib, u kazuistik usulda va puxta tayyorlangan tizimda ishlangan. Oyat va hadislarga ko'plab salaf olimlari keltirgan tafsirlardan tashqari, Al-Movardiyning o'zi ham muhim tafsir va ta'villar qilgan. Boshqa tomondan, Al-Movardiy asarga adabiy-didaktik tus berishga g'amxo'rlik qilgan va shu maqsadda u axloq, san'at va insoniyatning umumiy qadriyatlarini aks ettiruvchi xorijiy madaniyat mahsulotlaridan keng foydalangan. U Aristotel va Kindining qarashlarini o'z ichiga olgan va qonundan ko'plab misollar keltirgan. Biroq, keyinchalik, G'azzoliy kabi Al-Movardiy ham o'z asariga kiritgan hadislarning to'g'rili-gi haqida to'xtalmagan. Darhaqiqat, kitobdagi sahih hadislardan tashqari zaif yoki sahih hadislar ham

<sup>1</sup> Shu manba. 15-ber.

<sup>2</sup> Shu manba. 16-ber.

<sup>3</sup> Shu manba. 303-ber.

ko'p. Asarda axloq va din, keng ma'noda falsafa yoki hikmat, siyosat va huquq o'rtasida yaqin aloqa o'rnatilgan va bu jihatdan u tor ma'noda axloqiy kitobdan ko'ra antropologik xususiyatga ega.

Din axloqning birlamchi manbai sifatida qaralsa-da, u ham aqlga, ham individual va ijtimoiy hayot haqiqatlariga mos keladigan axloqiy fikrni rivojlantirishga harakat qilingan. Shu boisdan ham muallif faqih sifatida ulamolarning ijtihodi va istinbatini, qolaversa, "Payg'ambar alayhissalom" axloqiy idealini ham qadrlaydi. Qolaversa, allomaning kasbi tufayli odob-axloq haqidagi qarashlarining shakllanishida ijtimoiy voqealar haqidagi kechinmalarining o'rni katta. Ayniqsa, Movardiyning islom axloqshunoslarining eng realistlaridan biri ekanligini ko'rsatish uchun asar oxiridagi quyidagi gaplar yetarli: "Ey donishmand! O'zingizning shaxsiyatingizga e'tibor bering. Vaqtingizdan mamnun bo'ling. O'z davringizning an'analariga rioya qiling. Odamlar bilan janjallashishdan va ulardan qochishdan saqlaning, ular sizga dushmanlik qilmasin. Sevimagan tinchlik topa olmaydi, dushman bo'lgan tinchlanmaydi".

"Dunyo va din odobi", xususan, tasavvufiy qarashlarga mos keladi. Jumladan, asarning "Din odobi" bo'limidagi o'z-o'zini tarbiyalash haqidagi izohlarda so'fiylik yondashuvi seziladi. Xuddi shuningdek, aqlning ahamiyati, asosiy fazilatlarining mo'tadil va adolat bilan aloqasi kabi mavzularda faylasuflar qarashlaridan foydalanganligi, do'stlik va umuman ijtimoiy munosabatlarning ahamiyati haqidagi tushuntirishlari boshqa Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, G'azzoliy qarashlariga o'xshashligini ko'rishimiz mumkin. Biroq, asar davomida chizilgan har bir insonni turmush tarzi, ayniqsa, axloqiy hayotning maqsadi sifatida ko'rsatilgan baxtni tushunish va ideal axloqiy shaxs sifatidagi inson tipi falsafiy va tasavvuf etikasidan butunlay farq qiladi. Asar tasavvuf va falsafiy asarlar bilan solishtirganda, mavzularni tanlash va tartibga solishda ham, ularga keltirilgan tushuntirishlarda ham islomiy ma'noda ancha konservativ va an'anaviy xarakterga ega. Masalan, yunon falsafasidan kelib chiqqan va asosiy falsafiy va tasavvufga oid axloqiy kitoblarda ozmi-ko'pmi islomiy lashtirilgan "nafs ma'rifati" mavzusi "Dunyo va din odobi" asarining ayni o'zidir. Shubhasiz, bu asarda aql va istak antinomiyasi kabi psixologik tahlillar mavjud; lekin ular, odatda, Qur'on va sunnat nuqtayi nazaridan qaraladi. Kitobda so'fiylar va faylasuflarning saodat, metafizik yoki saodat haqidagi idealistik farazlariga zarracha qiziqmay turib, din va tajribaviy hayot haqiqatlariga asoslanib musulmonning dunyo va oxiratda baxtli bo'lish yo'llari ko'rsatilgan. Shu sababli, Muhammad Arkuun aytganidek, bu asarda tasavvuf va falsafadagi "komil inson" o'rniga Qur'on va sunnatdagi "musulmon inson" turi asos qilib olingan. Ayniqsa, "an'anaviy odob qoidalari" bo'limiga keng tushuntirishlar muallifning islom jamiyatida o'rnatilgan axloq qoidalariga qanchalik ahamiyat berayotganini yaqqol ochib beradi.

**Jumayeva Gulnora Tursunpulatovna (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti "Pedagogika" kafedrasi katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); e-mail: :jumayeva.gulnara@mail.ru)**

### **O'QITUVCHILARNING KASBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB MUAMMO SIFATIDA**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'qituvchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish muammosining dolzarbligi va nazariy asoslari, maktab o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish jarayoni, o'z-o'zini nazorat qilish, o'zini-o'zi qadrlash, reflektiv va ijodiy fikrlash, qiymat-gnoseologik va faoliyat-ijodiy tahlil qilinadi. tuzilmalar, tarkibiy qismlarning mazmuni ta'kidlangan. Maqolada, shuningdek, maktab o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari va tarkibiy qismlari ko'rsatilgan.*

***Аннотация.** В данной статье анализируются актуальность и теоретические основы проблемы развития профессиональной культуры педагогов, процесс развития профессиональной культуры педагогов школы, самоконтроль, самооценка, рефлексивно-творческое мышление, ценностно-гносеологические и деятельностно-творческие структуры содержимое компонентов подсвечивается. Также в статье представлены психолого-педагогические особенности и компоненты развития профессиональной культуры школьных учителей.*

***Annotation.** This article analyzes the relevance and theoretical foundations of the problem of developing the professional culture of teachers, the process of developing the professional culture of school teachers, self-control, self-esteem, reflective and creative thinking, value-epistemological and activity-creative structures, the content of the components is highlighted. The article also presents the psychological and pedagogical features and components of the development of the professional culture of school teachers.*

**Kalit soʻzlar:** kasbiy madaniyat, kasbiy faoliyat, aks ettirish, oʻz-oʻzini nazorat qilish, oʻz-oʻzini baholash, psixologik, pedagogik.

**Ключевые слова:** профессиональная культура, профессиональная деятельность, рефлексия, самоконтроль, самооценка, психологическая, педагогическая.

**Key words:** professional culture, professional activity, reflection, self-control, self-assessment, psychological, pedagogical.

**Kirish.** Mutaxassis kadrlarning kasbiy madaniyati va ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish orqali ularning jahon pedagogik amaliyotida oʻzgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanligini taʼminlashga katta eʼtibor qaratilmoqda. Ushbu tendensiya soʻngi vaqtlarda xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan “pedagogik dunyoqarash” (pedagogical worldview) muammosiga bagʻishlangan ilmiy tadqiqotlarning koʻpayishiga sabab boʻlmoqda. Darhaqiqat, jamiyatning siyosiy, ijtimoiy va madaniy tabiatining doimiy oʻsish va oʻzgarishda ekanligi zamonaviy mutaxassislardan, xususan, pedagog-oʻqituvchilardan oʻz kasbiy qadriyatlarini va shaxsiy eʼtiqodlariga ega boʻlishni, nafaqat oʻzining, balki oʻzga madaniyatni ham qabul qila bilishni, ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq, pedagogik dunyoqarashi va qobiliyatlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Pf-5847-sonli farmon, yosh avlodga taʼlim-tarbiya berish orqali ularning dunyoqarashini, maʼnaviy-axloqiy tafakkurini boyitish va rivojlantirishning ilmiy-tarixiy asoslari eng qadimgi yozma manbalar hamda Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi Sharq mutafakkirlarining qomusiy asarlarida yoritib berilgan. Respublikamiz olimlaridan D.O.Himmataliyev, M.Ochilov, R.Mavlonova, K.Zaripov, O.Musurmonova, A.Xoliqov va boshqalar pedagogik faoliyat mazmuni, oʻqituvchi mahoratini shakllantirish va rivojlantirish, kasbiy madaniyati toʻgʻrisidagi ilmiy asoslangan fikrlari bilan maqsad, vosita va xususiyatlarini yoritib bergan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada maktab oʻqituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish tizimi muhokama qilinadi. Uning asosiy tarkibiy omillari va qismlari tavsiflanadi. Oʻzbekistonda maktab oʻqituvchilarining kasbiy madaniyatini aniqlash mezonlari tahlili qilindi va rivojlangan davlatlar mezonlari bilan solishtirildi. Maktab oʻqituvchilarining kasbiy madaniyati sifatini baholash boʻyicha yondashuvlar oʻrganildi.

**Tahlillar va natijalar.** Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohani modernizatsiya qilish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish, taʼlim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy oʻqitish usullarini joriy etish, xalqaro standart asosida yuqori malakali, “kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va maʼnaviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish asosiy strategik vazifalar” sifatida belgilangan. Bu esa oliy maʼlumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni takomillashtirishni taqozo etadi.<sup>1</sup>

Maktab oʻqituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish haqida gap ketganda, eng avvalo, “madaniyat” tushunchasining mohiyatini aniqlab olish zarur. Madaniyat tushunchasi Sharq allomalarining adabiy meroslarida hamda pedagog-psixolog olimlar tomonidan quyidagicha talqin qilingan: “Madaniyat” soʻzi zamonaviy nutqda juda keng qoʻllaniladi. “Madaniyat” soʻzi lotincha “cultural” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, “tarbiyalash, oʻstirish, rivojlanish, eʼzozlash” degan maʼnoni anglatadi.

Kasbiy madaniyatga oid qarashlar qadimgi qoʻlyozmalarda, diniy va didaktik manbalarda oʻz aksini topgan. Jumladan, “Avesto”da kasb-hunarga hurmat, kasbga sadoqat, mehnatsevarlik, xushmuomalalikka undovchi hikmatlar, islom dini taʼlimotida mehnat qilish va uning ortidan topilgan boyliklardan zakot berilishi, har bir musulmon kishi oʻz kasbining orqasidan halol yoʻl bilan rizq topishi kerakligi haqidagi oʻgitlar odamlarda kasbiy madaniyat rivoji odob-axloq qoidalariga bogʻliq ekanligi asoslangan.

XV asrda yashab, ijod etgan mutafakkir Kamoliddin Husayn Voiz al-Koshifiy bola tarbiyasida maktab va muallimning alohida oʻrni borligi haqida gapirib, muallimlar dono, bilimli, shirinsuxan, adolatli boʻlishi zarur, deb hisoblaydi. Alloma murabbiylar toʻgʻrisida “Axloqiy Muhsiniy” asarida quyidagi fikrni keltiradi: “Oʻqituvchi bolaga nasihat va taʼlim berishda lutf va odob qoidalariga rioya qilishi dar-

<sup>1</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-5847-sonli farmoni. Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 08.10.2019.

kor. Jamoatchilik joylarida o'quvchiga pand berish yaramaydi, balki xilvat joyda bolaga nasihat qilish zarur. Agar murabbiy nasihat berishning fursati kelganini bilsa, unga muloyimlik bilan murojaat qilishi lozim, chunki bizning zamonamizda muloyim va xushfe'l bo'lish maqsadga muvofiqdir".

Buyuk allomalardan Abdurahmon Jomiy o'z asarlarida tarbiyachi muallim faoliyatiga quyidagicha ta'rif beradi: "Muallim bilimli, aqlli, adolatli, o'zida butun yuksak fazilatlarini mujassamlashtirgan bo'lishi lozim. O'zini nomunosib tutgan odam hech vaqt o'quvchilarga bilim va odob bera olmaydi".

"Muallimning yuksak sifati uning aqli, ilmi, fikri, so'zi, axloq-u odobidadir, degan edi taniqli murabbiy, maktabshunos olim Hikmatulla Abdullayev o'zining "Yashil daftar hikmati" asarida, o'qituvchining yuz qarashlari ham, gapirishlari ham, qalbi ham, ko'rinishi ham, yurish-turishi ham, kiyinishi ham chiroyli va ibrat namunasi bo'lsin. Ayniqsa, uning nutqi tushunarli, ravon, ta'sirli bo'lishi darkor. U muhoqotda bamisoli so'z zargari ekanligini ko'rsata olishi muhimdir. Shunga erishish kerakki, odamlar, ayniqsa, ota-onalar va o'quvchilar uni rostgo'y, halol, pokiza, sog'lom fikrli, shafqatli va muruvvatli, insonparvar kishi sifatida e'tirof etsinlar".

Ta'lim-tarbiya birligi va axloq masalalariga yetuk tarbiyashunos olim sifatida yondashgan olim Abu Rayhon Beruniy o'zining pedagogika va psixologiyaga oid qimmatli fikr-mulohazalarini va ma'rifiy-didaktik qarashlarini bayon etib, ilm hamda ma'rifat sari intiluvchi tolib va muallimlarga deydiki: "Ilm dargohiga kirar ekansan, qalbing kishini ozdiruvchi illatlardan, odamni ko'r qilib qo'yadigan nafs va turli buzg'unchi holatlardan, qotib qolgan turli eski urf-odatlardan, hirsdan, raqobatdan, ochko'zlikni quli bo'lishdan ozod bo'lmog'i darkor".<sup>1</sup>

Alisher Navoiy yosh avlod tarbiyasini har qanday tasodifiy murabbiyga ishonib topshirib bo'lmagligini aytib, o'qituvchi shaxsiga nisbatan yuksak talablarni qo'yadi. Navoiy o'zining "Mahbub ul-qulub" asarida ta'limiy-tarbiyaviy fikrlari hamda o'qituvchi shaxsi, uning ma'naviyatiga doir qarashlarini keltirib o'tadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasasi o'quvchilarida refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish jarayonini tashkil etish va boshqarish muammosini tadqiq etgan D.Hakimovanning qayd etishicha, "shaxs refleksiv ko'nikmalari samarali fikrlash va faoliyat yuritishning muhim mexanizmi, yuz berayotgan hodisani keng tizim kontekstida tushunish jarayonlarini alohida tashkil etish (u vaziyat va harakatlarni baholashni, vaziyatlarni hal qilish usullari va operatsiyalarini topishni o'z ichiga oladi), xatti-harakatlar va ularning oqibatlarini anglash uchun yo'naltirilgan faoliyat, insonning nazariy faoliyatlarining shakli, ya'ni, o'tmishga (orqaga) murojaat qilish hamda subyektning ma'lum bir muammoni va uning vujudga kelish sabablarini ko'ra olishi, aniqlashi, o'rganishi va tahlil qila olish qobiliyatidir". Maktab o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liqlikda refleksivning quyidagi tur, daraja va shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin.

**Xulosa.** O'qituvchi kasbiy madaniyatining shakllanishi ularda kasbiy mahorat, ijodkorlik ko'nikmalarini hosil qilish, muomala madaniyatini tarkib toptirishdan iborat bo'lib, kuzatuvchanlik, ijodkorlik, ilg'or pedagogik tajribalarni mustaqil o'zlashtirish, o'qish va o'qitish jarayonida diqqatni taqsimlash, psixik holatlarini boshqara olishni ta'minlaydi.

**Dadaboyeva Fayyoz Xikmatulloevna (Shahrisabz "Temurbeklar maktabi")**  
**KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI**  
**XUSUSIDA**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada kommunikativ kompetensiya tushunchasining nazariy asoslari va unga tadqiqotchilar tomonidan berilgan turlicha ta'riflar hamda chet tillarni o'qitishda kommunikativ kompetensiyaning roli to'g'risida so'z yuritiladi.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются теоретические основы понятия коммуникативной компетенции и разные толкования исследователей, а также её роль в обучении иностранным языкам.

**Annotation.** This article discusses the theoretical foundations of the concept of communicative competence and various definitions given to it by researchers, as well as the role of communicative competence in teaching foreign languages.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ kompetensiya, kompetentlik, bilim, ko'nikma, tajriba, nazariya, ta'lim.

<sup>1</sup> Abu Rayhon Beruniy. 100 hikmat (ibratli so'zlar). Toshkent, "Fan", 1993, 248-bet.

**Ключевые слова:** коммуникативная компетенция, компетентность, знание, навык, опыт, теория, обучение.

**Key words:** communicative competence, competence, knowledge, skills, experience, theory, education.

Yosh avlodni ham jismonan, ham ma'nan yetuk inson qilib tarbiyalash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, ertangi kunimiz, kelajagimizni ta'minlovchi, bo'lajak avlod taqdiriga befarq qarash mumkin emasligini namoyon etuvchi vositadir. Bugungi globallashuv davrida tilni, xususan, turli tizimli tillarni oson va qulay o'rganish ustida turli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

O'quvchilarga chet tillarni o'qitishda samarali metodlarni shakllantirish yuzasidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlarda chet tillarni o'rganish jarayonini tashkil etishning ko'plab uslub hamda usullari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Aynan o'sha izlanishlar natijasida, boshqa sohalarda bo'lgani kabi, chet tilini o'qitish sohasida ham so'nggi yillarda "kommunikativ kompetensiya", "kompetentlik", "kompetensiyaviy yondashuv" kabi tushunchalar keng ommalashdi. Til o'rganish jarayonini tashkil etishning uslub hamda usullari o'quvchi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga, bilish qobiliyatlarini o'stirishga, shu bilan birga, ta'lim jarayonida ularning faolligini oshirishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasida ta'limning barcha bosqichlarida chet tilini o'qitishning asosiy maqsadi o'rganuvchilarning ko'p madaniyatli dunyoda kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishga doir kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdan iborat. Chet tillarni o'rgatishda til o'rganuvchilarda tayanch kompetensiyalar bilan birga kommunikativ kompetensiyani ham rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

"Kommunikativ kompetensiya" tushunchasi yuzasidan tadqiqotchilar turlicha yondashuvlar asosida o'z fikrlarini o'ziga xos qarashlar bilan tadqiq etganlar. Ular tomonidan ushbu tushunchaga berilgan turlicha izohlarni ko'rib chiqamiz. Bu izohlar mazkur maqolamizning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Kompetensiya atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, "biror kishi yaxshi xabardor bo'lgan soha yoki masala"<sup>1</sup> tushunchasini anglatadi. O'zbek tilining izohli lug'atida kompetensiya so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan, ya'ni [lot. competentia layoqatli, munosib bo'lmoq yoki compete – erishayapman, munosibman, loyiqman]<sup>2</sup> degan ma'nolarni bildiradi.

"Kompetensiya" tushunchasini ilk marotaba 1965-yilda tilshunos N.Xomskiy o'zining "Aspekty teorii sintaksisa"<sup>3</sup> nomli kitobida qo'llagan. Olimning fikriga ko'ra, til bilish kompetensiyasi so'zlovchi hamda tinglovchining o'z ona tilini bilishi demakdir.

Ta'lim olishga bo'lgan kompetentli yondashuvni shakllantirish va rivojlantirish borasida kechayotgan tizimdagi muntazam o'zgarishlar "kompetensiya" tushunchasini turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha izohlanishiga olib keldi.

Tilshunos olim, leksikograf S.I.Ojegovning "Rus tilining izohli lug'ati" kitobida "kompetensiya" so'zini "biror-bir sohaning bilimdoni, biror sohadan yaxshi xabardor bo'lish"<sup>4</sup> ma'nolarini anglatuvchi tushuncha sifatida sharhlanganligini ko'rishimiz mumkin.

K.G.Razumovskiy nomidagi Moskva davlat Texnologiya va boshqaruv universiteti xodimlari pedagogika fanlari doktori, professor Sergey Yevgenyevich Shishov hamda pedagogika fanlari doktori Valentina Alekseyevna Kalneylar insonning hayoti davomida orttirilgan bilimlari, tajriba va ko'nikmalari asosida shakllangan barcha qobiliyatlarini kompetensiya deb baholaydilar.<sup>5</sup> Ular mazkur konseptni kompleks tarzda talqin qilar ekan, hayot davomida olingan bilim va tajribani real vaziyatlarda qo'llashni kompetensiya deb hisoblaydilar. S.E.Shishov hamda V.A.Kalneylarning kompetensiya tushunchasiga bergan ta'rifini adolatli ta'rif deb ayta olamiz. Chunki to'plangan bilim, tajriba va ko'nikma muayyan bir vaziyatlarda qo'llangandagina uni kompetensiya deb atash mumkin. Aynan shu izoh mazkur maqolamiz uchun g'oyat muhim sanaladi.

Tadqiqotchi Kudryashova Olga Vasilyevna o'zining "Yozma nutqda kommunikativ kompetensiyani bochqichma bosqich shakllantirish metodikasi" mavzusidagi dissertatsiyasida insondagi barcha kompetensiyalar asosida hayot davomida orttirilgan bilim, ko'nikma, tajriba hamda ularni muayyan vaziyatlarda qo'llash yotadi deb ta'kidlaydi. Kompetensiyani biror narsani eplay olishdan, aniqroq qilib aytilganda,

<sup>1</sup> Словарь иностранных слов. 18-е изд., стер., М., с. 48, "Рус. яз.", 1989, 624 с.

<sup>2</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2002, 704-bet.

<sup>3</sup> Хомский, Н. Аспекты теории синтаксиса. Москва, издательство Московского университета, 1972, 129 с.

<sup>4</sup> Ожегов С.И. Словарь русского языка. 57 000 слов, М., "Рус.яз.", 1988, 750 с.

<sup>5</sup> Шишов, С.Е. Мониторинг качества образовательного процесса в школе. Монография, М., НИЦ ИНФРА-М, 2013, 206 с.

mahoratdan jiddiy farqi shundaki, kompetensiya hamma vaqt ham birgalikda faoliyat yuritishga hamda turli muammolarni hamkorlikda hal etishga emotsional va ruhiy tayyorgarlik bilan bog'liq hodisadir. Shu bilan birga, kompetensiyaning xususiyati shundan iboratki, u o'quvchilarning muayyan shaxsiy sifatлари, axloqiy va ma'naviy qadriyatları majmuyidir.<sup>1</sup>

Vatanimiz pedagogik ilmidagi ham bir qator tadqiqotchilar o'quvchilarda kompetentlikni rivojlantirish borasida ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Tadqiqotchi A.A.Qarshiyev kompetensiya tushunchasini ilmiy tahlil qilish barobarida shunday fikrlarni keltirib o'tadi: "Ta'lim tizimida o'tgan asrning 60-yillarida yangi tadqiqot yo'nalishi bo'lgan kompetentli yondashuvning vujudga kelishi hamda xorijiy pedagogik va metodik manbalarda paydo bo'lgan "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalari, aslida, o'zaro chambarchas bog'liq tushunchalar bo'lib, odatda, kompetentlikning rivojlanishi kompetensiya doirasining kengayishiga olib keladi va kompetensiya doirasining kengayishi kompetentlik darajasining oshishi zarurati ta'minlaydi.

...kompetentlikka ega bo'lish – muayyan bilimlar va muayyan tavsiflar (fazilatlar)ga ega yoki muayyan holatdan xabardor bo'lish demakdir, kompetensiyaga ega bo'lish esa muayyan bir sohada ma'lum imkoniyatlarga ega bo'lish demakdir".<sup>2</sup>

N.A.Muslimov "kompetentlik – bu talabning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda bularning kasbiy faoliyatda qo'llanishi bilan belgilanishini" ta'kidlaydi.<sup>3</sup>

Pedagogika fanlari doktori, professor Sh.S.Sharipov ilmiy-pedagogik qarashlarida kompetentlik tushunchasiga shunday ta'rif beradi: "...Kompetentlikka ega bo'lish qobiliyatlilikni anglatadi, mavjud bilimlarni, tajribani muayyan vaziyatlarda muammoni hal qilish uchun safarbar eta olishni anglatadi".<sup>4</sup>

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o'quvchilarga chet tillarni o'rgatishning zamonaviy metodikasida kommunikativ kompetensiya dolzarb masalalardan biridir. Bu esa mazkur tushunchaning mohiyati tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilinishi bilan izohlanadi. Kommunikativ kompetensiya insondagi boshqa kompetensiyalarni shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

#### **Qodirova Buzulayho Turg'unovna (ADPI "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD) BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARDA MEHNAT FAOLIYATI SHAXSIY AMALIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH**

***Annotatsiya.** Ushbu maqola kelajakdagi boshlang'ich sinfi o'qituvchilari orasida mehnat faoliyatini rivojlantirishda shaxsiy amaliy kompetensiyaning muhim roli o'rganildi va tahlil qilindi.*

***Аннотация.** В данной статье изучена и проанализирована важная роль личностной практической компетентности в развитии трудовой деятельности будущих учителей начальных классов.*

***Annotation.** This article studied and analyzed the important role of personal practical competence in the development of labor activity among future primary school teachers.*

***Kalit so'zlar:** shaxsiy kompetensiya, mehnat faoliyati, boshlang'ich sinfi o'qituvchilari, rivojlanish, amaliy ko'nikmalar, ta'lim.*

***Ключевые слова:** личностная компетенция, трудовая деятельность, учителя начальных классов, развитие, практические навыки, образование.*

***Key words:** personal competence, labor activity, Primary School Teachers, Development, practical skills, education.*

Ushbu maqola kelajakdagi boshlang'ich sinfi o'qituvchilari uchun mehnat faoliyatida shaxsiy amaliy kompetensiyani rivojlantirishning ahamiyatini o'rganadi. Unda ushbu vakolatlarining rivojlanishini, olingan natijalarni va har tomonlama muhokamani o'rganish uchun foydalaniladigan metodologiya keltirilgan. Tadqiqot o'qitishda amaliy kompetensiyaning muhimligini ta'kidlaydi va bo'lajak o'qituvchilarning tayyorgarligini oshirish bo'yicha takliflar beradi.

<sup>1</sup> Кудряшова, О.В. Методика поэтапного формирования коммуникативной компетенции в письменной речи. Английский язык, языковой вуз. Дис. ... канд. пед. наук, Челябинск, 2005, 192 с.

<sup>2</sup> Qarshiyev A.A. O'quvchilarning axborot kompetentligini rivojlantirishning metodik jihatlari. "Tafakkur ziyosi" ilmiy-uslubiy jurnali, 2021, 3-son, JDPI matbaa bo'limi, Jizzax, 117 – 118-betlar.

<sup>3</sup> Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Ped.fan.dok...dis., T., O'MKHTTKMO va O'QTI, 2007, 315-bet.

<sup>4</sup> Sharipov Sh.S. Kasbiy ta'lim pedagogikasi. T., TDPU, 2005, 54-bet.

Bola tarbiyasining asosini shakllantirishda boshlang'ich sinf o'qituvchisining roli katta. Bu nafaqat bilim berishni, balki yosh o'quvchilarda zarur ko'nikma va malakalarni rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan, mehnat faoliyatidagi shaxsiy amaliy kompetensiya kelajakdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun ajralmas hisoblanadi. Ushbu maqola bo'lajak o'qituvchilar o'rtasida shaxsiy amaliy kompetensiyani rivojlantirishga oydinlik kiritishga qaratilgan [1]. Shaxsiy amaliy kompetensiyani rivojlantirishni o'rganish uchun aralash usulli yondashuv qo'llanildi. Bu ham sifatli, ham miqdoriy ma'lumotlarni yig'ish texnikasini o'z ichiga olgan. Miqdoriy usul: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanlanmasi o'rtasida ularning mehnat faoliyatidagi amaliy ko'nikmalarini baholash uchun so'rov o'tkazildi. So'rovda ularning o'qitish va sinfni boshqarishning turli jihatlarini bilan ishlashga bo'lgan ishonchi bilan bog'liq savollar kiritilgan.

Sifatli usul ushbu o'qituvchilarning tanlangan guruhi bilan ularning amaliy malakalarini rivojlantirish to'g'risida chuqurroq ma'lumot olish uchun chuqur suhbatlar va sinf kuzatuvlari o'tkazildi. Ushbu usul ularning tajribalari va muammolarini yanada aniqroq tushunishga imkon berdi [2]. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxsiy amaliy kompetensiyani rivojlantirish ularning o'qituvchi sifatida o'z rollariga yaxshi tayyor bo'lishlarini ta'minlash uchun juda muhimdir. Amaliy kompetensiya boshlang'ich sinflarda samarali o'qitish uchun zarur bo'lgan ko'plab ko'nikmalar, bilimlar va fazilatlarini o'z ichiga oladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxsiy amaliy kompetensiyani rivojlantirishning ba'zi asosiy jihatlarini quyidagilar.

Pedagogik bilimlar. Bo'lajak o'qituvchilar bola rivojlanishi, ta'lim psixologiyasi va pedagogik nazariyalarni yaxshi tushunishlari kerak. Ushbu bilim samarali o'qitish strategiyalari uchun asos yaratadi. O'quv dasturini tushunish. O'qituvchilar boshlang'ich bosqichga tegishli o'quv rejasi va ta'lim standartlari bilan tanish bo'lishi kerak. Ular har bir sinf darajasida qanday mavzular va ko'nikmalar o'qitilishi kutilayotganini bilishlari kerak.

Sinf boshqaruvi. Sinfni boshqarish ko'nikmalari samarali va ijobiy o'quv muhitini saqlash uchun juda muhimdir. Bo'lajak o'qituvchilar xulq-atvorni boshqarish, vaqtni boshqarish va tashkil etish strategiyasini o'rganishlari kerak.

Darsni rejalashtirish. Qiziqarli va samarali dars rejalarini tuzish qobiliyatini rivojlantirish juda muhimdir. Bunga aniq o'quv maqsadlarini belgilash, tegishli o'qitish usullarini tanlash va talabalar taraqqiyotini o'lchash uchun baholashni loyihalash kiradi [5].

Farqlash. O'qituvchilar o'z ko'rsatmalarini o'quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtira olishlari kerak. Bunga turli qobiliyatlari, o'rganish uslublari va kelib chiqishi bo'lgan talabalarni joylashtirish kiradi.

Muloqot qobiliyatlari. Talabalar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot qilish juda muhimdir. Bo'lajak o'qituvchilar ma'lumotni aniq yetkazish va ijobiy munosabatlarni o'rnatish uchun og'zaki va yozma muloqot qobiliyatlari ustida ishlashlari kerak.

Baholash va fikr-mulohazalar. Talabalar faoliyatini baholash va konstruktiv fikr bildirishni o'rganish o'qitishning muhim jihati hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchilar turli xil baholash usullarini tushunishlari va ulardan o'qitishni xabardor qilish uchun foydalanishlari kerak.

Texnologik vakolat. Bugungi raqamli asrda o'qituvchilar o'quv tajribalarini oshirish uchun ta'lim texnologiyalari va onlayn resurslardan foydalanishda qulay bo'lishi kerak.

Reflektiv amaliyot. Bo'lajak o'qituvchilarni aks ettirish amaliyoti bilan shug'ullanishga undash juda muhimdir. Bunga ularning o'qitish usullarini muntazam ravishda tahlil qilish, takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash va zarur tuzatishlar kiritish kiradi.

Madaniy vakolat. Madaniy xilma-xillikni tushunish va hurmat qilish inklyuziv sinf muhitini yaratish uchun juda muhimdir. Future o'qituvchilar madaniy vakolatli bo'lishi va ularning ta'lim xilma-xilligi va tenglik targ'ib kerak.

Kasbiy rivojlanish. Bo'lajak o'qituvchilarni so'nggi ta'lim tendentsiyalari va ilg'or tajribalaridan xabardor bo'lish uchun doimiy kasbiy rivojlanish bilan shug'ullanishga undash [4].

Amaliy tajriba. Haqiqiy sinflarda talabalarni o'qitish yoki amaliyot o'tash bebaho amaliy tajribani ta'minlaydi. Bo'lajak o'qituvchilar o'rgangan narsalarini qo'llab-quvvatlovchi muhitda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak.

Axloqiy va axloqiy mulohazalar. O'qituvchilar o'z o'quvchilarining manfaatlarini yo'lida harakat qilishlarini va kasbiy me'yorlarga rioya qilishlarini ta'minlab, kuchli axloq va axloqiy mas'uliyatni rivojlantirishlari kerak.

Hissiy aql. Hissiy intellekti shakllantirish o'qituvchilarga o'zlarining va o'quvchilarining his-tuyg'ularini tushunish va boshqarishga yordam beradi, ijobiy sinf muhitini yaratadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxsiy amaliy kompetensiyani rivojlantirish nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan birlashtirgan doimiy jarayondir. O'qituvchilarni o'qitish dasturlari, murabbiylik va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari o'z o'quvchilarining hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan malakali va samarali o'qituvchilarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mehnat faoliyatida shaxsiy amaliy kompetensiyani rivojlantirish nazariy bilim va amaliy tajribani birlashtirishni o'z ichiga olgan dinamik jarayondir. Kelajakdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari sinflarda o'rganilgan pedagogik nazariyalar va turli xil va dinamik maktab sharoitida o'qitishning amaliy haqiqatlari o'rtasidagi farqni bartaraf etish imkoniyatlariga muhtoj [6].

Asosiy xulosalardan biri shundaki, o'qituvchilarni o'qitish dasturlari amaliy mashg'ulotlarga, shu jumladan, sinflarni boshqarish texnikasi, darslarni rejalashtirish va samarali muloqotga ko'proq e'tibor qaratishi kerak. Bundan tashqari, murabbiylik dasturlari va tengdoshlarni qo'llab-quvvatlash kelajakdagi o'qituvchilarning amaliy vakolatlarini tarbiyalashda hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin. Bundan tashqari, doimiy kasbiy rivojlanish va aks ettirish amaliyoti shaxsiy amaliy kompetensiyani oshirishning muhim tarkibiy qismidir. O'qituvchilarni doimiy ravishda o'z-o'zini baholash bilan shug'ullanishga va o'sish va takomillashtirish imkoniyatlarini izlashga undash kerak.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, mehnat faoliyatida shaxsiy amaliy kompetensiyani rivojlantirish kelajakdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashning muhim jihati hisoblanadi. Tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilar duch keladigan muammolar va tajriba va treningning ularning malakasiga ijobiy ta'siri ta'kidlandi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun o'qituvchilarni o'qitish dasturlari:

◆Nazariya-amaliyotdagi bo'shliqni bartaraf etish uchun o'quv dasturiga ko'proq amaliy komponentlarni kiriting.

◆Murabbiylik dasturlari va tengdoshlarni qo'llab-quvvatlash tarmoqlarini amalga oshirish.

◆O'qituvchilar orasida reflektiv amaliyot va o'zini baholashni targ'ib qiling.

◆Amaliy sinf tajribasi va real hayotdagi o'qitish vaziyatlari uchun imkoniyatlar yarating.

Ushbu tavsiyalarni ko'rib chiqish orqali o'qituvchilarni o'qitish dasturlari kelajakdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'z kasbida ustun bo'lish va yosh o'quvchilarning ta'limiga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur bo'lgan shaxsiy amaliy kompetensiya bilan yaxshiroq jihozlashi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Professionalnaia pedagogica. Kategorii, poniatia, definicii [Professional pedagogics: categories, concepts, definitions]. Sb. nauch. tr. Vip. 4, Feder. Agency by training, Dews. roc. The prof.-ped. Un y; Dews. akad. Formations, Ur. otd-nie, 2006, 571 p.

2. Qaytarova N.K. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi va unda boshlang'ich sinf o'qituvchisining roli. «Таълим тизимидаги ислохотлар: олимлар ва ёшлар нигоҳида» мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси тўплами. Тошкент, 2022 йил 29 сентябрь, 203-бет.

3. Ulmasovna D.M. (2022). Pedagogikaning dolzarb muammolari. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(10), p. 211 – 212.

4. Kholida S., Akhrarova Z., Mamura D., Gulbakhor I., Kadamboy M. (2019). Modular teaching technology based on scientific activity.

5. Ulmasovna D.M., Jamshidovna F.F. (2022). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. 1(1), p. 155 – 159.

6. Kazakova S. (2023). Boshlang'ich ta'limda "tarbiya" darslarini tashkil etishda innovatsion yondashuvlar. Yangi O'zbekiston pedagoglari axborotnomasi, 1(1), 18 – 22-betlar.

**Xolov Olimjon Chorshamiyevich (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti "Pedagogika" kafedrasida katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD))**

### **FUQAROLIK TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ MAQOLLARINING PEDAGOGIK IMKONIYATI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada fuqarolik tarbiyasini shakllantirishda xalq maqollaridan foydalanishning samaradorligi hamda fuqarolik tarbiyasiga oid xalq maqollaridan misollar va ularning yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan.

**Аннотация.** В данной статье раскрывается эффективность использования народных пословиц в формировании гражданского воспитания, а также примеры народных пословиц, связан-



ных с гражданским воспитанием и их педагогический потенциал в воспитании подрастающего поколения в духе патриотизма.

**Annotation.** This article reveals the effectiveness of using folk proverbs in the formation of civic education, as well as examples of folk proverbs related to civic education and their pedagogical potential in educating the young generation in the spirit of patriotism.

**Kalit so‘zlar:** maqol, fuqarolik tarbiyasi, vatan, vatanparvarlik, qadriyat, xalq, ta‘lim, tarbiya.

**Ключевые слова:** пословица, гражданское воспитание, родина, патриотизм, ценность, народ, воспитание, образование.

**Key words:** proverb, civil education, homeland, patriotism, value, people, education, education.

**Kirish.** Dunyo xalqlari har qanday davrda o‘z farzandlariga fuqarolik tarbiyasini singdirish va ular-da vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish hamda Vatan ma‘nosini teran anglab yetishiga alohida e‘tibor qaratishgan. Shuningdek, Vatanni sevish, o‘tmishini bilish va uning ravnaqi uchun hissa qo‘shish yuksak qadriyat ekanligini doimo singdrib kelishgan. Ayniqsa, bugungi globallashuv jarayonida buzg‘unchi g‘o-ya va oqimlarni oshib borishi, yosh avlodga fuqarolik tarbiyasini kuchaytirishni davr talabiga aylantirib qo‘ymoqda. Haqiqatdan ham, vatanparvarlik ma‘lum va mashhur tamoyil bo‘lib, u insonning o‘z Vatani-ga muhabbatini, uni asrab-avaylashga bo‘lgan ishtiyoqini anglatuvchi axloqiy tushunchadir. Yoshlarimiz-ni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash esa hech qachon o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan muhim masaladir.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi “Fuqarolik tarbiyasi”, “Vatan”, “Vatanparvarlik” o‘zi nima va u qanday ma‘nolarni anglatadi? “Fuqarolik tarbiyasi” fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali yosh avlodda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularda xalq, Vatan, jamiyat manfaat-lari yo‘lida kurashuvchi shaxs etib tarbiyalashdagi pedagogik jarayondir [6.188].

“Vatan” arabcha so‘z bo‘lib “tug‘ilib o‘sgan joy, ona yurt” ma‘nosini anglatadi. Vatan tushun-chasi ikki xil keng va tor ma‘noda qo‘llaniladi. Keng ma‘noda butun bir xalq, ularning ajdodlari azal-dan istiqomat qilib kelgan makonga nisbatan ishlatiladi. Tor ma‘noda inson tug‘ilib o‘sgan uy, uy-jo-yi, oilasi, mahallasi ba‘zi o‘rinlarda Vatn so‘zi bilan ifoda etiladi [5]. Vatan tushunchasiga Abdulla Avloniy bobomiz “Har bir kishining tug‘ulub o‘skan shahar va mamlakatini shul kishining vatani dey-ilur” deganlar [1]. “Vatanparvarlik” kishilarning ijtimoiy va ma‘naviy-axloqiy xislatlarining, fazilatlar-i-ning yuksak darajada namoyon bo‘lishi hisoblanadi. Zero, ular negizida ota-bobolardan meros qolgan za-minni sevish, urf-odatlarini, qadriyatlarni saqlash, el-yurt ravnaqi uchun chin dildan mehnat qilib, Vatanni dushmanlaridan himoya qilish, har qanday qaramlikdan ozod etish, hatto zarur bo‘lsa, uning ozodligi va mustaqilligi uchun jonini ham ayamalikdir [4].

Yuqoridagi tariflarga e‘tibor qaratisa, uning ahamiyati naqadar yuqori ekanligi va barcha xalqlar yosh avlodga fuqarolik tarbiyasini singdirishga bor kuch-g‘ayrati bilan intilishi bejizga emasligini ang-lash qiyin emas. Bu sifatlar esa fuqarolik tarbiyasi asosida Vatan, vatanparvarlik, Vatanni sevish va ar-doqlash kabi fazilatlarini yuzaga chqaradi.

Fuqarolik tarbiyasini shakllantirishning ko‘plab usul va vositalar mavjud bo‘lib, tor va keng doirda amalga oshiriladi. Bunga misol tariqasida darslarda, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimida, oilada, mahallada singdrib boriladi. Shu o‘rinda aytish lozimki, fuqarolik tarbi-yasini singdirishda yana bir vositalardan biri xalq maqollaridir. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan biri bo‘lgan xalq maqollaridan foydalanishning ahamiyati shundaki, yuqorida ta‘kidlangan darslarda, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimida, oilada, mahallada umuman olganda har joyda keng foydalanish mumkin. Bu jarayonda xalq maqollarini to‘g‘ri va o‘rinli tanlanishi hamda mazmun-mohiyatini tushuntirib berish lozim bo‘ladi. Shu maqsaddan kelib chiqib, ushbu maqolamizda, fuqarolik tarbiyasini shakllantirishda xalq maqollardan foydalanishning samaradorligini misollar asosida yoritib o‘tamiz.

**Asosiy qism.** Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan biri bo‘lgan “maqol”ning ta‘lim-tarbiya jarayonida ayniqsa fuqarolik tarbiyasini shakllantirishdagi ahamiyati yuqoridir. Maqollar haqida fikr yuritar ekan-miz, albatta, uning mazmun-mohiyatiga to‘xtalib o‘tishni joiz bildik. Maqol atamasi arabcha “Qavlun” – gapirmoq, aytmoq so‘zidan olingan bo‘lib, xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlash-gan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so‘zlariga aytiladi [3.38].

Maqollar mazmun jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil bo‘lib, vatan tushunchasi, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ilm, hunar, do‘stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, sevgi-muhabbat, milliy qadriyatlarimiz, umuminsoniy qadriyatlar, diniy qadriyatlar, do‘stlik, odob-axloq, ahillik, kasb-hunarga muhabbat, yaxshi-lik va yomonlikning oqibati, halollik, to‘g‘rilik, oliyanoblik, adolatlilik, insof, botirlik, saxiylik, baxillik, kamtarlik, sabr-qanoat, or-nomus, samimiylilik, andisha, farosat, isrof, mas‘uliyat, hurmat va izzat kabi

ko'plab mavzularni qamrab oladi. Shuningdek, maqollar insonlarda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan axloqiy tamonlama salbiy va ijobiy xususiyatlarni o'zida aks ettiradi.

Maqollar yoshlarni Vatan ruhida tarbiyalashda o'ziga xos xususiyatga egadir. Misol uchun, Vatan haqidagi maqollarda o'zbek xalqining ona-Vataniga bo'lgan cheksiz muhabbati, sadoqati, hurmati o'z ifodasini topgan. Ularda Vatan – ona-yurt ulug'lanadi, har kim o'z yurtida nafas olishi, izzat-hurmatda yashashi ko'rsatilib, vatanni sevish, unga hamisha sodiq bo'lish kerakligi uqtiriladi. Shu kabi maqollardan biri sifatida “Bulbul chamanini sevar, odam – Vatanini” maqolini keltirish mumkin [2.3]. Mazkur maqolda inson ruhiy olamida Vatan tushunchasining ahamiyati qayd etilgan. Maqoldagi Vatan so'zida faqat muayyan hudud, manzil, o'rin-joy, tabiat aks etgan desak, yanglish bo'ladi. Bu so'z ma'no jihatdan ajdodlar ruhi, ma'naviy meros obidalari, qadriyatlar, millat birligi, mentalitet xususiyatlari bilan uyg'unlashadi. Bulbul chamanda qanchalar yayrasa, inson o'z vatanida o'zini shunchalar erkin his qiladi. Bulbulni bog'larsiz, gulzorsiz, chamansiz tasavvur etib bo'lmaganidek, odamni o'z ona diyorisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Quyidagi maqolda ham Vatan haqida, uning tinchligi va farovonligi haqida so'z boradi. Ya'ni, “Ona yurtning omon bo'lsa, Rangi-ro'ying somon bo'lmas”. Bu maqolda shaxsning ona yurtida yashashi va istiqomat qilishi undan ma'lum burchni ham talab qilishi ifodalangan. Agar yurt omon bo'lsa, ya'ni, tinch bo'lsa, erkin-ozod bo'lsagina inson o'z Vatanida xotirjam yashashi mumkin. Yurt tinchligi, erkinligi, ozodligi, o'z yurtiga bo'lgan ishonchi, faxr va iftixori, g'ururi, o'zga xalqlar oldida qaddini tik tutishi bilan bog'liqdir.

Vatan haqidagi maqollarning har birida o'ziga xos sarmazmunlikni ko'rishimiz mumkin. Misol tariqasida “O'zga yurtda shoh bo'lguncha, O'z yurtida gado bo'l”, “Qush butaga sig'inar, Odam – Vatanga”, “Vatanning vayronasi – Umrning g'amxonasi”, “Ona yurtning – oltin beshiging” kabi ko'plab vatanparvarlik mavzusidagi maqollar shular jumlasidandir.

Fuqarolik tarbiyasini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi namunalari biri bo'lgan, xalq maqollari yoshlarimizga Vatan tushunchasi hamda vatanparvarlikni anglab etishida o'ziga xosdir. Shu o'rinda aytish kerakki xalq maqollari insonlarda qadrlanuvchi quyidagi axloqiy sifatlarni shakllantirishga ham keng imkon beradi. Ya'ni: milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, diniy qadriyatlar, vatanparvarlik, do'stlik, odob-axloq, ahillik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga muhabbat, yaxshilik va yomonlikning oqibati, halollik, to'g'rilik, oliyjanoblik, adolatlilik, insof, botirlik, saxiylik, baxillik, kamtarlik, sabr-qanoat, muhabbat, or-nomus, samimiyylik, andisha, farosat, isrof, me'yor va me'yorsizlik, mas'uliyat, kattaga hurmat, urf-odat, an'analarga sodiqlik kabi ko'plab xususiyatlarni shakllantiradi.

**Xulosa.** Xalq maqollarining mazmun ko'lami inson hayotining turli sohalarini qamrab oladi. Xalq maqollaridan yosh avlodda barkamollikni, milliy qadriyat, xalq-atvorni va barcha tarbiyaning tarkibiy shakllantiradi. Shunday ekan, yosh avlodni tarbiyalashda xalq maqollaridan o'rinli foydalasak, yoshlarimizni vatanparvar bo'lib voyaga etishida muhim bir vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdulla Avloniy. “Turkiy Guliston yoxud axloq” www.ziyouz.com elektron kutubxonasi.
2. Abdullayev Q., Yusupov M., Rahmonbekova S. “O'qish kitobi”. 2-sinf o'quvchilari uchun. Toshkent, 2010, 123-bet.
3. Berdaq Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug'ati. Toshkent, “Sharq”, 2010, 237-bet; Dildora Yusupova, Baxtiyor Zokirov. O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsentlarining “Insoniylikning eng muhim fazilati – Vatanga bo'lgan muhabbatdir” nomli maqolasi. Yuz.uz elektron sayt.
5. Oyina.uz elektron sayt.
6. Xudoyqulov X.J. Xolov O.Ch. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma, Toshkent, “Innovatsiya-Ziyo”, 2020, 312-bet.

#### **Abdusamatov Alisher Sobirovich (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti “Pedagogika” kafedrasida dotsenti vazifasini bajaruvchi, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)) O'QITISH JARAYONIDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHILAR O'RTASIDA O'ZARO NOVERBAL SEMIOTIKANING YUZAGA KELISH HOLATLARI**

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada semiotikaning sohalarini va ularning chegaralari hamda turlari, semiotika jihatlari ahamiyati, qo'llanilishi, zarur pedagogik shart-sharoitlari, olimlar va ularning qarashlari, semiotikaning tarmoqlari, yo'nalishlari va qo'llanilishi haqida ma'lumot berilgan. kundalik hayotimizda undan qanday foydalanishimiz aytib o'tilgan.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация об областях семиотики, их границах и видах, значении и применении семиотических аспектов, необходимых педагогических условиях, ученых и их взглядах, отраслях, направлениях и приложениях семиотики. в нашей повседневной жизни. Приводятся примеры их использования.

**Annotation.** This article provides information about the fields of semiotics and their boundaries and types, the importance and application of semiotic aspects, necessary pedagogical conditions, scientists and their views, branches, directions and applications of semiotics. in our daily life. Here's how we use it.

**Kalit so'zlar:** semiotika, boshlang'ich ta'lim, matematika, semasiologiya, pragmatika, sintaktika.

**Ключевые слова:** семиотика, начальное образование, математика, семасиология, прагматика, синтаксис.

**Key words:** Semiotics, primary education, mathematics, semasiology, pragmatics, syntax.

**Kirish.** O'qitish faoliyatida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi vizual aloqa muhim ahamiyatga ega, chunki u faoliyat va xatti-harakatlarga qiziqishni belgilaydi. O'quvchilarning e'tiborini jalb qilish uchun ba'zi o'qituvchilar qo'llarini ko'tarib, shovqinli talabalarga diqqat bilan qarab, bir necha soniya jim turishadi. Bu ularni tinchlantirishga yordam beradi, lekin agar qarash 10 soniyadan ko'proq davom etsa, ular, odatda, tashvish va noqulay his qilishadi. Shu o'rinda Y.A.Komenskiyning nasihatini eslash o'rinlidir: "Ko'zlar chayqalmasligi, qichqirmasligi, qiyshaymasligi yoki dadillik bilan oldinga va orqaga yugurmasligi kerak, boshqa tomondan, ular harakatsiz bir nuqtaga shoshilmasliklari kerak, balki har doim kamtarona qarashlari va siz gaplashayotgan odamga qaratilgan bo'lishlari kerak" [5].

Noverbal semiotikaning yuqoridagi bo'limlaridan ikkinchisi proksemika (lotin tilidan tarjima qilingan—eng yaqin). Uning diqqat sohasiga jismoniy joylashuv, muloqot qilayotgan odamlar orasidagi masofa, vaqt omillari, narsa va hodisalarning ketma-ketligi, kiyim-kechak, rang, kosmosdagi odamlarning joylashuvi, shuningdek, fazoning akustik, vizual, taktil va hid bilish xususiyatlari kiradi. Masalan, og'zaki bo'lmagan muloqot uzoq masofalarda, sheriklarning ovozi eshitilmasa, sinf shovqinli bo'lsa va hokazolarda yaxshi ekanligi isbotlangan. Muloqot qiluvchi odamlar o'rtasida quyidagi masofalar mavjud:

- "Intim" masofa (0 dan 40 sm.gacha, maksimal 60 sm) muloqot qilish o'rtasidagi yaqin munosabatlarni aks ettiradi; "Shaxsiy" (taxminan, 0,4 dan 1,5 m.gacha) muloqotga xosdir do'stlar, hamkasblar;
- "Ommaviy" (1,5 dan 4 m.gacha) biznes aloqasi uchun ishlatiladi;
- "Ochiq" (4 yoki undan ortiq m.dan) o'rtasidagi aloqa uchun odatiy hisoblanadi notanish yoki nomalum odamlar.

Yuqoridagi tasnifga asoslanib, odamlar o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro munosabatlarning uchta asosiy turini ajratish mumkin:

- do'stlar, o'rtoqlar yoki oddiygina muloqotga ochiq bo'lgan taniqli odamlar bilan muloqot qilish;
- begonalar yoki to'liq begonalar bilan o'zaro munosabat muloqot qilishni xohlaydigan odamlar;
- hech kimni kutmaydigan begonalar bilan muloqot qilish bu odam bilan bog'lanish yoki aloqa qilishni xohlamaslik.

**Asosiy qism.** O'quv jarayonida o'qituvchi barcha turdagi munosabatlarga duch keladi va ularning har biri kommunikativ vaziyatning o'ziga xos turini keltirib chiqaradi, masalan, bo'sh joyni tanlash qoidalarini, muloqot qiluvchilar orasidagi masofa va og'zaki bo'lmagan xatti-harakatlar turi (pozitsiyalar va imo-ishoralar).

G.Kreidlin [1] fikricha, proksemik xulq-atvorning universal qoidalarini orasida quyidagilar ajralib turadi:

- makonni semiotizatsiya va o'stirishning umumiy qonuniyatlari (ayrim fazoviy bo'laklar va belgilarga ma'lum ma'nolar berish va ularga madaniy funksiyalar berish);
- shaxsning o'z hududiga, shaxsiy yoki ijtimoiy makoniga da'voni og'zaki yoki og'zaki bo'lmagan bayonoti (odamning "bizning sinfimiz", "mening idoram" og'zaki iboralarini ishlatishi yoki atrof-muhitning o'zgarishi – har qanday ijtimoiy mulkning bir qismini o'zlashtirish sifatida tashkilotlar maktab, universitet);
- muhitni fazoviy tashkil etishning umumiy qonuniyatlari va aloqa kanalini tanlash qoidalarini (dinamik yoki statik aloqa muhitini tanlash – o'qituvchi sinfda harakatlanadi, o'quvchilarga muhim qoidani aytib berishni xohlaydi).

U yoki bu darajada pedagogik muloqotni qamrab oladigan proksemik xatti-harakatlarning madaniy o'ziga xos qoidalarini orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

– joy va masofani tanlash qoidalari (odamlarning jinsi, yoshi yoki ijtimoiy mavqeiga, tanishlik darajasiga, o‘zaro munosabat uslubiga, suhbat mavzusiga, suhbat maqsadiga va boshqalarga nisbatan uchradigan joy). E.Xollning ta’kidlashicha, odamlar orasidagi masofa muloqot sodir bo‘ladigan kontekst, shuningdek, muloqotning o‘zi haqidagi ramziy xabar bo‘lishi mumkin [6]. Ushbu qoidalar proksemik va imo-ishorali xatti-harakatlarning kombinatsiyasi imkoniyatini ta’minlashi kerak. Muloqot jarayonida o‘qituvchi turli darajadagi murakkablikdagi materialni tushuntirish uchun imo-ishoralar yordamida o‘quvchilarga yaqinlashishi yoki ulardan uzoqlashishi mumkin;

- aloqa paytida jismlarning fazoviy nisbiy holati va yo‘nalishi qoidalari – yuz, yuzma-yuz, yarim burilish, orqa yoki yonma-yon o‘tirish, bironing oldida paydo bo‘lish, uzoqlashish, yon tomonga burilish, uzoq masofada turish, kimdir va boshqalar. Bularning buzilishi qoidalar odatda odamlar tomonidan seziladi (va ayniqsa ofisda, hamma o‘qituvchini kuzatib turganda) va ular xatti-harakatlarning axloqsiz yoki qabul qilinishi mumkin emasligini to‘g‘ridan to‘g‘ri aytishlari mumkin bo‘lgan individual “sanksiyalarga” olib kelishi mumkin;

– muayyan kommunikativ vaznlarni belgilaydigan qoidalar turli fazoviy parametrlar:

a) aloqa holatidagi ishtirokchilarning jinslari va o‘rtasidagi kommunikativ masofa turi o‘rtasidagi madaniy o‘ziga xos naqshlarni qayd etish;

b) aloqada uchinchi tomonlarning mavjudligiga turli madaniyatlarining turlicha munosabatini aks ettirish;

d) madaniy qadriyat va funksional ahamiyatini aniqlash proksemik xatti-harakatlar va boshqalar.

Umuman olganda, og‘zaki bo‘lmagan xatti-harakatlar qoidalarining aksariyati (xususan, proksemik xulq-atvor) avtomatik tarzda kuzatilishini inkor etib bo‘lmaydi, shuning uchun ularning buzilishi nafaqat og‘zaki bo‘lmagan, balki og‘zaki tarzda ham aniq qayd etiladi (“yaqin kelmaslik” iboralari). men”), shuning uchun o‘qituvchi talabalar bilan aloqa o‘rnatish uchun me‘yorlarga rioya qilishi kerak.

Takehika turli teginishlarni, elektromagnit, hissiy, tortishish ta’sirini, shuningdek, irratsional stimullarni o‘rganadi. Takesiki vositalari va usullari xilma-xil, ko‘p va juda samarali. Ularning talabalarga ta’siri hali yetarlicha o‘rganilmagan. Ba’zi hollarda ular ijobiy rol o‘ynaydi, lekin boshqalarda ular nizolarga olib kelishi mumkin.

Biroq, ushbu bo‘lim haqida umumiy ma’lumot berishga arziydi. Bunga quyidagi xususiyatlar ta’sir qiladi:

- ijtimoiy mavqe;
- qavat;
- tanishlik darajasi;
- muloqot ishtirokchilarining bir-biriga munosabati;
- jismoniy va ruhiy holat;
- “uchinchi shaxslar” mavjudligi;
- taktil xulq-atvor uslubi.

Uch turdagi teginishlar mavjud:

– “professional” teginishlar (taktil aloqasiz kasbiy faoliyatni amalga oshirish mumkin bo‘lmagan-da). Aksariyat odamlar bunday aloqalarga xotirjam munosabatda bo‘lishadi;

– marosim (qo‘l berib ko‘rishish). Dastlab, qo‘l berib ko‘rishish tinch va do‘stona niyatlarni namoyish qilish vositasi bo‘lgan, ammo vaqt o‘tishi bilan bu salomlashish deyarli majburiy marosimga aylandi [7];

–shaxslararo munosabatlar (quchoqlash, yelkaga urish). Agar barqaror teginish aloqasi mavjud bo‘lsa, bunday teginish yaqin munosabatlarni ko‘rsatadi.

O‘qituvchi nuqtayi nazaridan, teginish vositalaridan foydalanish birinchi turdagi teginish bilan bog‘liq bo‘ladi, ammo hozirgi vaqtda o‘qituvchilar o‘zlarining kasbiy faoliyatida teginishdan deyarli foydalanmaydilar. O‘qitishda ulardan foydalanish har doim ham zarur emas, lekin agar o‘rganish o‘yin shaklida amalga oshirilsa (masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun) ular ko‘proq oqlanadi. Bolalar o‘ziga ulg‘aygan sayin, muloqot masofadan sodir bo‘lganda, o‘zaro ta’sirning kontaktli usuli uzoqqa almashtiriladi.

Intonatsiya – bu tilning ovoz bilan bog‘liq tovush vositasi. Bu his-tuyg‘ular va his-tuyg‘ularni, so‘zlovchining odamlarga va o‘z so‘zlariga munosabatini ifodalashning o‘ziga xos usuli. Afsuski, intonatsiyalar hali yetarlicha o‘rganilmagan. Xilma-xillik va individuallik omili bizga intonatsiyalarning yagona “ABC”ni yaratishga imkon bermaydi. Bundan tashqari, og‘zaki bo‘lmagan ma’lumotlar bir akustik vosita bilan emas, balki bir vaqtning o‘zida bir nechta orqali uzatilishini unutmasligimiz kerak.

- Ovoz talaffuzining sanab o‘tilgan xususiyatlari yetkazishi mumkin har xil turdagi ma’lumotlar:
- estetik (baholovchi ma’lumot: yoqtirish-yoqtirmaslik, yoqimli-yoqimsiz va boshqalar);
  - hissiy (quvonch, g‘azab, qo‘rquv);
  - individual-shaxsiy (tembr, ohang, intonatsiya, fonetika xususiyatlari);
  - biofizik (insonning ma’lum bir tipologik guruhga mansubligi – jinsi, yoshi, bo‘yi, vazni);
  - ijtimoiy-guruh (milliy va iyerarxik-maqom belgilari: millat, millat).

Psixologik hissiy va kommunikativ o‘ziga xos xususiyatlar, fazoviy (ma’ruzachining pozitsiyasi: o‘ng-chap, old-orqa, uzoqlashish-yaqinlashish), tibbiy (ovoz apparatining buzilishi, umumiy tananing og‘riqli holati).

Xulosa qilib aytganda, og‘zaki bo‘lmagan aloqa vositalari siz bilishingiz va sharhlashingiz kerak bo‘lgan turli xil belgilarning butun qatlamini o‘z ichiga oladi. Pedagogik muloqotni boshlagan o‘qituvchi bu vositalardan o‘z manfaati uchun foydalanishi kerak, shunda o‘quvchilar uni o‘z fanida professional malakali sifatida ko‘rishlari kerak. O‘zaro ta’sir jarayonida og‘zaki bo‘lmagan muloqot o‘quv jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Shunday qilib, o‘qituvchi uchun nafaqat yuqori til madaniyati, balki og‘zaki bo‘lmagan xulq-atvor madaniyati ham muhimdir, chunki ma’lumki, og‘zaki bo‘lmagan muloqotning har xil turlari o‘zlariga qaraganda ancha ko‘proq ma’lumotga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kreidlin G.E. Noverbal semiotika: tana tili va tabiiy til [matn]. M., Yangi adabiy sharh, 2002, 592-bet.
2. Sadoxin A.P. Madaniyatlararo muloqot nazariyasi va amaliyoti [matn]. M., “Birlik-dana”, 2004, 271 p.
3. Labunskaya V.A. Og‘zaki bo‘lmagan xatti-harakatlar: tuzilish va funktsiyalar [matn]. Moskva, Ijtimoiy psixologiya: o‘quvchi, komp. E.P.Belinskaya, O.A.Tixomandritskaya. Moskva, “Aspect Press”, 2000, 376 p.
4. Kinesika imo-ishoralar mimika nigoh duruy [elektron resurs]. [http:// www.elitarium.ru/URL: neverbalnoe obshhenie](http://www.elitarium.ru/URL:neverbalnoeobshhenie) (kirish sanasi: 12/10/2018).
5. Komenskiy Y.A., Tanlangan pedagogik ishlar [matn]. 2-t, M., “Pedagogika”, 1982, 576-bet.
6. Hall ET Xorijdagi biznesdagi jim til. Garvard biznesi sharh, 1960.
7. Dutova N.V. Madaniyatlararo muloqot kontekstida gender noverbal xulq-atvori [matn]. Transbaikal davlat universiteti. Monografiya, Chita, 2014, 120-bet.

#### **Novshadbekova Dilnura Zafarjon qizi (ADPI “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasini o‘qituvchisi) BOSHLANG‘ICH TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARINING “TARBIYA” FANINI O‘QITISHGA METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining tarbiya fanini o‘qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy asoslarini ko‘rib chiqilgan.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются теоретические основы совершенствования методической подготовки учащихся начальных классов к преподаванию педагогической науки.

**Annotation.** In this article, we consider the theoretical basis of improving the methodological preparation of students of primary education for teaching the science of education.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim, uslubiy tayyorgarlik, o‘quv fanlari, nazariy asoslar, pedagogik tayyorgarlik.

**Ключевые слова:** начальное образование, методическая подготовка, учебные предметы, теоретические основы, педагогическая подготовка.

**Key words:** primary education, methodological training, academic subjects, theoretical foundations, pedagogical training.

**Kirish.** Ta’lim-tarbiya barcha davrlarda ham insoniyat oldida hal etilishi zarur bo‘lgan eng muhim vazifa bo‘lib turgan. O‘zbekistonda o‘z kelayotgan yosh avlodning intellektual ehtiyojlarini qondirishga, madaniy, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni saqlab qolishga yo‘naltirilgan, prinsipial axborot siyosati shakllantirildi va hayotga joriy etilmoqda. Ushbu yilda ham amalga oshiriladigan ishlarning salmoqli hissasini yoshlar va ularning ta’lim-tarbiyasi uchun yo‘naltirilishi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, yoshlarimizning ma’naviyatli, bilimli bo‘lishida o‘qituvchi bilan birgalikda davlat siyosatining o‘rni ham beqiyos.

**Muhokama va natijalar.** “Bizning eng ustuvor vazifamiz ulkan maqsadlarni belgilash va ularga erishish uchun vakolatli yoshlarni yaratish bo‘lishi kerak. Shundagina bolalarimiz xalqimizning azaliy orzularini amalga oshiradigan haqiqiy kuchga aylanadi”, deb ta’kidladi. Qashqadaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkentning Chilonzor tumanidagi uchrashuvlarda yoshlar tomonidan bildirilgan dadil g‘oya va ta-

shabbuslardan juda mamnunligini aytdi. “Ayniqsa, yaqinda bo‘lib o‘tgan Yoshlar forumida yigit-qizlarimizning ishtiyoq bilan yonayotgan ko‘zlarini, bilimga bo‘lgan ishtiyoqlarini ko‘rib, men juda katta kuch oldim. Ular yana Ibn Sino aytdi jasur va qattiyatli yoshlar ekanligiga yana bir bor amin bo‘ldim”, – dedi davlatimiz rahbari. «Ishonchim komilki, biz qudratli ijodiy salohiyatga ega bo‘lgan bunday bilimli yoshlar bilan birgalikda yangi O‘zbekistonni barpo etamiz», deya ta’kidladi. Respublikamizda ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xuddi mana shu maqsadga yo‘naltirilgan. Zero, ushbu masala g‘oyaviy nuqtai nazardan «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun prinsiplariga to‘la muvofiq keladi. Ta’lim-tarbiyaga oid milliy merosimizni o‘rganishning dolzarbligi nazariy jihatdan asoslidir. Xususan, uzluksiz ta’limning milliy modeli tamoyillari mohiyatan ta’limning milliy-ma’rifiy, milliy tarix, xalq an’analari, milliy merosimiz bilan uyg‘unlikda olib borilishini anglatadi. Umuman, ta’lim-tarbiyaning milliy modeliga ko‘ra, ta’lim tizimini yangilash – tabiiy ravishda milliy merosimizni o‘rganish va uni pedagogik tafakkur iste’moliga olib kirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Chunki milliy merosimizning g‘oyaviy negizi – shaxs tarbiyasi, uning ma’naviy ehtiyojlariga da’vogar bo‘lgan omillarni o‘rganishdan iborat bo‘lib kelgan, ushbu muammo hozirda ham jamiyatimizda olib borilayotgan siyosatda eng muhim masalalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ta’lim jarayoni dunyo bo‘yicha turli mamlakatlarning yaqinlashuvi, tom ma’noda global, insoniyat sivilizatsiyasi taqdiri uchun hal etuvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘plab omillar bilan belgilanadi. Bu omillar orasida yuzaga kelgan umumiy va milliy o‘ziga xosliklar alohida ahamiyatga ega.

Ta’lim-tarbiya muhim sohalaridan biridir. Bundan ko‘rinib turibdiki, tarbiya inson rivoji va shakllanishi uchun zarur bo‘lgan barcha omillarning asosidir. Ta’limning noyob imkoniyatlari hozir nafaqat inson aqlini yangi tezkor imkoniyatlar bilan qurollantirish, balki uning ongini qayta qurish bilan bog‘liq. Insoniyat sivilizatsiyasi rivojining yangi bosqichi insonning shakllanish jarayoni, shaxsiy fazilatlar, hayotiy maqsadlar va qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini o‘zgartiradi. O‘zib kelayotgan yosh avlod uchun ta’lim tizimi sifat jihatdan yangicha talablar qo‘yadi. XXI asr innovatsiyalar asridir. Mamlakatimiz kelajagi jamiyat hayotining boshqa sohalar bilan birga ta’lim tarbiya tizimini yangi zamon talablari darajasiga ko‘tarishga yo‘naltirilgan ishlarning samaradorligi bilan belgilanadi. Ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, o‘z navbatida, bu sohada yangi, zamonaviy, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni izchil joriy etishga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Ta’lim samaradorligi talaba bu jarayonda qay darajada faol qatnashayotganligi bilan belgilanishini hisobga olgan holda yangi o‘qitish uslublari, shakllari ta’lim oluvchilarga mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish uchun imkoniyat yaratadi. Navqiron avlod davr ruhida ma’naviy kamol topib, buyuk ajdodlarimiz barhayot mevasidan oziqlanib, zamonaviy bilimlarni egallab, ularni ongi, shuuriga singdirib bormas ekan, bizning o‘z oldimizga qo‘ygan ulug‘vor maqsadlarimizga erishishimiz, nurlu istiqbolimizni bunyod etishimiz ham qiyin. Mana shu bois ham yoshlar tarbiyasi, ularni barkamol insonlar etib shakllantirish, voyaga yetkazish masalasi har doim davlatimiz oldidagi birinchi darajali vazifalardan biridir. Ajdodlarimizning yaratuvchanligi shaxs manfaatlariga qaratilgan bo‘lsa, ayni vaqtda, mustaqil davlatimizda amalga oshirilayotgan barcha yangiliklar ham inson kelajagi uchun xizmat qilishi ko‘zda tutilgan.

Alloma o‘zining «Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida» asarida bilimlarni o‘rganish tartibi haqida batafsil fikr bayon etadi.<sup>1</sup> Farobiy ta’limotida inson ta’lim yordamida barcha fanlarni puxta o‘zlashtirish bilan ma’naviy-axloqiy fazilatlariga, odob me’yorlari va kasb-hunarga oid malakalarga ega bo‘ladi. U «Ta’lim-tarbiyada rag‘batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surdi. Bu usullar esa, o‘z navbatida, Forobiyning «Fozil insonlar jamiyati»da axloqan pok, barkamol avlodning tarbiyasi uchun xizmat qilish kerak edi. Forobiy ta’lim-tarbiyaga birinchi marta ta’rif bergan mutafakkir sanaladi. Ta’lim degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish, tarbiya – insoniy fazilatni hamda ma’lum hunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o‘rgatishdir, deydi olim. Olimning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari bugungi kunda ham dolzarbligi bilan ahamiyatlidir. Olimning ta’lim-tarbiyaga oid fikrlaridan quyida na’munalar keltiramiz. “Bilim, marifat yaxshi axloq bilan bezanmog‘i lozim”. Ushbu fikr bilan olim, har qanday bilim egasi tarbiya ko‘rgan bo‘lishi va unga amal qilishi kerakligini ta’kidlaydi. IX–X asrdan keyingi davrlarda yashab o‘tgan allomalar ham inson axloqi, yoshlar tarbiyasi masalasiga oid ko‘p ish olib borganlar. Tasavvuf olamining allomalari Najmiddin Kubro, Fariddin Attor, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Aziziddin Nasafiy, Alisher Navoiy va boshqalar katta hissa qo‘shdilar. Bu allomalarning ijodiy faoliyati, boy ma’naviyati tufayli milliy tarbiya tizimining asoslari vujudga keldi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari-

<sup>1</sup> Комилжон Носиров. Аждодлар сабоғи. Жамият ва бошқарув. 1999, № 1 – 2, 45-бет.

ni tarbiya fanini o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishda biz nafaqat bugungi kunda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarga, balki boy ma'naviy merosimiz mutafakkirlarimiz merosiga ham tayanamiz. Az-Zamaxshariy (1075–1144) tarbiya ko'rganlikni o'nta belgi orqali farqlanishini aytadi:

* xalq to'g'ri deb topgan narsani noto'g'ri deb qaramaslik;	* muhojirlar hojatini chiqarish;
* o'z nafsig'a erk bermaslik;	* el g'amini yeyish;
* birovdan ayb qidirmaslik;	* o'z aybini tan olish
* yomonlikni yaxshilikka yo'yish;	* el bilan ochiq yuzli bo'lish
* agar gunohkor uzr so'rasa, uzrini qabul qilish;	* odamlar bilan shirin muomalada bo'lish.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan zamonaviy ta'lablar negizida ham ajdodlarimizning boy merosi mavjud. Aristotel (m.a 384–322) tarbiya mudдати haqida to'htalar ekan, uni quyidagicha izohlaydi. Tarbiya muddati 21 yil: bola tug'ilganidan 7 yoshgacha, 7 yoshdan 14 yoshgacha, 14 yoshdan 21 yoshgacha. Ushbu so'zlar bola rivojlanishida oila va maktabning ahamiyatini naqadar yuksakligini yana bir e'tirofidir. Abu Nasr Forobiyning fikricha: "Munosib inson bo'lish uchun odamga ikki imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati berilgan. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa bu kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir". Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'qitish jarayonida nafaqat ta'lim tizimini mukammal, balki tarbiyaviy jarayonlarni ham keng qamrovda olib borish kerakligini anglaymiz. O'zining qarashlari bilan barcha pedagoglarning e'tirofidagi yana bir g'arb mutafakkiri Demokrit shunday degan edi: "Insonni inson qilib yetishtiruvchi narsa tarbiyadir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, milliy ta'lim-tarbiya modeli konsepsiyasining mazmuni milliy turmush tarzi va ma'naviy-axloqiy an'analari bilan bog'liqdir". Shu boisdan ham respublikamiz jamiyatshunos olimlari faylasuflar, ta'lim-tarbiya tizimida milliy modelining asosiy xususiyatlarini tahlil etayotganda ko'proq uning milliy tarbiyadagi o'rni hamda ahamiyatini ochib berishga harakat qilishmoqda. Jumladan, taniqli faylasuf, akademik E.Y. Yusupov mazkur modelning milliy tarbiyaning quyidagi xususiyatlari bilan bog'liq jihatlarni ko'rsatgan edi:

- milliy tarbiyada, yuksak ahloqiy fazilatlarni shakllantirish;
- yoshlarga milliy meros va qadriyatlarni o'rgatish;
- inson omilini shakllantirish;
- kishilarni halol mehnat qilishga, ishbilarmonlik va tadbirkorlikka o'rgatish;
- yoshlarda milliy g'urur tuyg'usini tarbiyalash;
- ta'lim va tarbiya uzviyligini ta'minlash.

Olimning fikricha, milliy tarbiyaning bu xususiyatlari zamonaviy ta'lim tizimi bilan uyg'unlasha olishi bilan bir qatorda, milliy an'analarimiz, qadriyatlarimiz bilan bog'lansa, ijobiy samara beradi.

**Xulosa.** Tarbiya muammolari, deb xulosa qiladi E.Yusupov, insoniyat tarixining barcha davrlaridagi g'oyalar, mafkuralar tizimidan ham katta o'rin olgan. Insonning ongi, e'tiqodi uchun bo'lgan kurashlar ham yoshlarga tarbiyaviy yo'llar orqali ta'sir etish shaklida namoyon bo'ladi. Shu sababli ham jismoniy sog'lom, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash O'zbekiston milliy istiqloq mafkurasining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib qolmoqda.<sup>1</sup> Bizda qadimdan «Ma'rifatli inson tushunchasi ancha keng ma'noni anglatgan. Unutmasligimiz kerakki, ma'rifat yoki tarbiya xalqimiz, millatimiz qonidadir. An'anaviy sharqona qarashga ko'ra, ma'rifatlilik bilim, ma'naviyat va go'zal axloq degani hamdir. Xalqimiz bilimli, komil inson deganda, aynan shunday odamlarni ko'z oldiga keltiradi. Milliy modelimizda komil inson g'oyasiga, uni tarbiyalash masalalasiga alohida e'tibor berilganligi ham ayni ana shu haqiqat bilan bog'liqdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. T., "Fan", 2007, 182-bet.
2. Boltaeva Sh. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish. "Xalq ta'limi", 2004, № 3, 33–34-betlar.
3. Karimova V.M. Sunnatova R. va boshqalar. Mustaqil fikrlash. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma, T., "Sharq", 2000, 112-bet.

<sup>1</sup> Эркин Юсупов, Ўткир Юсупов. Оила – маънавият булоғи. Тошкент, 2003, 18-бет.

4. Novshadbekova D.Z. (2023). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tarbiya fanini o'qitishga metodik tayyorlash pedagogik muammo sifatida. Academic research in educational sciences, 4(3), 479 – 483-betlar.

5. Novshadbekova D. (2022). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tarbiya fanini o'qitishga metodik tayyorlashni takomillashtirish. Science and innovation, 1(B6), 202 – 205-betlar.

**Ismailov Murodulla Kaxramonovich (Termiz davlat universiteti “Pedagogika va ijtimoiy ish” kafedrasida katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD))**

## **BO'LAJAK IJTIMOYIY ISH XODIMLARIDA SANOGEN REFLEKSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada muallif tomonidan sanogen refleksiyaning rivojlantirish muammosining dolzarbligi asoslangan, sanogen va patogen tafakkur tushunchalarining mohiyati, ularga xos bo'lgan alohida xususiyatlar mazmuni qiyosiy tahlil qilingan. Shaxsning kognitiv, emotsional, motivatsion va ekzistensial sohalari sanogen refleksiyaning rivojlantirishga ta'sir etuvchi psixologik (subyektiv) omillar sifatida ajratib ko'rsatilgan. Shuningdek, shaxsda sog'lom fikrlash qobiliyatining rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun motivatsion, kognitiv, hissiy-emotsional va regulativ mezon ko'rsatkichlari mazmuni yoritilgan.

**Аннотация.** В данной статье автором, исходя из актуальности проблемы развития саногенной рефлексии, сравнительно проанализирована сущность концепций саногенного и патогенного мышления, содержание их особенностей. Когнитивная, эмоциональная, мотивационная и экзистенциальная сферы личности выделяются как психологические (субъективные) факторы, влияющие на развитие саногенной рефлексии. Также поясняется содержание следующих мотивационных, когнитивных, эмоционально-эмоциональных и регуляторных показателей-критериев с целью определения уровня развития способности здорового мышления у человека.

**Annotation.** In this article, the author, based on the relevance of the problem of the development of sanogenic reflection, comparatively analyzed the essence of the concepts of sanogenic and pathogenic thinking, the content of their features. The cognitive, emotional, motivational and existential spheres of personality are identified as psychological (subjective) factors influencing the development of sanogenic reflection. The content of the following motivational, cognitive, emotional and regulatory indicators-criteria is also explained in order to determine the level of development of the ability of healthy thinking in a person.

**Kalit so'zlar:** bo'lajak o'qituvchi, o'spirinlik davri, sanogen tafakkur, patogen tafakkur, sanogen refleksiya, motiv, motivatsiya, kognitiv soha.

**Ключевые слова:** будущий учитель, подростковый возраст, саногенное мышление, патогенное мышление, саногенная рефлексия, мотив, мотивация, познавательное поле.

**Key words:** future teacher, adolescence, sanogenic thinking, pathogenic thinking, sanogenic reflection, motive, motivation, cognitive field.

**Kirish.** Dunyo hamjamiyati rivojlanishining hozirgi sur'ati, tabiiy va ijtimoiy genezisning tobora ortib borayotganligi, inson hayoti dinamikasining intensivligi, jamiyat hayotida sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va islohot jarayonlarining murakkabligi shaxsda turli xil hissiy-emotsional va ruhiy zo'riqish omillari bo'lib xizmat qilmoqda. Shu munosabat bilan, zamonaviy oliy ta'lim tizimining muhim vazifasi bu kabi omillarga bardosh bera oladigan, pozitiv va dialektik fikrlash ko'nikmalarini o'zlashtirgan, sodir bo'layotgan voqealarni to'g'ri idrok eta oladigan, real optimistik prognozlariga, ya'ni sanogen tafakkurga ega bo'lgan talaba-yoshlarni tarbiyalash hisoblanadi.

**Mavzuning dolzarbligi va tadqiqot maqsadi.** O'zbekiston “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Yangi davr shiddati va talablari ta'lim-tarbiya tizimiga ham o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'yimoqda. Zero, “...bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy sifatlariga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga, bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi”. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, zamonaviy oliy ta'lim tizimida o'quv-tarbiya jarayoni shaxsiy insonparvar yondashuv tamoyili asosida tashkil etilishi hamda talabalarida yangi innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilishi lozim. Shu jihatdan bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarida sanogen refleksiyaning rivojlantirish, mazkur jarayonga ta'sir etuvchi psixologik omillarni aniqlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.



Talabalik yillarida yoshlarning hayoti va faoliyatida o'zini o'zi kamolotga yetkazish jarayoni muhim rol o'ynaydi, lekin o'z-o'zini boshqarishning tarkibiy qismlari (o'zini-o'zi tahlil qilish, nazorat etish, baholash, tekshirish va boshqalar) ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur yosh davrida ideal (yuksak, barqaror, barkamol) «Men»ni real (aniq, haqiqiy) «Men» bilan taqqoslash orqali o'zini-o'zi boshqarishning tarkibiy qismlari amaliy ifodaga ega bo'ladi. Bizning fikrimizcha, talabalarda ideal «Men» ham muayyan mezon asosida yetarli darajada tekshirib ko'rilmagan, shuning uchun ular goho o'zini tasodifiy, g'ayritabiiy his etishi muqarrar, binobarin, real «Men» ham shaxsning haqiqiy bahosidan ancha yiroqdir. Talaba shaxsining takomillashuvida bunday obyektiv va subyektiv qarama-qarshiliklar o'z shaxsiyatiga nisbatan ichki ishonchsizlikni, o'qishga nisbatan esa salbiy munosabatni vujudga keltirishi mumkin. Bu esa talabalarda sanogen refleksiyaning rivojlantirish masalasini ijtimoiy-psixologik zaruriyat sifatida belgilaydi. Shundan kelib chiqib, dastlab, sanogen fikr yuritish mazmunini ilmiy asosda o'rganish va bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarida sanogen refleksiyaning rivojlantirish jarayoniga ta'sir etuvchi psixologik omillarni aniqlashtirish tadqiqot ishining asosiy maqsadi etib belgilandi.

**Tadqiqotda qo'llanilgan usullar.** Kuzatish, adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ish natijalari tahlili, pedagogik-psixologik tahlil qilish, taqqoslash, tizimlashtirish.

**Adabiyotlar tahlili.** Sanogen tafakkur sog'lomlashtiruvchi, qo'llab-quvvatlovchi va ruhlaniruvchi fikrlash tarzi. Shuningdek, sanogen fikrlash shakli bu ma'lum bir algoritmdan foydalangan holda fikr yuritish va o'rganishning shaxsiy patogen (nosog'lom fikrlash) stereotiplarini qayta ko'rib chiqish va tartibga keltirishdan iborat bo'lib, muayyan faoliyat davomida yuzaga keladigan muammo va qiyinchiliklarni to'g'ri aks ettirish qobiliyatidir.

Har bir kishi hayotiy faoliyati davomida tez-tez astenik (yoqimsiz) tuyg'ularni boshdan kechiradi yoki salbiy hissiy kechinmalarni vujudga keltiradigan noqulay vaziyatlarga duch keladi: xafagarchilik, ishonchsizlik, muvaffaqiyatsizlik, umidsizlik, sabrsizlik, aybdorlik va boshqalar. Ba'zilarimiz shu kabi haqiqiy his-tuyg'ular oldida o'zimizni yo'qotib qo'yamiz va aqliy kuchimiz zaiflashadi. Boshqalar esa - o'zlari bilan tezda kelishib, bunday noqulay holatlarni tezda yengib o'tadi va hayotda munosib o'rinni topishga qodir. Xo'sh, mazkur holat shaxsdagi qaysi sifat yoki xususiyat bilan bog'liq hisoblanadi? Qanday shaxsiy fazilatlar sizga eng yaxshi usulni tanlashingizga yordam beradi? Bunday vaziyatlarda inson tafakkurining individual o'ziga xosligi ahamiyatlimi? Psixologiya, tibbiyot va pedagogika sohasidagi mutaxassislar ushbu va boshqa ko'plab savollarga javob topishga harakat qilishmoqda. Zamonaviy psixologiyada mazkur holatlar sanogen fikrlash yoki sanogen refleksiya muammosining ajralmas qismi hisoblanib, xorijlik olimlardan Y.M.Orlov (1991, 2004, 2005, 2006), S.N.Morozyuk, Y.V.Miroshnik, K.E.Izard, Dj.Dyu, R.J.Sternberg, K.Sternberglar sanogen tafakkur va sanogen refleksiyaning mohiyati, tabiati va uni rivojlantirish mexanizmlarini, Respublikamiz olimlaridan E.G'oziyev, V.M.Karimova, Z.Nishonova va boshqalar tafakkur jarayonining psixologik xususiyatlari, fikrlashning ijtimoiy mazmuni va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslarini tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Sanogen fikrlashning eng tizimli va hajmli muammosi Y.M.Orlov tomonidan o'rganilgan. Olimning fikriga ko'ra, "...sog'lom tafakkurning asosiy vazifasi shaxsning o'z-o'zini takomillashtirish maqsadlariga erishish uchun shart-sharoitlarni yaratishdir: xususiyatlar va sifatlar uyg'unligi, o'zi va atrof-muhit bilan uyg'unlik, yomon odatlarni yo'q qilish, hissiyotlarni boshqarish va nazorat qilish. Ichki mujarolarni, zo'riqishni kamaytiradigan, sog'liqni keltirib chiqaradigan fikrlash shakli sifatida Y.M.Orlov "sanogen", ya'ni "sog'lom fikrlash"ni taklif qiladi. Aksincha, madaniyat talablari bilan dasturlashtirilgan, reproduktiv, avtomatizm bilan boshqariladigan oddiy fikrlashni patogen (nosog'lom, zararli), ya'ni kasallikni keltirib chiqaradigan fikrlash deb atash mumkin.

Inson nafaqat o'z xatti-harakatlarini, his-tuyg'ularini nazorat qilishi, balki muayyan qoidalarga muvofiq fikrlash tarzini ham nazorat qila olishi lozim. Mazkur yondashuvdan kelib chiqqan holda, fikrlashning ikki turi ajratib ko'rsatilmoqda: sanogen va patogen fikrlash.

Bolani individual tarbiyalash va o'qitish muammolarini tadqiq etgan rus olimlari O.S.Grebenyuk va T.B.Grebenyuklar mazkur fikr yuritish shakllarini quyidagicha izohlaydi:

– sanogen refleksiya ichki nizo, zo'riqish va xavotirni kamaytiradigan fikrlash tarzi bo'lib, u fikrlarni, his-tuyg'ularni, ehtiyoj va istaklarni boshqarishga imkon beradi va shunga ko'ra kasalliklarning oldini oladi;

– patogen refleksiya bu muayyan faoliyat davomida yuzaga keladigan muammolarni noto‘g‘ri aks ettirish hisoblanadi. Shuningdek, faoliyatning og‘ir sharoitlarida va hissiy jarayonlarni tartibga solishda asossiz refleksiv stereotiplardan foydalanish bo‘lib, bu oxir-oqibat muvaffaqiyatsizlikka olib keladi.<sup>1</sup>

Aqliy harakatlar majmui sifatida fikrlashning an’anaviy tushunchasidan farqli o‘laroq, “sanogen refleksiya” ya’ni, “sanogen fikrlash” atamasi ichki muammolarning yechimini aks ettiradi (masalan, ishonchsizlik, qo‘rquv, muvaffaqiyatsizlikni boshdan kechirish va h.k). G.Miner mazkur konsepsiyani - “hissiy fikrlash” qobiliyati sifatida tushunadi. Ushbu fikrlash tarzining o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflab, tadqiqotchi bunda kognitiv jarayon ikkinchi darajaga tushirilganligini va fonga surilganligini ta’kidlaydi. Tuyg‘ular odamni boshqaruvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

A.L.Rudakov<sup>2</sup> stressli vaziyatlarda insonning xatti-harakatlarini tahlil qilib, “sanogen refleksiya” mazmunini quyidagicha izohlaydi: “...atrofdagi dunyoga e’tibor berish, hozirgi ongni idrok etish, zaruriy qaror qabul qilish va ular haqida mulohaza yuritishdir”.

Inson psixokorreksiyasi samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni tadqiq etgan psixolog olim A.B. Rossoxin sanogen fikrlash usulining quyidagi ijobiy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadi:

- sog‘lom fikrlashni o‘rgatish shaxsda ko‘plab ijobiy o‘zgarishlarni ta’minlaydi;
- sanogen fikrlash aqliy faoliyatning xilma-xilligi va mustaqilligini ta’minlash vositasi sifatida xizmat qiladi.

S.N.Morozyuk o‘z tadqiqot ishida oliy ta’lim muassasalari talabalarining shaxsiy va xarakter xususiyatlarini psixodiagnostik jihatdan tahlil qilib, “sanogen refleksiya”ni sog‘lom tafakkurning tarkibiy qismi sifatida belgilaydi. Sanogen refleksiya – bu turli xil vaziyatlarda to‘g‘ri xulq-atvor usullarini tanlashga imkon beruvchi, insonning o‘z-o‘zini, hissiy kechinmalarini, fikrlari va muammolarini obyektiv ko‘rish va baholash qobiliyati hisoblanadi.<sup>3</sup>

“Inson tafakkurini shakllantirish uzoq muddatli va murakkab jarayon” ekanligini ta’kidlagan psixolog olim E.G.G‘oziyev quyidagi fikrni keltirib o‘tadi: “Axloq tarbiyasidagi qo‘pol xatolar bolaning ruhiy dunyosiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli shaxs dunyoqarashini tubdan qayta qurish, tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish masalasiga alohida e’tibor berish zarur.”<sup>4</sup>

Quyidagi jadvalda sanogen va patogen fikrlash shakllarining muhim xususiyatlarini keltirib o‘tamiz (1-jadval).

*1-jadval*

**Sanogen va patogen fikrlashning muhim xususiyatlari**

<b>Sanogen fikrlash</b>	<b>Patogen fikrlash</b>
Tafakkurning dinamikligi, moslashuvchanligi, refleksivligi: inson fikrlash tarzi bilan bog‘liq barcha holatlarni kuzatadi.	To‘liq tasavvur erkinligi: ong bilan boshqarilmaydigan voqeelikdan ajralish – fikrlarni boshqarish va cheklash odatining yo‘qligi.
Introspeksiya: tahlilga asoslangan, insonning o‘z-o‘zini ichki kuzatuv fonida amalga oshiriladigan fikrlar (o‘tkir va kuchli his-tuyg‘ular endi paydo bo‘lmaydi).	Doimiy xavotirli vaziyat, salbiy tajribani to‘plashga hissa qo‘shadi, doimiy bezovtalik ko‘proq kuch talab qiladi. Fikrlashdagi stereotiplik.
Kishi ruhiy holatlarning tuzilishini biladi: u ishonchsizlik, aybdorlik, muvaffaqiyatsizlik va boshqa voqelik qan-day ishlashini tushunadi.	Refleksivlik qobiliyatining to‘liq yo‘qligi, o‘zini va o‘z holatini tashqi tomondan ko‘rib chiqish, vaziyatga to‘g‘ri baho berish ko‘nikmasining mavjud emasligi.
Ijtimoiy stereotiplar, madaniy xulq-atvor dasturlari haqida individual bilimning mavjudligi.	Salbiy emotsiyalarga yo‘nalganlik hamda muvaffaqiyatsizlik, o‘z-o‘ziga nisbatan ishonchning pastligi, irodasizlik kabi sifatlar xarakterlidir.
Fikrlashdagi rangbaranglik, diqqatning barqarorligi va irodaviylik: bu esa o‘z-o‘zini tahlil qilish imkonini beradi.	Fikriy jarayonlarning ongsizligi: bu o‘z-o‘zimizni, holatimizni nazorat qila olmasligimiz bilan izohlanadi.
Fikrlash va tasavvurni boshqarish qobiliyatini hosil qiladi.	Fikrlashdagi nazoratsizlik, ehtiyoj va motivlarning beqarorligi.
Lokus (o‘z-o‘zini kuzatish) nazoratning yoqoriligi, bu	Insonga vaziyatni hissiy jihatdan ijobiy aks ettirish im-

<sup>1</sup> Гребенюк О.С., Гребенюк Т.Б. Основы педагогики индивидуальности. Учебное пособие, Калининград, 2000, с. 44.

<sup>2</sup> Рудаков А.Л. Саногенная рефлексия как фактор стрессоустойчивости личности. Канд.дисс.автореф., М., МПГУ, 2009, с. 17.

<sup>3</sup> Морозюк С.Н. Саногенная рефлексия как фактор оптимизации акцентуации характера и повышения эффективности учебной деятельности. Док.дисс.автореф., Москва, 2003, с. 40.

<sup>4</sup> Фозиев Э.Ф. Тафаккур психологияси. Т., «Университет», 1990, 76-бет.


esa ijobiy faoliyat natijasini ta'minlaydi.	konini bermaydi, bu esa surunkali stressni, o'zi va boshqalar bilan ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.
Shaxsga hayotiy faoliyatda yuzaga keladigan muammolarga konstruktiv tus berishga, destruktiv yo'nalishdagilaridan esa saqlanish imkonini beradi.	Hissiy emotsional qobiliyat darajasining pastligi va aksincha, himoya refleksiya qobiliyatining yuqoriligi.
Muammoli vaziyatlardan psixologik jihatdan oqilona (o'ziga va salomatligiga salbiy ta'sir etmagan holda) chiqish imkonini beradi.	Shaxsiy aks ettirishning quyi darajada ekanligi muammoli vaziyatlarni to'g'ri tahlil qilish imkonini bermaydi.

Insonning atrof-muhitni idrok etish jarayonini kuzatish asosida uning sanogen va patogen (nosog'lom) fikr yuritish ko'nikmalarini tadqiq etish mumkin. Fikrlashning patogenligi shundaki, insonning salomatligiga zarar yetkazuvchi salbiy qarashlar yig'indisi bo'lib, u shaxsning o'z-o'zi va shaxslararo munosabatlar jarayonida vujudga keladigan emotsional beqarorlik va nizolar bilan izohlanadi.

**Maqolaning ilmiy mohiyati.** Sanogen refleksiya muammosining bir qator sifat va xususiyatlari yuqorida nomlari keltirilgan olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan bo'lsa-da, lekin aynan shaxsda sanogen refleksiyaning rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili alohida ajratib ko'rsatilmagan.

Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarida sanogen refleksiyaning rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, mazkur jarayonda bir qator omillar ta'sir ko'rsatishini inobatga olish lozim. Inson tafakkuri muammosini tadqiq etuvchi tibbiy-falsafiy yo'nalishda sog'lom turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy gigienik qoidalar yig'indisi, tibbiy terapiya vositalari va ma'naviy hamda moddiy olam uyg'unligi omil sifatida baholansa, pedagogik-psixologiya yo'nalishidagi ilmiy tadqiqot ishlarida esa ijtimoiy-pedagogik va psixologik omillarni tadqiq etishga alohida e'tibor qaratiladi. Quyida biz talabalarda sanogen refleksiyaning rivojlantirishning psixologik aspektlari (omillari) haqida fikr yuritamiz.

Shaxsda sanogen refleksiyaning rivojlantirish ko'plab psixologik (subyektiv) omillar ta'sirini hisobga olishni talab etadi. Jumladan, o'z-o'zini anglay bilishi, ya'ni, o'z-o'ziga baho berish mayli va istagi kabi ustanovkalar, o'zini boshqa shaxslar bilan taqqoslashi, fikrlarini erkin, ochiq, mazmunli ifodalashi, o'z-galarning fikrini eshita olishi va murosa qila olish kabi emotsional xususiyatlar, shaxs motivatsion sohasi rivoji, shaxsning individual psixologik xususiyatlari, yosh omili mazkur jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasm).



**1-rasm. Sanogen refleksiyaning rivojlantirishga ta'sir etuvchi psixologik (subyektiv) omillari.**

Sanogen refleksiyaning rivojlantirish samaradorligi bevosita talabalar tomonidan kognitiv faoliyat ko'nikmalarining qay darajada o'zlashtirilganligi bilan bog'liq. Kognitiv rivojlantirish jarayonida insonning olam haqida olgan ma'lumotlari, uning xotirada saqlanishi va bilimga aylantirilishini hamda bu bilimlar bizning diqqatimiz va xatti-harakatlarimizga qanday ta'sir qilishi o'rganiladi. Kognitiv soha bilish jarayonlarining barcha spektrini qamrab oladi – sezgi, idrok etish, diqqat, tushunish, xotira, tasavvur, tushunchalarni shakllantirish (anglash), fikrlash, xotirada saqlash, til, hissiyotlar va intellektning rivojlanish

jarayonlariga qadar<sup>1</sup>. Adabiyotlar tahliliga ko'ra, agarda mazkur darajalarning birortasida salbiy holat ko'zga tashlansa, bu, o'z navbatida, insonning fikrlash jarayoniga ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi.

Sanogen refleksiyaning rivojlantirish emotsionallik bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Shaxsdagi salbiy his-tuyg'ularni yo'qotish, o'rni ijobiyi bilan to'ldirish zarur. Masalan, talabalarda insonparvarlik va subyektivlik tamoyiliga asoslangan muloqot uslubini shakllantirish kerak. Shu bilan birga, talabada turli vaziyatlarda o'ziga ishonch bilan qarash tuyg'usini tarkib toptirish zarur. Agar, insonparvarlik – bu boshqalarga nisbatan munosabatni ifodalasa, subyektivlik esa o'z-o'ziga ishonch, o'z-o'ziga munosabatni anglatadi. Ya'ni, talabada real ma'nodagi «Men» hissini hosil bo'lishiga xizmat qiladi.

Shaxs motivatsion sohasi ham sanogen refleksiyaning rivojlantirishga ta'sir etuvchi subyektiv omillar sirasiga kiradi. Barchamizga ma'lumki, har qanday faoliyat muayyan motivlar ta'sirida vujudga keladi va yetarli shart-sharoitlar yaratilgandagina amalga oshadi.

“Motiv” (lotin. motive – harakatga keltiruvchi qiziqish, ehtiyoj) – ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab. “Motivatsiya” – bu insonni faoliyatga undashning murakkab, ko'p darajali tizimi bo'lib, u o'zida ehtiyojlar, qiziqishlarni, motivlarni, ideallarni, intilishlarni, ustanovkalarni, emotsiyalarni, normalarni, qadriyatlarni mujassamlashtiradi.

Bunda motivatsiya – motivlarning harakatlanish jarayoni, insonni asosiy faoliyatga undovchi motivlar yig'indisi hisoblanadi. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, shaxsda kechadigan barcha jarayonlar (fiziologik, ruhiy, kognitiv, emotsional va h.k.)da uning motivatsiya tizimi o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Shuningdek, shaxsning motivatsion sohasi unda shaxsiy pozitsiyalar, ya'ni “Men” obrazining shakllanishida ham dastlabki mezon hisoblanadi.

Sanogen refleksiyaning rivojlantirish ekzistensial yondashuvni talab qiladi va bu o'z-o'zidan shaxsda “Men” obrazining shakllanganlik darajasi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik kasb etadi. Ekzistensial yondashuvga ko'ra, bizda to'rtta asosiy shaxsiy pozitsiyalar mavjud:

- 1) Men “yomon”, Siz “yaxshi” (ruhiy tushkunlik);
- 2) Men “yomon”, Siz “yomon” (umidsizlik);
- 3) Men “yaxshi”, Siz “yomon” (ustunlik);
- 4) Men “yaxshi”, Siz “yaxshi” (muvaffaqiyat).

Demak, to'rtinchi pozitsiya bu mutlaqo sog'lom fikrlashga ega bo'lgan shaxs xususiyati hisoblanadi.

Aslida, ko'plab insonlarda sog'lom fikrlash qobiliyati mavjud bo'lsa-da, barqaror emas. Chunki ular tez-tez bir pozitsiyadan boshqasiga o'tib turishadi. Bunday tipdagi insonlarga mustaqillikka va emotsional barqarorlikka ega bo'lmagan shaxslar mansubdir. Shunday qilib, ekzistensial soha insonning jismoniy va ruhiy holatini boshqarish hamda ularni kerakli darajada ushlab turish qobiliyati bo'lib, his-tuyg'ular va fikrlar, so'zlar va harakatlarning uyg'unligi bilan tavsiflanadi.

**Xulosa va amaliy takliflar.** Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarida sanogen refleksiyaning rivojlantirish zaruriyati sog'lom fikr yuritish, fikrlashning patogenligini kamaytirish, o'z-o'zini rivojlantirishga nisbatan ehtiyojni hosil qilish va o'quv faoliyatini to'g'ri tashkil etilishini ta'minlash bilan izohlanadi. Mazkur holat esa quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratishni zaruriyat sifatida belgilaydi:

- birinchidan, shaxsni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash;
- ikkinchidan, shaxsda jamiyat hayotidagi muammolarga nisbatan faol nuqtayi nazarni shakllantirish;
- uchinchidan, bo'lajak mutaxassis sifatida ularda o'z bilimini oshirib borishi va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini rivojlantirish lozim. Bu esa ularning istiqbolda butun jamiyat salomatligini muhofaza qiluvchi ijtimoiy guruh sifatida talqin qilinishi uchun asos bo'ladi.

Sanogen refleksiyaning rivojlantirishga ta'sir etuvchi psixologik omillar tahlilidan kelib chiqqan holda mazkur jarayonni quyidagi mezonlar asosida amalga oshirilishi ijobiy natijalarga erishishni ta'minlaydi: 1) motivatsion mezon; 2) kognitiv-refleksiv mezon; 3) hissiy-emotsional mezon; 4) regulativ mezon.

**Motivatsion mezon** – yangi faoliyat ko'nikmalarini o'zlashtirishga nisbatan shaxsiy ehtiyojning mavjudligi hamda muvaffaqiyatga erishish uchun qiziqish darajasining yuqoriligi bilan belgilanadi.

**Kognitiv-refleksiv mezon** – shaxsning muayyan faoliyat mazmunini tushunishi va u haqida yetarlicha bilimlarga ega bo'lishi, tasavvur erkinligi hamda o'zlashtirilgan faoliyat ko'nikmalari va kechinmalarini aks ettirish qobiliyati bilan izohlanadi. Bunda shaxs bo'lib o'tgan jarayonlarni kuzatish va tahlil qilish

<sup>1</sup> Sternberg R.J., Sternberg K. Cognitive psychology. Boston, MA, Cengage Learning, 2016, p. 244.

lish orqali hodisalar mazmunini anglaydi, o'rganadi, taqqoslaydi. Bu esa fikrlash ob'yektini boshqa ob'yektga osongina yo'naltirishi va tafakkurning moslashuvchanligida namoyon bo'ladi.

**Hissiy-emotsional mezon** – ijobiy hissiy tajribalarning o'zlashtirilganligi, psixologik farovonlikning yuqori darajasi, atrof-muhit stimullariga nisbatan pozitiv emotsional reaksiyaning namoyon bo'lishi, hayot sifatidan qoniqishning yuqori darajasi, o'z-o'zini anglashdan qoniqish.

**Regulativ mezon** – ixtiyoriy o'zini o'zi boshqarishning yuqori darajasi, xulq-atvor stereotiplari va me'yorlaridan chetga chiqish, salbiy hislarga qarshi turish va atrof-muhitdagi o'zgarishlarga munosib javob berish qobiliyati bilan izohlanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, insonning tafakkuri qanchalik sog'lom bo'lsa, uning ruhiyati, jismi, ma'naviyati shunchalik sog'lom ezgulikka yo'nalgan bo'ladi. Insonning fikrlash tarzi qancha sof, erkin bo'lsa, u shuncha sog'lom fikrlaydi. Shu jihatdan olganda, talaba yoshlarda sanogen refleksiyaning shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Musayeva Dilrabo Muxammadjon qizi (Andijon davlat Pedagogika instituti  
"Jismoniy madaniyat" kafedrasida stajor o'qituvchisi)  
KASB-HUNAR MAKTABLARIDA OMMAVIY JISMONIY TARBIYA VA SPORT  
TADBIRLARINI TASHKIL QILISH MASALASI**

***Annotatsiya.** Jismoniy tarbiya va sport kasb-hunar maktabi o'quvchilarining har tomonlama rivojlantirishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Ushbu maqolada kasb-hunar ta'limi muassasalarida ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etishning ahamiyati, usullari, natijalari yoritilgan va ularning ta'siri to'g'risida muhokamalar yoritilgan. Maqolada bunday tashabbuslarni takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflar ham berilgan.*

***Аннотация.** Физическая культура и спорт занимают решающее место в всестороннем развитии учащихся ПТУ. В данной статье освещаются значение, методы, результаты организации массовых физкультурно-спортивных мероприятий в профессиональных образовательных учреждениях и освещаются дискуссии об их влиянии. В статье также приводятся выводы и предложения по улучшению таких инициатив.*

***Annotation.** The Vocational School of physical education and sports occupies a decisive place in the comprehensive development of its students. This article covers the importance, methods, results of organizing mass physical education and sports events in vocational training institutions and covers discussions about their impact. The article also provides conclusions and suggestions for improving such initiatives.*

***Kalit so'zlar:** jismoniy tarbiya, sport tadbirlari, kasb-hunar maktablari, o'quvchilarning faolligi, salomatlik va bardamlik, jamoaviy ish, sinfdan tashqari mashg'ulotlar.*

***Ключевые слова:** физкультура, спортивные мероприятия, профессиональные училища, активность учащихся, здоровье и благополучие, командная работа, внеклассные занятия.*

***Key words:** physical education, sporting events, vocational schools, student activity, health and wellness, teamwork, extracurricular activities.*

**Kirish.** Jismoniy tarbiya va sport kasb-hunar ta'limi muassasalari talabalarni amaliy kasbga tayyorlaydigan muhim ta'lim tashkilotidir. Ilmiy va malaka oshirishga e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, jismoniy tarbiya va sportning ahamiyatini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Ushbu maqolaning maqsadi kasb-hunar ta'limi muassasalarida ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etishning ahamiyatini yoritishdan iborat. Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya tadbirlari o'quvchi va talabalarni jismoniy rivojlantirish, sog'lomlashtirish va hayot faoliyatiga tayyorlashdan iborat bo'ladi. Jismoniy tarbiyani tashkil etishda ta'lim muassasaning pedagogik jamoasi jismoniy tarbiya o'qituvchilari va sport murabbiylarining apamiyati katta [1].

Kasb-hunar ta'limi muassasalarida ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish o'quvchilar uchun umumiy ta'lim jarayonining qimmatli tomoniga aylanishi mumkin. Kasb-hunar ta'limi muassasalarida ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish ko'plab afzalliklarga ega. Ushbu tadbirlar sog'lom raqobat muhitini yaratib, yosh talabalarni mukammallikka intilishga undaydi. Shuningdek, ularning jismoniy fazilatlarini rivojlantiradi hamda hayotiy zarur ko'nikma va malakalarini shakllantiradi [2].

**Muhokama va natijalar.** Bunday tadbirlar o'quvchilar o'rtasida jismoniy chiniqishni, jamoada ishlashni va hamjihatlik hissinu uyg'otadi. Biroq bunday tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirishda bir qator fikrlar va muammolar paydo bo'ladi:

◆Infratuzilma va inshootlar: kasb-hunar maktabidagi mavjud sport inshootlarini baholang. O‘yin maydonchalari, kortlar va yopiq sport zallari kabi turli xil sport va jismoniy mashg‘ulotlar uchun mos sharoitlarni ta‘minlang.

◆Uskunalar va resurslar. Maktabda turli tadbirlar uchun zarur sport anjomlari va resurslari mavjudligini tekshiring. Mavjud narsalar ro‘yxatini tuzing. Nimani sotib olish yoki yaxshilash kerak?

◆Xavfsizlik choralari. Xavfsizlik birinchi o‘rinda turishi kerak. Xavfsizlik protokollarini ishlab chiqish va amalga oshirish va talabalar ulardan xabardor bo‘lishini ta‘minlash. Bunga birinchi yordam ko‘rsatishni o‘rgatish va tadbirlar paytida tibbiy xodimlar yoki jihozlarni qo‘llash kiradi.

◆Sport va mashg‘ulotlarni tanlash. Sport va jismoniy mashg‘ulotlarni tanlashda o‘quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olish. Turli xil variantlarni taklif qilish turli xil afzalliklar va mahorat darajalariga mos kelishi mumkin.

◆Rejalashtirish. O‘quv jadvali va boshqa maktab tadbirlari bilan ziddiyatlarning oldini olish uchun tadbirlarni diqqat bilan rejalashtiring. Ushbu tadbirlar maktab soatlarida yoki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘tkazilishini o‘ylab ko‘ring.

◆Jamoani shakllantirish. Sport musobaqalari va tadbirlarida ishtirok etish uchun jamoalar yoki guruhlarini tashkil qiling. Jamoangizda inkluzivlik va xilma-xillikni rag‘batlantiring.

◆Mashg‘ulot va murabbiylik. Zarur bo‘lganda, malakali trenerlar yoki instruktorlarni, ayniqsa, raqobatbardosh sport turlari uchun tashkil qiling. To‘g‘ri o‘qitish talabalarining ko‘nikmalarini va umumiy tajribasini oshirishi mumkin.

◆Rag‘batlantirish va ishtirok etish. Qiziqish va ishtirok etish uchun tadbirlarni rag‘batlantirish. Egallik hissini shakllantirish uchun talabalarni rejalashtirish va tashkil etishga jalb qilish.

◆Logistika va transport. Agar tadbirlar kampus tashqarisida o‘tkazilsa yoki transportni talab qilsa, muammosiz bajarilishini ta‘minlash uchun logistikani oldindan rejalashtiring.

◆Budjet. Uskunalar, o‘qitish, transport va boshqa zarur resurslar xarajatlarini hisobga olgan holda, ushbu tadbirlarni tashkil etish uchun byudjetni ishlab chiqish. Agar kerak bo‘lsa, moliyalashtirish yoki homiylikni qidiring.

◆Baholash va fikr-mulohazalar. Har bir tadbirdan so‘ng uning muvaffaqiyatini baholash va yaxshilash yo‘nalishlarini aniqlash uchun talabalar, professor-o‘qituvchilar va xodimlarning fikr-mulohazalarini to‘plang. Kelgusi voqealarni yaxshilash uchun ushbu fikr-mulohazadan foydalaning.

◆Jamoat ishtiroki. Ota-onalar, bitiruvchilar va mahalliy hamjamiyat a‘zolarini ushbu tadbirlarni qo‘llab-quvvatlash va qatnashishda ishtirok etishni rag‘batlantirish. Ularning mavjudligi umumiy tajribani oshirishi va jamiyat tuyg‘usini yaratishi mumkin.

◆Inkluzivlik va foydalanish imkoniyati. Faoliyatlar nogironligidan qat‘iy nazar, barcha talabalar uchun inkluziv va ochiq bo‘lishini ta‘minlang. Faoliyat va jihozlarni kerak bo‘lganda moslashtiring.

Uzoq muddatli rejalashtirish. Ushbu faoliyatning barqarorligini ko‘rib chiqing, ular savdo maktabining o‘quv rejasi va madaniyatiga qanday integratsiya qilinishini tavsiflovchi uzoq muddatli rejani ishlab chiqish orqali [3].

Umuman olganda, kasb-hunar ta‘limi muassasalarida ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish sog‘lom va faol o‘quvchilarni shakllantirishga, jamoaviy mehnat va sport mahoratini oshirishga xizmat qilishi, shuningdek, maktabda ijobiy muhit yaratishga xizmat qilishi mumkin. To‘g‘ri rejalashtirish va ushbu fikrlarga e‘tibor berish bunday tashabbuslarning muvaffaqiyatini ta‘minlashga yordam beradi.

**Xulosa.** Kasb-hunar ta‘limi muassasalarida ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat jismoniy salomatlikni yaxshilaydi, balki shaxsiy ko‘nikmalar va shaxslararo muloqotni rivojlantiradi. Bundan tashqari, bu sport sohasida potensial martaba uchun eshikni ochadi. Kasb-hunar ta‘limi muassasalari o‘quvchilarning ahvolini yaxshilashga qaratilgan bunday tashabbuslarga ustuvor ahamiyat berishlari kerak [4].

◆Sport tadbirlarini ommalashtirish uchun mahalliy sport tashkilotlari bilan hamkorlik qilish.

◆O‘quvchilarning o‘sish sur‘atlarini kuzatish uchun muntazam ravishda salomatlik va jismoniy tayyorgarlikni baholashni o‘tkazish.

◆Turli sport va jismoniy faoliyatni taklif qilish orqali inkluzivlikni rag‘batlantirish.

◆Ota-onalarning ishtirokini rag‘batlantirish va talabalarining sport ishlarini qo‘llab-quvvatlash.

◆Talabalarning fikr-mulohazalari asosida sport dasturlarini doimiy ravishda baholash va takomillashtirish.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'tkazilayotgan ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlari o'quvchilar hayotiga keng ta'sir ko'rsatib, ularning har tomonlama o'sishi va rivojlanishiga xizmat qiladi [5]. Taklif etilgan strategiyalarni hayotga tatbiq etish va jismoniy tarbiyaga sodiqlikni saqlab qolish orqali kasb-hunar maktablari o'quvchilarining ham kasbga, ham sog'lom, faol hayot tarziga puxta tayyorlanishini ta'minlashi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Спортни яна-да оммалаштириш, маҳоратли мураббий ва спортчиларни тайёрлаш масалалари муҳокама қилинди. «Халқ сўзи», 01.11.2017.
2. А.Мавлянов., Ш.Жавлонов., С.Абдалова., Л.Юсупова. Педагогик технология тамойиллари асосида дарс машғулотларини олиб бориш технологияси. Т., “Ворис”, 2010, 112-бет.
3. Lухманов D.B. The use of national traditions in the labor education of pupils. Academia, 2020. Volume 10, Issue 10, pp. 300 – 305
4. Yakubova M.Y. Ta'lim-tarbiya jarayonida kreativ yondashuvning dolzarbligi va uning ahamiyati. “Халқ таълими”, 2020, 3-son, 84 – 88-betlar.
5. J.A.Khamidov. About Some Forms Methods of Labor Education of Younger School Children. International Journal of Research, pp. 375 – 378.

**Xalmuratova Shaxnoza Bekmurzaevna (Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti; [Sahnoza623@gmail.com](mailto:Sahnoza623@gmail.com))**

### **FAOLIYATLI YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS ASOSLARI**

***Аннотация.** Ushbu maqolada faoliyatli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashning va rivojlantirishning ba'zi jihatlari yoritib berilgan. Shu bilan bir qatorda, talabalarning kognitiv, kommunikativ, akmeologik, estetik, ijtimoiy va ma'naviy faoliyat turlari asosida kasbiy tayyorlashning nazariy asoslari haqida ham fikr yuritilgan.*

***Аннотация.** В данной статье освещены некоторые аспекты профессиональной подготовки и развития будущих учителей на основе деятельностного подхода. Кроме того, обсуждались теоретические основы профессиональной подготовки, основанной на познавательной, коммуникативной, акмеологической, эстетической, социальной и духовной деятельности студентов.*

***Annotation.** This article highlights some aspects of the professional training and development of future teachers based on an active approach. In addition, the theoretical foundations of professional training based on cognitive, communicative, acmeological, aesthetic, social and spiritual activities of students were discussed.*

***Kalit so'zlar:** faoliyat, faoliyatli yondashuv, bo'lajak o'qituvchi, kasbiy tayyorgarlik, faoliyat asosidagi ta'lim, kognitiv faoliyat, kommunikativ faoliyat, shaxsiy rivojlanish, kasbiy rivojlanish.*

***Ключевые слова:** деятельность, деятельностный подход, будущий педагог, профессиональная подготовка, деятельностное обучение, когнитивная деятельность, коммуникативная деятельность, личностное развитие, профессиональное развитие.*

***Key words:** activity, active approach, future teacher, professional training, activity-based education, cognitive activity, communicative activity, personal development, professional development.*

Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yo'nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda [1].

Jamiyatni insonparvarlashtirish talablariga muvofiq, yetuk kadrlar tayyorlash tizimiga zamonaviy yondashuvlarning ishlab chiqilishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoniga [2] binoan, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish jarayonini bosqichma-bosqich tatbiq etish bilan bog'liq chora-tadbirlarda belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi mazkur yo'nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi.

Oliy ta'lim tizimida faoliyatli yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning sifatli va mustaqil ta'lim olishida, nazariy va amaliy ko'nikmalarni chuqur egallashida, kompetentli pedagog sifatida shakllanishida, shaxsiy va kasbiy rivojlanishida integratsiyalashgan, markazlashtiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Shu

bilan bir qatorda, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda faoliyatli yondashuv samaradorligi ta'lim oluvchilarning faol bilishini, o'quv ko'nikmalarining maqsadli shakllanishini, kelajakdagi kasbiy faoliyatini rejalashtirish, uni amalga oshirish, bu yo'lda o'z-o'zini nazorat qilish, natijalarini tahlil qilish va baholashni ta'minlaydi.

Faoliyat – bu atrofda olamga munosabatning o'ziga xos insoniy shakli bo'lib, uning davomida subyekt obyektga maqsadli ta'sir qiladi, uning har qanday ehtiyojlarini qondiradi, maqsadga erishadi [3]. Faoliyat maqsad, vosita, natija va jarayonning o'zini-o'z ichiga oladi. Faoliyat qadriyatga yo'naltirilgan bo'lib, uning natijasida insonning dunyoqarashi shakllanadi.

Pedagogik ensiklopediyada “faoliyat” (arab. – harakatchanlik, samaradorlik) so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan: 1) biror sohada amalga oshiriladigan ish, mashg'ulot, harakat; 2) ish, harakatni amalga oshirish jarayoni.

Faoliyat kishilarning tashqi olamga faol munosabati shakli, insonning o'zini o'zi maqsadga muvofiq tarzda o'zgartirish usuli, inson borlig'ining muhim xususiyatlaridan biri. Faoliyat asosida inson mohiyati namoyon bo'lishi, jamiyatning mavjudligi ta'minlanadi. Inson va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, faoliyat turli shakllarda amalga oshiriladi: moddiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy faoliyat [5].

S.L.Rubinshteyn o'zining “Принцип творческой самодеятельности” nomli maqolasida ong va faoliyatning birligi tamoyilini shakllantiradi, unga ko'ra, shaxs va uning ongining rivojlanishi amaliy faoliyatda namoyon bo'ladi [6]. Olim tomonidan ishlab chiqilgan ushbu tamoyil, keyinchalik, faoliyatli yondashuvning asosiga aylanadi.

A.N.Leontev psixologiya sohasidagi faoliyatning psixologik nazariyasini ishlab chiqadi. Uning fikricha, faoliyat shaxsiy asos bo'lib, u bilim va ko'nikmalar bilan birga amalga oshiriladi, shuningdek, faoliyat orqali insonning shaxsiyati va individualligi namoyon bo'ladi.

Faoliyatli yondashuv – bu insonning ongini, umuman, shaxsiyatini shakllantirishga qaratilgan faoliyat jarayoni. Faoliyatli yondashuv talaba shaxsining ijtimoiy, ta'limiy va amaliy faoliyati davomida aqil, ma'naviy va jismoniy ehtiyojlarini qondirishga, o'z-o'zini anglashga qaratilgan hodisa hisoblanadi.

Faoliyatli yondashuvga asoslangan kasbiy tayyorgarlik dinamikasi talabaning faolligi bilan o'lchanadi. Faoliyat talabaga kasbiy tayyorgarlik dinamikasini tahlil qilish, shaxsiy va hayotiy qarama-qarshiliklarni mustaqil hal qilish imkonini beradi. Ularning fazilatlarini tashqi ta'sirlar bo'lgan atrof-muhit, mafkura va ta'lim muassasasi talablariga mos ravishda shakllanadi. Bundan tashqari, ushbu yondashuv talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyatining amaliyotga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi [4].

Shaxsni kasbga yo'naltirishda oliy ta'lim tizimidagi faoliyatli yondashuvning ahamiyati katta. Faoliyatli yondashuv ta'lim jarayonining mazmuni, asosiy tarkibiy qismi va tuzilishining o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydigan muhim uslubiy yondashuv bo'lib xizmat qiladi.

Oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning kompetensiyalarini qo'llay olish ko'nikmasini rivojlantirishni nazarda tutgan o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish nazariyasi V.A.Slastenin, I.F.Isayevlar tomonidan ishlab chiqilgan. Agar faoliyatli yondashuvni bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligining uslubiy asosi deb hisoblaydigan bo'lsak, u ta'lim jarayonining butun tizimini, ya'ni, o'quv faoliyatini, kasbiy tayyorgarlik ishlarini va darsdan tashqari ishlarni tashkil etish birligini belgilab berishi kerak. Agar talabalarni kasbiy tayyorlashda faoliyatli yondashuvga asoslanib ish tutilsa, ularning mustaqil ishlash ko'nikmasi, faolligi, harakatchanligi va raqobatbardoshligi sezilarli darajada rivojlanadi.

Pedagogikada faoliyatli yondashuv shaxs va faoliyat birligining fundamental pozitsiyasi kontekstida ko'rib chiqildi. Faoliyat esa inson hayotining asosiy shakli bo'lib, o'z-o'zini anglashi, faol shaxs sifatida o'zini namoyon qilishi sifatida tahlil qilindi.

Faoliyatli yondashuvning nazariy-metodologik asoslari psixolog olimlar A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn va L.S.Vigotskiylar tomonidan ishlab chiqilgan. Keyinchalik, faoliyatli yondashuv V.V.Davidov, D.B.Elkonin, P.Y.Galperin, A.K.Markova, N.F.Talizina, L.V.Zankov singari tadqiqotchilar tomonidan ta'komillashtirilgan.

Amerikalik olim D.Dyui o'zining “faoliyat asosidagi ta'lim” konsepsiyasining asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni belgilab beradi:

- ◆ ta'lim oluvchilarning qiziqishlarini hisobga olish;
- ◆ fikrlash va amalda qo'llash orqali ta'lim olish;
- ◆ bilim orqali barcha qiyinchiliklarni yengish mumkin;
- ◆ mustaqil ijodiy ish va hamkorlik.

Pedagogik-psixologik manbalarni tahlil qilish natijasida, faoliyatli yondashuv nuqtayi nazaridan talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning quyidagi afzalliklarini aniqlashtirdik:



1. Ta'lim-tarbiya jarayonida faoliyatli yondashuvni qo'llash natijasida talabalar aqliy, psixologik, shaxsiy imkoniyatlarining butun tizimiga qaratilgan jamiyatning faol subyekti sifatida namoyon bo'ladi.

2. Talabaning kasbiy tayyorgarligi kognitiv, akmeologik, kommunikativ, estetik, ma'naviy, ijtimoiy faoliyat turlari asosida shakllanadi. Bu esa talabaning ehtiyojlarini, maqsadlarini belgilab beruvchi muhitni har tamonlama o'zgartirish jarayonini belgilaydi.

3. Talabaning ijtimoiy rivojlanishi o'zini anglash, o'z faoliyat natijalari uchun javobgarlik, subyektiv xususiyatlarini shakllantiradi.

4. Bo'lajak o'qituvchi o'z kasbiy faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan muammoni hal qilishning eng to'g'ri yo'lini innovatsion bilim va ko'nikmalari asosida mustaqil ravishda tanlay oladi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, zamonaviy pedagogik oliy ta'lim muassasalarida talabalarining shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishida faoliyatli yondashuvning ahamiyati katta. Faoliyatli yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion bilimlarni, umuminsoniy madaniyatni optimal egallashni, bilim va ijodkorligini rivojlantirishni belgilab beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

Hozirgi sharoitda pedagogik ta'sirlar tizimida insonning jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligi va uning faoliyatini, shuningdek, ularni nazorat qilish va yaxshilash vositalarini aks ettiruvchi masalalar muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Ushbu muammolarning echimi F.A.Kerimov, R.D.Xalmutdov, A.N.Abdiyev kabi olimlar ilmiy ishlarida o'z aksini topgan [2].

Tadqiqotning dolzarbligi, muhimligi shu bilan asoslanganki, hozirgi davolash-profilaktika choratadbirlarining past samaradorligi, talabalar kasallanishining keskin o'sishi, ularning jismoniy tayyorgarligi darajasining pasayishi talaba yoshlar sog'lig'i ustidan nazorat va profilaktikani kuchaytirishning yangi texnologiyalari ishlab chiqilishini talab etadi. Talabalarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi monitoringi samarali regional tizimining ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish vaqti keldi. Ilmiy adabiyotlarda bizni qiziqtirayotgan masala bo'yicha kerakli ma'lumotlar yetarli emasligi mazkur muammoni tadqiq etishga undadi. Ushbu ishimizning mazmuni va yo'nalishi uning nomlanishini belgilab berdi.

Oliy o'quv yurtlari turli fakultetlari talaba-qizlarining jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi monitoring tadqiqotlari mazmunini metodologik jihatdan asoslashdan iborat bo'lib, talaba-qizlarning jismoniy holatini monitoring qilish ma'lumotlarini tahlil va talqin qilish asosida jismoniy tarbiya jarayonini boshqarish modelining ilgari noma'lum bo'lgan pedagogik texnologiyasi taklif etildi.

A.N.Normurodov fikricha, jismoniy rivojlanishni "jismoniy holat" sifatida belgilash aniqroq bo'lardi, chunki "rivojlanish" so'zi kuzatiladigan o'lchamlarning dinamikasi, harakatlanishi, o'zgarishini nazarda tutadi, biroq hech bir vaziyatda, jismoniy rivojlanishni baholashda amalga oshirilganidek, o'lchash paytida ularning holatini nazarda tutmaydi.

Jismoniy rivojlanish alomatlari irsiy xususiyatlar ta'siri ostida hamda ijtimoiy va demografik sharoitlarning murakkab majmuyi ta'siri ostida o'zgaradi [3].

Talaba-qizlarning jismoniy rivojlanishini baholash uchun, odatda, uchta ko'rsatkich guruhidan foydalaniladi: 1) somatometrik ko'rsatkichlar – tana bo'yi va vazni, ko'krak qafasi aylanasi, tananing alohida bo'g'inlari chiziqli o'lchamlari; 2) somatoskopik ko'rsatkichlar – ko'krak qafasi shakli, yelka, oyoq,

gavda, mushaklar relyefi va tarangligi, yog‘ to‘planishi, teri tarangligi, shilliq pardalar rangi, jinsiy balog‘at alomatlari; 3) fiziometrik ko‘rsatkichlar – dinamometrik ko‘rsatkichlar. Barcha ko‘rsatkichlar turli yosh, jins, millat, turli harakatlanish oriyentatsiyasiga ega shaxslar katta kontingenti antropometrik o‘lchovlarini statistik ishlash natijasida olingan tegishli o‘lchamlar bilan solishtiriladi.

Sh.Sobitov fikricha, tana bo‘yi – jismoniy rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi. Bu o‘zi-ga xos o‘shish jarayoni indikator bo‘lib, u tana vaznini va ko‘krak qafasi aylanasini baholash uchun zarur bo‘lib, ko‘krak qafasi va o‘pkaning hayotiy sig‘imi ekskursiyasi bilan bir qatorda skelet va nafas olish organlari holatini tavsiflaydi [4].

Talabalarning jismoniy sog‘lig‘i, bolalar, o‘smirlar va yoshlarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini monitoring qilish tizimini amalga oshirish bo‘yicha metodik tavsiyalarga muvofiq o‘tkazildi. Unda antropometriya umumiy qoidalari va asosiy tamoyillariga muvofiq, tana vaznini aniqlash, tana uzunligi va ko‘krak qafasi aylanasini o‘lchash nazarda tutildi.

O‘lchash jarayonida quyidagi asboblardan foydalanildi:

– tik turgan holatda tana uzunligini o‘lchash uchun antropometr (vertikal shkala), o‘lchash aniqligi – 0,1 sm.gacha. Bo‘y o‘lchashda tekshiruvdan o‘tkazilayotgan bo‘y o‘lchagichning vertikal ustuniga uchta nuqtasi: tovoni, dumbasi va kuragini tekkizgan holatda orqasi bilan turadi;

– tana vaznini o‘lchash uchun tibbiy tarozilar, o‘lchash aniqligi – 50 g.gacha;

– ko‘krak qafasi aylanasini o‘lchash uchun santimetrli lenta (nafas olmay turgan, maksimal nafas chiqargan holatda).

Tekshiruvdan o‘tkazilayotgan qo‘llari ikki tomonga uzatilgan holatda turadi, santimetrli lenta to‘g‘ri holatda turganligi tekshirilgandan so‘ng u qo‘llarini tushiradi. Santimetrli lenta orqa tomondan kurakning quyi burchaklari ostiga, old tomondan – ko‘krak bezi ustiga qo‘yiladi.

Tadqiqotimizda qo‘shimcha o‘lchovlar o‘ng va chap panjaning panja dinamometriyasidan iborat bo‘ldi. O‘tkazilgan o‘lchovlarda panja dinamometriyasi 100 g.gacha aniqlikka ega panja kuch o‘lchagich signallarini qayd etuvchi kompyuter stabilografiyasi usuli yordamida amalga oshirildi.

Jismoniy tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish ko‘p jihatdan shug‘ullanuvchilarning jismoniy sog‘lig‘i va jismoniy rivojlanishi holati ustidan o‘z vaqtida va to‘g‘ri nazorat amalga oshirilishiga bog‘liq bo‘ladi.

Biz tomonimizdan O‘zbekiston aholi jismoniy sog‘lig‘i, bolalar, o‘smirlar va yoshlarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini monitoring qilish tizimiga kiritilgan, aniqlik va ishonchlilik talablariga javob beradigan test mashqlaridan foydalanildi. Bundan tashqari, test mashqlari quyidagi umumiy qoidalarga javob beradi:

– amalga oshiriladigan harakat tana vazniga va oyoq-qo‘llarga bog‘liq bo‘lmasligi kerak;

– amalga oshiriladigan harakat tana vazniga va uning mushak massasiga bog‘liq bo‘lmasligi kerak;

– test o‘tkazish shartlari barcha tekshiruvdan o‘tkazilayotganlar uchun bir xil bo‘lishi kerak;

– nazorat mashqlari sinovdan o‘tkazilayotganlar uchun o‘lchash va baholash oddiyligi, sinov natijalari ko‘rgazmaligi bilan ajralib turishi kerak.

1–2-kurs talaba-qizlarining jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun biz tomonimizdan quyidagi testlar “me‘yorlar”dan foydalanildi:

1. 30 m.ga yugurish.

2. 1000 m.ga yugurish.

3. O‘rtacha 30 soniya mobaynida gavdani ko‘tarish.

4. Turgan joyidan uzunlikka sakrash.

Nazorat sinovlari aholi jismoniy sog‘lig‘i, bolalar, o‘smirlar va yoshlarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini monitoring qilish tizimi test mashqlarini bajarishga talablariga muvofiq mashg‘ulotlar boshida, kunning birinchi yarmida barcha talaba qizlar uchun bir xil sharoitlarda o‘tkazildi.

Jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etish talaba-qizlarning individual morfologik xususiyatlari, harakatlanish imkoniyatlari va sog‘lig‘i har tomonlama tahlil etilishi ta‘minlangan holatdagina maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Sinovdan o‘tkazilayotganlarning jismoniy holatini majmuyi baholash uchun monitoring kompyuter dasturi talabalardan ham jismoniy rivojlanish, ham jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari ko‘p o‘lchovli tizimdan (takrorlanishlar miqdori, metrlar, soniyalar, kilogrammlar) bir o‘lchovli tizimga o‘tkazilishiga asoslangan integral baholanishini tavsiya etadi.

Bu tadqiqot natijalarini talqin etish imkonini beradi. 2018-yil sentabrda, SamDUning turli fakultetlarida tahsil olayotgan 2-kurs talaba qizlarining jismoniy rivojlanish darajasi ko'rsatkichlarini ko'rib chiqamiz.

Pedagogika fakultetlari, o'zbek filologiyasi va amaliy matematika fakultetlari talaba-qizlarining tik turgan holatda tana uzunligi, tana massasi (vazni), ko'krak qafasi aylanasi va panja dinamometriyasi kabi o'tkazilgan antropometrik o'lchovlar natijasida quyidagilar aniqlandi.

Ikkinchi kurs boshida (2017–2018-o'quv yili) tadqiqotning ikkinchi bosqichi rejasiga muvofiq, yuqorida qayd etilgan fakultetlar talaba qizlari birinchi kursdagi kabi tekshiruvdan o'tkazildi. Jadval ma'lumotlaridan shunday xulosa qilish mumkinki, matematika fakultetining ta'tildan qaytgan talaba qizlarida panja dinamometriyasi ko'rsatkichlarida yaxshilanish mavjud bo'lib, bo'y va vaznda biroz o'sish yuz berdi. Bu o'quv yili boshida jismoniy rivojlanish integral bahosining oldingi 3,0 ballga teng ko'rsatkichini saqlab qolish imkonini berdi.

Pedagogika fakulteti talaba-qizlari ham individual ko'rsatkichlarda bo'y borasida kichik tuzatishga ega, biroq ularda jismoniy rivojlanishning boshqa ko'rsatkichlarida – vaznda, ko'krak qafasi aylanasi hamda o'ng va chap qo'l panja dinamometriyasi ko'rsatkichlarida biroz pasayish yo'nalishi kuzatiladi. Shunga qaramay, ushbu ko'rsatkichlar mazkur yoshdagi qizlarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlariga muvofiq keladi. Ular jismoniy rivojlanish darajasining integral bahosi 0,1 ballga oshdi va 2,6 ballni tashkil etdi.

O'zbek filologiyasi fakulteti talaba-qizlarida ham jismoniy rivojlanishning tana vazni, o'ng va chap qo'l panja dinamometriyasi kabi ko'rsatkichlari yuqorilashish tomonga biroz o'zgarishi yuz beradi, biroq ko'krak qafasi aylanasi ko'rsatkichi kamaygan. Jismoniy rivojlanish darajasi ko'rsatkichlarining integral bahosi oldingidek saqlanib qolgan – 2,6 ball.

Amaliy matematika fakulteti talaba qizlarida yozgi ta'til davri mobaynida bo'y va tana vazni ko'rsatkichlarida biroz o'sish yuz beradi. Ko'krak qafasi aylanasi kattalashgan, biroq panja dinamometriyasi o'rtacha ko'rsatkichlari oldingidek miqdorda saqlanib qolgan. Integral baho ko'rsatkichi – oldingidek doirada (3,0 ball).

O'quv yili oxirida, may oyida yuqorida qayd etilgan fakultetlar 2-kurs talaba qizlarining jismoniy rivojlanishi takroriy tekshiruvi o'tkaziladi. Pedagogika fakulteti talaba qizlarida bo'y ko'rsatkichlari miqdori yuqorilashish tomonga biroz o'zgarishlari yuz beradi. Qolgan ko'rsatkichlar esa o'quv yili boshlanishidagi ko'rsatkichlarga nisbatan kamroq miqdorlarga ega. Jismoniy rivojlanish darajasi integral bahosida o'zgarishlar yo'q, u oldingidek saqlanib qolgan – 2,6 ball.

O'quv yili mobaynida o'zbek filologiyasi fakulteti talaba-qizlarida tana vazni kamaygan. Bo'y, ko'krak qafasi aylanasi hamda o'ng va chap qo'l panja dinamometriyasi ko'rsatkichlarida biroz o'sish yuz beradi. Tekshiruvdan o'tkazilayotganlar jismoniy rivojlanish darajasi integral bahosi oldingidek saqlanib qolgan – 2,6 ball.

Amaliy matematika fakulteti talaba-qizlari o'quv yili boshidagi bo'y va chap qo'l panja dinamometriyasi bo'yicha mavjud ko'rsatkichlarini oshirganlar. Qizlarda tana vazni, ko'krak qafasi aylanasi miqdori kamaygan va o'ng qo'l panja dinamometriyasi ko'rsatkichi oldingidek miqdorda saqlanib qolgan. Jismoniy rivojlanish darajasi integral bahosi ko'rsatkichi – oldingidek doirada – 3,0 ball. Shunday qilib, ushbu ma'lumotlar tahlili natijasida tajribaga kiritilgan barcha fakultetlarda 2017–2018-o'quv yilida ikkinchi kurs talaba-qizlari jismoniy rivojlanishining dastlabki va yakuniy ko'rsatkichlaridagi farqlar aniqlandi.

Talaba-qizlarning jismoniy rivojlanish darajasi ko'rsatkichlari integral bahosi o'ziga xos ko'rsatkichlarda sezilarli o'zgarishlar yuz bermaganligi to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi. Ko'rsatkichlar miqdorlaridagi biroz farq barcha fakultetlarda natijalar ishlanganda ballarda o'zgarishlarni yuzaga keltirmaydi, ular oldingi doirada saqlanib qolgan. Shunday qilib, xulosa chiqarish mumkinki, ikkinchi kursda ham eksperimental fakultetlar talaba-qizlarining jismoniy rivojlanishi ko'rsatkichlari jiddiy o'zgarishlarga duch kelmagan, bu statistik ishonchli farqlar bilan tasdiqlanadi ( $r > 0,05$ ). Talaba-qizlarning jismoniy rivojlanish darajasi shaxs rivojlanishining yosh bilan bog'liq qonunlariga muvofiq yuz beradi. Tadqiqot davrida birinchi kurs talaba-qizlarining jismoniy rivojlanishi yakuniy ko'rsatkichlari ikkinchi kurs talaba-qizlarining xuddi shunday morfologik ko'rsatkichlari bilan solishtirilgan holda, matematika fakultetidan tashqari, barcha fakultetlar talaba-qizlarida aniqlangan chap qo'l panja dinamometriyasi ko'rsatkichlarida statistik ishonchli farqni qayd etish kerak ( $r < 0,05$ ). Ushbu ma'lumotlarga muvofiq, tajriba davri mobaynida yuz bergan talaba-qizlar bo'yi va tana vazni, ko'krak qafasi aylanasi ko'rsatkichlaridagi biroz o'zgarishlarda statistik ishonchli farqlar aniqlanmagan ( $r > 0,05$ ).

Tadqiqot natijalari bo'yicha talaba qizlarning morfologik ko'rsatkichlari shuni tasdiqladiki, qayd etilgan tajriba davri mobaynida olingan bo'y, tana vazni, ko'krak qafasi aylanasi va panja dinamometriyasi o'rtacha guruh ko'rsatkichlari sezilarli o'zgarmagan, yosh me'yorlari doirasida saqlanib qolgan va boshqa mualliflar tomonidan olingan natijalardan biroz farq qiladi.

Xulosa qilib aytganda talaba-qizlarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligi darajasi o'rtasida sabab-oqibat aloqalarini aniqlashga yordam berdi. Ikki yil mobaynida yig'ilgan antropometrik ko'rsatkichlar tahlili shuni tasdiqladiki, talaba-qizlarning jismoniy rivojlanishi darajasi sentyabr va mayda olingan ko'rsatkichlar o'rtasida jiddiy farqlarga ega emas va ular ishonchli emas ( $r > 0,05$ ). Qayd etuvchi tadqiqot o'tkazish davrida tana vazni, ko'krak qafasi aylanasi va panja dinamometriyasi o'rtacha guruh miqdorlari sezilarli o'zgarmagan va yosh me'yorlari doirasida saqlanib qolgan. Jismoniy rivojlanish darajasi ham o'rtacha chegara doirasida saqlanib qolgan.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari pedagogik nazorat talaba qizlarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligi darajasi o'rtasida sabab-oqibat aloqalarini aniqlashga yordam berdi. Hozirda mavjud jismoniy rivojlanish va tayyorgarlik monitoringi kompyuter dasturlari metodologik loyihalari yoshlar jismoniy rivojlanishining regional xususiyatlarini hisobga olmaydi. Samarqand qizlarining bo'y ko'rsatkichlari tadqiqotlarimizga muvofiq mamlakat bo'yicha o'rtacha statistik ma'lumotlardan biroz pastroq bo'lib, bu jismoniy tayyorgarlik indeksi ko'rsatkichlarida aks ettiriladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4749 sonli farmoni. Toshkent, 04.02.2017.
2. F.A.Kerimov. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. Toshkent, "Zar-qalam", 2004.
3. A.N.Normurodov. Jismoniy tarbiya. O'quv qo'llanma, Toshkent, 2011.
4. G.Azizov, Sh.Sobitov. Sport fiziologiyasi. Toshkent, 1993.

**Mambetkarimov Bayniyaz Meyrmanovich (Ajiniyoz nomidagi**

**Nukus davlat Pedagogika instituti assistent o'qituvchisi)**

### **OLIV TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIGA DASTURLASH TILLARINI O'RGATISHDA O'YIN TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonida o'yin texnologiyalari asosida talabalarning dasturlash tillarini o'rganishi haqida mu'lumot berilgan. Bunda o'yin turlari, shuningdek, ularning turli bosqichlarida foydalanishi ko'rsatilgan bo'lib, asosan, krossvord, dasturlash tillarini o'rgatish strukturasi, dasturlashni o'rgatish uchun o'yin klassifikatsiyasi va ushbu jarayonni yaxshilaydigan muhim omillardan biri informatika darsining turli jarayonlarida o'yin texnologiyalaridan foydalanish ko'rsatilgan.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о том, как студенты изучают языки программирования на основе игровых технологий во время обучения в высших учебных заведениях. Показаны виды игр, а также их использование на разных этапах, в основном кроссворды, структура обучения языкам программирования, классификация игр для обучения программированию, а одним из важных факторов, улучшающих этот процесс, является использование игровых технологий на разных этапах обучения во процессе занятий по информатике.

**Annotation.** This article provides information on how students learn programming languages based on gaming technologies while studying at higher educational institutions. The types of games are shown, as well as their use at different stages, mainly crossword puzzles, the structure of teaching programming languages, the classification of games for teaching programming, and one of the important factors that improve this process is the use of game technologies at different stages of learning. Informatics lesson processes.

**Kalit so'zlar:** o'qituvchi, talaba, o'yinlar, tuzilma, ta'lim, kompyuter, o'yin texnologiyasi, dasturlash, algoritim, dars.


**Ключевые слова:** преподаватель, студент, игры, структура, образование, компьютер, игровые технологии, программирование, алгоритм, занятие.

**Key words:** teacher, student, games, structure, education, computer, play technology, programming, computer, algorithm, lesson.

**Kirish.** Ko'pgina tajribali o'qituvchilar o'zlarining metodikasini o'rganishni taklif qilishadi, bu esa informatikani o'qitishning zamonaviy institutsional shablon usullariga o'xshamaydi. Ta'lim jarayonida

“Faqat yaxshi narsalarni o‘rgating” o‘yinida talabalar birinchi darsdanoq aniq maqsadlar va yaxshi misollar qo‘yishlari kerak. “Tilni emas, dasturlashni o‘rgating” o‘yinida esa talabalarga berilgan barcha ta’riflar muammoni hal qilish vositasi sifatida olingan. Bunda muammo shakllantirilib, uni “sinov qilish” imkoniyatidan foydalanadi va mavjud vositalar bilan hal qilishga harakat qilinadi va faqat ularning mulohazalarini o‘rganish uchun tanlangan dasturlash tilidagi sikl operatorining sintaksisiga aytiladi [6].


**Asosiy bo‘lim.** Talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini takamullashtirishda shuningdek, ularni kreativ fikrlashga, tafakkurini kengaytirish maqsadida dasturlash tillarini o‘rgatishni ikki qismga ajratsak bo‘ladi (1-rasm). Shu bilan birgalikda, 1-jadvalda ushbu jarayonni yaxshilaydigan muhim omillardan biri informatika darsining turli bosqichlarida o‘yin texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi.



**1-rasm. Dasturlash tillarini o‘rgatish strukturasi.**

**Kompyuterli dars** – kompyuter bilan ishlash talabalarning dastur bilan ishlashda ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

**Kompyutersiz dars** – kompyutersiz ishlash talabalarning mantiqiy va algoritmik tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan vazifalarni o‘z ichiga oladi. Oliy ta’lim tizimida talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichida sifat va samaradorligini oshirishga, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarning globallashgan davrida mazkur ta’lim tizimida pedagogik faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilarning ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda muayyan mavzularni o‘rganish jarayonida materialni yaxshiroq o‘zlashtirish yoki yanada mustahkamlash uchun amalda ma’lum turdagi o‘yinlardan foydalanish mumkin (2-rasm).



**2-rasm. Dasturlashni o‘rgatish uchun o‘yin klassifikatsiyasi.**

Dars davomida ochiq havoda o‘tkaziladigan o‘yinlar talabalarning aqliy faoliyatini jismoniy faoliyatga o‘tkazishga yordam beradi, bu esa, o‘z navbatida, talabaning soatdan keyingi idrokiga ijobiy javob beradi, ya’ni, u nafaqat stolda yoki kompyuterda o‘tirdi, balki ba’zi jismoniy harakatlarni ham bajardi. Dasturlashni o‘rganishda mobil o‘yinlarga “Algoritmik tuzilmani qurish”, “Masivlarni saralash”, “Kim tezroq” kabilar kiradi. “Algoritmik tuzilmani qurish” o‘yini talabalarni har qanday algoritmik tuzilmalarni (chiziqli, shartli, tsikllik) tez va to‘g‘ri qurishga o‘rgatishdir. Guruh uchta jamoaga bo‘linadi (masalan, qatorlarda), har bir qator qurilish joyiga boradi va o‘qituvchining buyrug‘i bilan tuzilish va sharoitga qarab quriladi. Eng tez va to‘g‘ri bajargan jamoa g‘olib deb hisoblanadi, boshqasidan tezroq uddalagan, lekin tarkibda xatolarga yo‘l qo‘yilgan jamoa mag‘lub hisoblanadi. Shunday qilib, ushbu o‘yinda tuzilishga muvofiq qurilishning sadoqati asosiy omil hisoblanadi [1].

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarga dasturlash tillarini o'rgatishda "Massivlarni saralash" o'yini "Ko'pikli saralash massivi" mavzusini o'zlashtirishdan iborat. Bunda turli xil balandlikdagi, kiyimlarning ranglari va boshqa bir nechta talabalar chaqiriladi va ularning maqsadi pufakchali turdagi ishlarni vizual tarzda tasvirlashdir. Ko'tariluvchi pufakchali tartiblashda kichikroq qiymatga ega bo'lgan elementlar asta-sekin massiv boshiga "suziladi", og'irroqlari esa birin-ketin massiv oxirigacha tushadi. Ushbu o'yinda o'quv materialini vizual tushuntirishga qaratilgan bo'lib, g'oliblar va mag'lublar aniqlanmaydi. Talabalarga dasturlash tillarini o'rgatishda "Kim tezroq" o'yinini tashkil etatigan bo'lsak, bunda 3 ta jamoa qatnashadi. Dasturlash blokini takrorlash jarayonida qatordan bitta ishtirokchi va 3 ta talaba doskaga chaqiriladi. Har bir qadam uchun ular ma'lumotlar turlarini nomlashlari kerak bo'ladi. Bunda 3 soniya ichida oldingi javob beruvchidan keyin ma'lumotlar turini nomlamagan ishtirokchi yutqazadi.

Dasturlash tillarini o'rgatishda "Code.org", "Scratch" kompyuter o'yinlarini qo'llash, ularning batafsil tavsifini quyida topishingiz mumkin (2-jadval). Interfaol o'yinlariga "So'z o'yini", "Dargoh", "Viktorina" kabi o'yinlar kiradi. Ularni interfaol deb atash mumkin, chunki ularni amalga oshirish jarayonida talabalar bir-biri bilan faol munosabatda bo'lishadi va berilgan mavzu bo'yicha ma'lum bir savolni hal qilishadi. "So'z o'yini"ning mohiyati dasturlash bilan bog'liq joydan 1 talabadan boshlanib, oxirgi talabaga qadar bo'lgan iboralarni talaffuz qilishdan iborat. Bu o'yinda ham g'oliblar va mag'lublar yo'q, chunki u materialni takrorlash va mustahkamlashga qaratilgan.

Dars davomida "Dargoh" o'yini materialni yoki mininazoratni mustahkamlash uchun o'tkaziladi. Xulosa shuki, uy egasi (talaba yoki o'qituvchi) savol beradi, uning javobi bir yoki ikki so'z bilan shifrlangan. Talabalar navbatma-navbat harfni shu so'zga chaqirishadi, agar harf mos kelmasa, sardor "daryo" ning davomini chizadi.

Talabalarining faolligini yaxshiroq faollashtirish uchun o'yinni mobil o'yinga aylantirish mumkin. Misol uchun, noto'g'ri taxmin qilingan xat uchun o'g'il bolalar push-up qiladilar, qizlar cho'kadi. Agar so'z "Dargoh" o'yini tugaguniga qadar taxmin qilingan bo'lsa, o'yin g'alaba qozongan hisoblanadi, agar "dar" oldinroq qur'a tashlangan bo'lsa, mag'lubiyatga uchradi. So'zni taxmin qilgan talaba yetakchiga aylanadi [4]. Talabalar dam olishlari va e'tiborlarini yangi narsaga o'tkazishlari uchun viktorina dars oxirida tez-tez o'tkaziladi. Viktorinaning maqsadi – ma'lum bir mavzu bo'yicha bilimlarni tekshirish. U guruh shaklida amalga oshiriladi, ya'ni, talabalar guruhlarga birlashadilar va muammolarni birgalikda hal qilishadi. Eng ko'p savolga javob beradigan guruh g'alaba qozonadi.

"Kartalar": talabalarining vazifasi ta'rif kartasini uning konsepsiyasi bilan bog'lashdir. Ushbu o'yinni interfaol doskada amalga oshirish mumkin. Dasturlash bo'limidagi ta'riflar bilan 8 ta karta va bu ta'riflar tushunchalari bilan 8 ta kartochka berilgan. Talaba doskaga chiqadi, ta'rifi bo'lgan kartani bosadi (ular bosishdan oldin talaba uchun yopiladi) va ikkinchi marta bosish bilan tushunchani ko'rsatadi. Agar to'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa, ekran yashil rangda, noto'g'ri bo'lsa, qizil rangda miltillaydi [9].

"Quyosh": ma'lumotlar turi markazda ko'rsatilgan, masalan, haqiqiy mantiqiy. Nurlar ushbu ma'lumotlar turlarining cheklovlarini ko'rsatadi. Nurni quyoshga to'g'ri bog'lash kerak. Vazifa barcha nurlarni ma'lum vaqt davomida quyoshga to'g'ri tortib olishdir [2].

"Jumboqni yig'ing": talabalarga chiziqlar bo'ylab tarqalgan ma'lum bir dastur uchun kod beriladi. Talabalarining vazifasi dasturning ishlashi uchun dastur satrlarini to'g'ri tartibda joylashtirishdir. Dastur ishga tushguncha bajariladi va qanchalik ko'p dastur tugallangan bo'lsa, ball shunchalik yuqori bo'ladi.

*1-jadval*

**O'yinlar va ularning dars bosqichlarida qo'llanilishi**

Dars bosqishi	O'yin	O'yin holati	Natija
Tashkiliy, motivatsion	"Bastakor hazili"	So'zlarni yozayotganda ijrochi unilarni emas, balki barcha undoshlarni kiritgan. Noma'lum harflarni toping.	Talabalar dars mavzusini mustaqil talaffuz qiladilar; keyingi ish uchun motivatsiya.
	"Rebusni toping"	Shifrlangan so'zni, dars mavzusini rasmlarda ochish kerak.	
Bilimlarni yangilash	"Kartalar"	Talabalarining vazifasi ta'riflar kartasini uning konsepsiyasi bilan bog'lashdir.	O'rganilayotgan obyektning tasviri, o'qituvchi barcha talabalar bajara-digan vazifalarni hakl-
	"Kim tezkor"	3 talaba chaqiriladi, har bir qadam uchun ular ma'lumotlar turlarini nomlashlari kerak. 3 soniya ichida ma'lumotlar turini nomlamagan kishi yo'qotadi.	



	“Xatoni toping”	O‘qituvchi ma’lum bir mavzu bo‘yicha noto‘g‘ri ma’lumotlarga ega bo‘lgan iboralarni o‘qiydi. Matnda xatolik yuz berganda, jetonni ko‘tarish kerak.	lantiradi.
Yangi materialni o‘rganish	“Oddiy algoritmik tuzilmani yaratish”	U har qanday algoritmik konstruksiyada o‘quvchilarni tez va to‘g‘ri qurishdan iborat.	O‘rganilayotgan hodisalarning asosiy xususiyatlari va natijalari talabalarning o‘zlari tomonidan tushunchaning ta’rifini, jadval, diagramma, modelni shakllantirish orqali ifodalanishi mumkin.
	“Masivni saralash”	O‘shish tartibida kichikroq qiymatga ega bo‘lgan elementlar asta-sekin massivning boshiga ko‘tariladi va og‘irroq bo‘lganlar birin-ketin massiv oxiriga tushadi.	
	“Savol javob”	Ishtirokchilar matnni tez va diqqat bilan o‘qiydilar. Keyin chap jamoa savollar beradi va o‘ng jamoa javob beradi va aksincha.	
Yangi materialni o‘rganish	“Nomlar”	Tartibda talabalar berilgan paragrafga eng mos keladigan nomdi aytadilar. Har bir keyingi ishtirokchi oldingi ishtirokchilar aytgan obyektga xabar qiladi va o‘zini qo‘shadi.	
Bilimlarni mustahkamlash	“Jumboqni yig‘ing”	Talabalarga ma’lum bir dastur uchun chiziqlar bo‘ylab tarqalgan shakldagi kod beriladi. Talabalarning vazifasi dasturning ishlashi uchun dastur satrlarini to‘g‘ri tartibda joylashtirishdir.	Muayyan muammolarni hal qilish uchun olingan bilim va ko‘nikmalardan to‘g‘ri foydalanishni tushunish, vazifalarni bajarish uchun turli usullarni nazorat qilish va sozlash.
	«Scratch»	Aniq dastur kodini yaratishda uni vizual bajarish.	
	“Daraxtlar”	Uy egasi savol beradi, uning javobi bir yoki ikki so‘z bilan shifrlangan. Talabalar navbatma-navbat harfni shu so‘zga chaqirishadi, agar harf mos kelmasa, sardor “daryo”ning davomini chizadi.	
Dars xulosasi	“So‘z o‘yinlari”	Bu dasturlash bilan bog‘liq joydan 1 talabdan boshlanib, oxirigiga qadar iboralarni talaffuz qilishdan iborat	O‘tmishni tushunish, darsning butun jarayonini aks ettirish.
	“Mo‘jizalar maydoni”	Muayyan mavzu bo‘yicha bilimlarni tekshirishda. U guruh shaklida amalga oshiriladi, ya’ni talabalar guruhlarga birlashadilar va muammolarni birgalikda hal qilishadi.	
	“Krossvord”	Bu sizga o‘zingizni ifoda etish imkoniyatini beradi, berilgan savollarga mus-taqil ravishda javob topish imkonini beradi.	


“Mo‘jizalar maydoni” o‘yini (dars xulosasidan parcha). “Mo‘jizalar maydoni” o‘yinini o‘ynash uchun o‘quvchilar uchta guruhga birlashishi kerak bo‘ladi. Ularga bir so‘z bilan javob berish kerak bo‘lgan savollar beriladi va ularning birinchi harfi yashirin so‘zda bo‘lib, hammasi bo‘lib ikkita o‘ylab topilgan so‘z va bitta ibora (fransuz, alifbo, ma’lumotlar turi) bo‘ladi.

Fransuz tili – ABC Paskal dasturining ixtirochisi kim bo‘lar edi (ular o‘yin maydonini aylanib chiqadilar, manbadan kelib chiqadilar va dengizga quyiladilar, juda issiq kontinent, juda xavfli va hajmli hayvonlar, masxarabozlar u erda ishlaydi, bolalar bilan ishlashdan iborat kasb, qushlar nima yeydi?)

Alifbo – bu Paskal uchun qanday so‘zlar: harflar, raqamlar, tinish belgilari (qadimgi yunon faylasufi, Aflotun shogirdi, uni og‘ziga solsang, tortib ololmaysan, degan fikrlar bor, katta qalin barglari bo‘lgan xona o‘simligi, odamlarni davolovchi kasb, optik illuziya yoki sezgi, his-tuyg‘ular, yirtqich mushuk hayvon).

Ma'lumotlar turi – uni bir so'z bilan qanday chaqirish kerak (butun, haqiqiy, ramziy, string, mantiqiy). Urushlar sabablari o'rganiladigan mavzu, shaxsni tasdiqlovchi hujjat, juda katta uchuvchi vosita, mazali va qizil, u kosmosning hamma joyida, eng yaxshi guruh tabassumlari kabi, ular o'z mavzulariga bo'ysunishardi [7].

Krossvordlar informatika darslarida o'yin faoliyati turlaridan biri sifatida qo'llaniladi (2-rasm). Krossvord muhim xususiyatga ega. Bu sizga o'zingizni ifoda etish va berilgan savollarga mustaqil ravishda javob topish imkonini beradi [3]. Talabalar ixtiyoriy ravishda darsliklar, qo'shimcha o'quv qo'llanmalar va boshqa adabiyotlardan yordam so'ray boshlaydilar. O'rganilgan mavzu bo'yicha krossvordlar tuzish ham ijodiy uy vazifasi, ham kichik loyiha mavzusi bo'lishi mumkin. Dars rejasidan misol keltiramiz.




3-rasm. Krossvord.

**Horizontal:** 2. Har doim dastur oxirida yoziladigan so'z. 7. Siz dasturlashayotgan dasturning nomi. 8. O'zgaruvchilarni e'lon qilish bo'limini boshlaydigan zahiralangan so'z. 9. Operator bo'limi boshlanuvchi so'z. 10. Matnni (xabarni) ekranga qanday buyruq yordamida chiqarish mumkin. 11. Bo'linishning qolgan qismini hisoblaydigan amal.

**Vertikal:** 1. Kasr o'zgaruvchilari qaysi so'z bilan ifodalanadi. 3. Butun sonni bo'lish natijasini chiqaradigan amal. 4. Dastur sarlavhasida yoziladigan zahiralangan so'z. 5. Kirish operatori. 6. Butun son tipidagi o'zgaruvchilar qaysi so'z bilan tavsiflanadi.

Ta'lim jarayonida o'yin faoliyatining yana bir qiziqarli turi – boshqotirmalar hisoblanadi. Boshqotirmalarning o'ziga xosligi shundaki, ular bilan ishlashning rasmiylashtirilgan qoidalariga qaramay, ular har qanday sinflar va parallellarda qo'llanilishi mumkin. Bu boshqotirmalarga kiritilgan obyektlarning namoyishi ko'rinishi bilan osonlashtirilib, fazoviy vakillik va fikrlashni qiziqarli tarzda shakllantirish imkoniyati hisoblanadi [5]. Boshqotirmalarning o'ziga xosligi shundaki, ular bilan ishlashning rasmiylashtirilgan qoidalariga qaramay, ular har qanday sinf va parallellarda qo'llanilishi mumkin, bu jumboqlarga kiritilgan obyektlarning namoyishi ko'rinishi bilan osonlashtiriladi, fazoviy vakillik va fikrlashni qiziqarli tarzda shakllantirish imkoniyati dars rejasidan keltirilgan misolda nazorat ostidagi talabalar Paskal haqida yangi narsalarni o'rganishlari kerak bo'ladi. Rebusni hal qilib, ular dars mavzusi bo'yicha ma'lumotga ega boladilar (4-rasm).








4-rasm. Mavzuni aniqlash uchun rebus.

Ma'lum qilinishicha, dars mavzusi, ma'lumotlarni chiqarish va kiritishni tashkil etish to'g'ri belgilangan bo'lib, dars yoki darsning bir qismi musobaqa shaklida tuzilishi muhim. Har bir talabaning g'alaba qozonish istagi bor va buning uchun ular yaxshi bilimga ega bo'lishi zarur. Dasturlash kabi juda murakkab mavzuni o'rganayotganda talabalarga yuqoridagi o'yinlar ko'rinishidagi vazifalarni taklif qilish maqsadga muvofiq bo'lib, ular alohida talabalar tomonidan, juftlikda yoki jamoalarda bajarilishi mumkin [8]. Konfutsiy "Ustoz va shogird birga o'sadi" deb taqidlaganidek, darslarning o'yin shakllari talabalar va o'qituvchilarning faollik darajasini oshirishga imkon beradi. 6-jadvalda rus tilidagi bepul brauzer o'yinlari mavjud bo'lib, ular algoritmlarni tuzish, hatto kod yozishni o'rgatadi. Faqat o'ynash orqali dasturchi bo'lish qiyin, lekin boshida ijobiy zaryad olishingiz mumkin, asosiy algoritmik tuzilmalar va dasturlash mantig'ini o'rganishingiz, amaliy muammolarni hal qilishda harakatlarni rejalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishingiz mumkin.

2-jadval

Dasturlashni o'rganish uchun kompyuter o'yinlari

O'yin nomi	O'yin tafsifi	O'yin skrinshoti
Code.org	Resurs barcha yoshdagi foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan. Mashg'ulotlar eng asosiy narsalardan – sichqonchani ishlatishni o'rganishdan boshlanadi. Bunda bloklardan tashkil topgan scratchga o'xshash til ishlatiladi. O'yin davomida talaba dasturlash asoslarini tushunadi, algoritm qanday qilib JavaScript – kodiga aylanishini o'rganadi va o'z kompyuter o'yinini yaratadi.	
Scratch	Scratch – bu MITda o'rganish uchun ishlab chiqilgan maxsus vizual dasturlash tili. Scratchni o'rganish o'ynoqi tarzda amalga oshiriladi. Scratch mantiqiy va tanqidiy fikrlashni, tasavvurni rivojlantiradi, talabalar turli muammolarni hal qilishni o'rganadilar, o'zlarini ifoda etish va ijodkorlik uchun yangi imkoniyatlarga ega bo'lishadi.	
Scratch	Talabaning kelajakda dasturchi bo'lishi shart emas. Biroq, dasturlashning elementar asoslarini o'rganish ularning yanada faol rivojlanishiga yordam beradi.	
Kolobot	Kolobot 2001-yilda Epsitec tomonidan ishlab chiqilgan 3D strategiya o'yinidir. O'yin talaba dasturlash ko'nikmalarini o'ynoqi tarzda o'rgatish uchun mo'ljallangan bo'lib, o'yin jarayoni robotlar uchun dasturlar yaratishdir. O'yinning o'ziga xos xususiyati o'yinda robotlar harakat qiladigan dasturlarni yaratish qobiliyatidir, shuning uchun o'yin dasturlashni o'rganishga hissa qo'shadi deb ishoniladi. O'yiniga o'rnatilgan dasturlash tili C++ yoki Javaga o'xshaydi, lekin dastur hajmi bo'yicha cheklov mavjud – 20 000 belgidan oshmasligi kerak. Har bir missiya nima qilish kerakligini tushuntirish bilan keng ko'lamli yordam bilan birga keladi. Bundan tashqari, ko'pincha, cheat varag'i mavjud – bu muammoni hal qilishingiz mumkin bo'lgan tayyor dastur.	

Microsoft Imagine	Microsoft Imagine birinchi o'yin yoki ilovadan tortib, katta ma'lumotlardan foydalangan holda, bulutga asoslangan tadqiqot loyihalarigacha o'rganish va rivojlantirish vositalarini taklif etadi. Ilovalar qiyinchilik darajalariga ko'ra tasniflanadi. Ularning eng oddiyolari 9–10 yoshli bolalar uchun mavjud, murakkabroqlari esa o'rta maktab o'quvchilari va talabalar uchun mo'ljallangan. Brauzerda faqat ba'zi ilovalar mavjud, boshqalari bepul dasturiy ta'minot va Windows operatsion tizimini o'rnatishni talab qiladi.	
JavaRush	Java dasturlashni onlayn o'yin sifatida o'rganish JavaRush bo'yicha Java Core kursi qirq darajadan iborat. Birinchi 10 daraja hamma uchun mavjud, 11 va undan yuqori darajalar pullik obuna bilan mavjud. Har bir JavaRush darajasida 10–15 ta minima'ruza mavjud, shuning uchun 10 ta bepul daraja, taxminan, 140 ta ma'ruza va 230 ga yaqin vazifani tashkil qiladi.	

Shunday qilib, o'yin texnologiyalarini qo'llashda darsning turli bosqichlarida boshqa xarakterdagi o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ochiq o'yinlar talabalarga aqliy faoliyatdan jismoniy faoliyatga o'tishga, miya faoliyatini bo'shatishga imkon beradi. Interfaol o'yinlarni interfaol doskada o'tkazish mumkin, bunday o'yinlar, hatto fanga qiziqmaydigan talabalar ham faolligini faollashtiradi. Kompyuter o'yinlari esa talabalarga muntazam yozish va darsliklarni o'qish, oddiy ma'ruzalarni tinglashdan qochish imkonini beradi.

**Xulosa.** Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonida o'yin texnologiyalaridan foydalanib, talabalarining dasturlashni o'rganishi haqida mu'lumot berilgan bo'lishi, asosan, o'yin turlari, ularning turli bosqichlarida foydalanishi va natijalari shakllangan. Dars jarayonida o'yin shakllari talabalar va o'qituvchilarning faollik darajasini oshirishga imkon berishi ko'rsatilgan. Talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini takamullashtirishda shuningdek, ularni kreativ fikrlashga, tafakkurini kengaytirishda dasturlash tillarini o'rgatish ikki qismga ajratib ko'rsatilgan. Shu bilan birgalikda, ushbu jarayonni yaxshilaydigan muhim omillardan biri informatika darsining turli bosqichlarida o'yin texnologiyalaridan foydalanish keltirilgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K.K.Seytnazarov. K.I.Kalimbetov. The processes of organizing teaching students' algorithms and models academician. An international multidisciplinary research journal 11 (2), p. 527 – 533.
2. K.K.Seytnazarov. K.I.Kalimbetov. Информатика фанини ўқитишда самарали методларни танлаб олишда қарорлар қабул қилиш тизими. Academic research in educational sciences 2 (cspi conference 1), p. 755–759.
3. K.K.Seytnazarov. Development of decision-making algorithms based on irreversible mathematical calculations in the assessment of students' knowledge/nveo-natural volatiles & essential oils journal| nveo, p. 13717–13723.
4. K.K.Seytnazarov. K.I.Kalimbetov. Qat'iy mas'ul bo'lgan ma'lumotlarning ko'pligi sharoitida OTM talabalarining bilimini baholashda qarorlar qabul qilish. Komputer texnologiyalari, 1 (10).
5. K.K.Seytnazarov. K.I.Kalimbetov. Informatika fanini oqitishda samarali metodlarni tanlab olish va qarorlar qabul qilish dasturiy ta'minotini qayta ishlab chiqish. "Fizika, matematika va informatika", ilmiy-uslubiy jurnal, T., 88 – 98-betlar.
6. K.K.Seytnazarov. H.C.Мухиятдинов, М.М.Урынбаева. Искусственный интеллект и его применение в принятии решений: методы, алгоритмы и перспективы. Journal of Universal Science Research, 1 (6), p.72–79.
7. O.U.Avlayev, S.N.Jo'rayeva, S.P.Mirzayeva. Ta'lim metodlari. O'quv-uslubiy qo'llanma, T., 2017.
8. O'.Tolipov, D.Ro'ziyeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma, "Innovatsiya-Ziyo", Toshkent, 2019.
9. Ravshan Ishmuxamedov, Maqsudjon Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion-pedagogik texnologiyalar. T., «Adabiyot uchqunlari», 2017.

**Madaminov Uktam Ataxanovich (TATU Urganch filiali katta o'qituvchisi; uktam9527@gmail.com)**  
**OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA FANLARNI O'QITISH PEDAGOGIK MUAMMO**  
**SIFATIDA**

***Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolaning asosiy mazmuni oliy ta'lim muassasalarida fanlarni o'qitishda mavjud muammolar va ularning tahlili, muammolarni yechishga qaratilgan usul va vositalarning amaliyotga tatbiqi o'rganiladi. Fanlarni o'qitishda bugungi zamon talabiga va pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy dasturiy vositalar ishlab chiqish va o'quv jarayonini tashkil etishga doir samarali ishlar to'g'risida batafsil ma'lumotlar beriladi.*

***Аннотация.** Основным содержанием данной научной статьи является изучение существующих проблем в преподавании предметов в высших учебных заведениях и их анализ, а также практическое применение методов и средств, направленных на решение проблем. Дана подробная информация о разработке современных программных средств и организации учебного процесса с учетом современных требований и педагогических технологий в преподавании предметов.*

***Annotation.** The main content of this scientific article is the study of the existing problems in the teaching of subjects in higher education institutions and their analysis, as well as the practical application of methods and tools aimed at solving the problems. Detailed information is provided on effective work on the development of modern software tools and organization of the educational process based on today's demands and pedagogical technologies in the teaching of subjects.*

***Kalit so'zlar:** pedagogik, metodika, oliy ta'lim, texnologiya, loyiha, elektron darslik, sifat.*

***Ключевые слова:** педагогическое, методическое, высшее образование, технология, проект, электронный учебник, качество.*

***Key words:** pedagogical, methodological, higher education, technology, project, electronic textbook, quality.*

Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida o'quv-tarbiyaviy ishlar jarayonini samarali tashkil etish ta'lim samaradorligi omilidir. Mamlakatimiz ta'lim tizimida bugungi zamon talabiga va pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy dasturiy vositalar ishlab chiqish va o'quv jarayonini tashkil etishga doir samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa ham, web dasturlashga yo'naltirilgan fanlarni o'qitishning ilmiy asoslangan andoza va mobil ta'limga asoslangan dasturiy vositalari yetarli darajada emasligini ko'rishimiz mumkin.

Aksariyat manbalarda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish shakli, "pedagogik texnologiya" tushunchasi mazmuni atroflicha yoritilishiga qaramay, web dasturlashga kirish fanidan o'quv jarayoni metodik loyihalarini tuzish masalasi o'z yechimini topmagan. Shu bois uzluksiz ta'lim bosqichlari, xususan, oliy ta'lim tizimida web dasturlashga oid fanlari o'quv jarayoni samarasi dolzarb pedagogik muammo sifatida tadqiq etishga muhtojligini ta'kidlash o'rindidir [1].

Mamlakatimizda xorijiy ta'lim tajribalari asosida erishilgan ijobiy natijalarni umumlashtirish va rivojlantirish, innovatsion axborot-ta'lim muhitini shakllantirish, fanlarning axborot-metodik ta'minotini yaratish, interaktiv mobil ta'lim resurslaridan oliy ta'lim jarayonida foydalanish metodikalarini ishlab chiqish muhim vazifalardan hisoblanadi.

«Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash»[2] maqsadida belgilangan ustuvor yo'nalishlardan biri o'quv jarayoniga kompyuter va mobil texnologiyalaridan foydalanish tizimini maqsadli va unumli tashkil etishga alohida e'tibor berilgan. Bu esa faoliyatning barcha jabhalariga keng miqyosda kirib, sifatli va tezkor ish uslubini beribgina qolmay, yangi kasb sohalari paydo bo'lishida katta ahamiyat kasb etadi. Jumladan, turli xil yo'nalishdagi masalalarni hal qilish va jamiyatni raqamlashtirish uchun web ilovalarni ishlab chiquvchi dasturchilarni misol qilish mumkin. Yuqoridagi fikrlarning tasdig'i, jamiyatimizda aynan web dasturlash sohasidagi qilinayotgan amaliy loyihalar sifatida namoyon bo'lmoqda. Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalari (OTM)da o'qitilayotgan «Web dasturlashga kirish» fanining o'rni va ahamiyati, ijtimoiy hayotimizda zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishida hamda barcha soha mutaxassislarini o'z ish faoliyatlarini avtomatlashtirish imkoniyatlarining kengligida deb qarash mumkin. Shuning uchun ham, ayni paytda, Respublikamiz OTMlarda web dasturlash turli sohalariga bo'lib o'rganish, uning imkoniyatlaridan qator sohalarida foydalanishning metodik asoslarini yaratish, Front-end (web ilovalarning tashqi ko'rinishi, dizayn qismi), Back-end (web ilovalarning ichki tuzilishi, dasturlash, jarayonlarni boshqarish qismi) texno-

logiyalaridan samarali foydalanish hamda hayotimizga kirib kelayotgan yangi sohalar (web dizayner, web dasturchi, tizimlarni avtomatlashtirish, soha administratori va h.k.) kabi malakali mutaxassislar bilan ta'minlash masalasi OTMLarda web dasturlashni fan sifatida o'qitilishiga bo'lgan ehtiyojning oshishiga olib keldi [3]. Bugungi kunda OTMLarda «Web dasturlashga kirish, web ilovalar ishlab chiqish, web texnologiyalar, web dizayn» fanlarini o'qitishda talabalarni fanga nisbatan maqsadli harakatlarini shakllantirish va shu orqali biror-bir aniq natijaga erishish mumkinligini singdirishda, kerakli pedagogik va psixologik vositalarni amalda qo'llash va ularni ilmiy asoslash muhimdir.

Ma'lumki, OTMga kelgunga qadar talabalar «Web dasturlashga kirish» fani bo'yicha kerakli boshlang'ich bilim va tasavvurlarga ega bo'lsalar, ularning web ilovalar ishlab chiqishga doir fanlarida zarur bo'lgan ijodiy tasavvurlari, web dasturlash sohasida qo'llaniluvchi algoritmlarni tushuna olish xususiyatlari shakllanadi. Bu esa ushbu sohaga oid kurslarni mustaqil o'zlashtirishda interaktiv elektron ta'lim resurslaridan foydalanish maqsadga muvofiqligidan dalolat beradi. Shu o'rinda aytish joizki, qator tadqiqotchilarning bu boradagi ilmiy izlanishlari tufayli, amaliy tatbig'i ta'lim jarayoniga katta ijobiy samaradorlik bera oladigan ilmiy natijalarga erishayotganini ko'rishimiz mumkin [4].

Shu o'rinda interaktivlik so'ziga to'xtalib o'tsak. Interaktiv – biror inson yoki uskuna bilan faoliyat olib borishni bildiradi. Demak, interaktiv–o'zaro muloqot, suhbat, biror narsa bilan muloqot qilish (masalan, kompyuter bilan) yoki biror kishi bilan (shaxs).

Interaktiv ta'lim resursning asosiy xususiyati, nomidan ko'rinib turibdiki, interaktivlik, ya'ni, talaba resurs bilan faol aloqada bo'lishi, tegishli plotformalarda joylashtirilgan materialga savol bilan murojaat qilishi va uning murojaatiga yetarli javob olishi mumkin bo'lgan materialni dinamik (o'zgaruvchan) rejimda o'rganish qobiliyatidir.

Ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi davrida interaktiv mobil ta'lim resurslarini yaratish muammosi o'quv jarayoniga elektron ta'lim muhitini joriy etish nuqtai nazaridan asosiy muammolardan biriga aylandi. So'nggi paytlarda zamonaviy ta'lim tizimining ushbu infratuzilmasi gorizont va vertikal ta'lim portallarini yaratishning faol davri boshlanishi tufayli ushbu muammoning dolzarbligi keskin oshdi.

Interaktiv mobil ta'lim resursi tushunchasi elektron darsliklar, tegishli bilim sohasining alohida bo'limlari bo'yicha materiallar, vazifalarning elektron to'plamlari, uslubiy materiallar, elektron ta'lim texnologiyalari va boshqa materiallarni o'z ichiga oladi, ularning mazmuni va taqdimot shakli ularni o'quv jarayonida, shu jumladan, ochiq elektron ta'lim tizimlarida ishlatishga imkon beradi.

Oliy ta'lim muassasalarida web dasturlash kurslari talabalarga web dasturlashning yangi texnologiyalari (framework), STL (Standard template library) kutubxonalar va xavfsizlik masalalari uchun maxsus sinflardan foydalanish, ma'lumotlar bazasi iyerarxiyasini ishlab chiqish, shuningdek, amaliyotda qo'llash va integratsiya qilish va shu kabi boshqa zarur bilimlarni o'rgatadi. Bu bilimlarning yakuniy bosqichi sifatida yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan taklif qilinadigan kattaroq loyihani ishlab chiqish uchun asos yaratadi.

Dasturlash ko'nikmalarini shakllantirish oliy ta'lim muassasalarida istalgan IT yo'nalishi bakalavrlarini tayyorlash mazmunining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu bilan birga, oliy ta'limi tizimida bo'lajak dasturchini sifatli tayyorlash ilmiy hamjamiyatda tadqiqot mavzusi bo'lgan bir qator muammolar bilan bog'liq [5].

Bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayonini boshqarish oliy ta'lim muassasalari ta'lim tizimini rivojlantirishning muhim bo'g'inidir. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar web dasturlashning murakkab sohalardan biri ekanligini ko'rsatadi. Web dasturlash ko'p bosqichli mavhum professional tafakkurni shakllantirishni talab qiladi. Talabalarning web dasturlash mazmunini o'zlashtirishdagi faolligi ma'ruza, amaliyot mashg'ulotlarida kognitiv vazifalarni hal qilish shaklida yaratiladi. Shuning uchun web dasturlash bilan bog'liq fanlarni o'qitish sifatini oshirish uchun zaxiralarni izlash dolzarbdir. Oliy ta'lim muassasasining har bir talabasi didaktikaning quyidagi asosiy tamoyillariga amal qilishi lozim[6].

◆o'quv rejasida nazarda tutilgan obyekt va mavzuni tavsiflash, ochish va tizimli tahlil qilish tamoyillari;

◆o'zlashtirish shakllari va usullari, shu jumladan, o'quvchilarning bilish jarayonlari;

◆talaba faoliyati amalga oshiriladigan didaktik material va o'quv vazifalarini ishlab chiqish bosqichlari.

Talabalar o'quv faoliyatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan kognitiv jarayonlar uchun motivatsiyaning shakllanishiga bog'liq. Talabalarning o'quv faoliyatidagi motivatsiyasi "ehtiyoj" va "maqsad" tushunchalari bilan chambarchas bog'liqdir. O'qituvchi mehnat dasturi talablariga muvofiq amalga oshira-



digan dasturlashni o'rgatishning maqsad va vazifalari har doim ham bir xillikni tashkil etmaydi. Talabalarni kasbiy faoliyatga kiritishdan oldin ularni uzoq vaqt davomida kuzatib borish, nazorat qilish mumkin emas, shuning uchun o'qituvchining vazifasi talabalarning qo'shimcha elektron dasturiy vositalardan mustaqil o'rganishga bo'lgan ehtiyojini shakllantirish talab qilinadi.

Kasbiy ta'lim samaradorligini ta'minlashda bilimlarni o'zlashtirishning mantiqiy va psixologik mexanizmlari muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, agar o'qituvchi dastur kodini ma'lum tezlikda yozsa yoki terminal buyruqlari va ularning barchasini qisqa izohlar bilan birga olib borsa, talabalar didaktik materialni tushuna olmaydilar. Talaba dastur kodini o'zi yozishi kerak, bu ko'proq vaqt talab qilsa ham, terminal buyruqlarini ovoz chiqarib aytish orqali dastur matnini yozishga hamroh bo'lishi kerak. Shuningdek, web dasturlashni o'rgatishdagi kamchiliklardan biri talabalarni noma'lum vositalardan foydalanishga undaydi, masalan, vim muharriri yoki to'g'ridan to'g'ri kompilyator bilan ishlash va boshqalar. Shu va shu kabi holatlar talabalarga keraksiz kognitiv yukni keltirib chiqaradi. Keyingi bosqichda o'qituvchi talabalarga yanada kuchli va murakkab dasturlash vositalarini o'rgatishi mumkin bo'ladi. Web dasturlashni o'rganish bo'yicha fanlarning mazmuni davlat ta'lim standarti bilan belgilanadi, unda o'quv yuklamasi hajmi va mutaxassislar tayyorlashga qo'yiladigan talablar ko'rsatilgan.

Bugungi kun web dasturlash zamonaviy axborot texnologiyalari sohasining bir qismidir. O'quv materialining ko'rinish darajasini oshirish orqali ta'lim sifatini oshirish (xususan, web dasturlash va matematika) muammolarni hal qilishning tabiiy usuli hisoblanadi.

O'zbek xalqi til madaniyatining barcha subyektlari uchun "yaxshilik" tushunchasi oilaviy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq va kodlangan. Bosh harf bilan onaning tasviri – ONA yoki ota-onasini xursand qiladigan bola – ota-onani xushnud etayotgan bola yoki begunoh go'dak timsoli – begunoh go'dak; nabiralar va cheksiz sevadigan buvisi – do'stlari va oilasi bilan doimo saxovatli va so'zsiz sevadigan buvi; ba'zilar uchun bu shunchaki oila, boshqasi uchun bu oilaviy muhit, hamma baxtli va tabassum qiladigan oilaviy muhit, hamma yoq sarishta bo'lgan shinam oila va baxtiyor tabassum; yoki hatto faqat ota-onalar, quyidagi tasvir esa qiziqarli, chunki u uchlikdir: baxtli oila – mo'l-ko'l rizq – chiroyli suhbat

<sup>1</sup> شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع . با اهتمام دکتر محمد معین . تهران . امیر کبیر . ۱۳۸۶ . در جلد سوم . ص . ۱۶۴۸

<sup>2</sup> Петренко В. Ф. Психосемантика сознания. М., 1988, с. 12.

davrasi. Aytish mumkinki, ona qiyofasi o'zbeklar uchun o'zbek tilida so'zlashuvchilar ongida "yaxshilik" tushunchasini kodlaydigan tasvir sifatida juda muhimdir. Bu o'rinda izohni o'zbek madaniyati va oilaviy an'analarning kelib chiqishidan izlash kerak bo'ladi. O'zbek tili sohiblari – til subyektlari tasavvurida bu holat qator tuzilmalar, verbalizatorlar ko'rinishida namoyon bo'dadi: ona – u meni suyadi, o'pib-erkalaydi, doim menga yaxshilik tilaydi va meni juda yaxshi ko'radi, men uchun har narsaga tayyor zot, mehri daryo, sizni chin qalbdan, beminnat sevadigan yaqin odam, bu tasvir chaqaloq ko'targan ona timsolida ham namoyon bo'lishi mumkin, ba'zilar uchun onaning o'pishi har bir inson uchun "yaxshilik" (mehr) tushunchasini eslatib, o'zaro rishtalarni bog'laydigan his-tuyg'u sanaladi: ona – bolalar uchun qoniqish manbai; dunyodagi eng sevimli inson, ona – farishta misol. O'zbek madaniyatida "yaxshilik" tushunchasi ota-onalar va ota-onalarning xotiralari bilan bog'lanadi, avvallari buvilar va bobolar bolalar tungi uyquga yotishlaridan oldin ertaklar va ibratli voqealarni aytib berganlar, ya'ni, ertakchi buvi va bobo timsolida namoyon bo'lishgan.

O'zbek milliy dunyosida xarakterli belgilarga ega bo'lgan shaxs tasvirining tavsifi: mehribon, yoqimtoy, do'stona odam, baxtli, muloyim, mehribon odam, saxiy odam – ehson qiluvchi, ijobiy tuyg'uli yaxshi inson. Lisoniy madaniyatimizda yaxshilik timsoli boshqalarga g'amxo'rlik qiladigan odam bilan bog'liq – boshqalarga g'amxo'rlik qilish, hammani sevish, hammaga birdek g'amxo'rlik va e'tibor ko'rsatish, Allohga itoatli, uning amriga so'zsiz bo'ysunuvchi, e'tiqodli, mo'min-musulmon odam, taqvodor va imon-e'tiqodli kishi, mehribon va sabrli, yumshoq fe'lli odam, qalbi keng inson, qalbi pok inson, fi-doyi inson va h.k.

O'zbek tilida mehribonlik bir qator insonlar tasviri va qiyofasida namoyon bo'ladi, ya'ni, tabassum bilan ota-onasi va oilasi bilan vaqt o'tkazadigan odamlar, bu timsol shunchaki mehribon, jilmaygan yuz qiyofasida ham bo'lishi mumkin.

O'zbek milliy madaniyati sohiblari yaxshilikni insonning xulq-atvori, uning xatti-harakatlari, yaxshi ishlari bilan bog'laydi, ya'ni, kim yaxshi ish qiladi yoki boshqalarga yordam beradi, boshqalarga yordam beradigan odam yoki ikkalasi birgalikda – bir kishining ikkinchisi uchun qilgan yaxshi niyati, amali, beminnat harakati, yordami, hatto yaxshi so'zi ham (masalan, biror imuammoga duch kelgan odamga yordam berish). Hech bir savob talab qilmasdan beminnat ko'maklashish, biror savob ilinjida ham emas, shunchaki Alloh uchun biror yaxshilik qilish, yaxshi odamlar tomonidan qilingan har qanday ezgu ishlar; bu tasvirda yaxshi odamlar, yaxshi ishlar, umuman olganda, yaxshi narsalar, odamlar yoki harakatlar bir-lashtirilgan holda tasavvur qilinadi.

Yaxshi amallarni yaxshilik uchun harakatlar bilan bog'laydilar. Bu juda yaxshi, foydali, minnatdorchilikni keltirib chiqaradigan tuyg'u, boshqalarga ham g'amxo'rlik qilish, bu borada bor kuchini ayamalik va bular evaziga hech narsa talab qilmasdan, beg'araz yordam berishlik; boshqa birovga – har qanday biror odamga yaxshilik qilish, umuman, yoqimli ish qilish istagi.

Biz "yaxshilik" tushunchasini kodlovchi tasvirlarning keyingi guruhini "shaxsga oid tasvir" deb ataymiz. Bu tasvir mavhum bo'lib, bu odamlarning his-tuyg'ulari, ularning atrofdagi voqelikka bahosi, shaxsiy tajribalari, shuningdek, ranglar assotsiatsiyasidan iborat.

Birinchisi, bu oq va yorqin narsaning tasviri – oqlik va yorqinlik yoki faqat oppoq, boshqasi uchun u yorqin, rang-barang, chiroyli narsa – yorqinlik, rang-baranglik, go'zallik, uchinchisi, go'zal, mehribon, tasalli-yoqimli, mehribon, osoyishta, to'rtinchisi uchun – bu shunchaki go'zallik, beshinchisi uchun – bu yaxshilik timsoli – mehribonlik, bu inson qadrlaydigan va ma'qullaydigan har qanday narsa bo'lishi mumkin, bu shunchaki iliqlik va samimiyat va baxtiyorlik tuyg'usi; kimdir uchun esa "yaxshilik" tushunchasining tasviri katta harf bilan baxtli bo'lish – baxtiyorlik yoki shunchaki baxt, baxtiyorlik tuyg'usini beruvchi ochiq ranglar baxt tuyg'usini keltirib chiqaradi, ijobiy, foydali, yengil narsa (masalan, kaftdagi qor parchasi yoki ukpar) yoki shunchaki mehribon va xotirjam, sokin, chiroyli, yoqimli (hatto kuy, hatto havo ham bo'lishi mumkin) va g'amxo'r (ziyrak) – yoqimli, nimaiki yaxshi bo'lsa – barcha ijobiy, yaxshi narsalar; yaxshi – issiqqina yoki muzdekkina, xullas, rohatga sabab bo'luvchi har qanday narsa.

Yaxshilikni tuyg'ular ko'rinishida boy tuzilmalar bilan ham batafsilroq tasvirlash mumkin: sof, yorqin, iliq, quvonchli, baxtli, hurmat, sevgi va tabassum; quvonch, orombaxsh, mehrlil tuyg'u, sevgi, bolalar, hatto pul; hurmat va obro'-e'tibor, xarakter yoki g'oyalarning boshqalar tomonidan ma'qullanishi, pushaymonlik, oliyjanoblik, ichki xotirjamlik, muloyimlik, xushmuomalalik, o'zaro munosabatlardagi iliqlik; bir-birini tushunish, insonning xotirjamlik holati yoki mehr, sovg'a, muloyimlik, baxt, sog'lik, bolalar, kulgi, adolat, juda yorqin, yaxshi narsa; yorug'lik, tabassum, iliqlik, gullar; xotirjamlik, quvonch va xotirjamlikni ilhomlantiradigan kuch, yorug'lik ham yaxshilik tasvirini uyg'otadi, mayin va samimiy tabassum, nur, kulgi, e'tibor, g'amxo'rlik, mehr, noziklik, yaratish; foyda, jilmayuvchi, xotirjam, ko'zlari

katta ochilgan, quyoshli, issiq, shirin, yorqin, toza, yoqimli; issiq, yumshoq, iliq, samimiy; ijobiy, g'am-xo'r, diqqatli; muloyim, mehribon, suyukli, mehribon qalb, yaxshi do'st, yaxshi kayfiyat; shaffof, yorqin nur, yorug'lik, hurmat, samimiyylik, tabassum ham yaxshilik tasvirini yaratish mumkin.

“Yaxshilik” tushunchasi tasvirlarining keyingi guruhi – obyektiv dunyo, bizni o‘rab turgan voqelik, bizni o‘rab turgan tabiat tasvirlaridir. Bu tasvirlar sof individual, shaxsiy xarakterdagi eng hayratlanarli narsalardir: toza havo tasviri, toza suv, toza suv sahni, yaxshi kun cheksiz yashil o‘tloq, go‘zal manzara, quyosh nurlari, tinch maskan (suv, daraxtlar, tog‘lar), muloyim tabassum va do‘stona odamlar davrasi, hatto yaxshi parvarishlangan bog‘ ham “yaxshi” tushunchasini kodlaydigan tasvir bo‘lishi mumkin.

Serquyosh zaminda yashovchi, sal ko‘rmasa, quyoshni sog‘inadigan o‘zbek xalqi uchun quyosh konsept mazmunining muhim elementi bo‘lib, subyektlar uni o‘zgacha mehr bilan quyosh deb atashadi va shunga mos ravishda tasvir yaratadilar. Milliy tafakkurimizda yaxshilik quyosh bilan chambarchas bog‘liq, ya‘ni, quyosh nuri, issiqlik, yorug‘lik, hayot manbayi, non, to‘kin dasturxon, mo‘l-ko‘lchilik manbai, baxt, inson uchun berilgan yaxshiliklarning eng ulug‘i, hayot manbayi kabi. Bu borada o‘zbek tilida sohiblarining tasavvurlari yanada yorqin, boy va majoziy ekanligini ko‘rish mumkin, yorug‘lik, tabassum nuri, quyosh, bulut, qush, oq rang, yorug‘lik, issiqlik, moviy osmon, shovillagan terak va baqateraklar, tollar, quyosh – bu shamolsiz, bulutsiz quyoshli kun, quyosh – bu cheksizlik, dengiz, oila; pag‘a-pag‘a bulut (pushti yoki shaftoli guli rangida), yengil bulut, quyosh – bu tinchlik, tabiat, yurishni o‘rgangan bola; quyosh – bu yorug‘lik va issiqlik, quyosh – bu yer, quyosh – bu ochiq osmon, quyosh – bu bulutli moviy osmon, quyosh – bu katta, mehribon, yorqin, iliq, quvonch keltiradi, quyoshli kun, tabassum, mayin quyosh nurlari, quyosh – bu musaffo osmon, gullar ochiladi, kapalaklar uchadi, asalarilar guldin gulga uchadi, yurak tabassum qiladi, g‘o‘za barglarida tonggi shudring quyosh nurlarida yaltiraydi. Biz ushbu obrazlar guruhini tashkil etgan tasavvurlarni “hayot quvonchlari” deb atadik, chunki kimdir uchun hayot quvonchi va hayotdan zavqlanish, umuman, yorqin hayot yaxshilik timsoli sanaladi. Bu o‘rinda quyoshdagi yorqinlik bu kabi tasavvurlarning shakllanishiga asos bo‘ladi.

Oiladagi uyg‘unlik, totuvlik, samimiyat, mehr, bir-birini ayash, o‘zaro tushunish, farovonlik ham yaxshilik sifatida o‘zbek lisoniy madaniyatida o‘z aksini topadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Петренко В.Ф. Психосемантика сознания. М., 1988, с. 12.
2. Umarova N.R., & Yigitaliyeva S.I. (2021). Concept as a basic unit of cognitive linguistics. Theoretical & applied science. Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (9), p. 701 – 704.
3. Rustamovna U.N., & Shohsanam Y. (2022). The realization of the concept of goodness in English and Uzbek proverbs. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(7), p. 148 – 152.
4. Yigitaliyeva S. (2023). Kognitiv tilshunoslik va unda konsept tushunchasining ifodalanish. Scienceweb academic papers collection.

#### Otaqulov Nodirjon Baxromaliyevich (O‘ZMU)

### FRANSUZ TILI LEKSIKASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Maqolada zamonaviy fransuz tili leksikasining o‘ziga xos xususiyati struktur jihatdan ikkita har xil, ya‘ni, ommaviy so‘zlar hamda kitobiy so‘zlar guruhida kelishi haqida tilshunoslar fikri o‘rganilgan. Shu bilan birga, so‘zlarning o‘zaro qo‘shilishi va leksikalizatsiya, qo‘shma so‘zlarni hosil qilishning bir necha xilma-xil tiplarda bo‘lishi misollar orqali aniqlangan.

**Аннотация.** В статье изложены мнения учёных о структурных особенностях французского языка, о происхождении разных лексических пластов: книжной и разговорной лексики. Приводятся примеры лексикализации и проникновения слов одного пласта в другой, показаны различные способы образования сложных слов и их типы.

**Annotation.** The article examines the opinion of linguists about the peculiarity of the lexicon of the modern French language that it comes in two structurally different groups, that is, public words and bookish words. At the same time, several different types of combining words and lexicalization, forming compound words, have been determined through examples.

**Kalit so‘zlar:** leksika, ommaviy so‘zlar, kitobiy so‘zlar, leksikalizatsiya, tub so‘zlar, qo‘shma so‘zlar.

**Ключевые слова:** лексика, популярные слова, книжные слова, лексикализация, корневые слова, сложные слова.

**Key words:** lexicon, public words, bookish words, lexicalization, root words, compound words.

Hozirgi fransuz tilining lugʻat tarkibi bir xil emas. Boshqa koʻplab tillarga oʻxshab fransuz tili oʻzining ilmiy-texnik terminologiyasini yaratish uchun lotin va yunon tillarining leksikasidan foydalandi va foydalanishda davom etmoqda. Biroq hozirgi fransuz tili shunisi bilan ajralib turadiki, ilgari bu lotincha oʻzlashtirmalarning “kitobiy” yoki “ilmiy” (*mots savants*) deb ataluvchilarining koʻpchiligi endi “chet elliklar” boʻlishlarini bas qildi hamda endi tub soʻzlarga (*mots du fonds primitif, héréditaire*) oʻxshab, xuddi shunday fransuzcha soʻzlar hisoblanadi.

Hozirgi fransuz tili leksikasining oʻziga xos xususiyati, struktur jihatdan ikkita har xil soʻzlar guruhining mavjudligidir:

- 1) ommaviy soʻzlar (*mots populaires*): *œil, mère*;
- 2) kitobiy (ilmiy) soʻzlar – *mots savants: oculaire, maternel*.<sup>1</sup>

“Ilmiy” termini shartlidir, chunki u ularning stilistik tus berilganligidan, u yoki boshqa uslubda qoʻllanilishidan qatʼiy nazar, soʻzlarning maʼlum guruhini xarakterlaydi. Kitobiy soʻzlar xilma-xil uslublarda, shu jumladan, soʻzlashuv uslubida ham qoʻllaniladi.<sup>2</sup>

Tub soʻzlar (*mots du fonds primitif, héréditaire*) deb oddiy xalq lotin tilidan meros qilib olingan va latinizmlardan farqli ravishda, fransuz tilining butun tarixi mobaynida fonetik oʻzgarishlarni boshdan kechirgan soʻzlar ataladi. Ommaviy soʻzlar (*mots populaires*) deb (ularning kelib chiqishlaridan qatʼiy nazar), tub soʻzlar bilan bir xildagi strukturaga ega boʻlgan hozirgi fransuz tilining barcha soʻzlarini hisoblash mumkin.<sup>3</sup>

Latinizmlar deb fransuz tilining tarkibiga XII asrdan boshlab kitobiy-yozma yoʻl bilan kirgan hamda tub soʻzlar kabi oʻsha fonetik oʻzgarishlarni boshidan kechirmagan lotin tilidan kelib chiqqan soʻzlarga aytiladi. Oʻsha vaqtdan beri lotincha soʻzlarning fransuz tiliga suqilib kirishi toʻxtamadi, u bugungi kuni-mizda ham davom etmoqda, biroq kitobiy soʻzlarning struktur shakllanishi, asosan, XVI asrda tugagan.

Kitobiy soʻzlar (*mots savants*) – bular latinizmlar bilan bir xil strukturaga ega boʻlgan soʻzlar, odatda, bular latinizmlar va ularning hosilalaridir. Shunday qilib, tub soʻzlar va latinizmlar – fransuz tili tarixiga tegishli boʻlgan soʻzlar. Ommaviy soʻzlar va kitobiy soʻzlar hozirgi fransuz tilining leksikasini xarakterlaydi.

Kitobiy soʻzlar (va latinizm) koʻproq “lotincha” shaklga egadir. Qiyoslang:

Lotincha:	Fransuzcha:
<i>mobilem</i> harakatchan;	– <i>meuble</i> mebel (tub ommaviy);
oʻzgaruvchan.	– <i>mobile</i> harakatchan (latinizm, kitobiy).

Bitta lotincha soʻzdan kelib chiquvchi (*meuble* va *mobile* kabi) soʻzlar (tub soʻzlar va latinizmlar), etimologik dubletlar deb ataladi.

Kitobiy soʻzlar ommaviy soʻzlardan, hatto tashqi jihatdan ham aniq farq qiladi (fonetik jihatdan va orfografik jihatdan). Kitobiy soʻzlar: *sc* [sk], *st* [st], *sp* [sp], *x* [ks], *ct* [kt], *ps* [ps], *pt* [pt] undoshlar guruhlariga, shuningdek, *u* harfiga va *th* hamda *ph* harf birikmalariga ega boʻladilar. *Ph*, *th* harf birikmalari, *u* harfi hamda *ps* [ps], *x* [ks] undoshlar guruhlariga yunon tilidan kelib chiqqan soʻzlarda uchraydi.

Ommaviy soʻzlar bunday undoshlar guruhlariga ega boʻlmaydi. Qiyoslang: *école* (ommaviy) – *scolaire* (kitobiy).

Ommaviy soʻzlarning koʻpchiligi qisqa, koʻpincha, bir boʻgʻinlidir, ularning orasida omonimlar koʻp:

[*fwa*]: *foi* ishonch, eʼtiqod – *fois* marta – *foie* jigar;  
 [*vě*]: *vain* befoyda, behuda – *vin* vino – *vingt* yigirma – (*il*) *vint* (u) keldi.

Kitobiy soʻzlarning ommaviy soʻzlardan boshqa farqlari ham mavjud. Masalan, kitobiy soʻzlar uchun bogʻlangan asoslar (*réel – réalité*) va oʻzaklar (*location – locatai-re*) xarakterlidir. Kitobiy hamda ommaviy soʻzlardagi baʼzi bir, hatto muntazam boʻlmagan (nomuntazam) fonetik va orfografik muvofiqliklarni koʻrsatib oʻtishga harakat qilamiz.

Kitobiy hamda ommaviy soʻzlardagi fonetik va orfografik muvofiqliklar.

#### Unlilar

Ommaviy soʻzlar	Kitobiy soʻzlar
<i>l. e, è, ai</i> [ɛ]	<i>a</i> [a]
<i>mer</i>	<i>maritime</i>

<sup>1</sup> Pluridictionnaire Larousse. Paris, Larousse, 2002, 705 p.

<sup>2</sup> Лопатникова Н.Н., Мовшович Н.А. Лексикология французского языка. М., “Русский язык”, 1982, 107 с.

<sup>3</sup> Timeskova I.N., Tarkhova N.A. Essai de la lexicologie du francais moderne. Leningrad, 1974, 74 p.

<i>mère</i> <i>père</i> <i>chaire</i> <i>paix</i> 2. <b>oi</b> [wa] <i>foi</i> <i>loi</i> <i>doit</i> <i>froid</i> kam uchraydigan: 2. <b>oi</b> [wa] <i>voix</i> <i>croix</i> 3. <b>ou</b> [u] <i>double</i> <i>sourd</i> <i>coupable</i> <i>bouche</i> 4. <b>eu, œu</b> [œ] <i>fleur</i> <i>heure</i> <i>seul</i> <i>cœur</i> 5. <b>ou</b> [u] <i>roue</i> <i>douer</i> <i>louer</i> 6. <b>e</b> [e] <i>mettre</i> <i>permettre</i> <i>letter</i> 7. <b>aim, ain, in, ein</b> [ɛ̃] <i>faim</i> <i>vain</i> <i>fin</i>	<i>maternel</i> <i>paternal</i> <i>cathédrale</i> <i>pacifique</i> <b>e, i</b> + undosh <i>fidèle</i> <i>legal</i> <i>digitale</i> <i>frigide</i>  <b>o, u</b> [y] + undosh <i>vocal</i> <i>crucal</i> <b>u</b> [y] <i>duplicité</i> <i>surdité</i> <i>culpabilité</i> <i>buccal</i> <b>o</b> [ɔ, o] <i>floral</i> <i>horaire</i> <i>solitude</i> <i>cordiale</i> <b>o</b> [ɔ] + <b>yhdouu</b> <i>rotation</i> <i>doter</i> <i>locataire</i> <b>i</b> [i] <i>mission</i> <i>permission</i> <i>littéraire</i> <b>a, i + m, n</b> sof unli + <b>m, n</b> <i>famine</i> <i>vanité</i> <i>final</i>
Bu muvofiqlik, shuningdek, ommaviy soʻzlarda ham uchraydi ( <i>fin – finir</i> )	
2) <b>uit</b> [yi] <i>nuit</i> <i>huit</i>	<b>oct</b> [kt] <i>nocturne</i> <i>octagénnaire</i>

### Undoshlar

Ommaviy soʻzlar	Kitobiy soʻzlar
1. <b>é</b> [e] + undosh <i>école</i> <i>écrire</i> <i>décrire</i> 2. <b>ch</b> [ʃ] + unli <i>chose</i> <i>chaire</i> <i>chef</i> 3. <b>ill</b> [ij] <i>filie</i> <i>famille</i> 4. <b>v</b> [v] <i>approuver</i> <i>lèvre</i> <i>fièvre</i> 5. <b>ô, ê, é, â</b> + undosh <i>hôtel</i> <i>vêtement</i>	<b>s</b> + undosh <i>scolaire</i> <i>manuscrit</i> <i>description</i> <b>c</b> [k] + unli <i>cause</i> <i>cathédrale</i> <i>capital</i> <b>il</b> [il] <i>filial</i> <i>familial</i> <b>b</b> [b] <i>approbation</i> <i>labial</i> <i>fébril</i> <b>o, e, a + s</b> + undosh <i>hostitalier</i> <i>vestiaire</i>

<i>répondre</i> <i>pâtre</i>	<i>responsable</i> <i>pastoral</i>
---------------------------------	---------------------------------------

So‘zlarning o‘zaro qo‘shilishi va leksikalizatsiya (composition et lexicalisation), so‘zlar sodda so‘zlar (hosila va nohosila) hamda qo‘shma so‘zlar bo‘ladi. Qo‘shma so‘zlarni hosil qilish so‘zlarning o‘zaro qo‘shilishi deb ataladi. Konversiyaga o‘xshab, bu so‘z yasashning morfologik-sintaktik usuli hisoblanadi.

So‘zlarning o‘zaro qo‘shilishida bitta emas, balki ikkita (ba‘zan ko‘proq ham asoslar ishtirok etadi), ular qo‘shiladi. So‘zlarning o‘zaro qo‘shilishi ko‘p tillarda bag‘oyatda keng tarqalgan.

Hozirgi fransuz tilida so‘zlarning o‘zaro qo‘shilishi so‘z yasashning jonli, mahsuldor usuli hisoblanadi: *un gratte-ciel*<sup>1</sup> osmono‘par imorat, ko‘p qavatli baland bino, *franco-américain* (adj.) franko-amerika, *un magnétophone* magnitofon. So‘zlar o‘zaro qo‘shilishining tiplari barcha uchta misollarda har xil, birinchi ikkitasi *un gratte-ciel=qui gratte le ciel*, *franco-américain=français et américain*, (*existant entre la France et (Etats Unis d’Amérique)*), *magnét o phone* tipidagi (kitobiy kelib chiqishdagi) qo‘shma so‘zlar so‘z birikmalariga transformatsiyalanmaydi (o‘zgarmaydi), bu ularni affiksalar bilan yaqinlashtiradi. Demak, barcha qo‘shma so‘zlar ham so‘z birikmalaridan tashkil topgan emas, boshqa tarafdin, har qanday so‘z birikmasi ham qo‘shma so‘zni bera olmaydi. Shunday qilib, hozirgi fransuz tilida qo‘shma (ommayiy) otlar, asosan, fe‘l + ot (vositasiz to‘ldiruvchi) so‘z birikmalaridan tashkil topadi.

Bevosita so‘z birikmalaridan (endi transformatsiyalarsiz) leksikalizatsiyalashgan qo‘shma so‘zlar kelib chiqadilar. Masalan: *chef-d’œuvre* shoh (durdona) asar, *basse-cour*<sup>2</sup> qushxona, parrandalar saqlanadigan (boqiladigan) bino, ayollar g‘iybati.

Modomiki, leksikalizatsiya – bundan keyin ham davom etishi mumkin bo‘lgan jarayon ekan, ya‘ni, qo‘shma so‘z sodda, semantik jihatdan bo‘laklarga ajralmaydigan: *bonheur* baxt (*heur* – hozirgi tilda alohida so‘z sifatida mavjud emas) so‘zga aylanar ekan, *bouleverser*<sup>3</sup> buzmoq, yiqitmoq, yiqitmoq, vayron qilmoq, yemirmoq, larzaga keltirmoq, titratmoq, qattiq ta‘sir qilmoq, hayajonlantirmoq, hayratda qoldirmoq, butunlay o‘zgartirib yubormoq, o‘zgacha (boshqacha) qilmoq, ag‘dar-to‘ntar qilmoq ham sodda so‘zga yaqinlashadi, chunki semantik jihatdan hozirgi tilda *boule* so‘zi *bouleverser* bilan munosabatdosh emas.

Qo‘shma so‘z odatda so‘z va so‘z birikmasi o‘rtasidagi oraliq joyini egallaydi. Qo‘shma so‘zni so‘z birikmasidan nima farqlaydi? Semantik jihatdan qo‘shma so‘z va so‘z birikmasi o‘rtasida farq bo‘lmasligi mumkin, chunki u ham, boshqasi ham qandaydir yaxlit ma‘noga ega bo‘lishi, qandaydir bitta tushunchani ifodalashi mumkin (qiyoslang: masalan, *fer à repasser* dazmol – so‘z birikmasi, *brise-glace*<sup>4</sup> muzyorar – qo‘shma so‘z). Qo‘shma so‘zni so‘z birikmasidan ajratib turuvchi formal belgilar ancha ishonchli hisoblanadilar.

Taqqoslaymiz: *un perce-neige*<sup>5</sup> boychechak va *un fer à repasser* dazmol. Ikkinchi misolda uchta elementlardan har birini lug‘atda topish (uchratish) mumkin, ya‘ni, ularning har biri alohida birliklar (so‘zlar) sifatida o‘sha shaklda hamda bir-biridan mustaqil ravishda qo‘llanilishlari mumkin; *perce-neige* so‘zida faqat ikkinchi element (*neige*) mustaqil qo‘llanilishi mumkin, birinchisi – *perce* esa – grammatik jihatdan rasmiylashtirilmagan, uning lug‘atda yo‘qligi ham tasodifiy emas. Shunga o‘xshab, *anglo-américain* so‘zida, *anglo-* elementi qandaydir so‘z turkumi sifatida rasmiylashtirilmagan (buning ustiga, qo‘shma so‘zning boshqa formal ko‘rsatkichi – bog‘lovchi *-o-* unlisi mavjud). Qo‘shma so‘zlarni hosil qilishning ko‘rib chiqilgan ikkala tipi (*perce-neige*, *anglo-américain*) mahsuldor va faoldirlar.

Agar qo‘shma so‘z – jonli, faol bo‘lishni bas qilgan tip bo‘yicha hosil qilingan so‘z birikmasining leksikalizatsiyasi natijasi bo‘lsa, u holda bunday qo‘shma so‘zga ayrim elementlarning arxaikligi yoki ularning tartibi: *maltraiter* yomon munosabatda bo‘lmoq, tahqirlamoq, masxara (mazax) qilmoq, *lieutenant* leytenant; elementlar o‘rtasida sintaktik aloqalarning mavjud emasligi (*rouge-gorge* malinovka); elementlardan birining morfologik mustaqilligi xosdir. Masalan, *bonhomme* yaxshi odam, soddadil odam so‘zida *bon* qiyosiy yoki ortirma darajaga ega bo‘la olmaydi. So‘z birikmasi leksikalizatsiyalashuvi, ya‘ni qo‘shma so‘zga aylanib qolishi mumkin. Bu shu holdaki, qachon yaxlitlikning va uning komponentla-

<sup>1</sup> Pluridictionnaire Larousse. Paris, Larousse, 2002, p. 352.

<sup>2</sup> Гак В.Г. Французко-русский фразеологический словарь. М., Гос. изд., 1963, 105 с.

<sup>3</sup> Dictionnaire Flammarion de la langue française. P., “Flammarion”, 1999, p. 139.

<sup>4</sup> Гринева Е.Ф., Громова Т.Н. Словарь разговорной лексики французского языка. М., “Цитадель”, 1997.

<sup>5</sup> Le Petit Larousse. Dictionnaire encyclopédique en couleurs. Paris, “Larousse”, 2005, 715 p.

ridan birining o'rtasidagi aloqa yo'qolib qolgan bo'lsa, *chef-d'œuvre* shoh (durдона) asar hozirgi tilda semantik jihatdan *chef* boshliq, rahbar, rahnamo, sardor so'zi bilan munosabatdosh emas.

Struktur jihatdan va kelib chiqishi bo'yicha qo'shma so'zlar orasida so'zlarning ikkita guruhi: azalgi (*un casse-croûte, un rouge-gorge*) va kitobiy (*mots recomposés* – yunon tilidan, kamdan kam lotin tilidan kelib chiqqan) uchraydi: *agriculture, télévision, afro-asiatique*.

Misol tariqasida *Mal écrits sur un carton appliqué au mur on lisait les mots: casse-croûte à toute heure* (Simenon).<sup>1</sup>

Hozirgi fransuz tilida qo'shma so'zlarni hosil qilishning bir necha xilma-xil tiplari uchraydilar:

Ommaviy tiplar.

Otlarning hosil qilinishi:

1) *subs.+adj.*: *un coffre-fort* seyf, *un vinaigre* sirka, *un sang-froid* sovuqqonlik, vazminlik, og'irlik, sabrlilik;

2) *adj.+subs.*: *un rouge-gorge*<sup>2</sup> malinovka (chumchuqsimonlarga mansub sayroqi qush), *un bas-relief* barelef (tekis yuzaga ishlangan bo'rtma naqsh), *une plate-forme* platforma, *un bas-fond* pastlik, past joy, sayozlik, sayoz joy;

3) *verbe+subs.*: *le couvre-feu* komendantlik soati, *un tire-bouchon* shtopor (butilka tiqinini ochadigan parmasimon asbob), *un porte-avions* samaliyot tashuvchisi (samolyotlar uchishi va qo'nishi uchun mo'ljallangan harbiy kema), *un passe-temps* o'yin-kulgi, sayr-tomosh, ermak, ovunchoq.

Bu tipning jonliligi haqida neologizmlar guvohlik beradi, masalan, *le passe-muraille* so'zi taniqli fransuz adibi M.Eme tomonidan yaratilgan neologik so'z bo'lib, muallifning shaxsiy hosilasi hisoblanadi. Bu so'z birikmasi yozuvchining shu nomli hikoyasining nomi;

4) *subs.+prép.+subs.*: *un tête-à-tête* uchrashuv, yuzma-yuz, betma-bet suhbat, *un chef-d'œuvre* shoh (durдона) asar, *un pot-au-feu* sabzavotli go'sht qovurdoq.

Boshqa tiplar ham leksikalizatsiya beradilar, masalan, fe'l har xil shakllarda boshqa fe'l bilan birga qo'shiladi: *un laissez-passer* o'tish joyi (hujjat, ruhsatnoma tekshirib o'tiladigan joy), *un laisser-aller*<sup>3</sup> beparvolik, sovuqqonlik, e'tiborsizlik, pala-partishlik, aji-bujilik, chalakam-chattilik, *un savoir-faire* biror narsa qila olish qobiliyati, bilarmonlik, mahorat, ep, hadis, havo, epchillik, ustalik, ishning havosini (hadisini) olganlik, *un va-et-vient* orqaga va oldinga yurish.

Qo'shma so'zlarga predlog ravishga yaqin bo'lgan mustaqil leksik ma'noda chiqadigan hosilalarni ham kiritish mumkin, masalan, predlog *sans*: *un sans-culotte* sankyulot, *un sans-travail* ishsiz, ishdan mahrum qilingan, ishsiz bo'lib qolgan, *un sans-logis* uy-joysiz, boshpanasiz, bevtan; oilasi, bola-chaqasi yo'q, so'qqabosh, *un sans-cœur* bag'ri tosh, qahri qattiq, berahm, shafqatsiz va h.k. Bu tip bag'oyatda faol; *avant*: *un avant-guerre* urushdan oldingi davr; *après*: *l'après-midi* tush paytidan keyingi vaqt, choshgohdan keyingi vaqt, *un après-guerre* urushdan keyingi davr.

Sifatlarni hosil qilish:

1) *adj.+adj.*: *sourd-muet* gung, gungalak, kar-soqov, *bleu-vert* ko'k-yashil;

2) *adj.+part.*: *nouveau-né* yangi (yaqinda) tug'ilgan bola;

3) *adv.+adj. (part.)*: *bien-aimé*<sup>4</sup> sevikli, sevilgan, sevgi, g'oyat baxtli, *bienheureux* g'oyat baxtli, shod-xurram, mas'ud, xushvaqt, xushbaqat, baxtiyor, baxt-saodatli.

2 va 3-tiplar sermahsul emaslar.

Ravishlar so'z birikmalarini leksikalizatsiyalash yo'li bilan yasaladilar: *vis-à-vis* – yuzma-yuz, aksincha, *à la dérobée* yashirincha, yashiriqcha, bildirmay, zimdan.

Qo'shma so'zlarning kitobiy tiplari affiksatsiyalar (suffiksatsiya va prefiksatsiya) o'rtasidagi oraliq joyni egallaydilar, chunki ularni tashkil qiluvchi elementlar ommaviy so'zlarning qismlariga qaraganda yanada ko'proq mustaqil emaslar. Misol uchun, *philologie* filologiya, *aqueduc* akveduk, osma quvur so'zlarida ikkala elementlar affiksial morfemalarga yaqindir, chunki mustaqil ishlatilmaydi. Boshqa hollarda qo'shma so'zning bitta yoki ikkala elementi mustaqil qo'llanilishi mumkin: *photocopie* fotokopiya, *auto-détermination* o'z mavqeyini (o'rnini, yo'lini) belgilab olish (topish), o'z taqdirini o'zi belgilash. *Je voudrais qu'il vienne également pour une perquisition en compagnie des photographes* (Simenon).<sup>5</sup>

<sup>1</sup> Гак В.Г. Французко-русский фразеологический словарь. М., Гос. изд., 1963, 308 с.

<sup>2</sup> Le Petit Larousse. Dictionnaire encyclopédique en couleurs. Paris, "Larousse", 2005, 813 p.

<sup>3</sup> Гак В.Г. Французко-русский фразеологический словарь. М., Гос. изд., 1963, 599 с.

<sup>4</sup> Dictionnaire Flammarion de la langue française. P., "Flammarion", 1999, 123 p.

<sup>5</sup> Гак В.Г. Французко-русский фразеологический словарь. М., Гос. изд., 1963, 825 с.



Hozirgi matbuotda, ko‘pincha, qo‘shma sifatlar uchraydi, ularning o unlisi orqali bog‘langan komponentlari faqat kitobiy emas, balki ommaviy so‘zlar ham bo‘lishlari mumkin, masalan, *anglo-américain* ingliz-amerika. Bu qo‘shma so‘zlarning eng faol hamda sermahsul tiplaridan biridir (*le complexe*) *militaro-industriel* harbiy-sanoat (kompleksi).

Kitobiy qo‘shma so‘zlarning formal belgisi bog‘lovchi (o, i) unlilarining mavjudligi hisoblanadi. Kitobiy qo‘shma so‘zlar so‘z birikmalaridan hosil qilinmaydilar hamda ularning leksikalizatsiyalashuvining natijasi bo‘la olmaydilar. Bu so‘zlar kitobiy kelib chiqishdagi morfemalardan yasaladilar, ko‘pincha, terminologiyada uchraydi. Kitobiy kelib chiqishdagi so‘zlarning so‘z yasash tiplari va modellari nihoyatda rang-barangdir.

**Abduraxmonova Hilola Raxmatullaevna (Termiz davlat Pedagogika instituti  
“Rus tili va adabiyoti” kafedrasini o‘qituvchisi)**

## **O‘ZBEK VA RUS TILLARI MAQOL VA MATALLARIDA DEFINITSIYA MUAMMOSI**

**Annatsiya.** *Tadqiqotning maqsadi – o‘zbek va rus tillarida maqollarning lingvistik va madaniy xususiyatlarini aniqlash va tasniflash bo‘yicha turli yondashuvlarni tahlil qilish. Maqolada “maqol” tushunchasi va tavsiflash muammosi (o‘zbek va rus tillarida) o‘rganilgan. Ilmiy yangilik maqollarning keng doirasini ko‘rib chiqish, ularning lingvomadaniy xususiyatlarini, konnotatsiyalari va o‘zgarishlarini aniqlash imkonini beradi. Natijada har qanday tilning maqollarini o‘rganish ushbu til madaniyati tashuvchilari dunyoqarashi tarixini o‘rganish imkonini berishi isbotlangan, chunki maqollarda har ikki til-da turli tarixiy, madaniy, diniy va hodisalar va jarayonlar o‘z aksini topganligi ko‘rsatilgan.*

**Аннотация.** *Цель исследования – проанализировать различные подходы к выявлению и классификации лингвокультурных особенностей пословиц узбекского и русского языков. В статье рассматривается понятие «пословица» и проблема описания (на узбекском и русском языках). Это позволяет просмотреть широкий спектр научных новостных статей, определить их лингвокультурные особенности, коннотации и изменения. В результате доказано, что изучение пословиц любого языка позволяет изучить историю мировоззрения носителей культуры этого языка, поскольку показано, что пословицы отражают различные исторические, культурные, религиозные события и процессы на обоих языках.*

**Annotation.** *The purpose of the study is to analyze various approaches to identifying and classifying the linguistic and cultural features of proverbs in the Uzbek and Russian languages. The article deals with the concept of “proverb” and the problem of description (in Uzbek and Russian). This allows you to view a wide range of scientific news articles, determine their linguistic and cultural features, connotations and changes. As a result, it has been proved that the study of proverbs of any language makes it possible to study the history of the worldview of the carriers of the culture of this language, since it is shown that proverbs reflect various historical, cultural, religious events and processes in both languages.*

**Kalit so‘zlar:** *maqol, ta‘rif, tarjima, ekvivalent, til, madaniyat, folklor, lingvistik.*

**Ключевые слова:** *пословица, дефиниция, перевод, эквивалент, язык, культура, фольклор, лингвистический.*

**Key words:** *proverb, definition, translation, equivalent, language, culture, folklore, linguistic.*

Har qanday xalqning nutqi ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat, o‘z hukmiga ega bo‘lgan hikmatli so‘zlar bo‘lgan maqollar boyitib keladi. Maqol qachon va qay holatda paydo bo‘lganligi haqida aniq bir ma‘lumot yo‘q. Ular milliy til tarkibida o‘z qiymatiga ega bo‘lgan so‘zlarni boshqasi bilan almashtirib bo‘lmaydigan, qoliplashgan holda namoyon bo‘ladi.

“Maqol deb xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so‘zlarga aytiladi. Maqol o‘zbek tilida maqol, tojiklarda zarbulmasal, ruslarda poslovitsa, arablarda (jonli so‘zlashuvda) naql, turklarda ata so‘zi atamasi bilan yuritiladi. Maqol atamasi arabcha kav-lun – gapirmoq, aytmoq so‘zidan olingan” [1].

Maqol barcha xalqlar og‘zaki ijodida keng tarqalgan janr sifatida hajm, shakl, yaratilishi maqsadiga ko‘ra mazmun jihatdan “so‘z” tushunchasini anglatadi. Masalan, rus tilida “Шило в мешке не утаишь” (bigizni qopda yashirib bo‘lmas) maqoli o‘zbek tilidagi “Oyni etak bilan yopib bo‘lmas” maqolining aynan ekvivalenti hisoblanadi. Ammo, olimlarning ilmiy, qiyosiy-tipologik kuzatishlariga asoslanadigan bo‘lsak, har bir xalqning tarixiy sharoitning o‘ziga xos ifodasi, dunyoni idrok etish, e‘tiqod, urf-odatlar,

tasavvur va ruhiy qarashlarning o'ziga xos ifodasi, lingvomadaniy milliy xususiyatlarga yo'girilganligi bilan ajralib turadi.

Maqol xalqning ko'p asrlik kuzatishlari, hayotiy tajriba va donishmandligini ma'naviy marifiy meros sifatida avloddan avlodga nutq bilan chambarchas holda yetkazib berilib kelgan. Leksik til tarkibiga o'z ifodaliligi va obrazlilik bilan eslab qolishi yengilligi bilan yozuv paydo bo'lgunga qadar kirib kelgan desak, adashmaymiz.

“Maqol – xalq og‘zaki ijodi janri, qisqa va lo‘nda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal ma‘noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli gap. Nutqda keng qo‘llanuvchi muayyan, barqaror ritmik shaklga ega bo‘lib, ular xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari asosida yuzaga kelgai. Maqollarda avlod ajdodlarimizning hayotiy kuzatishlari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan [2].

Maqol o'z tabiatiga ko'ra, og'zaki yoki yozma nutqda ko'chma yoki o'z ma'nosida qo'llanilishi mumkin. Ayrim maqollar esa faqat ko'chma ma'noda («Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi», «Quruq qoshiq og'iz yirtar»), ba'zan o'z ma'nosida («Ona yurtning omon bo'lsa, rangi-ro'ying somon bo'lmas») ishlatiladi.

Tarixchi va adabiyotshunos, slavyan xalqlarining ma'naviy madaniyati tadqiqodchisi va rus folklori yig'uvchisi A.N.Afanasev “Maqollarni na buzib, na o'zgartirib bo'ladi, chunki u xalq donishmadligi, hayotiy tajribasi va shakllangan e'tiqodining qadimiy yodgorligini uzatish vositasidir”, degan edilar [3].

“O‘zbek folklorining boshqa janrlari o‘z tarixiy va ijtimoiy taraqqiyoti mobaynida boy og‘zaki ijodiy meros yaratgan bo‘lib, shular jumlasida maqol katta tarbiyaviy ahamiyatga egadirlar. Xalq folklorida milliy an‘analarga tayanadigan ta‘lim va tarbiyaga oid ilg‘or pedagogik fikrlar ilgari surilgan” [4]. “Masalan, “Qozonga yaqinlashsang, qorasi yuqar, yomonga yaqinlashsang – balosi” maqolidagi asosiy fikr yomonga yaqinlashgan odamning taqdirida noxush voqealar ko'payishidan ogohlantirishdir. Lekin, aslini olganda, maqolning birinchi qismida ham ehtiyotlik belgisi aniq ko'rinib turibdi. Ya'ni, xalq yosh va hali turmush tajribasiga ega bo'lmagan farzandga qozonga yaqinlashayotganda qora qurum tegishidan ehtiyot bo'lishni tavsiya qilmoqda. Qushimcha ravishda aytish mumkinki, har bir inson muayyan vaziyatda ish qilar va qarorga kelar ekan, ehtiyot choralari esidan chiqarmaslik lozimligi uqdirilmoqda” [5].

S.I.Ojegovning izohli lug'atida maqolga quydagicha ta'rif keltirilgan: “Maqol – xalqona qisqa va lo'nda, obrazli, ibratli xarakteristikaga ega, grammatik va mantiqiy tugal ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli aforizm”. “Matal – bu mutlaq tugal mazmunga ega bo'lmagan qiyosiy obrazli, butun gapni izohlovchi barqaror ifoda” [6].

Yuqorida keltirilgan ta'riflarga ko'ra, maqollar odob-axloq o'gitlariga asoslangan holda, yakuniy xulosa keltira olish ta'siriga ega ibora. Maqollarning xalq og'zaki janr sifatidagi alohida xususiyatlaridan uning keng mazmunli fikrni eng sara va eng qisqa chuqur ma'noli so'zlarni ohangdosh so'zlardan shaklan she'riy va nasriy misralarda yaxshilikni davo qiluvchi yoki yomonlikdan ogoh etuvchi mazmunda ifoda etiladi. Masalan, o'zbek maqoli “Cho'pon ko'p bo'lsa, qo'y harom o'ladi” ruscha talqinida “У семи нянек дитя без глазу” va “Qo'shning ko'r bo'lsa, ko'zingni qis” maqolining ruscha talqinida “С волками жить – по-волчьи выть”.

Maqollarda shaxs hayotidagi voqea-hodisa xususiy vaziyatni xalq, omma, hayot nuqtayi nazardan umumlashtirib, omma uchun vaziyatdagi mavzuga oid gapni kesib, yana muhokamaga o'rin qoldirmay hukm o'rnida ishlatiladi. Masalan, “Ishlamagan – tishlamas” o'zbek maqolining ruscha varianti: “Кто не работает, тот не есть” yoki aynan so'zma-so'z o'xshash bo'lgan maqollardan “Mushuk yo'g'ida sichqon teraga chiqar” va “Кошка из дому – мышка на стол”. Xuddi “Donoga ishora kifoya” va “Умный понимает с полуслова” maqollaridagidek ham stilistik ham konnotatsion bir-biriga yaqin bo'ladi.

Qadimdan shakllanib kelgan madaniyat kabi, o'zbek va rus tili bir-biridan tubdan farq qiladi. Albatta, ikkita xalqning maqollari o'zlarining tarixiy, madaniy va ma'rifiy muhitida shakllanib, bir fikrni boshqacha obraz va talqinlarida ifodalab beradi. Masalan, o'zbek maqollarini, shartli ravshda, 4 ta guruhga ajratishimiz mumkin.

1) o'zbek va rus tillarida bir xil ekvivalentlari mavjud maqollar. Bunga misol, qilib “Yosh kelsa – ishga, Qari kelsa – oshga” ruscha analogi “Молодой на службу, старый на совет”, “Sukut – alomati rizo” ruscha analogi “Молчание – знак согласия” maqollarini keltirsa bo'ladi. Shu kabi maqollar juda kamchillikni tashkil etadi;

2) ikkinchi guruhga vaziyatga ko'ra, mazmunan, bir xil, shaklan va maqol tarkibidagi vaziyatdagi obrazlantirish har xil bo'lgan maqollar. Misol tariqasida “Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas, Chigirt-

kadan qoʻrqan – ekin” ruscha ekvivalenti “Волков бояться – в лес не ходить”, “Bir daraxtdan bogʻ boʻlmas” ruschada “Один в поле не воин” maqollari oʻrinli boʻladi;

3) oʻzbek maqollarining rus tilida ekvivalenti mavjud boʻlmagan maqollar milliy madaniyat, mentalitet va tarbiyaviy nuqtayi nazardan, ikki xil dunyoqarashga ega boʻlgan maqollar sirasiga kiradi. Bularga “Qizil koʻrsa, Xizr yoʻldan chiqar”, rus tiliga tarjimasi “Увидев золото, даже пророк Хызр может сбиться с правильного пути”, “Qulon boshiga ish tushsa, quyrugʻiga sir aytmas”, ruscha tarjimasi “Если на голову кулану свалится беда, то он даже своему хвосту не сообщит об этом”, “Haftada hayit-u kun ora odina boʻlsa”, ruscha tarjimasi “Был бы праздник каждую неделю и выходной через день”, “Oʻtniki – oʻtga, suvnik – suvga, qoldi qatiqning puli”, “Легко нажитое легко и пропадает”, “Eshonning qorni beshdir, biri hamisha boʻshdir” tarjimasi “У ишана пять желудков, и один из них всегда пуст”;

4) rus maqollarining oʻzbek tilida ekvivalenti boʻlmagan maqollar ham xalq orasida ishlatilib keldi. Bularga “Монастырщина – что барщина” oʻzbek tilidagi tarjimasi monastirda-qullikda!” Попу – кунуцу, дякону – лисицу, пономарю-горюну – серого зайка”, “Поп что клоп – людскую кровь пьет. Церковь грабит, да колокольню кроет”. Misol tariqasida ishlatilgan maqollar rus xalqi tarixidagi tuzum va diniy dunyoqarashdan kelib chiqqan atamalar bilan bogʻlikligi tufayli tarjimada muammo keltirib chiqaradi.

Oʻzbek tilidan maqol yoki matalni rus tiliga toʻgʻridan toʻgʻri talqin qilish uchun polisemantik boʻlib, turli qoʻllanish sohaslarida ular turlicha talqin qilinishini mumkinligini tushunishimiz kerak. Masalan, oʻzbek tilidagi “Egasini hurmat qilsa, itiga suyak tashlaydi” maqoli “Если меня уважаешь, то брось моей собаке кость”, “Er-u хотин – qoʻsh hoʻkiz” – “Муж и жена – два вола в упряжке”, “Shariatda sharm yoʻq” – “У шариата нет стыда”, “Shoshganda «labbay» topilmas – “Когда торопишься, не можешь даже вспомнить ответного слова – «лаббай»”. Maqollarida ruslarga nimaga itiga suyak tashashim kerak? eshon kimligi mavhum boʻlib qoladi, nima uchun er va хотин hoʻkiz boʻlish kerak, shariyat masalalari haqida tushunchaga ega boʻlish kerak.

Rus xalqining “Выпили пиво на Масленицу, а с похмелья ломало после Радуницы”, “Отдадим почтенье на Сырной в воскресенье”, “После Масленицы – Великий Пост, а за Страстную – Пасха”, “Масленица идет, блин да мед несет” kabi maqollarini, umuman, oʻzbek tiliga ekvivalent holatida tarjima qilish mushkul. Albatta, kontekstga qaraymiz, rus tiliga oid boʻlgan soʻzlarni etimologik lugʻatdan izlab, soʻzning tarixiy kelib chiqishini oʻrganganimizdan keyingina, ishlatilishining maʼnosiga tushunamiz [7].

Xulosa oʻrnida shuni aytishimiz mumkinki, maqollardagi definitsiya muammosi muayyan voqiyalik bilan bogʻliq ekanligini tushunamiz. Maqollarni tarjima qilishda oʻgirilayotgan tilda mos keluvchi ekvivalent ibora bor yoʻqligini oʻrganib, ularni stilistik yoki emotsional nisbatda qoʻllashimiz ehtimolga yaqindir. Chunki har bir xalqning oʻzigagina xos va mos noyob maqollari faqat oʻz lingvomadaniy, maʼrifiy va diniy tushunchalardan kelib chiqqan holda tushuniladi. Oʻzga millat vakillari uchun bemantiq soʻzlar jamlamasini tashkil etishi tayin. Shuning uchun tarjima jarayonida har qanday maqolning etimologiyasiga mazmunan moslashtirib, oʻzga tildagi analoglari bilan foydalanilsa, mazmun va mohiyatini yoʻqotib qoʻymaymiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Omonulla Madayev. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi. Universitetlarning oʻzbek filologiyasi va jurnalistika hamda pedagogika institutlarining Til va adabiyot fakultetlari uchun oʻquv qoʻllanma, T., «Mumtoz soʻz», 2013, 69-bet.
2. Cultural Heritage of Uzbekistan. <http://ich.uz/uz/ich-of-uzbekistan/national-list/domain-1/260-proverbs-sayings>.
3. Афанасьев А.Н. Происхождение мифа. М., “Высшая школа”, 1996, с. 25.
4. G.Q.Karimova. Xalq ogʻzaki ijodi xalq pedagogikasining muhim manbai sifatida. Nizomiy nomidagi TDPU, 2021, 3 – 4-betlar.
5. S.Yuldashev, S.Azizov. Xalq ogʻzaki ijodi – soʻz sanʼati. UzDSMI FMF, “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 1, March 2022.
6. Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка. Москва, “Мир и образование”, 2016, с. 1375.
7. «Пословицы про Масленицу и блины для детей» pro-poslovcy.ru. <https://pro-poslovcy.ru> > poslovcy-pro-maslenic.

**Axmadjonova Maxfuza Egamqulovna (Qo‘qon DPI “Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası o‘qituvchisi)**  
**BADIY MATNNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada matnni tadqiq etishda uni so‘z birikmasi va gapdan farqlash lozimligi, matnning ham o‘z kategoriyasi va qonuniyatlari borligi aytiladi. Maqolaning saviyasi shu mavzuda xorijlik va mahalliy olimlarning tadqiqot ishlari ham yoritilgani bilan belgilanadi.

**Аннотация.** В данной статье говорится, что при исследовании текста его следует отличать от словосочетания и предложения, текст имеет свою категорию и законы. Уровень статьи определяется тем, что освещены исследовательские работы зарубежных и отечественных ученых по данной теме.

**Annotation.** In this article, it is said that in the study of the text, it should be distinguished from the phrase and the sentence, and the text has its own category and laws. The level of the article is determined by the fact that the research works of foreign and local scientists on this topic are covered.

**Kalit so‘zlar:** til, tilshunoslik, lingvistik kompetensiya, lingvokulturologiya, matn, diskurs, subyektiv munosabat, nutq, kontekst.

**Ключевые слова:** язык, лингвистика, языковая компетентность, лингвокультурология, текст, дискурс, субъективная установка, речь, контекст.

**Key words:** language, linguistics, linguistic competence, linguoculturology, text, discourse, subjective attitude, discourse, context.

**Kirish.** Ma‘lumki, «Matn» atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da so‘ziga quyidagicha ta‘rif beriladi: [a.–yelka; nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst]. 1. Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat. 2. Bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi. Bu ta‘rifda matnning asosiy xususiyatlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Faqat axborot-kommunikatsiya vositalarining taraqqiy etishi natijasida matn so‘zi anglatadigan ma‘no yanada ortganligini ko‘rishimiz mumkin. Kompyuterda terilgan matn formati Word, RTF matn, oddiy matn, formatlangan matn, gipermatn kabilar ham iste‘molda faollashdi. Bugungi kun tilshunosligida matn tilning alohida yirik birligi (supersintaktik butunlik) va matn tilshunosligi deb atalayotgan sohaning asosiy obyekt sifatida talqin qilinadi. Zamonamizning muhim shartlaridan biri bo‘lgan fan rivoji va ishlab chiqarishdagi ulkan o‘zgarishlar tufayli kelib chiqayotgan talablar ta‘lim sohasi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

Ma‘lumki, matn zamirida muallifning predmet va hodisalarga subyektiv munosabati, ularga beradigan bahosi yotadi. Bu jihatdan badiiy matnda voqelikni ifodalashning obyektlar o‘rtasidagi o‘xshashlikni aniqlash, ularni chog‘ishtirish, birbiriga qarama-qarshi qo‘yish, turli takrorlar, aniqliklar kiritish kabi vositalari tahlili shaxsining ko‘rsatish masalasini o‘rganishda qiziqish uyg‘otadi [3.235].

Bilamizki, lingvokulturologiya – tilshunoslikning til, madaniyat, xalq madaniyatining tilda namoyon bo‘lish xususiyatlarini aks ettiruvchi, o‘rganuvchi fan. Til birliklarining lingvokulturologik tahlili tilshunoslik va madaniy hamjamiyatning o‘ziga xos xususiyatlari, milliy-madaniy xarakteristikani tavsiflaydi, kommunikativ toifa, milliy madaniyat tushunchasining ahamiyatini tushuntiradi [5.413]. Lingvokulturologiyaning asosiy vazifasi ma‘lum bir lingvokulturologik doiraning muloqot makonining madaniy kelib chiqishi, diskurs va til, shuningdek, lisoniy birlikning madaniy belgilar terminlari interpretatsiyasi, xalqning tarixiy xotirasi prizmasidan kelib chiqqan holda tavsiflashdan iborat [6.263].

**Muhokama va natijalar.** XX asming 90-yillarida tilshunoslik bilan madaniyatshunoslik orasida yangi fan sohasi, lingvokulturologiya (lingvomadaniyatshunoslik) paydo bo‘ldi. U tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi sifatida tan olindi. Lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo‘lagini aks ettiruvchi so‘zlar, frazeologik birliklar, so‘z birikmalari, gaplar, paremiyalar, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va hokazolar kiradi. Lingvokulturema mazmun va ifoda planiga ega, ifoda plani yuqorida ko‘rsatilgan birliklar, mazmun planini esa o‘sha birliklarning semantikasi tashkil qiladi. Demak, lingvokulturema konseptdan o‘zining mazmun va ifoda planiga ega bo‘lishi bilan farq qiladi, lingvokulturologiya uchun xalq madaniyatini lisoniy ko‘rinishda namoyon etish asosiy vazifa hisoblanadi. Uningcha, “lingvokulturema” tushunchasi qiyosiy tilshunoslik uchun foydali, “zero, til – madaniy fakt, biz meros qilib oladigan madaniyatning tarkibiy qismi va ayni paytda qurol hamdir. Xalq madaniyati til orqali verballashadi, aynan til madaniyatining tayanch, asosiy tushunchalarini harakatga keltiradi va ularni belgilar ko‘rinishida, ya‘ni so‘zlar vositasida ifoda etadi”.

Matn nazariyasi, matn lingvistikasining umumiy shakllanishi va rivojida chex (Praga lingvistik to‘garagi vakillari), nemis, fransuz, ingliz, amerika, golland, polyak va boshqa tilshunoslik maktablari va

killarining xizmatlari dunyo tilshunosligida e'tirof etilgan va doimiy ravishda ilmiy tadqiqotlarda tilga olinadi.

2. Rus tilshunosligida ham matn nazariyasi va lingvistikasi muammolari V.V.Odinov, I.R. Galperin, O.I.Maskalskaya, L.M.Loseva, Y.M.Lotman, Z.Y.Turayeva, N.D.Zarubina, E.V.Sidorov, O.L. Kamenskaya, A.I.Gorshkov, N.S.Valgina kabi ko'plab tilshunoslar tomonidan o'rganib kelinadi.

3. Til-shunoslikdagi bu yo'nalishdagi tadqiqotlarni atroflicha tahlil qilgan O.I.Maskalskaya o'tgan asrning 60–70-yillariga kelib, matnni lingvistik o'rganishga bo'lgan qiziqish benihoya ortganligini, dunyo tilshunosligida matn lingvistikasi bo'yicha misli ko'rilmagan miqdorda tadqiqotlar yuzaga kelganligini va matn lingvistikasi mustaqil tilshunoslik fani sifatida to'la e'tirof etilganligini ta'kidlar ekan, tadqiqotlardagi bu e'tirofga tamal bo'lgan asosiy qoidalarni quyidagicha guruhlarga bo'lib umumlashtiradi:

1) nutqning tugallangan fikr bildiradigan asosiy birligi gap emas, balki matndir; gap-fikr esa faqat xususiy holat, matnning alohida turidir. Matn sintaktik sathning oliy birligi hisoblanadi;

2) konkret nutqiy asarlar – matnlarning asosida matn tuzishning umumiy tamoyillari yotadi; bu tamoyillar nutq sohasiga emas, balki til sistemasiga yoki til vakolatiga daxldordir. Bu jihatlar hisobga olinasa, shulardan kelib chiqilsa, matnni faqat nutq birligigina emas, balki ayni paytda til birligi deb ham hisoblash kerak;

3) boshqa til birliklari kabi matn lisoniy belgilar sistemasining qismidir;

4) matnni alohida sathning nutqiy va lisoniy birligi sifatida har tomonlama o'rganish tilshunoslik doirasidagi maxsus fan – matn lingvistikasini yaratishni taqozo etadi.

Matnni tadqiq etishda uni so'z birikmasi va gapdan farqlash lozimligi, matnning ham o'z kategoriyasi va qonuniyatlari borligi aytiladi. Tilshunos M.X.Hakimov ilmiy matn tadqiqiga bag'ishlangan dissertatsion ishida bu haqda shunday yozadi: «Matn so'zining lug'aviy ma'nosida birikish, bog'lanish tushunchalarining borligi, shuning uchun matn tarkibi o'zaro qaysidir bog'lovchilar yordamida birikishini o'rganish «Matn tilshunosligi» sohasining asosiy muammolaridan biri bo'lib qoldi. Matn birliklarining o'zaro bog'lanishini ifoda etuvchi takror va uning bir necha ko'rinishi, olmosh turkumiga oid ba'zi so'zlar, gapning so'roq shakliga xos bo'lgan ko'rinishining matn hosil qilishdagi vazifalari matn tilshunosligida alohida o'rin tutadi. Mazkur ishda muallif «matn» atamasini «nutq», «kontekst» kabi boshqa lingvistik atamalardan farqlash lozimligini ta'kidlaydi. Nutq og'zaki va yozma shakllarda namoyon bo'ladi. Nutqning yozma shakli matn atamasi ifodalaydigan mazmunga muvofiq keladi. «Nutq subyektdan adresatga yo'naltiriluvchi nutqiy faoliyat hisoblanadi.<sup>1</sup> Matn esa faqat obyektiv informatsiyadan iborat bo'lmay, balki o'ziga mazmunni ham qamrab olgan nutqning material ko'rinishidir».<sup>2</sup> Tilshunos olim M.Arriv «Diskurs, ifoda (recit) va bular orasidagi aloqani maydonga keltiradigan butunlikka matn deyiladi» deydi. Ilmiy adabiyotlarda kontekst atamasi nutqiy vaziyat mahsuli deb ko'rsatiladi. «Kontekst – bu bir leksik yoki grammatik birlik asosida ifodalangan ma'no yoki tushunchani oydinlashtirish uchun keltirilgan, tuzilgan minimal nutq birligi. Qoida bo'yicha – bu so'z birikmasi, ba'zan gap, kamdan kam abzas yoki yaxlit matnga teng keladi».

Masalan, tuyoq so'zi hayvonga aloqador a'zo hisoblanadi: Loyi ko'pirib yotgan yo'lda ot taqalari, mol tuyoqlaridan hosil bo'lgan chuqurchalarni limmo-lim to'ldirgan sariq zardoblar jimirlab, yoniveridan sirqib yotardi (P.Tursun). Mazkur so'z insonga nisbatan qo'llanilganda salbiy ottenka birinchi planga chiqadi: Obro'ying borida tuyog'ingni shiqillatib qol. Kontekst so'zlarning semantik ma'nosi reallashadigan o'ziga xos maydon, nutqiy vaziyat hisoblanadi. Bu o'rinda S.D.Katsnelsonning quyidagi fikrini keltirib o'tish o'rinli: «Borliqning mavjud dalillari lug'atlarda berilganidek, alohida so'zlarda emas, balki nutqiy aloqalarda, tugal xabarlarida, matnlarda, ularning minimal bo'lagi bo'lgan gaplarda aks etadi... So'zlar va ular ma'nolarining ong va borliqqa munosabati gap orqali bog'langan, gapdan tashqarida ular faqat potensial birlikdir, xolos. Ularni mexanizmning detallariga qiyoslash mumkin, ularning vazifasi faqatgina butun bir mexanizm bilan aloqada tushuniladi».

Badiiy nutqlar, o'z mohiyatiga ko'ra, madaniyat shakllaridan birini ifodalaydi, madaniy axborot nuqtayi nazaridan ahamiyatli emas. Bu badiiy nutq ijtimoiymadaniy, estetik va hissiy ma'lumotlarning tashuvchisi hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, badiiy matnda mavjud bo'lgan madaniy ma'lumotlar bosqichma-bosqich xarakterga ega bo'lib, har xil turdagi matnlarda turlicha taqdim etiladi. Eng muhimlari, bu inson faoliyatining intellektual va ma'naviy sohalarini aks ettiruvchi matnlar, ularning maqsadi xususiyatlari

<sup>1</sup>Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, 2-жилд, Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006, 587-бет.

<sup>2</sup> Ҳақимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари. Филол.фан.номз...дис., Т., 1993, 7-бет.

muallif hukmlari, qarashlari va baholari bilan chambarchas bog'liq. Bunday matnlarni talqin qilish o'quvchining madaniyatshunoslik malakasini, milliy madaniy qadriyatlar va ustuvorliklarni bilishini talab qiladi. Lingvistik madaniyatdagi madaniy ma'lumotlar – ma'lum bir madaniyatga xos hodisalar: voqealiklar, taniqli shaxslar, tarixiy voqealar, shuningdek, afsonalar, tasvirlar, e'tiqodlar, urf-odatlar, urfodatlar va boshqalar.

Shuni aytish mumkinki, lingvokulturemalar tarkibi til birliklariga qaraganda ancha murakkabdir. Lingvokulturemalar o'zida lingvistik, madaniy, etnopsixologik va ekstralingvistik omillarni mujassamlashtiradi. Lingvokulturemalar tarkibi belgi-ma'no-tushuncha-predmetlardan tashkil topgan. Ular to'g'ri va ko'chma ma'nosidan farqli o'laroq, inson madaniyati va tili darakchisidir.

**Begimqulova Dilobar Baxtiyor qizi (Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi;**

**[begimkulova9092@mail.ru](mailto:begimkulova9092@mail.ru)**

## **INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TO'LIQ REDUPLIKATSIYANING IFODALANISHI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida reduplikatsiya hodisasining tilda namoyon bo'lishi, tavsifiy va tasnifiy tamoyillari muhokama qilingan. Bundan tashqari, ingliz va o'zbek tillarida to'liq reduplikatsiyaning tarkiblanishi, ularning shakllari va ma'nolari muhokamasi borasida so'z yuritiladi.*

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются принципы описания и классификации редупликации в английском и узбекском языках. Кроме того, сравнительно анализируются композиционные характеристики, формы и семантические особенности полной редупликации в английском и узбекском языках.*

***Annotation.** This article examines description and classification principles of reduplication in English and Uzbek languages. In addition, the compositional characteristics, forms and semantic peculiarities of Total Reduplication in English and Uzbek languages are analysed comparatively.*

***Kalit so'zlar:** reduplikatsiya, reduplikativ birlik, replikatum, replikan, to'liq reduplikatsiya, qisman reduplikatsiya, onomatopoeik reduplikatsiya.*

***Ключевые слова:** редупликация, редупликативная единица, репликатум, репликан, полная редупликация, частичная редупликация, товушга тақлид редупликация.*

***Key words:** reduplication, reduplicative unit, replicatum, replican, total reduplication, partial reduplication, onomatopoeic reduplication.*

Ingliz tilida reduplikatsiya ikkita katta tur, ya'ni, to'liq reduplikatsiya (keying o'rinlarda TR) va qisman reduplikatsiya (keyingi o'rinlarda QR) kabi turlarga bo'linib tahlil etiladi.

Reduplikativ shakllar har doim ikki qismdan, ya'ni, replikatum (chap bo'lak) va replikandan (o'ng bo'lak) iborat bo'ladi. TR replikaturning to'liq takrorlanishini taqozo etadi. Masalan, *goody-goody, girly-girly, zero-zero* va h.k. QRda esa replikanda fonetik o'zgarish kuzatiladi. Misol uchun, *ping-pong, super-duper, roly-poly, zig-zag* va h.k.

TR va QRlar tilda bir biridan mustaqil ikki tur sifatida mavjud yoki biri ikkinchisini paydo qilganligi borasida ham aniq fikrlar mavjud emas. E.Moravchikning faraziga ko'ra, dunyoda faqat qisman reduplikatsiya hodisasi mavjud bo'lgan til yo'q, ammo faqat to'liq reduplikatsiya mavjud bo'lgan tillar bor. Shu bilan birga, ham to'liq, ham qisman reduplikatsiyasi mavjud bo'lgan tillar va na to'liq, na qisman reduplikatsiya mavjud bo'lgan tillar mavjud [E.Moravchik. 1978, 315.328].

TR va QR o'zaro bog'liq hodisalar degan fikrni Sh.Inkelas va Ch.Zollar ham ta'kidlaydilar. Ularning yondashuvi reduplikatsiya tadqiqoti yo'nalishiga yangicha yondashuv, yangicha nuqtayi nazar bera oldi. Mualliflarning keltirgan eng muhim nutqayi nazari shuki, unga ko'ra, reduplikativ konstruksiyalarining har qanday turi TRdan kelib chiqadi, ya'ni, reduplikatsiyaning istalgan nazariyasining zamirida TR yotadi [Sh.Inkeles va Ch.Zoll. 2005, 6–180].

Ammo, shuni ham ta'kidlash joizki, TR QRga qaraganda kamroq tadqiq etilgan, ba'zi reduplikatsiyaga oid tadqiqotlarda TR tadqiqot materiali sifatida kiritilmagan. Misol uchun, A.Spenser ham asosning ayrim qismlari ba'zan o'ng tomonda, ba'zan chap tomonda, ba'zan esa asosning ichida takrorlanishini aytadi. Olimning bergan ta'rifi ham TR, ham QRni qamrab olsada, asarida TRga oid misollar keltirilmagan [A.Spenser. 1991].

Ingliz tilida uchraydigan, biz muhokama qilib kelayotgan reduplikativlar deb ataluvchi birliklarga o'zbek tilida juft va takror so'zlar deb ataluvchi birliklar mos kelishiga guvoh bo'ldik. Ammo, bu moslikni biz to'liq deb atash fikridan yiroqmiz.

O'zbek tili tilshunosligiga oid adabiyotlarda takroriy so'zlar keng ma'noda juft so'zlar qatoriga kiritiladi. Bunga sabab juft so'zlar ham, takroriy so'zlar ham ikki komponentdan tashkil topganligi va ular yoki tenglashish yoki takrorlanish asosida juft birikmalar hosil qilayotganligidadir. Qisqacha qilib o'zbek tilidagi takror yoki takroriy so'zlar deb ataluvchi birliklar ingliz tilidagi TR deb hisoblanuvchi birliklarga o'xshash birliklar hisoblanishi aniqlandi.

TR tarkibiga kiruvchi birliklar bir-biridan o'zaro tabiatiga ko'ra farqlanadi. TRda reduplikativ birliklarni replikaturni xususiyatiga ko'ra bir qancha ko'rinishlari farqlanadi.

1. Replikatum mustaqil ma'no anglatuvchi so'z bo'lmaydi. Go'daklar nutqidagi reduplikatsiya bu ota-ona yoki kattalarning go'daklar va bolalar bilan muloqot qilish uchun nostandart tarzda ishlatadigan ma'lum birliklarning o'ziga xos shaklidir. Misol uchun, ingliz tilida *wa-wa, poo-poo, boo-boo*; o'zbek tilida *bobo, dada, tata* va h.k.

2. Replikatum mustaqil ma'noga ega bo'lgan so'z bo'lishi mumkin. Ya'ni, alohida olinganda, asos biror leksik ma'noni ifodalaydigan so'z bo'ladi. Misol uchun, *bling-bling* – yorqin, ko'zga tashlanadigan zargarlik buyumlari; *buddy-buddy, bye-bye, fifty-fifty, go-go, kissy-kissy* va h.k. [7,8,9,10,12,13].

O'zbek tilida ham reduplikatlardagi kabi takroriy so'zlarda har ikkala takrorlanuvchi bo'lak mustaqil ma'no anglatuvchi so'zdan hosil qilinishi, yoki aksincha, alohida ajratilganda hech qanday mustaqil ma'no anglatmaydigan so'z bo'lishi mumkin. Masalan, *ahyon-ahyon, goh-goh, ba'zan-ba'zan, ajab-ajab, alohida-alohida, bo'lak-bo'lak, alvon-alvon* va h.k.

3. Replikatum tabiatdagi biror bir tovushga taqlid qilish natijasida hosil qilingan so'z bo'lishi mumkin. Aslida, reduplikativ birliklarning salmoqli qismini onomatopoyek reduplikatlar tashkil qiladi. Ular fonosimvolik shakllar bo'lib, tilda mavjud konkret so'zlarga asoslanmagan bo'ladi.

Tovushga taqlid so'zlar tarkiban bir nechta guruhlariga ajratilgan: insonlar tomonidan hosil qilinadigan tovushlar (*glut-glut, ha-ha, hah-hah, ho-ho, pech-pech, tut-tut, baa-baa, gobble-gobble, hoo-hoo, meow-meow, oink-oink, quack-quack, quark-quark, quit-quit*); tabiat hodisalari tovushiga taqlid (*hish-hish, woo-woo*); jonsiz predmetlardan chiqadigan tovushlarga taqlid (*choo-choo, chuff-chuff, clang-clang, click-click, clop-clop*) va h.k. [7,8,9,10,12,13].

O'zbek tilida taqlid so'zlar jonli-jonsiz narsalarning harakati va holatiga taqlidni ifodalaydi. Shunga ko'ra, ular tovushga va holatga taqlidni bildiruvchi so'zlarga ajratilgan. Taqlid so'zlar yolg'iz va takror holatda kelishi mumkin. Biz ularning ichidan takrorlanib, reduplikativ holda kelgan birliklariga misollar keltiramiz.

Tovushga taqlid tarkiban bir nechta guruhlariga ajratilgan: kishilarning harakat-holati va xususiyatiga taqlid orqali paydo bo'lgan tovushlarga taqlid (*ar-ar, bidir-bidir, bay-bay, beh-beh, seltang-seltang, sim-sim*); hayvonlar va hasharotlar tovushiga taqlidni bildiruvchi reduplikatlar (*ku-ku, miyov-miyov, qaq-qaq, vaq-vaq, viz-viz, vov-vov, xir-xir, xur-xur*); tabiat hodisalari va tabiiy ofatlarning tovushiga taqlidni bildiruvchi reduplikatlar (*duv-duv, gumbur-gumbur, guppa-guppa, guv-guv*); jonsiz predmetlarning harakati va holati tovushiga taqlidni bildiruvchi so'zlar (*big'-big', bij-bij, bijir-bijir, bilch-bilch, bilq-bilq, biq-biq*).

Taqlid so'zlar ba'zan nutqda yangi lug'aviy ma'no qabul qilib, yangi so'z hosil qiladi. Taqlid so'zlardan hosil bo'lgan reduplikatlarga misollar keltiramiz: *paqpaq, tirtir* – bolalarning o'yinchoq to'pponcha yoki miltiq bilan o'ynaydigan o'yini, asosan, o'g'il bolalar tomonidan o'ynaladi va h.k. [11].

4. Replikatum biror tilda mavjud so'zning qisqargan ko'rinishi bo'lishi mumkin. Bunga misol qilib *barbar* – qo'pol, yovvoyi, madaniyatsiz odam (fransuzcha “barbare”, lotincha “barbarous”, grekcha “berber” so'zlaridan olingan); *cancan* – XIX asrda Fransiyada ijro etilgan tezkor raqs (fransuzcha “caquehan” so'zidan olingan deb tahmin qilinadi); *craw-craw* – qo'tir kasalligining xavfli turi (gollandcha “kraauw” qichimoq, tirnamoq so'zidan hosil qilingan); *dum-dum* – ahmoq odam (“dumb” so'zidan hosil qilingan); *gale-gale* – ko'p gapiradigan sherik, hamroh; ballada, sher (XII yoki XIII asrga tegishli bo'lgan ingliz adabiyoti sheriyati namunasi bo'lgan “The Owl and the Nightingale” (Boyqush va Bulbul) poemasidan olingan) va h.k. [7,8,9,10,12,13].

O'zbek tilida, masalan, *mish-mish* (“emish” to'liqsiz felidagi *-mish* affiksi takroridan), *girgir* – (“ilgir” so'zining ikkinchi bog'ini takroridan hosil qilingan) va *chimchim* takror so'zlarini (koreyscha “kimchi” salati nomini notog'ri talaffuz qilinishidan hosil bo'lgan) keltirishimiz mumkin [11].

5. Replikatum va replikan o'rtasida kichik farq bo'ladi, bunda replikaturni qo'shimcha bir yoki ikki bo'g'inga ortadi. Misollarni ko'rib chiqamiz, *blankety-blank, bumpety-bump, clampetty-clamp, clankety-clank, clinkety-clink, clikety-click, cloppety-clop* va h.k. [7,8,9,10,12,13].

O'zbek tilida ham ikki element o'rtasida bo'g'lovchi bo'g'inlar ortishini kuzatamiz. Bunda, asosan, *ara, -a, -(h)o* elementlari orttirilib, bu ko'p hollarda taqlid so'zlar bilan sodir bo'ladi. Bunda orttirilgan bo'g'in ma'noni kuchaytirib, davomiylikka urg'u berib keladi. Masalan, *chopa-chop, chopha-chop, gurso-gurs, hayo-hay, shaqara-shaq* va h.k.

Yana bir holatda replikatim va replikan o'rtasida infiks keladi. Misol uchun, *tick-a-tick, pink-a-pink* va h.kz.

Reduplikativlikni fonomorfologik shakllardan tashqari sintaktik birikmalarda ham ko'plab uchratish mumkin. Ular ingliz tiliga xos bo'lib, sintaktik birikuv analitik tarzda amalga oshirilib, alohida konstruksiyalarni hosil qiladi. Masalan: *back-to-back, blow-by-blow, heart-to-heart, word-for-word* va h.kz. Ammo, bunday sintaktik birikmalarni juda kam sonli olimlar reduplikatlar sifatida tadqiqotlarida qayd etganlar [M.Diyenhart. 1999.18].

Sintaktik reduplikativ konstruksiyalarni o'zbek tilida ham uchratish mumkin. Ammo, o'zbek tilida ushbu reduplikativ konstruksiyalarda takrorlanuvchi birliklar bir-biri bilan sintetik munosabatga kirishadi. Misollarni ko'rib chiqamiz, *rangba-rang, damba-dam, uyma-uy, ketma-ket, basma-bas* va h.k. [11].

6. Replikatum hech qanday mustaqil ma'no ifodalovchi so'z bo'lmaydi yoki uning etimologiyasi noma'lum yoki kelib chiqishi boshqa tillarga borib taqalغان bo'ladi. Masalan, *aye-aye, beri-be-ri, blah-blah, bonbon, cha-cha, chop-chop, chow-chow, couscous* va h.k. [7,8,9,10,12,13]. O'zbek tilida esa *agar-agar, alas-alas, elas-elas, ilas-ilas, kazo-kazo, o'qtin-o'qtin, zam-zam, taktak* va h.k. [11].

Shunday qilib, TR ikkala tilda ham tilda tarqalishi va mahsuldorligiga ko'ra, QRdan farq qiladi. Ammo qiyoslanayotgan tillarda TR va uning deyarli barcha shakliy ko'rinishlariga oid misollar topish mumkin ekanligi ahamiyatlidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barbaresi Merlini Lavinia. Extra-grammatical morphology. English reduplicatives. Words in Action: Diachronic and Synchronic Approaches to English Discourse. Genova, ECIG, 2008, p. 228 – 241.

2. Dienhart J.M. Stress in Reduplicative Compounds: Mish-Mash or Hocus- Pocus? American Speech, Vol. 74, 1999, p. 13 – 38.

3. Inkelas Sharon & Zoll Cheryl. Reduplication: doubling in morphology. Cambridge, Cambridge University Press, 2005, p. 254.

4. Mattiello Elisa. Extragrammatical morphology in English: abbreviations, blends, reduplicatives and related phenomena. Berlin, Walter de Gruyter. 2013, p. 340.

5. Moravcsik Edith. Reduplicative constructions. Universals of Human Language, Vol. 3, 1978, p. 297–334.

6. Spencer Andrew. Morphological theory. An introduction to word structure in generative grammar. Oxford: Blackwell, 1991, p. 512.

7. Ayto John. The Oxford Dictionary of Slang (Oxford Paperback Reference). John Ayto, Oxford University Press, 2000.

8. Longman Dictionary of Contemporary English [elektron manbaa]. 2021, URL: <http://www.global. Longmandictionaries.com>.

9. Oxford Learner's Dictionary [elektron manbaa]. 2021, URL: <http://www.oxfordlearnersdictionaries.com>

10. The Free Dictionary by Farlex [elektron manbaa]. 2021, URL: <http://www.thefreedictionary.com>

11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати [elektron manba]. 2021, URL: <http://www.ziyouz.com>

12. <http://www.english-corpora.org>.

13. <http://www.oxforddictionaries.com>.

#### Kenjayev Avaz Latipovich (filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, SamDChTI) SHE'RIY MATN LINGVOPOETIK TAHLILI XUSUSIDA

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada she'riy matnda shoir tomonidan qo'llanadigan badiiy til vositalari, ritmik-fonetik, leksik-frazeologik, grammatik hamda sintaktik qurilmalar va ularning lingvopoetik tahlili to'g'risida so'z yuritiladi.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются ритмико-фонетические, лексико-фразеологические, грамматические и синтаксические структуры, а также художественные языковые средства используемые поэтом в стихотворении и их лингвопоэтический анализ.

**Annotation.** This article considers rhythmic-phonetic, lexical-phraseological, grammatical and syntactic structures, as well as literal linguistic means used by the poet in the poem and their linguapoetic analysis.



**Kalit soʻzlar:** sheʻriy matn, ritm, qofiya, band, badiiy til vositalari, kumush asr, shoir, rus adabiyoti, lingvopoetik tahlil.

**Ключевые слова:** стихотворный текст, ритм, рифма, строфа, художественные языковые средства, серебряный век, поэт, русская литература, лингвопоэтический анализ.

**Key words:** poetry, rhythm, rhyme, stanza, literal linguistic means, Silver Age, poet, Russian literature, linguapoetic analysis.

Sheʻriy asarda ritm, qofiya, band, turoq, ohang, badiiy til vositalari va boshqalar sheʻriy nutqning odatdagi, kundalik gap emas, balki shartli soʻz ekanligini taʻkidlab, unga poetik ruh baxsh etadilar.

Shuni qatʻiy yodda tutmoq lozimki, poetik, yaʻni, sheʻriy nutq, badiiy ijod sohasidagi barcha boshqa turkumlar kabi, tarixiy turkum (категория) hisoblanadi. Adabiyotning milliy rivojlanish davriga qadar poetik nutq nutqiy faoliyatning boshqa shakllaridan keskin farq qiluvchi, oʻziga xos sifat va belgilarga (ritmik-fonetik, leksik-frazeologik, grammatik hamda sintaktik) ega boʻlgan nutqning alohida bir turi sifatida qaralardi. Nazmiy ijodkorlik, yaʻni, sheʻriy nutq kategoriyasi tarixiy nuqtayi nazardan olib qaralganda, nisbatan kam tadqiq etilgan hodisalar sirasiga kiradi.<sup>1</sup>

Odatda, sheʻr tahlili deyilganda oʻquvchi, kitobxon yuzida umidsizlik nishonalarini kuzatish mumkin. Sheʻriy matn bilan ishlash koʻpchilik oʻquvchi uchun nafaqat qiyin, balki uddalab boʻlmaydigandek boʻlib tuyuladi. Ammo, asarni tahlilga tortish oldidan oʻquvchi oʻzidagi qoʻrquvni yengib tizimli hamda muntazam ish tartibini yoʻlga qoʻyishi zarur boʻladi. Tadqiqotchi, shu tariqa, barcha tushunmovchiliklarni bartaraf eta olsagina, mazkur sheʻriy asar oʻzining barcha jozibasini ochib, goʻzallikni his etishga imkon tugʻdiradi va natijada qoʻrquv qiziquvchanlik, bilishga boʻlgan ishtiyoq hissi bilan almashinadi.

Sheʻrni tahlil qilish qiyin ish. Lekin haqiqiy sheʻr tahlil qilinishi kerak. Shunda u badiiy faktdan adabiyotshunoslik faktiga aylanadi va kitobxon ongida tugal qiyofaga ega boʻladi. Sheʻrni tahlil qilish, uning mazmunini soʻzlab berish emas, bunday qilib boʻlmaydi ham, chunki sheʻr ayni soʻzlarning ayni shunday joylashuvida sheʻrdir, shu holat buzilar ekan, sheʻrning poetik mazmuniga putur yetishi tayin. Nasriy asar mazmunini soʻzlab berish bilan tahlilga oʻxshash biror narsaga erishish mumkin-u, bu ham bari bir chinakam tahlil boʻlmaydi. Sheʻr mazmunini soʻzlab berish esa uning oʻzini qaytadan oʻqishga teng, chunki asl sheʻrdagi soʻzlarning joylashuv tartibini poetik maʼnoga zarar yetkazmasdan oʻzgartirish qiyin.<sup>2</sup>

Sheʻriy matn xususiyati shundan iboratki, birinchidan, boshqa adabiy turlardan farqli ravishda u sujetga ega emas, ikkinchidan, har bir misrada yashirin maʼno mujassam boʻlishi mumkin. Asar mazmunining tubigacha yetib borish uchun sheʻrni sokinlik hamda diqqat bilan oʻqish lozim.

Odatda, sheʻriy matn tahlil etishda misralarda mavjud boʻlgan har bir soʻzdan fikr, tafakkur hamda tuygʻu, idrok tomon, oʻsha soʻzlarning misralardagi grammatik shaklidan esa mazmun va maʼno tomon tamoyiliga asoslangan tizimli tahlil uslubidan foydalaniladi. Bundan shuni anglash mumkinki, sheʻrni, dastlab, lingvistik tahlildan boshlamoq lozim va shundan keyingina adabiy-badiiy tahlilga oʻtish oʻrinli boʻladi. Shu tariqa, lingvopoetik tahlil yuzaga keladi. Aynan lingvopoetik tahlil yordamida chinakamiga sheʻriy matnning, poeziyaning ruhiyatiga kirib boriladi va uning maʼnolar qatlami teran his etiladi.

Quyida sheʻriy matn lingvopoetik tahlil etishning umumiy rejasini keltirib oʻtamiz. Albatta, ushbu reja sheʻriy asarning xususiyatidan kelib chiqib, toʻlaligicha yoki qisman amalda qoʻllaniladi:

1. Sheʻrni diqqat bilan ifodali tarzda oʻqish.
2. Sheʻrning sintaktik qurilishini tahlil etish.
  - a) u nechta gapdan iborat.
  - b) bandlararo kichik mavzular va ularning oʻzaro muvofiqligi.
  - d) misralarning sintaktik xususiyatlari (gaplarda inversiyaning mavjudligi, oddiy yoki qoʻshma gap, bogʻlovchili yoki bogʻlovchisiz va h.k.).
3. Sheʻr misralar hamda bandlarga boʻlinganda, uning sintaktik qurilishining oʻzaro bogʻlanish darajasi (Bu, oʻz navbatida, sheʻrning mazmunini idrok etishga yordam beradi).
4. Matnda qoʻllanilgan tinish belgilarining qanday vazifani bajarayotganligiga eʼtibor qaratish.
5. Takroriy qurilmalarga eʼtibor qaratish.
6. Mazkur takrorlar ohang, ritm yoki oʻquvchiga emotsional taʼsir uchun xizmat qilayaptimi?
7. Sheʻrda maʼno va mazmun, emotsional vazn yaratayotgan qofiyadosh soʻzlarni tahlil etish:

<sup>1</sup> В.В.Виноградов. Стилистика, теория поэтической речи, поэтика. Из-во АН СССР, М., 1963, 162 с.

<sup>2</sup> Suvon Meli. Soʻz-u soʻz. "Adabiyot falsafasi"ga chizgilar..., Toshkent, "Sharq", 2017, 230-bet.

a) ularning o‘zaro munosabati (taqqoslash, qarama-qarshi ma‘noli, his-tuyg‘uni kuchaytirish va h.k.).

b) leksik qatlamning qaysi turiga mansub:

– yasalishiga ko‘ra (arxaizm yoki tarixiy so‘z, neologizm, o‘zlashgan so‘zlar va h.k.);

– qo‘llanishiga ko‘ra (umumqo‘llanma so‘zlar, shevaga xos so‘zlar);

d) bu so‘zlarning matndagi hissiy, ma‘noni kuchaytirish va mantiqiy ahamiyati;

e) matndagi mavjud eskirgan so‘zlar yoki neologizmlar, boshqa tildan kirib kelgan so‘zlarni topish. Ularning shu misralarda anglatayotgan ma‘nosini aniqlash. Bunda sinonimlardan, morfemik va so‘z yasalishiga oid tahlillardan foydalanish;

f) ko‘chma ma‘noda qo‘llangan so‘zlarni topish: ulardan qaysilari metaforik obrazlar yaratish uchun ishlatilgan;

g) takroriy hamda emotsional bo‘yoqdor so‘zlar o‘quvchiga qanday ta‘sir ko‘rsatishi;

h) takroriy so‘zlarning qaysi so‘z turkumiga oid ekanligini aniqlash. Mazkur she‘rda qaysi so‘z turkumiga oid so‘zlar ko‘proq ishlatilgan;

i) matndagi sinonim, antonim, omonimlarni topish va ularning vazifasini tushuntirish;

8. She‘rning muqaddimasi va xotimasini taqqoslash: leksik-grammatik va mazmunan bog‘liqligini aniqlash.

9. She‘rni emotsional mazmun jihatidan sharhlash va umumiy mazmunini bayon etish.

Namuna sifatida rus she‘riyatining Kumush asri vakili Aleksandr Aleksandrovich Blokning “Осенняя воля” she‘rining qisman lingvopoetik tahlilini keltirib o‘tamiz:

*Выхожу я в путь, открытый взорам,  
Ветер гнет упругие кусты,  
Битый камень лег по косягорам,  
Желтой глины скудные пласты.*

*Нет, иду я в путь никем не званный,  
И земля да будет мне легка!  
Буду слушать голос Руси пьяной,  
Отдыхать под крышей кабака.*

*Разгулялась осень в мокрых долах,  
Обнажила кладбища земли,  
Но густых рябин в проезжих селах  
Красный цвет зареет издали.*

*Запою ли про свою удачу,  
Как я молодость сгубил в хмелю...  
Над печалью нив твоих заплачу,  
Твой простор навеки полюблю...*

*Вот оно, мое веселье, пляшет  
И звенит, звенит, в кустах пропав!  
И вдали, вдали призывно машет  
Твой узорный, твой цветной рукав.*

*Много нас – свободных, юных, статных  
Умирает, не любя...  
Приюти ты в даях необъятных!  
Как и жить и плакать без тебя!*

*Кто взманил меня на путь знакомый,  
Усмехнулся мне в окно тюрьмы?  
Или – каменным путем влекомый  
Нищий, распеваящий псалмы?*

A.A.Blokning “Осенняя воля” she‘ri bevosita Rossiyadagi revolyutsion harakatlar bilan bog‘liq. Aynan shu davrda shoir vatanparvarlik mavzusida qalam tebratgan. Rossiyada 1905-yillarda revolyutsion harakatning ilk pallalarida shoir inqilobchilarni qizg‘in qo‘llab quvvatlaydi. U inqilobni sharaflab rus xalqi faqat mana shu yo‘l bilangina o‘zi uzoq kutgan ozodlikka erishadi deb hisoblaydi. Aynan shunday kayfiyatga quyidagi misralar hamohang jaranglaydi: “*Нет, иду я в путь никем не званный, //И земля да будет мне легка! //Буду слушать голос Руси пьяной, //Отдыхать под крышей кабака*”.

A.A.Blok o‘zining yaqin do‘sti publitsist, bolalar yozuvchisi Yevgeniy Pavlovich Ivanovga 1905-yilda yozgan maktubida shunday deydi: “Men barcha gaplarni senga yoza olmayman, ammo senga ayta olmayotgan narsalarim ravshan: hammasi amalda bo‘lishini istayman, men shuni sezayapmanki yana portlash sodir bo‘ladi, xalqning sabr kosasi to‘lgan, hayot endi kutib turmaydi (bundan buyog‘iga u kutib tu-ra olmaydi, alanganing o‘zi o‘t oladi), qahrliroq bo‘lishni istayman. Eski tuzum tezda qulaydi...”<sup>1</sup>

Dastlab, she‘rning nomlanishiga e‘tibor qarataylik—“Осенняя воля”. Sarlavha har qanday matnning asosi, yadroviy g‘oyasi hisoblanadi. Shoir bejiz *воля* hamda *осенний* so‘zlarini sarlavhaga qo‘ymadi.

<sup>1</sup> Александр Блок. М., «Молодая гвардия», 1969, 81 с.

O‘z o‘zidan ko‘rinib turibdiki, mazkur so‘z birikmasi qiziqarli hamda shu bilan birga g‘alatiroq yangraydi.

Воля so‘zi rus tilining milliy leksikasi hisoblanadi. Ushbu so‘z ma‘nosini svoboda so‘zining ma‘nosi bilan taqqoslaylik. S.I.Ojegovning “Толковый словарь русского языка” lug‘atida svoboda so‘zining quyidagicha izohini ko‘rishimiz mumkin: *свобода – (3.) отсутствие каких-либо ограничений, стеснений в чём-нибудь.*<sup>1</sup>

Воля, ya‘ni, o‘zbek tiliga tarjima qilinganda erk, erkinlik inson ongu tafakkurida erksizlik, tutqun bo‘lish kabi tushunchalarga qarama-qarshi bo‘lgan tushunchadir. Erkinlik konsepti hamisha sarhad bilmas kengliklarga mengzanadi.

She‘rning matniga yuzlanib yuqoridagi fikrimizga dalillarni ko‘ramiz. Matndagi воля – erkinlik tushunchasi bilan quyidagi so‘zlar o‘rtasida bog‘liqlik borligini ko‘rish mumkin: *выхожу, путь, открытый, ветер, разгулялась, веселье, пляшет, звенит, вдали, окно тюрьмы, влекомый, пьяный, хмель, простор, свободный, дали, необъятные.*

Воля so‘zi bilan осенняя eipeteti so‘z birikmasi sifatida noodatiroq jaranglaydi. A.Blok uchun ushbu so‘zning qo‘llanilishi aslini olganda, g‘oyat muhim edi. Avvalo, sifat so‘z turkumiga oid bo‘lgan osenniy so‘zi semantik va grammatik jihatdan осень so‘zi bilan chambarchas bog‘liq. Uning asl ma‘nosi matndagi *ветер, жёлтый, осень, мокрый, обнажила, красная рябина, цветной* kabi so‘zlar bilan uyg‘unlashib ketadi.

Осень – kuz so‘zi shunchaki yil faslini anglatmaydi, balki inson umrining qarilik davrini, uniing hayoti oxirlashib borayotganligini bildiruvchi ramziy ma‘nolarga ham ega. S.I.Ojegovning “Толковый словарь русского языка” lug‘atida осень so‘zining ramziy ma‘nolariga ham izoh berib o‘tadi: “относящийся к старости, к концу жизни”. Mazkur sezimlarni<sup>2</sup> she‘rdagi *путь (жизненный путь), скудный, кладбище, земля, молодость (противопоставление старости), умирает* kabi so‘zlar yanada yorqinlashtiradi.

Lirik qahramon tabiat bilan abadiy birlashib uning bag‘riga singib ketishni istaydi:

*Над печалью нив твоих заплачу,*

*Твой простор навеки полюблю...*

*Много нас – свободных, юных, статных –*

*Умирает, не любя...*

*Приюти ты в даях необъятных!*

*Как и жить и плакать без тебя!*

Lirik qahramon avvalo tabiatga nigoh tashlaydi, uni kuzatadi va tasvirlaydi va o‘z hissiyotlariga, orzu istaklariga yuzlanadi:

*“Запою ли про свою удачу, // Как я молодость сгубил в хмелю....”*

She‘rda vatan tasviri *битый камень, упругие кусты, густые рябины в проезжих селах, кабак, нищий, распеваящий псалмы* kabi ko‘plab real detallar bilan boyitilgan. O‘sha davrlardagi rus xalqi haqiqiy hayot tarzining o‘ziga xos xususiyatlari o‘quvchi ko‘z oldida gavdalanadi: *бедность, кабак, тюрьма, песни, пьянство.*

She‘rni o‘qir ekanmiz lirik qahramon tutqunlikdan xalos bo‘lganligini his etish mumkin (“*окно тюрьмы*”). Ehtimol, bu shunchaki qalb erkinligining ramzi bo‘lgan badiiy to‘qima obrazdir. Uning uchun keng ozod va erkin yo‘l ochilgan. Bir qarashda, g‘amgin kuz manzarasi yaxshiliklardan darak bermaydi: *битый камень, глины скудные пласты, обнажила кладбища земли.* Ammo, lirik qahramon, shubhasiz, yaqin kunlarda inqilob yuz berishiga ishora qiluvchi qizil rangga o‘quvchi e‘tiborini tortadi: *Но густых рябин в проезжих селах // Красный цвет зареет издали.* Aynan shu holat unga umid baxsh etadi va ishonch bilan o‘zining mashaqqatli yo‘lida davom etishga chorlaydi.

Mazkur she‘rda A.Blok takroriy so‘zlardan, xitob, undovlardan, ritorik savollardan hamda inversiyalardan keng foydalanadi: *Желтой глины скудные пласты // Разгулялась осень в мокрых долах // Но густых рябин в проезжих селах // Красный цвет зареет издали // Вот оно, мое веселье, пляшет // И звенит, звенит, в кустах пропав! // И вдали, вдали призывно машет // Твой узорный, твой цветной рукав // Кто взманил меня на путь знакомый...*

<sup>1</sup> Ожегов С.И. Словарь русского языка (около 57000 слов). Под ред. Н.Ю.Шведовой. Москва, “Русский язык”, 1987, 749 с.

<sup>2</sup> Қ.Йўлдош, М.Йўлдош. Бадий тахлил асослари. Тошкент, «Kamalak», 2016, 85-bet.

Asarning badiiy to'qimasida yuzlarcha maqollar, maxsus ifodalar, turli gaplar, qochirmalar, so'z o'yinlari yarqiraydi. Mana bular tilni qonli, jonli, obrazli bir til qiladi. Badiiy asar tilini qonli, jonli, obrazli qiladigan vositalar badiiy til vositalari deb ataladi.<sup>1</sup>

*Упругие, скудные, битый, знакомый, каменным, необъятных* kabi oddiy va lo'nda qilib berilgan sifatlashlar (эпитет) hamda *разгулялась осень, голос Руси пьяной, твой простор, приюти ты, плакать без тебя* singari jonlantirishlar (олицетворение), *кладбища земли, цветной рукав, окно тюрьмы, земля легка* she'rga o'zgacha ohang baxsh etib, uni yanada ifodalibroq qilib, lirik qahramon ruhiyatini kitobxonga ifodali tarzda yetkazishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkin, she'riy matnning lingvopoetik tahlili tadqiqotchidan tilshunoslik, adabiyotshunoslik ilmi bo'yicha chuqur bilim va malakani talab etadi. Badiiy matnning lingvopoetik tahlili ham bu asliyatdan qolishmaydigan ijodiy jarayondir. Shuning uchun ham har bir she'rning tahliliga jiddiy yondashmoq kerak. Barcha she'riy asarga mos keladigan tahlil uslubi mavjud emas. She'riy matnni tahlil qilishning samarali usullarini ishlab chiqish nafaqat she'riyat tadqiqotchilarining, balki filologlarning oldida turgan dolzarb vazifalaridan biridir.

**Bobonazarova Diyora (Qarshi DU)**

## **INGLIZ TILI DISKURSIDA LINGVISTIK DEVIATSIYALARNING O'RNI**

**Annotatsiya.** *Hozirgi zamonda ingliz tiliga beriladigan e'tibor nihoyatda katta. Ingliz tili mutaxassislariga ayonki, mazkur tilda bitta so'z bir nechta lug'aviy ma'noni anglatib keladi. Muloqotda ushbu so'zlarning semantik ma'nolari kontekstda o'z ifodasini topadi. Maqolada bu kabi holatlar misollar asosida yoritilgan.*

**Аннотация.** *В современном обществе уделяется особое внимание изучению английского языка. Специалистам известно, что одно слово имеет несколько семантических значений в английском языке. Семантическое значение находит своё выражение в контексте. В статье на конкретных примерах рассмотрены случаи употребления многозначных слов в тексте.*

**Annotation.** *The modern society pays a great attention to the study of foreign languages, in particular, English language. The specialists of the field know that one word in English contains several semantic meanings. The semantic meaning approves itself in context. The present article deals with this issue, illustrating some examples on the matter.*

**Kalit so'zlar:** *diskurs, deviatziya, lingvistik deviatziya, agent, kognitivizm, deformatsiya, semiologik sistema.*

**Ключевые слова:** *дискурс, девиация, лингвистическая девиация, агент, когнитивизм, деформация, семиологическая система.*

**Key words:** *discourse, deviation, linguistic deviation, agent, cognitivism, deformation, semiologic system.*

Tilshunoslik olami o'zining rang-barang birliklariga, lingvistik birikmalari-yu, iboralariga boy. Ushbu tushunchalar orasida "lingvistik deviatziya" deb atalmish tushuncha ham mavjud. Lingvistik deviatziyalarning tuzilishi, ko'rinishi va spetsifikasi haqida gapirishdan avval, bu so'zning o'zi nima ma'no anglatishini bildirib o'tish muhim. Deviatziya so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, "anomal holat, deformatsiya, nomutanosiblik" ma'nolarini anglatib keladi. Tayinki, bu holatda savol tug'ilishi mumkin – tilshunoslikda anomal holatning sodir bo'lishi yoki nomutanosib vaziyatlarning borligi qanaqa qilib tushuniladi? Tilshunoslik borasida leksikologik jihatdan so'zlarning matnda ishlatilishi va ularning kontekstual jihatdan ma'lum ma'no kasb etishi, lingvistika borasida talqin qilinishi, grammatik tamoyilarga to'laqonligicha mos tushishi – bularning barchasi nihoyatda muhim aspekt hisoblanadi.

Ammo bir narsani unutmaslik kerakki, xorijiy tillarni o'rganuvchi tilshunoslarga yaxshi ma'lum bo'lgan holatlardan biri – bu, xususan, ingliz tilida mavjud bo'lgan so'zlarning muloqot hamda kontekstda qo'llanilishi yuzasidan gapiradigan bo'lsak, ingliz tilida bitta so'z bir nechta ma'noni anglatib kelishi mumkin. Matnda ishlatilgan so'zning qaysi ma'no kasb etishi esa tilshunoslar tomonidan kontekstual jihatdan tahlil qilinadi.

N.A.Fateyevaning fikricha, lingvistik deviatziyalar metalingvistik holat bo'lib hisoblanadi [1.45]. Adabiy kommunikatsiyaning asosiy murakkab jihati shundaki, bu soha yillar davomida turli xil olimlar

<sup>1</sup> Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. Un-tlar va ped.in-tlarning filol.fak.stud. uchun darslik, 2-nashri, T., "O'qituvchi", 1986, 408-bet.

tomonidan o'rganilib kelmoqda. Ushbu tushunchaning lingvistik jihatdan berilgan ta'rifiga asosan, "Matn umumiy ma'noda informativlikni saqlab qolishi uchun, u doimiy ravishda noadabiy struktural sharoitda avtomatik holatdan chiqarilib turishi zarur" [2.36]. Shu nuqtayi nazardan lingvistik deviatziyalar har bir muallifning individual yondashuvi bo'yicha talqin qilinadi. Yuqorida aytilgan fikrdan kelib chiqib shuni hulosa qilish mumkinki, yagona so'z bir muallif tomonidan bir ma'noda, ikkinchi muallif tomonidan boshqa ma'noni ifodalagan holda ishlatilishi mumkin. Bu fikrimizning isbotini quyida misollar yordamida tushuntirib berishga harakat qilamiz. Struktural jihatdan bu kabi yondashuv nostandart yondashuv hisoblanadi, biroq individual talqin yuzasidan yondashganda, lingvistik deviatziyalarning ma'no ahamiyati individual mualliflikni ifodalab keladi.

Tilshunoslikda lingvistik birliklarga bo'lgan munosabatning kollektiv yondashilgan holatidagi tahlili muloqotda lingvistik birliklarning jamoaviy ko'rinishda ishlatilishi, ya'ni, jamiyatning barcha vakillari tomonidan bir xil ma'noda qo'llanilishini ifodalaydi. Rus olimi V.Z.Demyankovning fikricha, "lingvistik til" tushunchasining ma'nosi semantik agent (foydalanuvchi) tomonidan belgilanadi, umumiy-kollektiv qo'llanilishda esa bu vaziyat o'zgacha holda ishlatilishi mumkin [2.32]. Ammo tilga bo'lgan individual yondashuvda bu vaziyat individual xarakterni kasb etadi.

Jamiyat vakillari bo'lgan insonlar kundalik turmush tarzida bir-birlari bilan doimiy ravishda muloqotda bo'ladilar, zero, til jamiyat individlarining muloqot quroli hisoblanadi.

Lingvistik deviatziyalar haqida to'xtaladigan bo'lsak, ular xabar yetkazishning o'zgacha usuli hisoblanadi. R.Bartning terminologik ta'rifiga yuzlanadigan bo'lsak, deviatziyalar "ikkilamchi semiologik sistema" sifatida faoliyat yuritadi, bunda til muloqot quroli va metalingvistik til haqida fikr yurituvchi tushuncha roliga vazifa o'taydi. Lingvistik deviatziyalar tilshunoslikda, bir tomondan, konstruktiv, ikkinchi tomondan, destruktiv vazifani ham o'tab kelishi mumkin. Bunda, konstruktiv jihatdan bir ma'noda ishlatilgan so'z yangi, o'zga ma'noda ishlatila boshlanishini oladigan bo'lsak, destruktiv deganda esa bir so'zda bir ma'no mavjudligi va shu ma'no o'z ahamiyatini yo'qotishini tushunishimiz mumkin.

Lingvistik deviatziyalarning ilmiy jihatdan tahlili, ularning normalari nuqtayi nazaridan ma'lum savollarni keltirib chiqaradi. Mashhur lingvist olimasi N.D.Artyunovaning fikricha, "norma" termini ham tabiiy jihatdan, ham insoniy prinsiplarning qorishmasi sifatida e'tiborga molik [4.18]. Umumiy lingvistik jihatdan, norma bu ma'lum shkala birligi asosida ma'lum soha yoki predmetga nisbatan beriluvchi baho nazarda tutiladi. Bu borada norma deganda ma'lum stereotiplar asosida baholangan va bildirilgan fikrlar jamlanmasi asosi tashkil etadi. Normadan chetda qolish deganda, ham ijobiy, ham salbiy jihatdan shkala birligi bo'yicha tegishli ko'rsatgichga erisha olmasligi nazarda tutiladi. Rus tilshunosi S.Y.Radionovaning fikricha, norma – bu har taraflama maqbul deb hisoblanmish, har qaysi jamiyat tomonidan ma'qullangan ko'rsatkichlar jamlanmasi tushuniladi.

Daliliy manbalarning tahlili deviatziya terminining individlar tomonidan talqin qilinishining, jamiyatda ushbu terminning interpretatsiyasi, uning har bir individning psixologiyasidagi in'ikosi bu terminning to'rtta asosiy faktori asosida turlarga bo'linishiga sabab bo'ldi: 1. Jamiyatda odatiy hisoblangan axloq normalariga asosan. 2. Ma'lum reja, grafik, etika normalaridan chetda qolishga nisbatan. 3. Umumiy psixologik hamda fiziologik normalardan chetda qolish. 4. Tashqi ta'sirlar natijasida normalardan chetda qolish. Birinchi turning kelib chiqishiga nazar soladigan bo'lsak, ma'lum jamiyat a'zolari tomonidan umumtartibda qabul qilingan normalardan og'ishni tushunadigan bo'lsak, ikkinchi tur bo'yicha, asosan, hech qanday jiddiy semantik ma'no kasb etmasa-da, bu tur ham salbiy semantikaning (umumiy tartibda qabul qilingan normalardan og'ish, barcha tomonidan e'tirof etilgan rejalardan og'ish va hokazo) kelib chiqishiga sababchi bo'lishi mumkin. Uchinchi va to'rtinchi turlarining ma'nosi insoniyatning psixologik hamda fiziologik faktorlari asosida, ularga tashqi muhit ta'sirida o'zgarishlarga sabab bo'lishlari nazarda tutiladi.

Quyida misollar asosida fikr yuritamiz. Original til sohiblari bir-birlari bilan ma'lumot almashinuv jarayonlarida kamdan-kam holatlarda bir-birlarini tushunmay qolishlari mumkin, negaki ularning madaniy jihatdan aloqalari bir, kelib chiqishlari, qarashlari, bir jamiyatga xosliklari, yagona qadriyatlarining mavjudligi, kelib chiqishlarining birligi nuqtayi nazaridan, doimo suhbatdoshlar orasida tushunmovchiliklarning kelib chiqishi kamdan kam sodir bo'ladigan vaziyat hisoblanadi. Ammo til sohiblari bilan muloqotga kirishuvchi, ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganayotgan kishilar tomonidan yetkazib berilayotgan ma'lumotning analizi va sintezi biroz qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda keltirilgan, autentik adabiyotlardan olingan misollardan birini tahlil qilib ko'ramiz: "You do not just wake up and become a butterfly. Growth is a process". Ushbu misolga nazar tashlaydigan bo'lsak, inson mazkur misolda kapalakka qiyoslanayapti. Ushbu misolni to'g'ridan to'g'ri o'zbek tiliga tarjima qiladigan bo'lsak,

quyidagicha tarjima kelib chiqadi: “Sen birdaniga uygʻonib, kapalakka aylanib qolmaysan. Oʻsishning oʻzi ham bir jarayon”. Biologik nuqtayi nazardan qaraydigan boʻlgan odamzod va kapalak turli xil biologik turlarga taalluqli. Mazkur misoldan koʻrinib turibdiki, odamzod bu yerda kapalakka qiyoslanyapti, negaki, kapalakning kapalak darajasigacha yetilishi ham bir qancha bosqichlardan oʻtishni talab qiladi. Kapalak biz uni koʻrishga oʻrgangan koʻrinishiga yetguncha, dastavval, pilla qurti koʻrinishida boʻladi, soʻngra yetilish darajasiga borib qoladi, undan keyin esa ochilib, kapalakka aylanadi. Yuqoridagi misolda asosiy urgʻu rivojlanish bosqichlariga qaratilgan, yaʼni, kognitologik jihatdan tahlil qiladigan boʻlsak, insonning yetuk darajagacha oqillikka yoki boʻlmasa, kamolotga erishishi uchun anchagina vaqt talab etilishi nazarda tutilmoqda.

Bu kabi misollarimiz autentik adabiyotlarda talaygina – “Sometimes you don’t realize you are actually drowning when you are trying to be everyone else’s anchor”, nihoyatda chiroyli tarzda izoh etilgan tsitata. Oʻzbek tiliga soʻzma-soʻz tarjima qiladigan boʻlsak, “Birovlarning langari boʻlaman deb, aslida, choʻkib ketayotganligingni ham payqamay qolasan” tarzidagi tarjima kelib chiqadi. Mazkur misolda keltirilgan maʼnoga kognitologik jihatdan yondashadigan boʻlsak, inson fiziologik jihatdan suvda choʻkish xususiyatiga ega, ammo odamzod hech qanaqasiga langar sifatida tasvirda gavdalana olmaydi. Misolda doimgidek, predmetlar, hayvonlar yoki vaziyatlar insonga qiyoslangani singari, bu misolda ham langar (kemalar uchun tormoz vazifasini bajaruvchi, ogʻir metall predmet, metall zanjir orqali kemaga birlashtiriladi va kema toʻxtashi uchun suvga qarata tushiriladi, ogʻir metall suvga choʻkadi hamda suv ostidagi qumga tiralishi natijasida kema toʻxtaydi) insonga qiyoslanyapti.

Diskursiv tahlil qiladigan boʻlsak, insonlarning muammolarini hal qilish yoʻlida yoki dardiga hamroh boʻlish evaziga tushkun kayfiyatga tushib qolish hech gap emasligiga shaʼma qilinyapti. Shu bois odamzod boshqa inson uchun langar vazifasida qaralganda, birovlarning dardlarini tinglovchi, muammolarga yechim izlovchi individ sifatiga qiyoslanyapti. Langar oʻzining maʼnosi sifatida ogʻir metall, suvga osonlikcha choʻkadigan xossasi borligi uchun inson goʻyoki langar singari ogʻir, yaʼni, boshqalarning muammo-kechinmalaridan ogʻirlashib, tushkunlikka tushib qolishi nazarda tutilgan holda, misolda ‘langar’ soʻzining oʻzi lingvistik devyatsiya sifatida qoʻllanilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, tilshunoslikda soʻzlarning tahlili nihoyatda qiziq masala hisoblanadi. Har bir tahlil alohida ilmiy sohalarning yangilanishiga sabab boʻladi, yangilangan sohalar turli bahsmunozaralarga olib keladi, bahsmunozaralar esa ilmiy yechimga, ilmiy yechimlar ilmiy yangiliklarning yaratilishiga asos boʻladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Л.Филлипс, М.В.Йоргенсен. Дискурс–анализ: теория и метод. Пер. с англ. под ред. А.А.Киселевой. Харьков, изд-во Гуманитарного центра, 2004.
2. Марианне В.Йоргенсен, Луиза Дж.Филлипс. Дискурс–анализ: теория и метод. Пер. с англ. 2-е изд., испр. изд-во Гуманитарный Центр, 2008.
3. Маттисон Д. Медиа-дискурс. Анализ медиа-текстов. Исследования медиа и культуры. 2004.
4. Скрепцова Т.Г. Когнитивная лингвистика, классические теории, новые подходы. 2018.

**Mustayeva Guldora Salohiddinovna (Toshkent davlat Transport universiteti dotsenti;**

**e-mail: [mgulyas00@gmail.com](mailto:mgulyas00@gmail.com));**

**Miraxmedova Zilola Erkinovna (Toshkent davlat Transport universiteti assistenti;**

**e-mail: [zilolamirakhmedova@gmail.com](mailto:zilolamirakhmedova@gmail.com)),**

#### **EVFEMIZATSIYA JARAYONIDA XUSHMUOMALALIKNING OʻRNI, UNING PRAGMATIK JIHATLARI**

***Аннотация.** Ushbu ishda biz nafaqat evfemizmlarni shakllantirishning nazariy jihatlarini, balki ularni amalda qoʻllashni ham aniqlashga harakat qilamiz. Bilvosita tilga haddan tashqari ishonish tushunmovchilik va notoʻgʻri talqinlarga olib kelishi mumkin. Evfemizmlar muloqotga juda singib ketganda, ular maʼnolarni xiralashtirishi va aniq va samarali tushunishga toʻsqinlik qilishi mumkin. Ochiq va shaffof muloqotni taʼminlash uchun xushmuomalalik va ravshanlik oʻrtasida muvozanatni saqlash juda muhimdir.*

***Аннотация.** В данной работе мы попытаемся выявить не только теоретические аспекты образования эвфемизмов, но и их применение на практике. Чрезмерная зависимость от косвенных формулировок может привести к недоразумениям и неверному толкованию. Когда эвфемизмы прочно встраиваются в коммуникацию, они могут размывать значения и препятствовать ясному*

и эффективному пониманию. Очень важно поддерживать баланс между вежливостью и ясностью, чтобы обеспечить открытое и прозрачное общение.

**Annotation.** In this work we will try to identify not only the theoretical aspects of the formation of euphemisms, but also their application in practice. An over-reliance on indirect language can lead to misunderstandings and misinterpretations. When euphemisms become heavily embedded in communication, they can blur meanings and prevent clear and effective understanding. It is very important to maintain a balance between politeness and clarity to ensure open and transparent communication.

**Kalit soʻzlar:** evfemizatsiya, pragmatik, lingvistik birlik, kommunikativ funktsiya, xushmuomalalik, konseptual, subprefiksi, odob-axloq, ijtimoiy uygʻunlik.

**Ключевые слова:** эвфемизация, прагматика, языковое единство, коммуникативная функция, вежливость, концепт, субпрефикс, этикет, социальная гармония.

**Key words:** euphemization, pragmatic, linguistic unity, communicative function, politeness, conceptual, sub-prefix, etiquette, social harmony.

**Kirish.** Evfemizm odamlarning muloqotida muhim rol oʻynaydi, chunki u ijtimoiy uygʻunlikni saqlashga va yuzaga kelishi mumkin boʻlgan nizolardan qochishga yordam beradi. Muayyan vaziyatlarda odamlar nozik mavzularni muhokama qilish uchun muloyim va bilvosita tildan foydalanib, evfemizmga murojaat qilishadi. Evfemizatsiya yanada tajovuzkor yoki aniq ifodani yumshoqroq, yoki kamroq toʻgʻri-dan toʻgʻri alternativ bilan almashtirishni oʻz ichiga oladi. Uning pragmatik jihatlari nafaqat xabarni yetkazishga, balki ijtimoiy va madaniy umidlarni bajarishga ham qaratilgan

Tilning paydo boʻlishi bilan odamlar jamiyatda birgalikda ishlashlari mumkin boʻldi. Lingvistik pragmatika «lingvistik birliklarning kommunikativ funksiyasini maʼruzachi tomonidan nutq faoliyatida uning kommunikativ-semantik vazifasini amalga oshirish va qabul qiluvchining nutq hamda nutqsiz harakatlarini boshqarish uchun ongli ravishda foydalanishi kontekstida» oʻrganiladi [1]. Charlz Morris pragmatikani belgining mohiyatini tushunish uchun asos deb hisoblagan. Uning fikricha, belgi jamiyatda maʼlum bir qoʻllanilishi tufayli shunday boʻladi, shuning uchun semantika va sintaksisni faqat odamlar oʻrtasidagi muloqot vositasi sifatida koʻrib chiqish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, pragmatika maʼruzachi turli xil til birliklaridan foydalanadigan bunday aloqa holatlarini koʻrib chiqadi.

